

## BO'STONUL ORIFIYN

Arab tilidan Beknazar Muhammadshukur va Mas'udxon Mahdixon o'g'li tarjimasini.  
"Movarounnahr", Toshkent

### SO'Z BOSHI

Aziz kitobxon!

Ushbu asar Faqih Abul Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim as-Samarqandiy al-Hanafiy (vafoti 373/980 yoki 396/1003 yil)ning mo'tabar asarlaridan biridir. Muallif (rahmatullohi alayh) bilan "Tanbehul-g'ofiliyn" nomli asar orqali yaxshi tanishsiz.

"Bo'ston ul-orifiyn" esa ma'nani uning davomiga o'xshaydi. Bu ikki asarning qo'lyozmalari ham, nashr etilgan nusxalari (Qohira, Boyrut) ham ko'pincha birga muqovalangan holda uchraydi.

Bundan tashqari Abul Lays Samarqandiy fiqh, tafsir, aqid, kalom va boshqa sohalarda ilmiy asarlar yozib qoldirganlar.

Bu asarlarning ko'pchiligi nashr etilgan ayrimlari esa fors, turk tillariga tarjima qilingan.

"Bo'ston-ul orifiyn"ning qo'lingizdagi tarjimasini Livanning Boyrut shahridagi "Dorul-ma'rifi" nashriyotida qayta tuzatib chop qilingan nusxasidan amalga oshirdik.

Asarni arab tilidan aynan o'g'irgan bo'lsak-da, ba'zi xususiyatlarni uchratishingiz mumkin. Masalan, muallif (rahmatullohi alayh) ba'zi oyati karimalarning bir qismini kiritgan bo'lsalar ham biz tarjimada o'quvchiga tushunarliroq bo'lishi uchun ularni to'liq oldik. "Bo'ston-ul orifiyn"dagi hadisi shariflarning ko'pchiligi sahihligi sababli "Tanbeh-ul g'ofiliyn" tarjimasidagi kabi hadisshunoslik qilmadik. Umuman olganda Dilmurod Qo'shoqovning uslubini saqlab qoldik.

Ushbu asardan ma'rifatingiz ziyoda bo'lsa, avval Alloh taolodan, so'ngra muallif hazratlaridan, xatolarni esa bizdan deb bilib, taklif va mulohazalaringizni etkazasizlar deb umid qilamiz. Ularni muhtaram ustozlarimizning izohlar va ko'rsatkichlar tuzish kabi tavsiyalari qatorida keyingi nashrlarda inobatga olamiz, albatta.

Ushbu nashr amalga oshishiga yaqindan yordam bergan xayrixoh birodarlarimizga, noshiru muharrirlarimizga hamda komputerchi do'stlarimizga minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Alloh taolo barchalarimizni kamoli ma'rifatga etkazib, abadiy Bo'stoni – Firdavs jannatlaridan maskan qilib bersin. Omin.

*Tarjimonlar.*

## **1-bob** **Ilm talab qilish haqida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Bilgilki, har bir muslim va muslimaga din ishlarida muhtoj bo'ladigan tahorat, namoz va shariatning boshqa hukmlari hamda hayotiy ishlarida zarur bo'lgan narsalarni biladigan miqdorda ilm o'rganish farzdir. Bundan oshiqchasi farzi ayn (har bir kishi o'rganishi shart) emas, balki fazilatdir, uni tark qilsa ham, ziyoni yo'q. Xullas, kishi o'zi muhtoj bo'ladigan narsalarning ilmini tahsil qilishi farz. Chunki Alloh taolo:

"Agar bilmaydigan bo'lsanglar, ahli ilmlardan so'ranglar" (Nahl, 43), deydi. Yana boshqa oyatda:

"Ular yana: "Agar tinglab, aql yurgizuvchi bo'lganimizda, do'zax egalari qatorida bo'lmas edik", derlar" (Mulk, 10), deb aytgan. Alloh taolo ularning bilmaganliklari sababli do'zax ahlidan bo'lganini xabar qildi.

Makhul Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilishicha, Nabi (alayhissolatu vassalom): "Ilm talab qilish har bir muslim va muslimaga farz", deganlar. Boshqa bir hadisda: "Ilmni, garchi Chinda bo'lsa ham, talab qilinglar", deyiladi.

Abdulloh ibn Mas'ud (roriyallohu anhu) aytadilar: "Ilm yo'qolishidan oldin uni mahkam tutinglar, ilmning yo'qolishi ilm sohiblarini ketishidir. Ilmni mahkam tutinglar, chunki hech kim qachon unga muhtoj bo'lishini bilmaydi", dedilar. So'ng odamlar keragidan ziyoda ilm olish haqida gaplashishdi. Ba'zilar: "Agar kishi o'zi muhtoj bo'ladigan miqdorda ilm olsa, unga amal qilish bilan mashg'ul bo'lishi va ilm olishni tark qilishi lozim", dedi. Boshqalar esa: "Kishining ortiqcha ilm bilan mashg'ul bo'lishi uning farz amallariga nuqson kirmasa afzaldir", deyishdi. Shu so'z to'g'ri so'z. Avvalgi toifaning hujjati Ja'far ibn Burhon Maymun ibn Mihronan, u esa Abu Dardodan qilgan rivoyatdir. U zot aytganlarki: "Bilmaydigan kishiga bir marta vayl bo'lsin, bilib turib amal qilmaganga yetti marta vayl bo'lsin".

Fuzayl ibn Iyoz aytadilar: "Kim bilgan narsasiga amal qilsa, Alloh unga bilmaydigan narsalarini ham o'rgatib qo'yadi, chunki amal o'zi uchun, ilmining ortiqchasini talab qilish boshqalar uchundir, nafsining ishlari bilan mashg'ul bo'lish muhimroqdir, chunki bu uning bo'ynidagi vazifadir".

Alloh taolo bu haqda boshqa bir oyatda shunday deydi:

"Ayting: "Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi?!" (Zumar, 9). Mufasssirlar bu oyatni "ulamolarning fuqaholari bo'lingiz", deb tafsir qilishadi. Subon Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi: "Ilmning fazli amaldan yaxshiroqdir. Sizlarning diningizning egasi taqvodir".

Hasan Basriy (rahimahulloh): "Bir kishi ilm o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatishi ham amal hisoblanadi", deb aytganlar.

Abdulloh ibn Abbasning (roziyallohu anhu): "Kechasi bir soat ilm o'qish kechasi ibodat qilib chiqishdan ko'ra Allohga suyukliroq", deganlari rivoyat qilingan.

Avf ibn Abdulloh aytadilar: "Bir kishi Abu Zar G'iforiyga kelib: "Men ilm olishni xohlayman, lekin uni zo'e ketkazishdan va unga amal qilmaslikdan qo'rqaman", dedi. Abu Zar G'iforiy: "Boshingga ilmni qo'yishing (bo'yingga olishing) johillikni qo'yishingdan ko'ra yaxshiroqdir", dedilar. So'ng o'sha kishi Abu Dardoning huzurlariga borib, u zotdan ham shu narsani so'radi. Abu Dardo: "Insonlar qabrlaridan o'lgan holatlariga ko'ra tiriltiriladilar, olim olim bo'lib, johil johil bo'lib", dedilar. So'ng Abu Hurayraga borib, u zotdan ham shu haqda so'radi. Abu Hurayra unga: "Ilmni o'rganmaslikning o'zi uni zoe' qilishdir", deb javob berdilar.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu): "Insonlar ikki toifadir: olimi rabboniy va najot topish uchun ilm oladigan tolib. Boshqalar esa, avom xalq bo'lib, har qanday da'vatchiga ergashib, har qanday shamolga egilaveradilar".

Ulamolar dunyo turguncha turadi, garchi o'zlari bo'lmasalar-da, qalblarda siymolari yashayveradi. Chunki amalning foydasi faqat kishining o'ziga, ilmning manfaati esa, o'ziga va boshqalarga. Demak, ilm amaldan afzal ekan, chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Insonlarning eng yaxshisi insonlarga ko'proq manfaati tegadigani", deganlar.

Rivoyat qilishlaricha, bir kishi Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam): "Amallarning qaysi biri afzalroq?" deb so'radi. Rasululloh: "Ilm", dedilar. U kishi ikkinchi, uchinchi bor so'radi. Rasululloh unga avvalgidek javob berdilar. Shunda u kishi: "Ey Rasululloh, sizga salomlar bo'lsin, men amal haqida so'rayapman", dedi. Nabiy (alayhissolatu vassalom): "Alloh amallarni ilmsiz qabul qiladimi?" dedilar.

Yana rivoyat qilinadiki, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Banda sadaqa qiladigan narsaning eng afzali ilm o'rganmog'i so'ng uni o'zidan boshqalarga o'rgatmog'idir", dedilar. Bu haqda hadislar ko'p.

## **2-bob** **Ilmni yozib borish haqida**

Faqih Abu Lays (rahmatullohu alayh) aytadilar: Ba'zi insonlar ilmni kitobat qilishni makruh sanashadi. Ammo ilm ahlining ko'pchiligi muboh deyishgan. Makruh degan kishilarning hujjati Hasan Basriy rivoyat qilgan ushbu hadisdir: "Umar ibn Xattob (roziyallohu taolo anhu): "Ey Rasululloh, yahudiy va nasorolar ba'zi rivoyatlari aytishadi. Ularning ayrimlarini yozib olaylikmi?" deb so'radilar. Shunda Rasululloh u zotga qaradilar, yuzlarida g'azab bilinib turardi, so'ng: "Yahudiy va nasroniylar boshi berk ko'chaga kirib qolganidek, sizlar ham qiyin ahvolga tushmoqchimisizlar? Men sizlarga oppoq pok yo'lni keltirdim. Agar Muso tirik bo'lganida, albatta, menga ergashgan bo'lardi", dedilar.

Ato ibn Yasor Abu Said Xudriydan rivoyat qiladi: U kishi Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) ilmni yozish haqida izn so'raganlarida, Rasululloh izn bermaganlar.

Ibn Muslim aytadi: "Ibn Abbos yozishdan qaytarib: "Sizlardan oldingi qavmlar kitobat sababli adashdilar", deb aytardilar.

Ibn Abu Dovud otasidan rivoyat qiladi: "Abdulloh ibn Mas'udning ashobi u zotning huzuriga kelib: "Sizdan ilm yozib olgan edik, ko'rsataylikmi? Bizga bayon qilib bersangiz", deyishdi. Abdulloh: "Xo'p", dedilar. Keyin kitobni ko'rsatishganida, kitobni oldilar va uni suv bilan yuvib, qaytarib berdilar".

Faqih aytadilar: Ibn Mas'udning (roziyallohu anhu) bunday qilishlariga sabab ular agar kitob yozishsa, yozuvga suyanib qolib, yodlashni tashlab qo'yadilar. Tushunmagan odam kitobga murojaat qiladi. Natijada, ularning ilmi yo'qolib ketadi. Chunki kitobda ortiqcha narsalar hamda kamchilik bo'ladi. Shuningdek, kitobga qo'shish va undan kamaytirish mumkin. Yod olingan narsani o'zgartirish mumkin emas. Chunki yod olgan kishi bilganini gapiradi. Kitobdan o'rgangan kishi yod olmasdan, gumon bilan xabar beradi.

Kitobat - yozish joiz degan kishilarning hujjati Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisdir: "Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) ashobi ichida mendan ko'p hadis bilgani yo'q, magar bo'lsa ham, Abdulloh ibn Amrdir. Chunki u yozib olardi, men esa yozib mas edim".

Ibn Jurayj ibn Ma'rur aytadi: "Abdulloh ibn Umar: "Ey Rasululloh, biz sizdan hadislarini eshitamiz, uni yozib boraylikmi?" deb so'radilar. Rasululloh "Ha", dedilar. Men: "Xursan va g'azablangan paytingizda hammi?" dedim. Rasululloh: "Ha, chunki men ikkala holatda ham faqat haqni gapiraman", dedilar".

Muoviya ibn Hurra: "Kimki ilmni yozmasa, uning ilmni ilm hisoblamayman", deb aytardilar.

Alloh taolo Muso (alayhissalom) xaqida habar berib aytadiki, Musodan (sollallohu alayhi vasallam) avvalgi qabilalar haqida so'rashganida, shunday deb javob berganlar: "(Muso) aytdi:

"Ular haqidagi bilim Parvardigorim huzuridagi kitobda - Lavhul mahfuzdadir. Parvardigorim adashmas va unutmaz" (Toho, 52).

Rabiy' ibn Abu Aniys bobolari Zayd va Ziyodlardan rivoyat qiladi: "Ular ikkalasi Sulaymon ibn Abdulmaliknikiga kechasi kelishdi. U tuni bilan hadis aytdi, ikkalasi yozib borishdi".

Hasan ibn Ali (roziyallohu anhuma): "Sizlardan birortangiz bu ilmni yozishdan ojiz qolmasin. Chunki yozmaslikda zarar bordir. Agar yozmasa, ilm undan ketadi. Agar yozib olsa, esidan chiqqanida, murojaat qiladi", deganlar. Bu gap quyidagi hikoyaga o'xshaydi: Imom Abu Yusuf Imom Muhammadni ilmni yozishda aybladilar. Shunda Imom Muhammad: "Men ilmning ketishidan qo'rqdim, chunki ayollar Abu Yusufni qayta tug'maydilar", dedilar. Darhaqiqat, musulmonlar ilmni kitobat qilishni bir-biridan meros qilib oldi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Alloh huzurida yaxshidir. Musulmonlar yomon deb bilgan narsa Alloh nazdida ham yomondir", deydilar. Yana aytadilarki: "Mening ummatim zalolat ustida jamlanmaydi". Chunki musulmonlar ilmni bir-biridan meros qilib olgani sababli, tutilajak yo'l dalillar bilan tasdiqlanadi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Ashoblarim yorqin yulduzlar kabidir, qay biriga ergashsanglar, hidoyat topasizlar".

Nofi' Ibn Umardan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Bu ilmni har bir boyu kambag'aldan, kattayu kichikdan yozib olinglar, kim ilmni ilm sohibining kambag'alligi yoki yoshi o'zidan kichikligi sababli tark qilsa, joyini do'zaxdan tayyorlab qo'ysin", dedilar".

### **3-bob** **Fatvo haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zi insonlar fatvo berishni makruh sanashdi. Ilm ahlining ommasi, agar fatvo beruvchi fatvo berishga salohiyatli bo'lsa, joiz deyishgan. Avvalgi toifaning hujjati Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadisdir: "Sizlarning do'zaxga jur'atlilaringiz fatvoga jur'atlilaringizdir".

Salmon Forsiydan odamlar fatvo so'rashganida: "Bu sizlarga yaxshi, menga yomon", deganlar.

Abdurahmon ibn Abu Laylo aytadilar: "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) ashobidan yuz yigirmatasini ko'rdim. Ularning muhaddisi ham, muftiyi ham o'zidan ko'ra, birodari hadis aytib, fatvo berishini istardi".

Ibn Siyrin aytadilar: "Huzayfa ibn Yamon: "Uchta kishi insonlarga fatvo beradi. Qur'onning nasx bo'lgan oyatlarini biladigan kishi, yoki chorasiz qolgan amir, yoki fatvo so'ralgan ahmoq", dedilar".

Ibn Siyrindan biron narsa haqida so'ralsa: "Men (bu) avvalgi ikkalasi ham emasman, uchinchi bo'lishni ham yomon ko'raman", deb qo'yar edilar.

Fatvo berishni muboh deganlarning hujjati Abu Hurayra, Zayd ibn Ma'badlar aytgan ushbu hadisdir: Ulfa aytadilarki: "Biz Payg'ambarning (sollallohu alayhi vasallam) huzurlarida edik. Bir kishi turib: "Alloh sizni maqtasin, bizning oramizda Allohning kitobi bilan hukm qiling", dedi. Uning xasmi (adovatchisi) turib – u undan faqihroq edi: "U rost gapirdi, bizning oramizni Alloh taoloning kitobi bilan hukm qiling, menga izn bersangiz, aytaman", dedi. Nabiy unga ruxsat berdilar. U kishi aytdi: "Mening o'g'lim bu kishiga xizmatchi edi. O'g'lim uning ayoli bilan zino qildi. Unga yuzta qo'y va bir xizmatchini fidya berdim. So'ng ilm ahliidan bu haqda so'raganimda, o'g'lim zimmasiga yuz darra va bir yil surgun, uning ayoli zimmasida rajm (toshbo'ron qilinish) borligini aytishdi", dedi"... Bu hadisda fatvo berishning joizligiga dalil bor. Chunki u kishi: "Ilm ahliidan so'radim, ular menga xabar berdilar", deb aytganida Rasululloh inkor qilmadilar. Yana o'ylab ko'r, bu xabarda fatvo berishning joizligiga boshqa bir dalil ham bor. Garchi boshqa bilimlirrog'i bo'lsa ham, ular fatvo berishyapti va Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) zamonlarida fatvo berishyapti! Quyidagi hadis Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu): U kishidan tuyaqushning tuxumini sindirib qo'ygan muhrim (ehromdagi kishi) haqida so'rashganida, har bir tuxumga tuyaning bolasini qurbonlik qilishni buyurdilar. So'ragan kishi Payg'ambarga (sollallohu alayhi vasallam) kelib, buni xabar berganida, Rasululloh unga: "Alidan eshitganing eshitganing. Lekin shoshil. Har bir tuxum uchun bir miskinga taom berishing vojib", dedilar.

Abu Hurayradan dengiz hayvonini ovlab so'yilsa, ehromli kishi uni esa, halolmi, deb so'rashganida, joiz, deb aytganlar. Abu Hurayra Umarga bu haqda xabar berganlarida, u zot: "Agar bundan boshqasini aytganingda, seni falon-falon qilardim", deganlar. Chunki sahobalar voqealarga hadislar bilan fatvo berardilar. Shunday qilib, fatvo berishni musulmonlar meros qilib olganlar. Chunki Alloh taolo:

"Bas, agar o'zlaringiz bilmaydigan bo'lsangizlar, ahli ilmlardan so'ranglar!" (Anbiyo,7), deb aytgan.

Alloh taolo johil (bilmaydigan) kishilarga ulamolardan so'rashga buyurgan bo'lsa, ulamolarga ham so'ralgan narsalarining xabarini berishni amr etgandir.

Hikoya qilinishicha, bir to'p odam uchta oqilning qaysi biri aqlliroq ekanini bilmoqchi bo'lishdi. Xulosa shu bo'ldiki, insonlarning eng aqllisi bilgan narsasini gapiradigan kishi ekan.

#### **4-bob**

### **Fatvo berishga haqli kishi haqida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Abu Hanifa va u zotning ikki sohibi (Abu Yusuf va Muhammad) so'zlarini, ular qaerdan gapirganini bilgan va insonlarning muomalalarini o'rgangan kishigina fatvo bersa, durust bo'ladi. Agar kishi ulamolarning so'zlarini o'rganganu, insonlarning muomalalari va mazhablarini o'rganmagan bo'lsa, bir masala haqida so'ralganida, odamlarning mazhablarini o'zlashtirgan ulamolar bu masalaga ittifoq qilganini bilsa, bu mumkin, bu mumkinmas, deb aytsa, uning so'zi hikoya tariqasida bo'lib, zarari yo'q. Agar ulamolar ixtilof qilgan masala bo'lsa, bu falonchining qavlidagi joiz, deb aytishida ham zarar yo'q. U o'zicha bir so'zni ixtiyor qilishi mumkinmas. Ulamolarning hujjatlarini bilmasa ham, ularning fatvolari bilan javob beradi.

Isom ibn Yusuf aytadilar: "Men Mu'tam shahrida bo'lganimda Abu Hanifaning ashobidan to'rttasi – Zufar ibn Huzayl, Abu Yusuf, Aqiba ibn Yazid va Hasan ibn Ziyod to'planishdi. Ular: "Biror kishi, modomiki biz qaerdan gapirganimizni bilmas ekan, bizning so'zimiz bilan fatvo berishi halol (durust) emas", degan qarorga kelishdi".

Ibrohim ibn Yusuf Abu Yusufdan, u Abu Hanifadan rivoyat qiladi: "Abu Hanifa: "Biror kishi bizning so'zimiz bilan fatvo bermog'i durust bo'lmaydi, modomiki biz qaerdan gapirganimizni bilmasa", dedilar".

Isom ibn Yusufdan rivoyat qilinadi. Unga: "Siz Abu Hanifaga ko'p xilof qilyapsiz. Vaholanki, unga bizga berilmagan fahm ato etilgan. U fahmi bilan biz idrok qilolmagan narsalarni idrok eta oladi. Bizning fahmimiz o'zimizga yarasha, bizga uning so'zi bilan fatvo bermog'imiz durust bo'lmaydi, modomiki u qaerdan gapirganini tushunmas ekanmiz", deyishdi.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: O'zini muftiy bilgan yoki musulmonlarning ishlaridan bir narsaga valiy bo'lgan va insonlarning hojati unga qaratilgan kishi ularning hojatlarini ado

etmasdan hech bir uzrsiz ularni qaytarmasligi lozim. Balki muloyimlik va halimlik bilan muomala qilishi loyiq ishdir. Qosim ibn Muhammad Ibn Abu Maryamdan rivoyat qiladi. U kishi bilan Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) ashobi o'rtasida do'stlik bor edi. Ibn Abu Maryam aytadi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim musulmonlarning ishlaridan biror narsada valiy bo'lsa, ularning ehtiyoji va zarurat kunida etishmovchiliklaridan ko'z yumsa, Alloh taolo qiyomat kunida uning zarurati va hojatidan ko'z yumadi", deganlar".

Muftiyga nisbatan tavoze', muloyim bo'lish, zolim, qaysar, dag'al, qo'pol bo'lmaslik lozim. Chunki Alloh taolo:

"(Ey Muhammad), Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiq dil bo'lganingizda edi, albatta, ular atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar" (Oli Imron, 159).

## **5-bob** **Ixtiloflar haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar ulamolar ixtilof qilgan masalalar haqida gapirishdi. Ba'zilari, ikkalasi ham to'g'ri, deb aytishdi, bu mo''taziliylarning so'zi. Ba'zilari esa, bittasi to'g'ri, ikkinchisi xato, deyishdi, faqat undan gunoh ko'tarilgan. Bu so'z eng to'g'ri so'z.

Avvalgi toifaning hujjati Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan hadisdir: Rasululloh Bani Nazir qabilasining xurmolarini kesishni buyurdilar. Abu Laylo Mozaniy ajva xurmosini, Abdulloh ibn Salom esa, faqat luz xurmosini kesdilar. Abu Layloga, nima uchun ajvani kesding, deyishganda, chunki unda dushmanni zaiflashtirish bor, dedilar. Abdulloh ibn Salomdan, nima uchun sen luz daraxtini kesding, deb so'rashganda, men bilamanki, bu xurmolar Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) qoladi, shuning uchun u zotga ajva daraxti qolishini xohladim, dedilar. Natijada Alloh taoloning:

"(Ey mo'minlar), sizlar (Bani Nazir xurmozorlaridan) biron xurmo daraxtini kesdinglarmi yoki uni o'z poyasida turgan holda qoldirdinglarmi, bas, (sizlar qilgan har bir ish) Allohning izni-irodasi bilan va u fosiq-itoatsiz kimsalarni rasvo qilish uchun (bo'ldi)" (Hashr, 5), degan oyati nozil bo'ldi. Darhaqiqat, Alloh taolo ikkala firqaning ham qilgan ishidan rozi bo'ldi.

Ikkinchi toifaning hujjati esa, Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadisdir: Rasululloh Amr ibn Osga: "Bu ikkalasining orasida hukm qil", deb buyurdilar. Shunda u: "Siz hozir bo'laturib, men hukm qilamanmi?" dedilar. Rasululloh: "Ha", dedilar. Shunda u zot: " Nimaga binoan hukm qilaman?" deb so'radilar. Rasululloh: "Shunga binoanki, agar to'g'ri hukm qilsang, senga o'n savob bo'ladi, agar xato qilsang, bir savob", dedilar. Darhaqiqat, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) mujtahid ijtihodida ba'zan xato qilishini, ba'zan to'g'ri topishini ochiq bayon qilib berdilar. Chunki Alloh taolo:

"Dovud va Sulaymonning ekinzor xususida hukm qilayotgan paytlarini (eslang). O'shanda unga qavmning qo'ylari bo'shalib kirib (uni payhon qilib yuborgan) edi. Biz ular (chiqargan) hukmga shohid edik. Bas, Biz uni Sulaymonga anglatdik" (Anbiyo, 78-79), deb turib, Dovud idrok eta olmagan narsani fahmi bilan idrok etgani sababli Sulaymonni madh qildi. Ikkalasiga salomlar bo'lsin. Agar har ikkala hukm ray qiluvchining ijtimohida to'g'ri bo'lganida, Sulaymon (sollallohu alayhi vasallam) fahmini madh qilish lozim bo'lmas edi.

Agar ikkala so'zning biri xato bo'lsa, mujtahidga ijtimoh qilishga izn berilgani sababli, undan gunoh ko'tariladi. Muso Juhaniy Talha ibn Mutarrifdan rivoyat qiladi: "Agar uning oldida ixtilof zikr qilinsa, ixtilof demanglar, balki kengchilik deb aytinglar", derdi.

Umar ibn Abdulazizning: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ashobining ixtiloflari menga qizil tuyadan ham yaxshiroq", deganlari rivoyat qilingan. Chunki ular ixtilof qilmaganlarida, ulardan so'ng birortaga ixtilof joiz bo'lmas va insonlarga qiyin bo'lib qolar edi. Qosim ibn Muhammad: "Sahobalar ixtilofi musulmonlarga rahmat bo'ldi" deganlar.

## **6-bob**

### **Hadisning ma'nosini rivoyat qilish haqida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar hadisning ma'nosini rivoyat qilish haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar, faqatgina lafzi bilan joiz, deyishdi. Boshqalar, esa faqat ma'nosining o'zini rivoyat qilish joiz, deyishgan, shu to'g'ri so'zdir.

Birinchi toifaning hujjati Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam): "Mendan bir hadisni eshitib, so'ng uni eshitganidek qilib etkazgan kishini Alloh rahmat qilsin", degan so'zlaridir.

Baro' ibn Ozib aytadilarki: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir kishiga duo o'rgatdilar. U kishi duoning oxiridagi: "Nozil qilgan kitobing va yuborgan payg'ambaring", degan joyini "yuborgan rasuling", deb o'qidi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) "yuborgan payg'ambaring", deb to'g'irladilar va uni hadis lafzini o'zgartirib o'qishdan qaytardilar".

Ma'nosini rivoyat qilish joiz, deganlarning hujjati Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Ogoh bo'linglar, shohid bo'lganlar g'oyiblariga etkazsin", degan so'zlaridir. Darhaqiqat, Nabiyimiz bizga etkazishni buyurdilar.

Vosila ibn Asqa'ning: "Agar biz hadisning ma'nosini aytsak, shu sizlarga kifoyadir", deganlari rivoyat qilinadi. Vaholanki, u zot sahobalardan edi.

Ibn Avf: "Ibrohim Naxa'iy, Sha'biy, Hasan Basriylar hadisning ma'nosini etkazardilar", deb aytgan.

Vaki': "Agar rivoyat keng ma'no bilan bo'lmaganida, insonlar, albatta, halok bo'lardilar", deydi. Sufyon Savriy: "Men sizlarga eshitganidek aytyapman, desam, meni tasdiqlamanglar, chunki Alloh taolo:



"Axir ulardan har bir guruhdan bir toifa odamlar (jang uchun) chiqmaydilarimi?! (Qolganlari esa Madinada) dinni o'rganib, (jangga ketgan) qavmlari ularning oldlariga qaytganlarida, u qavmlar Allohning azobidan saqlanishlari uchun ularni ogohlantirgani (qolmaydilarimi)?!" (Tavba, 122) deb arabcha lafzda aytyapti, agar ularning qavmi arabiy lafzni tushunmasa, bayon va tafsir bilan tushuntirishlari shart bo'ladi". Demak, rivoyat qilishda lafzga emas, ma'noga e'tibor berish kerakligi isbotlandi.

## 7-bob

### Hadisni rivoyat qilish va bu ishga ijozat berish haqida

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar hadisni rivoyat qilish haqida ixtilof qilishdi, agar "bizga hadis aytdi" deganning o'rniga "bizga xabar berdi" yoki aksincha "xabar berdi"ning o'rniga "bizga hadis aytdi", desa, joizmi, joiz emasmi, deb ixtilof qilishdi. Ba'zi hadis ahllari: "Agar sen hadisni muhaddisga aytmqochi va uni undan rivoyat qilmoqchi bo'lsang, "falonchi bizga xabar berdi", deb aytishing lozim bo'ladi. Agar senga muhaddis o'qib bersa, falonchi bizga gapirib bergan (hadis aytgan), deb aytasan", deyishadi. Ilm ahlining ko'pchiligi ikkalasini ham baravar bilishgan. Biz shunisini olamiz. Yusuf Qoziydan (rahmatullohi alayh) rivoyat qilinishicha, u kishi aytganlar: "Sen hadisni faqihga o'qib berasanmi yoki u senga o'qib beradimi, xohlasang, hadis aytdi, deysan, xohlasang xabar berdi yoki falonchidan eshitdim, deb aytasan".

Abu Muti' aytadilar: "Men Abu Hanifadan: "Bizga xabar berdi, deymi yoki bizga hadis aytdi deymi?" deb so'radim. U zot xohlasang, xabar berdi, de, xohlasang, hadis aytdi, de", dedilar.

Sha'ba ibn Hajjoj aytadilar: "Xohlasang, xabar berdi, de, xohlasang, hadis aytdi, de, xohlasang, bizga bildirdi, deb ayt. Agar muhaddis, mendan rivoyat qilishingga ijozat beraman, desa, xabar berdi yoki hadis aytdi, deyishing joiz emas, balki falonchi menga ijozat berdi, deb aytasan".

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Xalil ibn Ahmad qozi: "Abu Tohir Ahmad ibn Safin Dayomiy shunday deganlarini eshitdim: "Agar muhaddis, men senga ijozat berdim, deb aytsa, u, men senga mening zararimga yolg'on gapirmasliging bilan ijozat berdim, degan bo'ladi", deganlar.

Faqih (rahimahulloh) yana aytadilar: Agar muhaddis senga bir hadisni yozsa yoki kitobini berib, menga falonchi bu kitobdagi hamma hadislarni gapirib berdi, deb aytsa, sen, falonchi menga xabar berdi, deb aytishing mumkin, lekin menga hadis qilib gapirib berdi, deyishing joiz emas. Chunki kitobat xabardir va hadis gapirish faqatgina o'zaro so'zlashuv bilan bo'ladi. O'ylab ko'r, agar bir kishi, falonchiga mana shuni xabar qilmayman, deb qasam ichsa va unga shu narsa haqida yozsa, qasamini buzgan bo'ladi. Agar, aytmayman, deb qasam ichsa va uni yozib bersa, qasami buzilmaydi, modomiki u bilan so'zlashmasa.

Abu Zumra Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilib aytadi: "Men Abdulloh ibn Shihobning bir kitobni olib kelganini ko'rdim. Unga, bu kitobingni bilasanmi, deb aytilganda, u ha, dedi. Ular o'zlariga o'qib beriladigan va unga o'qib berilgan narsaga rozi bo'lishdi. Natijada, ular uni ko'chirishdi va undan xabar olishdi".

Abdulaziz ibn Ubbon Shu'badan rivoyat qilib aytadi: "Menga Mansur ibn Mun'im bir hadisni yozib yubordi. Men unga uchrab shu hadis haqda so'radim. U: "Men senga xat yozib yubormaganmidim?" deb aytdi. Men: "Agar xat yozgan bo'lsang, menga uni aytgan bo'lasanmi?" dedim. U: "Ha", dedi. Mana shuni Ayyub So'xtiyoniyga zikr qildim. U: "Agar senga xat yozgan bo'lsa, rost gapiribdi. Darhaqiqat, u senga gapirgan bo'ladi", dedi. Muhammad ibn Hasanning (rahimahulloh) ham bunday deganlari rivoyat qilingan: "Ilmni senga yozilishi bilan sen uni eshitishing bir xildir, agar senga yozilgan bo'lsa, u haqida rivoyat qilishing xuddi eshitganingda joiz bo'lganidek joizdir, lekin ikkala rivoyatning lafzida farq bo'ladi".

## **8-bob**

### **Ilmni ishonchli kishilardan olish haqida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Ilmni ishonchli zotlardan olish lozim, chunki dinning ustuni ilm bilandir. Kishi o'zining jonini ishonadigan kishigagina dinini ham ishonib topshirishi loyiq bo'ladi.

Ibod ibn Kasir Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilib aytadiki: "Guvohligi qabul qilmaydigan kishidan hadis rivoyat qilmanglar".

Muhammad ibn Siyrin aytadilar: "Bu ilm dindir. Dinlaringizni kimdan olayotganingizga qaranglar".

Muhsin aytadilar: "Kim chiroyli so'z aytsa-yu, yomon amal qilsa, undan ilm olmanglar va unga suyanmanglar".

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam): "Ilm mo'minning yo'qotgan narsasi, uni qaerda topsa, oladi", deb aytganlarini rivoyat qilganlar.

"Uni qaerda topsa, oladi", deb aytili. Buning ma'nosi shuki agar unga xabar bergan kishi ishonchli va so'zi foydali bo'lsa, oladi, ammo xabar bergan kishi ishonchsiz bo'lsa, olmaydi. Agar bir kishi bir hadisni yoki bir masalani eshitsa va aytuvchisi ishonchsiz bo'lsa, undan qabul etish durust emas. Lekin uning so'zi asl manbalarga muvofiq kelsa, unga amal qilish joiz bo'ladi. Ammo bu ilm sanalmaydi. Shuningdek, yozilgan hadis yoki masalani topsa va u asl manbalariga muvofiq bo'lsa, unga amal qilish joiz, mabodo muvofiq bo'lmasa, joiz emas.

Abdurahmon Ibn Abu Laylo Ali ibn Abu Tolibdan rivoyat qiladi: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki bir hadisni aytgan kishini yolg'on gapirdi, deb o'ylasa, o'zi yolg'onchilarning bittasi bo'ladi", dedilar".

## **9-bob**

### **Mav'iza majlislarining mubohligi to'g'risida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zi insonlar mav'iza uchun yig'ilish o'tirishni yomon ko'rishdi. Ba'zilar, agar bu bilan Alloh taoloning rizosini xohlagan bo'lsa, zarari yo'q, deyishdi. Shu so'z sahihroqdir. Chunki bu ish shariatni

o'rganishdir. Mav'izani yomon ko'rgan kishilar Amr ibn Shu'ayb otasidan, otasi esa, bobosidan rivoyat qilgan hadisni hujjat qilib keltirishdi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Insonlarga biror narsani faqat amir yoki ma'mur yoki riyokor kishigina qissa qilib beradi", deganlar.

Tamim Doriyning Umar ibn Xattobdan insonlarga har shanba kuni qissa aytib berish uchun izn so'raganlari rivoyat qilingan. "Nima uchun?" deganlarida, "Insonlarga eslatma bo'lsin uchun", deb aytdilar. "Agar xohlasang, eslat, ammo bilginki, bu ish so'yishdir", deb javob berdilar. Bu gap Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki qissa qilsa, darhaqiqat, u pichoqsiz so'yilibdi", degan hadislariga muvofiqdir.

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Qissa qiluvchi g'azabni, eshituvchi rahmatni kutadi".

Abu Qulobadan rivoyat qilinishicha, u kishi namozdan qaytganlarida bir kishi kelib, baqirib qissa ayta boshladi. Abu Quloba unga: "Sen bir hangrovchi eshaksan, agar bizning oldimizga kelsang, senga odob berib qo'yamiz", dedilar.

Ibrohim Naxa'iy (rahmatullohi alayh): "Men uchta oyat sababli qissa aytishni yomon ko'raman. Ular:

"Odamlarni yaxshilikka chorlab, o'zlaringizni unutasizlarmi? Holbuki, o'zlaringiz kitob tilovat qilasizlar. Aqlingizni yurgizmaysizlarmi?" (Baqara, 44);

"Ey mo'minlar, sizlar nega o'zlaringiz qilmaydigan narsani (qilamiz deb) aytursizlar?!" (Sof, 2);

"U aytdi: "Ey qavmim, xabar beringiz-chi, agar men Parvardigorim tomonidan aniq hujjatga ega bo'lsam va U zot meni o'z tomonidan go'zal rizq bilan rizqlantirgan bo'lsa (shu halol rizqni haromga aralashtirishim kerakmi?!). Men sizlarga xilof qilib, sizlarni qaytarayotgan narsani (ya'ni, halol-haromga aralashtirishni) o'zim qilishni istamayman. Men faqat imkonim boricha isloh qilishni istayman, xolos. Va (bunga) yolg'iz Allohning yordami bilangina muvaffaq bo'lurman. O'ziga suyandim va O'ziga iltijo qilurman" (Hud, 88), oyatlaridir", dedilar.

Hadisda keladiki, Alloh taolo Iso alayhissalomga vahiy qilib aytdi: "Avval nafsingga nasihat qil. Agar shu nasihatni olsang, so'ng insonlarga nasihat qil. Agar unday bo'lmasa, Mendan hayo qil".

Va'z-nasihat qilishning zarari yo'q, deb aytgan kishilarning hujjati Alloh taoloning:

"Va (Qur'on bilan) pand-nasihat qiling! Zero, u pand-nasihatlar mo'minlarga naf' yetkazur" (Zoriyot, 55), degan so'zidir. Boshqa bir oyatdagi:

"Axir ulardan har bir guruhdan bir toifa odamlar (jang uchun) chiqmaydilar?! (Qolganlari esa Madinada) dinni o'rganib, (jangga ketgan) qavmlari ularning oldlariga qaytgan vaqtlarida, u qavmlar Allohning azobidan saqlanishlari uchun ularni ogohlantirgani (qolmaydilar?!)" (Tavba, 122) degan so'zi ham dalildir.

Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu): "Ey qissa aytuvchilar, qissa aytmangizlar, chunki

insonlar faqih bo'ldilar", dedilar. Bu xabarda, agar qavm ilmsiz bo'lsa, qissa aytishning zarari yo'qligiga dalil bor.

Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) insonlarga tik turib har payshanba oqshomida va'z-nasihah qilar edilar.

Ato Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyah qilib aytadi: "Kim o'zi biladigan ilmni insonlardan berkitsa, qiyomat kunida olovdan bo'lgan yugan bilan yuganlanadi". Bu haqda Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) hadislari bor.

Abu Hurayra: "Agar bir oyah bo'lmaganida, insonlar uchun majlis qilib o'tirmas edim", dedilar va Alloh taoloning:

"Biz nozil qilgan hujjatlar va hidoyatdan iborat narsalarni odamlarga Kitobda ravshan qilib berganimizdan keyin berkitgan kimsalarni, shubhasiz, Alloh la'natlagay va la'natlovchi zotlar (farishtalar va mo'minlar) ham la'natlagaylar" (Baqara, 159), degan so'zini o'qidilar.

Abdulloh ibn Umar (roziyallohu taolo anhumo) Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam): "Mendan bir oyah bo'lsa ham, etkazinglar va Bani Isroil haqida gapiringlar, chunki ular ichida ajoyib voqealar bordir. Bu qiyin ish emas. Kimki men haqimda qasddan yolg'on gapirsa, joyini do'zaxdan tayyorlasin", deb aytganlarini rivoyah qiladilar.

Hasan Basriy aytadilar: "Agar ulamolar bo'lmaganida, insonlarning hammasi hayvonlarga o'xshab ketardi".

## **10-bob**

### **Muzakkir-eslatuvchining odobi haqida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Muzakkirda bo'lishi shart eng birinchi xislat solihlikdir, chunki solih bo'lmasa, aqlli kishilar undan qochib, faqat nodonlar ergashadi. Shundan keyin olam fasod bo'ladi. Solih bo'lmasa, so'zi qalblarga foyda bermaydi. Muzakkir yana taqvodor bo'lishi, sahih bo'lmagan hadisni rivoyah qilmasligi kerak. Chunki Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu taolo anhu) Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyah qilgan hadisda aytiladiki: "Kim bir hadisni rivoyah qilsa va uni yolg'on deb o'ylasa, u yolg'onchilarning bittasidir". Shuningdek, da'vatchi majlisni cho'zib yubormasligi lozim. Agar cho'zib yuborsa, insonlar malollanib qoladi va bu hol ilmning barakasini ketkazadi.

Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) aytadilar: "Qalblarda faollik va yuzlanish, ularning kelishi va qaytib ketishi bor. Qavm sendan ilmni qabul qilish uchun yuzlanganida gapir".

Zuhriy rivoyah qiladilar: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Qalblarga bir soah-bir soah dam beringlar", deb aytdilar".

Zayd ibn Aslam otasidan rivoyah qiladi: "Bani Isroildagi bir qozi qavmiga uzun-uzun mav'iza qilar edi. Bas, ularni malollantirib qo'ydi, natijada o'zi ham la'natlandi, ular ham

la'natlandilar".

Muzakkir (eslatuvchi, da'vatchi) muloyim, tavoze'li bo'lishi, mutakabbir, dag'al, qo'pol bo'lmasligi lozim. Chunki tavoze' va muloyimlik Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) axloqlaridir. Alloh taolo:

"(Ey Muhammad), Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiq dil bo'lganingizda edi, albatta, ular atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar" (Oli Imron, 159), deb aytgan.

Agar u insonlarga namoz, ro'za, sadaqaning fazilatlaridan biror narsani xabar bermoqchi bo'lsa, avval o'zi aytayotganiga amal qilishi lozim. Toki quyidagi oyat ahlidan bo'lib qolmasin:

"Odamlarni yaxshilikka chorlab, o'z'laringizni unutasizlarmi? Holbuki, o'z'laringiz kitob tilovat qilasizlar. Aqlingizni yurgizmaysizlarmi?" (Baqara, 44).

Ibrohim Naxa'iy aytadilar: "Men uchta oyat sababli qissa aytishni yomon ko'rdim". Darhaqiqat, u oyatlarni yuqorida zikr qilib o'tdik.

Muzakkir Qur'on tafsirlarini, xabar-hadislarni, fuqaholarning so'zlarini o'rgangan bo'lishi kerak. Ali ibn Abu Tolib insonlarga hikoya aytayotgan kishini ko'rib: "Nosix va mansuxni bilasanmi?" deb so'radilar. U: "Yo'q", dedi. Shunda Ali unga: "Halok bo'libsan va halok qilibsan", dedilar.

Muzakkir gapirayotganida bir kishiga emas, ommaga yuzlanishi lozim. Habib ibn Abu Sobit aytadilarki: "Gapirayotganda faqat bir kishiga yuzlanmasdan, butun jamoaga qarab gapirish sunnatdir".

Muzakkirning tama'gir bo'lishi aslo mumkin emas. Chunki tama' insonning obro'sini tushiradi, yuzining va ilmining qadrini ketkazadi. Ammo bir inson masala so'ramasdan oldin unga hadya bersa, uning hadyasini qabul qilishining ziyoni yo'q.

Muzakkirning majlisida xavf va rajo bo'lishi lozim. Majlisning hammasini butunlay xavf yoki faqat rajo qilmaydi. Chunki bundan qaytarilgandir. Agar muzakkir majlisni uzun qilishni xohlasa, unga majlisning orasida insonlarga yoqadigan va tabassum qilinadigan so'zlarni qo'shishi mustahab. Chunki bu ish eshitishga qiziqish va iqbolni ziyoda qiladi. Umar (roziyallohu anhu) haqlarida rivoyat qilinishicha, agar u kishi majlisga o'tirsalar, insonlarni oxiratga rag'batlantirar va dunyoga berilib ketishdan qaytarar edilar. Agar insonlarning dangasalik qilayotganini ko'rsalar, daraxt ekish, bino tiklash, devorlar qurish haqida gapirar edilar. Agar insonlarni g'ayratli, shijoatli holatda ko'rsalar, oxirat zikriga qaytarardilar.

## **11-bob** **Eshituvchining odobi haqida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Eshituvchi muzakkirga yuzlanib o'tirishi, uni to'g'ri qalb bilan tinglashi va boshqa biror narsa bilan shug'ullanmasligi

lozim. Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki bir masalani yoki hadisni eshitsa, mana shunga amal qilsin, chunki u tirik va najot topuvchidir. Kimki bir hadisni eshitsa-yu, amal qilmasa, halok bo'ladi" dedilar. Eshituvchiga har bir hadisning orasida "rost aytdingiz" yoki "chiroyli gapirdingiz" deb turishi mustahab. Toki muzakkir hadis aytishga rag'batlansin.

Tinglayotgan kishi Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) ismlarini har eshitganida salovot aytadi. Shaytonning vasvasasini qalbidan chiqarib tashlashi, majlis vaqtida uxlamasligi lozim. Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan hadisda aytiladi: "Kimki majlis vaqtida uxlasa, Allohning rahmatidan mahrum bo'libdi va shaytonga do'st tutinibdi".

## 12-bob

### **Ilmni talab qilishga qiziqtirish va fiqhni boshqa ilmlardan afzal ko'rish haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Inson ilm o'rganishi bilganiga qanoatlanib qolmasligi kerak. Chunki Alloh taolo deydi:

"Ayting: biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi?!" (Zumar, 9).

Ilm ahli boshqa insonlarga nisbatan afzaldir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Olim yoki ilm o'rganuvchi bo'lmagan kishida yaxshilik yo'qdir", deb aytganlar.

Abu Dardo (roziyallohu taolo anhu) aytadilar: "Nima bo'ldiki, olimlaringizni o'layotgan, johillaringizni ilm o'rganmayotgan holda ko'ryapman. Ulamolarning o'limi bilan ilm ko'tarilishidan oldin ta'lim olinglar. Chunki bir qavmning kichkinasi bo'lsangiz, shoyad boshqa qavmning kattasi bo'larsiz. Menga ilmsiz shayxdan xunukroq maxluq yo'qdir".

Sha'biy aytadilar: "Agar bir kishi Shomning bu chekkasidan Yamanning u chetigacha safar qilib, kelajak umrida foyda keltiradigan bir dona kalimani yod olsa, uning safari zoe' ketmadi deb o'ylayman".

Endi bilgilki, ilm bir necha navdir, hammasi Alloh nazdida chiroyliroqdir, lekin fiqhga teng emasdir. Kishiga fiqhni o'rganish unga boshqa ilmni o'rganishdan muhimroq bo'lishi kerak, chunki fiqhni bilgan kishiga boshqa ilmlar osonlashadi. Fiqh dinning ustunidir. Abu Hurayra (roziyallohu taolo anhu) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Allohning bandalari orasida dinda faqih bo'lganidan ko'ra afzali yo'q". Yana aytadilar: "Bitta faqih shayton uchun mingta johil obiddan yomonroqdir".

Abu Hurayra (roziyallohu taolo anhu) aytadilar: "Bir soat o'tirib fiqh o'rganishim Allohga bir kecha fiqhsiz ibodat qilishimdan yaxshiroqdir".

Ibn Abbos (roziyallohu taolo anhumu) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh kimga yaxshilikni xohlasa, uni dinda faqih qilib qo'yadi", dedilar".

Umar ibn Xattob (roziyallohu taolo anhu): "Rahbar bo'lishlaringdan oldin fiqhni o'rganinglar".

Agar inson fiqhdan nasibasini to'la olsa, unda qosirlik qilmasligi hamda zuhd va hikmat ilmida, oxirat kalomida, solihlarning shamoillari haqida fikr qilishi lozim. Chunki inson fiqhni o'rgansa-yu, zuhd va hikmat ilmi haqida fikr qilmasa, qalbi qattiqlashadi. Qattiq qalb Alloh taolodan uzoqdir. Agar nujum bilan hikmat ilmini ta'lim olsa, qalbi qattiqlashadi, qattiq qalb esa Alloh taolodan uzoqdir. Agar nujum va hikmat ilmidan hisob-kitobni biladigan miqdorda o'rgansa, buning zarari yo'qdir. Agar qiblani bilish va hisob-kitobga yo'l topa oladigan miqdorcha o'rgansa, ortiqchalik qilmaydi. Alloh taolo:

"Va (u yo'llarga) belgilar (qilib qo'ydi. Kechalarda esa kishilar) yulduzlar bilan yo'l topurlar" (Nahl, 16), deb marhamat qiladi. Boshqa bir oyatda esa:

"U quruqlik va dengiz zulmatlarida yo'l topishingiz uchun sizlarga yulduzlarni yaratib qo'ygan zotdir. Biladigan qavm uchun oyatlarni batafsil bayon qildik" (An'om, 97), deb aytadi.

Umar ibn Xattob aytadilar: "Ilmi nujumdan qiblalarini topadigan miqdorda o'rganinglar. Qarindoshlaring bilan aloqa qiladigan miqdorda nasab ilmidan ta'lim olinglar".

Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) yulduzlar haqida munozara qilishdan qaytarganlari rivoyat etilgan.

Abdulloh ibn Abbos (r.a.) Maymun ibn Mihronga: "Nujum ilmiga ergashmanglar, chunki sehr va folbinlikka olib boradi", deganlar.

### **13-bob**

#### **Ilmda munozara qilish haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zi odamlar ilm haqida bahs-munozara qilishni yomon ko'rishdi. Alloh taoloning:

"Ular: "Bizlarning ilohlarimiz yaxshiroqmi yoki umi?!" (ya'ni, Isomi?!) dedilar. Ular (bu misolni) sizga faqat talashib-tortishish uchungina keltirdilar. Axir ular xusumatchi-urushqoq qavmdirlar!" (Zuxruf, 58);

"Biz bu Qur'onda odamlarga (pand-nasihat olishlari uchun) turli masallar bayon qildik. Darhaqiqat, inson juda ko'p janjal-bahs qilguvchidir" (Kahf, 54), degan so'zlarini hujjat qilishdi.

Oisha (roziyallohu anho) Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlarini rivoyat qiladilar: "Allohga insonlarning eng nafratlisi yomon xusumatda bo'ladigan kishidir".

Abu Umoma Boxiliy Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Har bir qavm hidoyatdan tortishuv sababidagina adashdi".

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Shubhani tark qil, garchi haq bo'lsang ham". Bu hadis boshqa lafz bilan ham rivoyat qilingan: "Sizlarning birortangiz iymonning haqiqatini o'zi haq bo'lgan holatida shubhani tark qilmagunicha topolmaydi".

Chunki shubha adovatga olib boradi. Musulmonlarning orasidagi adovat esa haromdir.

Ilm ahlining ommasi Alloh taoloning:

"Parvardigoringizning yo'li – diniga donolik-hikmat va chiroyli pand-nasihati bilan da'vat qiling! Ular bilan eng go'zal yo'lda mujodala-munozara qiling!" (Nahl, 125);

"Bas, ular (ya'ni, zamondosh ahli kitoblar bilan Ashobul Kahf) xususida faqat (o'zingizga nozil bo'lgan vahiy vositasida) ochiq mujodala-munozara qiling va (Ashobul Kahf) haqida ularning birontasidan fatvo so'ramang!" (Kahf, 22);

"Alloh podshohlik berganidan hovliqib Ibrohim bilan Parvardigori haqida talashgan kimsaning (Namrudning) holi-xabarining bilmadingizmi? Qaysiki Ibrohim: "Parvardigoringizni tiriltirib, o'ldiradigan zotdir", deganida u: "Men (ham) tiriltiraman va o'ldiraman", dedi. Ibrohim aytdi: "Albatta, Alloh quyoshni mashriqdan chiqaradi. Sen uni mag'ribdan chiqar-chi?" Shunda bu inkor qiluvchi dovdirab qoldi. Alloh zolim kimsalarni hidoyat qilmaydi" (Baqara 258), degan so'zlariga binoan, agar bahs bilan haqiqatni zohir etishni qasd qilsa, zarari yo'q, deb aytadi.

Talha ibn Ubaydulloh deydilar: "Ehromdagi kishi eydigan ovning go'shti haqida bahs qildik. Vaholanki, u ovni halol kishi<sup>1</sup> so'ygan edi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) uxlayotgan edilar. Bizning ovozimiz ko'tarilib ketdi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) shovqindan uyg'onib: "Nima haqda bahslashyapsizlar?" dedilar. Biz masalani xabar berdik, u zot bizga uni eyishni buyurdilar". Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) ularning bahslarini inqor qilmadilar, chunki munozarada haqni botildan ajratish bordir. Haq talabida fikr yuritish esa mubohdir.

Bahs-munozarani inkor qilish to'g'risida vorid bo'lgan hadislarning ma'nosi shuki, nohaq bahs qilsa va bu bilan faxrlanishni, kekkayishni xohlasa, bahs makruhdir. Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinganidek: "Kimki ilmni uchta narsa uchun ta'lim olsa, u do'zaxdadir: ilm bilan olimlarga maqtanmoqchi bo'lsa; ahmoqlar bilan bahs qilmoqchi bo'lsa; odamlarning yuzini o'ziga qaratmoqchi bo'lsa".

## **14-bob** **Ta'lim oluvchining odobi to'g'risida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Ta'lim oluvchi muhtoj bo'ladigan narsaning eng birinchisi – olgan ilmi bilan foydalanishi va o'zidan o'rganayotgan kishiga foyda berishi uchun niyatini to'g'irlab olishdir. Agar niyatini to'g'irlamoqchi bo'lsa, to'rtta narsani qasd qilishi lozim.

1. Ilm olish bilan johillikdan chiqishni niyat qilish. Chunki Alloh taolo:

"Ayting: "Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi?!" (Zumar, 9), deb aytgan.

2. Ilmi bilan xalqqa foyda keltirishni niyat qilish. Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Insonlarning eng yaxshisi insonlarga foydasi ko'proq tegadiganidir",



deganlar.

3. Ta'lim olish bilan ilmni tiriltirishni niyat qilish. Chunki insonlar ta'lim olishni tashlab qo'ysa, Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Ilm ko'tarilishidan oldin ilmni o'rganinglar", deb aytganlaridek, ilm ketib qoladi. Ilmning ko'tarilishi ketib qolishidir.

4. Ta'lim olish bilan birga ilmga amal qilishni niyat etish, aksini emas. Chunki ilm amal uchun asbobdir va amalsiz asbobni talab qilish behuda ishdir, xuddi ilmsiz amal bekor bo'lganidek.

Aytadilarki, amalsiz ilm uvoldir, ilmsiz amal zalolatdir. Ta'lim oluvchi Alloh taoloning roziligini, oxirat hovlisini talab qilishi, dunyoni istamasligi lozim. Agar ilm bilan Alloh taoloning rizoligi va oxirat hovlisini talab qilsa, ikkalasiga ham barobar etadi, xuddi Alloh taolo:

"Kim (o'z amali bilan) oxirat ekinini (ya'ni savobini) istar ekan, Biz unga ekinini (ng hosilini) mo'l-ziyoda qilurmiz. Kim dunyo ekinini istar ekan, Biz unga o'shandan (dunyo matolaridan) berurmiz va uning uchun oxiratda biron nasiba bo'lmas!" (Shuaro, 20) deb aytganidek.

Zayd ibn Sobit Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Kimning niyati dunyo bo'lsa, Alloh taolo uning ishini ajratadi va faqirlikni ikki ko'zi oldiga qo'yib qo'yadi, dunyoda unga Alloh taolo taqdir qilgan narsadan boshqasi kelmaydi. Kimning niyati oxirat bo'lsa, Alloh taolo uning ishlarini jamlab qo'yadi, boyligini qalbida qiladi, dunyo unga jirkanchli va xor bo'lib keladi".

Agar kishi niyatini to'g'irlashga qodir bo'lmasa ham, ilmni tashlab qo'ymasin, shu afzal ish, chunki ta'lim olaversa, ilm uning niyatini to'g'irlab qo'yishi mumkin.

Xabarlarda rivoyat qilinganki, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kim ilmni Alloh taoloning rizosidan boshqa narsa uchun talab qilsa, ilm unda hosil bo'ladi va niyati Alloh taolo uchun va oxirat hovlisi uchun bo'lgungacha dunyodan o'tmaydi", deb aytganlar.

Mujohid: "Biz ilmni talab qildik, lekin, bizning niyatimiz kam edi. So'ng Alloh taolo bizga niyatni rizq qilib berdi", deb aytadilar.

Agar talaba ilm uchun safarga chiqishni xohlasa, ota-onasining ruxsati bilan chiqishi afzal bo'ladi. Ota-onasi ruxsat bermasa ham, chiqib ketaverishida ziyon yo'qdir, agar ular uning xizmatidan behojat bo'lsalar.

Ta'lim oluvchi birorta farzni tark qilishi yoki uni vaqtdan kechiktirishi durust emas. Ilm olish sababli birortaga ozor berishi ham loyiq bo'lmaydi. Agar shunday qilsa, ilmning barakasi ketadi. Ilm oluvchi ilmida baxillik qilishi durust emas. Undan kimdir kitobini yoki masalani tushunishga yordam berishini so'rasa yoki shunga o'xshash holatlarda ilmi tolib baxillik qilmasligi kerak. Chunki u ta'lim olish bilan kelajakda xalqqa foyda keltirishni qasd qilgandir. Shuning uchun bu holatda foyda berishdan tiyilishi unga munosib emas.

Abdulloh ibn Muborak aytadilar: "Ilmiga baxillik qilgan kishi uchta narsaning bittasi bilan

balolanadi yoki o'lib ketadi: ilmi behuda ketadi yoki podsho bilan musibatlanadi yoki yod olgan ilmni esidan chiqaradi".

Ta'lim olguvchi ilmni hurmat qilishi kerak, kitobni erga qo'yishi, iflos qo'llar bilan ushlashi loyiq emas, balki tahorat bilan tutishi lozimdir. Ta'lim oluvchi yeyish, ichish, uxlashdan bo'lgan nasibasini tashlab ham yubormasligi, shuningdek, hashamatli hayotni orzu ham qilmasligi kerak. U insonlar bilan chiroyli muomala qilishi, ular bilan aralashishi, qo'shilishni kamaytirishi va o'ziga tegishli bo'lmagan narsalar bilan shug'ullanmasligi lozim. Maqolda aytiladiki: "Keraksiz narsalar bilan shug'ullangan kishidan kerakli narsalari ketadi".

Luqmoni Hakimga: "Ushbu martabangizga qanday etishdingiz?" deyilganda, "To'g'ri so'z, omonatni ado etish, o'zimga tegishli bo'lmagan narsalarni tark etish bilan etdim", dedi.

Ta'lim oluvchi bardavom dars qilishi, sheriklari bilan yoki yolg'iz o'zi masalalarni takrorlab turishi lozim. Yazid Raqoshiy Anas ibn Molikning shunday deganlarini rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bizlarga bir hadisni aytib, uylariga kirib ketar edilar. Biz o'zaro takrorlardik, u xuddi qalbimizda ekilgandek bo'lardi". Bu hol Alloh taoloning:

"(Biz unga): "Ey Yahyo, Kitobni (ya'ni Tavrotni) mahkam ushla", (dedik) va unga go'daklik chog'idayoq hikmat-ma'rifat ato etdik" (Maryam, 12), degan so'zida ham zikr qilingandir. Ya'ni, darsni tirishqoqlik va davomiylik bilan olishga undalyapti. Bir masalda, darsingni mahkam tut, chunki dars ekin ekishdir, deb aytilgan edi. Abdulloh ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo): "Bu ilmga nima bilan etishdingiz?" deb so'rashganda, "So'rovchi til, aqlli qalb, malollanmaydigan yurak va mehnatkash qo'l bilan", deganlar. Ba'zi rivoyatlarda: "Qiyinchilikda ham, xursandchilikda ham sabr qiluvchi badan bilan", deganlari zikr qilinadi.

Sha'biy: "Kimning yuzi yumshasa, ilmi yumshaydi", deydilar. Buzrurgmehrdan ushbu darajasiga qanday etgani so'ralganda, "Qarg'adek barvaqt turish bilan, itning suykalishidek suykalish bilan, mushukning tazarru'sidek tazarru' bilan, cho'chqaning ochko'zligidek ochko'zlik bilan va eshakning sabridek sabr qilish bilan", degan ekan.

Ta'lim oluvchi, agar u bilan bir inson o'rtasida nizo yoki xusumat paydo bo'lib qolsa, muloyimlik va insof bilan muomala qilishi lozim. U bilan johil kishining orasida farq bo'lishi kerak. Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Muloyimlik qay bir narsaning ichiga kirsas, uni chiroyli qiladi. Nodonlik qay bir narsaning ichiga kirsas, uni obro'sizlantiradi", deganlar.

Ta'lim oluvchi ustozini ulug'lashi lozim. Ustozni hurmat qilish ilmga baraka beradi va, aksincha, mensimasa, ilmdan baraka ketadi.

Ta'lim oluvchi insonlar bilan yaxshi muomala qilishi lozim. Chunki insonlarning eng yaxshisi insonlar bilan yaxshi muomala qilgan, yomoni ishonch hosil qilmaydigan kishidir, deyiladi.

Va yana ta'lim oluvchida uchta xislat bo'lishi lozim, shunda olimning so'zidan foyda oladi: 1) nafsida tavoze'lik; 2) ilmga harislik; 3) olimlarni hurmat qilish. Shunda

tavoze'ligi tufayli ilm foyda beradi, hirs bilan ilmni (olimdan) chiqarib oladi va ustozni ulug'lash bilan ulamolarga bog'lanadi.

## **15-bob**

### **Qozilikni qabul qilish va qabul qilmaslik to'g'risida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Qozilikni qabul qilish to'g'risida ham ulamolar orasida ixtilof bor. Ba'zilar qozilikni qabul qilish durust emas, deb aytishdi. Ba'zilar esa, o'zi talab qilmasdan turib qozilikka tayinlansa, agar u shu ishga salohiyatli bo'lsa, qabul qilsa, zarari yo'q, deyishdi. Bu ikkinchisi bizning sohiblarimiz so'zidir.

Uni qabul qilish durust emas, degan kishilar Oisha (roziyallohu anho) Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilgan ushbu hadisni hujjat keltirishadi: "Qiyomat kunida odil qozi keltiriladi va ikki kishining orasida qozilik qilishni yomon ko'rib qoladigan darajada qattiq hisobga tashlanadi". Yana Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam): "Kim qozilikka tayinlansa, go'yo pichoqsiz so'yilibdi", deb aytganlarini rivoyat qilganlar.

Shurayk Hasan Basriyning shunday deganlarini rivoyat qiladi: "Bani Isroildan bir kishi, agar qozilikka tayinlanishga so'ralsa, payg'ambarlikdan noumid bo'lar edi".

Abu Ayyub aytadilar: "Abu Quloba qozilikka chaqirilganida, Shomga qochib keldi. Uning kelishi Shom qozisi lavozimidan bo'shsh vaqtiga to'g'ri keldi. Natijada yana qochdi va yashirinib yurib, Yamomaga keldi. Shundan keyin uni ko'rganimda: "Qozi dengizda suzayotgan kishiga o'xshar ekan, agar yaxshi suzolmasa, g'arq bo'lib ketadi", dedi u".

Sufyon Savriy qozilikka chaqirilganlarida, Basraga qochib yashirindilar. Amirul mo'minin ortlaridan odam yubordi, lekin uni topisholmadi. U zot berkinib yurib vafot etib ketdilar.

Abu Hanifaga (rahmatullohi alayh) darra urishdi, hibs qilishdi, lekin qozilikni qabul qilmadilar.

Qozilikni qabul qilishning zarari yo'q, degan kishilarning hujjati Anas ibn Molikdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilingan hadisdir. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Kim qozilikni xohlasa va yordamchi so'rasa, o'ziga qoldiriladi. Va kim qozilikka majburan tayinlansa, uni to'g'irlab turadigan bir farishta tushadi".

Hasan Basriy aytadilar: "Bir kunlik adolatli hukmning ajri uyida etmish yil namoz o'qigan kishining ajridan afzalroqdir".

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) Abdurrahmon ibn Sumraga: "Amirlikni so'rama, chunki agar o'zing so'rab olsang, unga vakil qilinasan, o'zingga so'ramasdan berilsa, yordam olasan", dedilar.

Abu Muso Ash'ariydan rivoyat qilinadi: "Ikki kishi Payg'ambarning (sollallohu alayhi vasallam) oldlariga kirishdi va: "Bizni ba'zi ishlaringizni bajarish uchun tayinlasangiz, bizda omonatdorlik va yaxshi xislatlar bor", deyishdi. Shunda Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Biz o'zi xohlagan va talab qilgan kishini ishlarimizga boshliq qilib

tayinlamaymiz", dedilar".

## **16-bob** **Qozining odoblari to'g'risida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Qozi ikkala da'vogarni o'tqazishda, ularga qarashda va boshqa muomalalarda, asarlarda kelganidek, barobar bo'lishi kerak. Ummu Salama (roziyallohu taolo anho) rivoyat qiladilar: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Agar sizlarning birortangiz qozilik bilan balolansa, ikki xusumatchining o'rtasida, majlisda, ishoratda va nazarda bir xil bo'lsin. Xusumatchilarning birini boshqasiga nisbatan ko'tarmasin. Qozi hukm qilayotganda xotirjam bo'lishi lozim", dedilar.

Abu Said Xudriy (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Qozi faqat nafsi, ko'zi to'q holda hukm qilsin", dedilar".

Abu Bakr (roziyallohu taolo anhu) Sijistonda qozi bo'lgan o'g'illariga: "G'azablangan holatingda ikki kishi o'rtasida hukm qilma, chunki men Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam): "Qozi g'azablangan holda ikki odam orasida hukm qilmasin", deganlarini eshitganman", deb xat yozganlar.

Hasan Basriy: "Alloh taolo hokimlarga uchta narsani buyurdi: havoyi nafsga ergashmaslikni, Alloh taolodan qo'rqishni va insonlardan qo'rqmaslikni, Alloh oyatlarini o'zgina pulga sotmaslikni", dedilar. So'ng Alloh taoloning ushbu oyatlarini o'qidilar:

"Ey Dovud, darhaqiqat Biz seni erda xalifa qildik. Bas, sen (nafs) xohishiga ergashib ketma! Aks holda, u seni Allohning yo'lidan ozdirur. Albatta, Alloh yo'lidan ozadigan kimsalar uchun hisob-kitob kunini (ya'ni, Qiyomatni) unutib qo'yganlari sababli qattiq azob bordir" (Sod, 26);

"Albatta, Biz Tavrotni hidoyat va nurni o'z ichiga olgan holda nozil qilganmiz. Allohga bo'yinsunuvchi bo'lgan payg'ambarlar, ilohiy bilim egalari va donishmandlar o'zlariga Allohning kitobi omonat qo'yilgani sababli yahudiylarga u (ya'ni, Tavrot hukmlari) bilan hukm qiladilar. Ular bu kitob ustida guvohdirlar. Bas, (ey yahudiy ulamolar), odamlardan qo'rqmangiz, Mendan qo'rqingiz va Mening oyatlarimni qiymati oz narsalarga almashtirmangiz! Kimda-kim Alloh nozil qilgan din bilan hukm qilmas ekan, bas, ular kofirlardir" (Moida, 44);

"Dovud va Sulaymonning ekinzor xususida hukm qilayotgan payt-larini (eslang). O'shanda unga qavmning qo'ylari bo'shalib kirib (uni payhon qilib yuborgan) edi. Biz ular (chiqargan) hukmga shohid edik" (Anbiyo, 78). So'ng: "Agar Alloh taolo bu ikkalasining (Dovud va Sulaymonning) ishini zikr etmaganida, qozilar halok bo'ladilar, deb o'ylagan bo'lardim. Lekin Alloh birini (Sulaymonni) ilmi sababli maqtadi va birini (Dovudni) ijtihodi sababli uzrli sanadi", dedilar.

## **17-bob** **Qur'onni o'rganish va o'rgatish to'g'risida**

Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahimahulloh) aytadilar: Qur'on o'qiy oladigan kishi ba'zi

vaqtlarda o'qishni tashlab qo'yishi durust emas. Qancha ko'p o'qisa, afzaldir. Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Insonlarning eng afzali echilib ko'chuvchidir", dedilar. "Echilib ko'chuvchi kim?" deb so'rashdi. "Bir boshlaganda tugatuvchi Qur'on sohibidir. Xuddi echganda ketib qoladigandek, boshlasa tugatadi. Qur'on o'qiy oladigan kishi bir yilda ikki marta uni xatm qilish lozim, agar ko'proq o'qishga qodir bo'lmasa", dedilar Nabiyy.

Hasan ibn Ziyod Abu Hanifadan (rahimahulloh) rivoyat qiladi: "Bir yilda ikki marta Qur'onni xatm qilgan kishi uning haqqini ado etibdi, chunki Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) vafot etgan yili Jabroilga (alayhissalom) uni ikki marta o'qib bergan edilar.

Anas ibn Molikdan (roziyallohu taolo anhu) rivoyat qilinadi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Menga ummatimning ajr-savobi ko'rsatildi, hattoki inson masjiddan chiqarib tashlagan xasning savobi ham. Lekin men Qur'on o'qishdan ulug'roq yaxshilikni ko'rmadim. Menga ummatimning gunohlari ko'rsatildi, kishi yod olgandan so'ng esidan chiqargan oyat yoki suraning gunohidan kattaroq gunohni ko'rmadim", dedilar.

Abu Abdurahmon Sulamiy Usmon ibn Affondan (roziyallohu anhu), u zot Nabiyydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Sizlarning eng yaxshingiz Qur'onni o'rganib, uni boshqalarga o'rgatganingizdir". Abdurahmon: "Mana shu hadis meni shu joyga o'tqizdi", dedilar, ya'ni, insonlarga ta'lim berish uchun o'tirganlarini nazarda tutdilar. Zero, u kishi Hasan va Husaynning (roziyallohu anhumo) muallimi edilar".

Zunnun Misriy aytadilar: "Men masjidga kirganimda:

"Ularning ustlarida yashil ipak va shoyi liboslar bo'lib, ular kumush bilakuzuklar bilan bezangandirlar va Parvardigorlari ularni nihoyatda pokiza sharob-la sug'organdir" (Inson, 21), oyatini o'qiyotgan kishini ko'rdim, u oyatni takror-takror o'qir va og'zi bilan xuddi bir narsa ichayotganday tamshanar edi. Men unga: "Ey, sen bir narsani ichyapsanmi yoki o'qiyapsanmi?" dedim. U: "Battol, men ichganda topadigan lazzat va halovatni uni o'qishdan topyapman", dedi".

Xabarlarda kelishicha, Isrofilning (alayhissolatu vassalom) yoqimli ovozi bordir. Agar u Qur'on o'qimoqchi bo'lsa, farishtalar uni tinglash uchun ibodatni to'xtatishadi.

Dovudning (sollallohu alayhi vasallam) chiroyli ovozlari bor edi. Agar Zaburni o'qisalar, suv muzlab, qushlar havoda, hayvonlar va vahshiylar erda to'xtab qotib qolar edi. Yirtqichlar chorva hayvonlariga aralashib ketardi. U zotdan o'sha xato zohir bo'lgandan so'ng, ovozlaridagi halovat olib qo'yildi. U zot: "Ey Rabbim, ovozinga nima qilding?" dedilar. Alloh azza va jalla vahiy qilib aytdiki: "Sen Bizga, Biz senga berdik va sen Bizga osiylik qilganingdan keyin e'tiborsiz tashlab qo'ydik, agar oldingidek erta turganingda, seni qabul qilardik".

Qiyomat kunida Isrofilga (alayhissalom) Qur'on o'qish amr qilinadi va Dovudga (sollallohu alayhi vasallam) ham o'qish buyuriladi. Hazrati Dovud: "Ey Rabbim, mening ovozim qani?" deydilar. Shunda: "Senga ovozing qaytarildi", deyiladi. U zotga ovozlari qaytarib beriladi, so'ng hujralardan hurlarning ovozi eshitiladi, u ovozlarni hech kim hech qachon eshitmagan. Alloh azza va jalla: "G'qimli ovozlarni eshitganmisizlar?" deb aytadi. Shunda hijob ko'tariladi va Alloh ularga: "Sizlarga salomlar bo'lsin", deydi. Bu Alloh

taoloning:

"(Mo'minlar Allohga) ro'baro' bo'ladigan kunda ularga (Alloh tomonidan yo'llanadigan) salom tinchlik-omonlik tilash bo'lur. (Alloh) ular uchun ulug' mukofot (ya'ni, jannat) tayyorlab qo'ygandir" (Ahzob, 44), degan so'zidir.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ilm o'rgatish uch sababga ko'ra bo'ladi. Birinchisi, Allohdan ajr umidida, haq olmasdan; ikkinchisi, ujra (maosh) hisobiga; uchinchisi, biron-bir shartsiz, bordiyu, hadya qilishsa, qabul etadi. Alloh rizosi uchun ta'lim bergan muallimga ajr bor va uning amali Payg'ambarning (sollallohu alayhi vasallam) amallaridir. Agar haq evaziga ta'lim bersa, bu xususda ixtilof bor. Oldingilar: "Ta'lim uchun haq olish joiz emas, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Mendan bir oyat bo'lsa ham, etkazinglar", deganlar. Bas, u zotning ummatlariga ham o'zlariga vojib bo'lgani kabi etkazish vojib bo'ldi. Payg'ambarga (sollallohu alayhi vasallam) haq olish joiz bo'lmagani kabi, ummatlariga ham joiz emas", deyishdi. Keyingi ulamolardan Osim ibn Yusuf, Nosir ibn Yahyo, Abu Nasr ibn Salom va boshqalar joiz hisoblashdi. Ta'lim oluvchi uchun Qur'on yodlashga, o'qish va yozishni o'rganishga haqni shartlashib olishi afzaldir. Ustoz-shogird Qur'onning ta'limida haqni shartlashib olishlarida zarar yo'q deb bilaman, chunki musulmonlar shuni bir-birlaridan meros qilib olganlar va unga ehtiyojlari bor. Uchinchi sababga ko'ra, ustoz shartlashmasdan ta'lim bersa va unga hadya qilinsa, hadyani qabul etishiga barchalari ittifoq qilishgan. Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) ham muallim bo'lganlar va hadyani qabul qilganlar. Abu Said Xudriy (roziyallohu taolo anhu) aytadilar: "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) ashoblari g'azotda yurganlarida bir arab mahallasidan kishi kelib: "Oralaringda dam soladigan odam bormi? Mahalla oqsoqolini chayon chaqib oldi", dedi. Bir kishi unga Fotiha surasini o'qib dam soldi, so'ng u tuzaldi. Shunda unga qo'ylaridan bir nechtasini hadya qildi. U olishdan bosh tortdi. Bu haqda Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) aytganida: "Nima bilan dam urding?" deb so'radilar. U: "Fotiha bilan", dedi. Shunda Rasululloh: "Fotiha surasi bilan dam urish kerakligini qaerdan bilding, qo'ylarni ol va menga ham ulush ajratinglar", dedilar. Ya'ni, haq olish mubohdir.

Ba'zi olimlar Mushafga nuqta va belgi qo'yishni yomon ko'rishdi. Bu Abu Hanifaning (rahmatullohi alayh) so'zlaridir. Abdulloh ibn Mas'ud: "Qur'onni ortiqcha narsalardan xoli qilinglar va unda Alloh taoloning so'ziga qo'shib biron narsani yozmanglar, unga belgi qo'ymanglar va uni chiroyli ovoz bilan ziynatlanglar, uni arabiy qilib o'qinglar, chunki u arabchadir", deganlar. Lekin biz aytamizki, unga nuqta va unga belgi qo'ysa, ziyoni yo'q, musulmonlar bu ishni meros qilib olganlar. Chunki unga muhtoj bo'lganlar, xossatan ajamlar. Nuqta, alomatlarini qo'yish kerak, chunki ular mutakallafdir.

Junub kishi va hayz ko'rgan ayol Qur'on o'qimaydi, mushafni ushlaymaydi ham, faqat g'ilofli bo'lsa, ushlaydi mumkin. Tahoratsiz kishi o'qisa bo'laveradi, lekin u ham mushafni faqat g'ilofi bilan ushlaydi.

"Uni faqat tahoratli – pok kishilargina ushlar" (Voqe'a, 79), degan muhkam oyat sababli Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Qur'onni faqat pok kishigina ushlaydi", deganlar.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu taolo anhu) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) hojatxonadan chiqqanlaridan keyin Qur'on o'qirdilar".

Janozadan boshqa narsa kishini Qur'on o'qishda man qila olmaydi. Qur'on o'quvchining tahoratli bo'lishi mustahabdir. Junub va hayz ko'rgan ayol bir oyatdan kamrog'ini o'qishining ziyoni yo'q. Agar muallima ayol hayz ko'rsa, Qur'ondan ta'lim berishda bir oyatning yarmini talqin qilib, so'ng qolgan yarmini aytadi. Birdaniga bir oyatni to'laligicha o'rgatmaydi. Junub va hayzdagi ayolga masjidga kirishi joiz emas. Tahoratsiz kishi masjidga kirishining ziyoni yo'q. Junub va hayz ko'rgan ayol tasbeh, tahlil aytishi, duolar qilishi mumkin. Faqat Qur'on tilovati bilan mashg'ul bo'lishi joiz emas.

## **18-bob** **"Sab'ul masoniy" tafsiri**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Said ibn Jubayr Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qildilar: "U zot Alloh taoloning:

"Darhaqiqat, Biz sizga yetti takrorlanuvchini va ulug' Qur'onni ato etdik" (Hijr, 87), degan so'zidagi yetti takrorlanuvchi haqida: "Ular: Baqara, Oli Imron, Niso, Moida, An'om va A'rof", dedilar, ammo men yettinchisini unutdim. Albatta, bular masoniy, ya'ni, maqtalغان deb nomlandi, chunki Alloh taolo ularni maqtadi, Muhammadning (sollallohu alayhi vasallam) ummatlari uchun ularni saqlab qo'ydi". Tobe'inlar ham xuddi shunday deyishgan Ibn Abbosning (roziyallohu taolo anhumo) rivoyatidan boshqa rivoyatda aytiladiki: "Sab'ul masoniy (yetti takrorlashuvchi) Fotiha surasidir". Ibn Mas'ud sab'ul masoniyni Fotihatul kitob, deganlar. Abul Aliya ham Alloh taoloning: "Sab'an minal masaniy" so'zi haqida: "U Fotihatul kitob", deb aytganlar. U kishiga: "Ular yetti uzun suralar emasmi?" deyishganda, "Bu oyat nozil bo'lganda, uzun suralardan birortasi hali tushmagan edi", dedilar. Abu Hurayra (roziyallohu taolo anhu) aytadilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "U Fotihatul kitob", dedilar". Boshqa rivoyatda aytilishicha, bu bilan Qur'onning hammasini iroda qilganlar.

Aytadilarki, Fotihatul kitob sab'ul masoniy deb ataldi, chunki u yetti oyatdir va har namozda o'qilgani sababli maqtalgandir. Yana aytiladiki, uning sab'ul masoniy deb nomlanishiga sabab ikki marta – bir marta Makkada va bir marta Madinada nozil bo'lganidir. Vallohu a'lam.

## **19-bob** **Makka va Madinada nozil bo'lgan suralar haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Abdurazzoq Ma'murdan, u Qatodadan rivoyat qiladi: "Madinada Baqara, Oli Imron, Niso, Moida, An'om, Anfol, Tavba, Ra'd, Nahl, Haj, Nur, Ahzob, "Vallaziyna kafaru", Fath, Hujurot, Hadid, Mujodala, Hashr, Qitol, Mumtahana, Saf, Jum'a, Munofiqun, Tag'obin, Taloq, Tahrim, "Va lam yakunillaziyna kafaru", "Iza ja'a nasrulloh", "Qul huvallahu ahad" va ikki muavviza (ya'ni, Nos va Falaq) suralari nozil bo'lgan. Boshqalari Makkada ingan". Ba'zilar An'om surasining oltita oyati, Nahl surasining ba'zi oyatlari, "Bani Isroil"ning bir qismi, Qasos, Inson suralarining ba'zi oyatlari, Shuaro surasining oxiri va "Val adiyat" surasi Madinada nozil bo'lgan, deyishadi. Mujohid: "Fotihatul kitob"ni Madinada nozil bo'lgan deganlar. Ibn Abbos Makkada tushgan deb aytganlar.

## **20-bob** **Baroat surasi haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Ulamolar Baroat (Tavba) surasining boshida "Bismillahir rohmanir rohim"ning tushib qolishi haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Qur'on nozil bo'lsa, uni kotiblariga yozdirar edilar. Baroat surasini yozdirganlarida kotib "Bismillahir rohmanir rohim"ni unutdi, natijada bu sura basmalasiz bo'lib qoldi", deyishadi.

Boshqalar esa: "Baroat surasi musulmonlar bilan kofirlar o'rtasidagi ahdni bekor qilish uchun nozil bo'lgan. Shu sabab "Bismillahir rohmanir rohim", yozilmadi. Chunki basmalani yozishda kofirlarga omonlik bordir, ularga omonlik bo'lmaslik uchun u tark qilindi", degan fikrdalar. Mening nazdimda eng to'g'ri so'z Ibn Abbosdan (roziyallohu taolo anhumo) rivoyat qilingan ushbu rivoyat: "Usmon ibn Affondan (roziyallohu taolo anhumo) shu haqda so'radim. U: "Anfol surasi Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Madinaga kelishlaridan oldin nozil bo'lgan, Tavba esa Qur'onning oxirida nozil bo'ldi, qissalari bir-biriga o'xshash. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bizga ularning bitta yoki alohida-alohida ekanligini tushuntirmaganlar natijada ishtiboh paydo bo'ldi. Bas, biz ularning orasini ajratdik va "Bismillahir rohmanir rohim"ni yozishni tark qildik", dedilar".

Alidan (roziyallohu taolo anhumo) so'ralganda: "Bu qilich bilan (ya'ni, ahdni bekor qilish uchun) nozil bo'lgan", deganlar.

## **21-bob** **Nabiyning (sallollohu alayhi vassallam) Qur'onni Ubay ibn Ka'bga o'qib berganlari haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Ubay ibn Ka'bga Qur'onni o'qib berganlari rivoyat qilingan. Ulamolarning ba'zilari Rasululloh insonlarga tavoze'ni o'rgatish uchun Qur'onni unga o'qib berdilar, birorta kishi ta'lim olish, o'qish bilan o'zidan pastroq kishilarga kibr qilmasligi uchun, deyishadi. Ba'zilar esa, balki Ubay ibn Ka'b Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) so'zlarini tez ilg'ab olgani uchun unga o'qib bergan edilar, deydi. Bas, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Qur'onni unga o'qib berish bilan Ubay ibn Ka'b so'zlarini olishini va uni o'zlaridan eshitganidek o'qib berishini, boshqalarga o'rgatishini xohladilar.

Anas ibn Molikdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Ubay ibn Ka'bga: "Alloh taolo senga Qur'onni o'qib berishimni buyurdi", dedilar. U: "Alloh mening nomimni aytdimi?" deb so'radi. Rasululloh: "Ha", dedilar. Shunda u yig'ladi".

Rivoyat qilinadiki: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) unga: "Lam yakunillaziyna kafaru"ni o'qidilar va: "Alloh senga "Lam yakunillaziyna kafaru"ni o'qib berishimni buyurdi", dedilar.

Ubayning (r.a.) yig'lashlari shunday ne'matga munosib ko'rilganlariga xursandchiliklaridan va o'zlarini kichkina tutganlaridandir. Ushbu ne'mat ikki vajhdan.



Birinchisi: u zotning nomlari ochiq aytilib tayin qilinishi. Ikkinchisi: Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) u zotga o'qib berishlari. Bu ish buyuk daraja bo'lib, insonlardan birortasi u zotga sherik bo'lolmadi.

Yana aytishlaricha, Ubay ibn Ka'b bu ne'matning shukrini ado etolmay qolishdan qo'rqib yig'laganlar.

Ubayga bu suraning o'qib berilishiga sabab, u qisqa bo'lsa-da, hamma usul, qoida va muhim narsalarni o'zida jamlangadir. O'shandagi holat qisqalikni taqozo qilardi.

Alloh taolo Rasulullohga bu surani Ubayga o'qib berishga buyurishidagi hikmat esa, Ubayga Qur'on lafzlarini, ohanglarini, to'xtash joylarini bildirishdir. Chunki Qur'on ohangi shariat tuzib qo'ygan uslubga binoandir. Ohangining har zarbida nafslar ta'siri bordir.

Va yana aytiladiki, Qur'onni mohir, ulug' hofizlarga o'qib berish, shariat ilmlarini olishda tavoze'li bo'lish lozim, garchi nasabda, dinda, fazilatda, martabada, shuhratda va boshqa narsalarda o'zidan past bo'lsa ham.

## **22-bob** **She'r va she'r o'qish to'g'risida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar she'r o'qish haqida gapirishdi. Ba'zilari uni yomon ko'rdi, boshqalari esa unga ruxsat berdi. Yomon ko'rganlar A'mash Abu Solihdan, u Abu Hurayradan rivoyat qilgan hadisni hujjat qilishadi. Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Qorinlaringizning yiring va qon bilan to'lib-toshishi she'r bilan to'lishidan yaxshiroqdir", dedilar. Alloh taolo:

"Shoirlarga yo'ldan ozganlar ergashur" (Shuaro, 224), ya'ni, adashganlar, degan. Sha'biy: "Ular (oldingilar) she'r oldidan bismilloh deb yozishni yomon ko'rardi", deydilar.

Rivoyat qilinadiki, Masruq she'rdan bir baytni misol olayotib, birdan uni yirtib tashladilar. Unga: "Baytni tugatganingizda edi?" deyishganda, "Men nomai a'molimda biror bayt bo'lishini yomon ko'raman", dedilar.

Ibrohim ibn Yusuf Kasir ibn Hishomdan rivoyat qiladi: "Abdulkarimdan Alloh taoloning "Minannasi man yashtaroh lahul hadisa", degan so'zi haqida so'rashganida: "Bu kuy va she'r", deb javob berdilar.

Ato aytadilar: "Iblis: "Ey Rabbim, meni Odam sababli jannatdan chiqarding, endi mening uyim qaerda?" dedi. Alloh taolo aytdi: "Hammom". Iblis: "Majlisim qaerda?" dedi. Alloh aytdi: "Bozor". "O'qiydigan narsam nima?" dedi. Alloh aytdi: "She'r". "Tuzog'im nima?" dedi. Alloh aytdi: "Ayollar". "So'zim nima?" dedi. Alloh aytdi: "G'iybat va yolg'on". "Kitobim nima?" dedi. Alloh aytdi: "Teriga yozish" (ya'ni, tatiurovka), dedi.

She'rni muboh deganlarning hujjati esa Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qilgan hadisdir: Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Albatta she'rda hikmat bor", dedilar. Yana Hishom otasidan rivoyat qiladiki, otasi: "Ummul mo'minin Oishadan ko'ra she'rni, tibni, lug'atni, fiqhni biluvchiroq xotinni ko'rmadim", degan ekan. Sammok ibn Harb Jobir ibn

Sumradan rivoyat qiladi: "Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) ashobi she'r o'qirdi". Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) ularning orasida tabassum qilib o'tirardilar".

Ikrima Ibn Abbosning (roziyallohu taolo anhumo): "Agar birortangiz Qur'ondan biror narsani o'qisa va tafsirini idrok qila olmasa, uni she'rdan izlasin, chunki she'r arab devonidir", deganlarini rivoyat qiladilar.

Abu Dardoga: "Sendan boshqa hamma ansorlar she'r aytadi", deyilganda, "Men ham she'r aytaman", deganlar va she'r o'qiganlar.

Kalbiy Abu Solihdan, u esa Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladiki: "Oishaga (roziyallohu taolo anho) Abu Hurayraning hadisi etganida: "Alloh Abu Hurayrani rahmat qilsin. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlarning birortangiz qornini qusiq bilan to'ldirishi, hatto ko'rinib ketsa ham, she'r bilan to'ldirishidan yaxshiroq", dedilar. Bu bilan kishi (ya'ni, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam) hajv qilib, obro'sizlantirib yuboradigan she'rni iroda qildilar", deb javob berdilar".

Yana aytiladiki, she'rdan qaytarishdagi maqsad agar kishi she'r bilan mashg'ul bo'lsa, Qur'on o'qish va zikrdan to'sib qo'yadi. Ammo to'sib qo'ymasa, she'r o'qishning zarari yo'qdir.

## 23-bob

### **Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) she'rlari haqida aytilgan rivoyatlar**

Abu Lays Samarqandiy (rahmatullohi alayh) aytadilar: Ulamolar Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) she'r rivoyat qilish to'g'risida gapirishdi. Ba'zilari, u zotdan she'r sobit bo'lmaganini aytishdi va bunga Oishaning (roziyallohu taolo anho) ushbu rivoyatlarini hujjat qilib keltirishdi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) she'r aytarmidilar?" deb so'rashganda, Oisha onamiz aytdilarki: "U zot uchun so'zlarning eng yomoni she'r edi, lekin bir marta Ibn Hays ibn Turfaning baytini keltirib, oxiridagi misrani boshiga qo'ydilar. U shunday so'zlar edi: "Yaqinda senga kunlar johil emasligini zohir qiladi va senga zodi rohila olmagan kishi xabar keltiradi". Rasululloh buni "Xabarlardan zodi rohila olmagan kishi senga xabar keltiradi", deb o'qidilar. Shunda Abu Bakr (roziyallohu anhu): "Ey Rasululloh, bunday emas-ku?" dedilar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Men shoir emasman va shoirlik menga munosib ham emas", dedilar".

Buning tasdig'i Alloh taoloning kitobida bor:

"(Muhammadga) she'r o'rgatmadik va (shoirlik) uning uchun eslatma va ochiq-ravshan Qur'onidir" (G'sin, 69).

Ba'zilar esa u kishiga (sollallohu alayhi vasallam) she'rni nisbat berish, xabarlarda kelganidek, joiz deyishdi. Ibn Tovus otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Xandaq kunida:

"Hayot faqat oxiratda, ey Parvardigor,  
Rahmat ayla ashobim, muhojiro hamda ansor", derdilar.

Ansorlar ham she'r bilan javob qilishardi:

"Biz kim Muhammadga bay'at berganmiz,

Vafodamiz toki tirik ekanmiz".

Abu Usmon Nahdiy Salmon Forsiyning (roziyallohu anhu): "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Xandaqqa har kerka urganlarida:

"Alloh nomi ila, shu sabab paydo bo'ldik,

Boshqaga gar sajda qilsak, baxti qaro bo'ldik,

Qanday yaxshi Rabbdur, dinin nurbaho ko'rdik", deb aytardilar", deganlarini rivoyat qilganlar.

Baro' ibn Ozib Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) shunday bayt aytganlarini rivoyat qiladilar:

Men nabiyman, yolg'oni yo'q,

Men Abdulmuttalib o'g'liman".

Jundub (roziyallohu anhu) aytadilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) yo'lda ketayotib to'satdan qoqilib ketdilar. Barmoqlariga tosh tegib qonadi. Shunda:

"Barmog'imni qonatding, xolos,

Alloh uchun azob tortish – soz!" dedilar.

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Bu rivoyatlar sahihdir, lekin ehtimol, Rasululloh bu xabarlar bilan she'rni qasd qilmaganlar, balki bular she'rni qasd qilmasdan she'rga muvofiq chiqqan kalomdir. Chunki Rasulullohdan rivoyat qilingan bu baytlar rajaz bahridadir. Rajaz esa, she'r bo'la olmaydi, balki bular saj'ga o'xshash so'zlardir.

## **24-bob** **Tush ta'biri haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Dinda bilimdon (faqih) bo'lgandan so'ng, tush ilmini o'rgansa, zarari yo'q. Bu yaxshi ilm. Darhaqiqat, Alloh taboraka va taolo Yusufga (alayhissalom) tush ta'biri ilmini in'om qildi. Bu Alloh taoloning:

"Mana shunday qilib Yusufni – unga barcha tushlarning ta'birini bildirish uchun o'sha erga joylashtirib qo'ydik" (Yusuf, 21), degan so'zidir.

Umar ibn Xattobning (roziyallohu anhu): "Sizlarga dinda faqih bo'lish, arabchani tushunish va tushning ta'birini yaxshi bilish lozimdir", deganlari rivoyat qilingan. Agar bu ilm fiqh ilmidan mashg'ul qilib qo'ysa, uni tark etib, fiqh ilmini o'rganish afzaldir. Chunki fiqh bilan Alloh taoloning hukmlari bilinadi. Tush ta'biri ilmi esa oldindan yaxshilikni bila olishi mumkin bo'lgan bir fol o'rnidadir.

Abu Yusufdan tush masalasida so'rashganida: "Uyg'oqlikdagi ishdan forig' bo'lib, uyqu ishi bilan mashg'ul bo'lishdir", deganlar. Muhammad ibn Siyringa ko'pincha tush aytilganda: "Uyg'onganingda Allohdan qo'rq, shunda senga uyqungda ko'rgan narsa zarar bo'lmaydi", derdilar. Ismoil ibn Oliya Ayyubdan rivoyat qiladi. U: "Menga Muhammad ibn Siyrinning fatvo emas, balki tushga ta'bir aytishini aytardilar. Bir muddat u ta'bir aytmay qo'ydi, keyin yana boshladi. So'ng: "Ta'bir men gumon qilgan bir gumondir. Bir kishining tushini yaxshi gumon qilsam, yaxshilikni unga aytdim", dedi".

Abu Qatoda rivoyat qiladilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlarning tush ta'birida rostgo'yligingiz so'zda rostgo'yligingizdir", dedilar.

Bu hadislarda tushga ta'bir aytishning zarari yo'qligiga dalil bordir. Garchi u folga o'xshasa ham.

## **25-bob**

### **Solih tush va chiroyli ta'bir to'g'risida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Hishom ibn Urva otasidan, otasi Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qiladi: "Oisha onamiz aytadilar: "Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) boshlangan vahiyning avvali solih tush edi. Tushlari tonggi falaqqa o'xshash aniq bo'lardi".

Abu Said Xudriy rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Agar birortangiz yaxshi tush ko'rsa, u Alloh dandir, Allohga hamd aytsin va uni yaxshi ko'rgan kishisiga gapirsin, agar bundan boshqasini ko'rsa, u shaytondandir, uning yomonligidan Allohdan panoh tilasin, uni birortaga aytmasin. Shunda unga zarar bermaydi", dedilar.

Abu Qatoda rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Solih tush Alloh taolodan, yomon tush shaytondan. Kim yomon tush ko'rsa, chap tomoniga uch marta tuflas va Allohdan toshbo'ron qilingan shaytondan panoh tilasin, shunda bu unga zarar bermaydi", dedilar.

Oisha (roziyallohu anho): "Tushimda hujramga tushgan uchta oyni ko'rdim, buni otamga (Abu Bakrga) aytib berdim. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) vafot etib, hujramga dafn etilganlarida, Abu Bakr: "Bu qabr o'sha oylaringning bittasi va eng yaxshisi", dedilar". Abu Bakr vafot etib, dafn qilinganida, Oishaga (roziyallohu anho) bu ikkinchi oy, Umar ham vafot etib, dafn qilinganlarida, bu uchinchi oy, deyildi.

Rivoyat qilishlaricha, Muhammad ibn Siyrin tushda zanjir ko'rishni yoqtirmasdilar, kishandan esa hayratlanib: "Kishan dinda sobitlik belgisi", derdilar.

Muhammad ibn Siyrin: "Tush uch xil: nafsning so'zi, shaytonning qo'rqitishi va Rahmonning xushxabari. Kim yomon tush ko'rsa, uni birortaga aytmasin. Tursin va namoz o'qisin", deyilar.

Sufyon Amr ibn Dinordan, u Atodan rivoyat qiladi: "Eri yo'qolgan bir ayol Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) huzurlariga kelib: "Tushimda uyimning joizasi sinibdi", dedi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh xohlasa, yaxshilik bo'ladi. Alloh senga yo'qotgan narsangni qaytaradi", dedilar. So'ng uning eri qaytdi. Keyin yana g'oyib bo'ldi. Tag'in shunga o'xshash tush ko'rdi. Nabiyni (sollallohu alayhi vasallam) izlab kelgan edi, u zotni topa olmasdan, Abu Bakr bilan Umarga (roziyallohu anhumo) tushini aytib berdi, Ular: "Ering o'ladi", deyishdi. So'ng Nabiyni (sollallohu alayhi vasallam) topdi va tushini aytdi. Rasululloh: "Buni birortaga aytdingmi?" deb so'radilar. U: "Ha", dedi. Shunda Rasululloh: "Senga aytilgani bo'ladi", dedilar. Hech qancha vaqt o'tmasdan, unga erining o'limi xabari keldi".

Ato aytadilar: "Tush ta'viliga ko'ra bo'ladi, deyishadi. Yana tushni faqat hakimga yoki yaxshi ko'rganiga yoki rahmdil kishiga aytiladi, deyiladi, yana faqat aqlli yoki yaxshi ko'rgan kishisiga aytiladi, ham deyiladi. Ba'zilar mazkur hadisni "tush ta'viliga ko'ra", degan gapga hujjat qilishadi. Tahqiqchilar: "Tushning hukmi johil ta'birni o'zgartirishi bilan o'zgarmaydi, fiqhiy masalada johilning javobi sababli hukm qilib bo'lmagani kabi", deb aytishgan. Ammo ayolning tushi Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ta'villari bilan o'zgardi, chunki Alloh taolo u zotning hurmati uchun so'zlarini rost qildi".

Jobir rivoyat qiladilar: "Bir kishi Rasulullohga: "Tushimda go'yoki boshim uzilib tushdi, men uning ortidan borib oldim", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Boshing uzilib tushgan vaqtda buni qaysi ko'zing bilan ko'rding?! Agar shayton birortangiz bilan o'ynashsa, uni hech kimga aytmasin", dedilar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Tushning eng rosti tongda bo'lgani", deganlar. Yana: "Solih tush payg'ambarlikning qirq oltidan bir bo'lagi", deb aytganlar.

Abu Hurayra (rahmatullohi alayh) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim meni tushida ko'rsa, haqiqatdan meni ko'ribdi, chunki shayton menga o'xshay olmaydi", dedilar".

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kim meni tushida ko'rsa, yaqinda o'ngida ko'radi", dedilar.

Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim oldin hech ko'rmagan tushini ko'rsa, ikki arpani bog'lasin, lekin uni qila olmaydi", dedilar. Boshqa rivoyatda "bog'lovchi bo'la olmaydi", deyilgan.

## **26-bob** **Tib va dam solish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilarki: Ba'zilar dam solish va davolanishni yomon ko'rishdi, ammo bunga ulamolarning ommasi ijozat berdi.

Bu ishni yomon ko'rganlar Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadisni hujjat keltirishadi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Ummatimdan etmish mingtasi hisob-kitobsiz jannatga kiradi", dedilar. Ukkosha ibn Muhsin turib: "Ey Rasululloh, Allohga men uchun duo qiling, meni ulardan qilsin", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) u uchun duo qildilar. Boshqa bir kishi (turib): "Men uchun ham duo qiling", dedi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ukkosha sendan ildamlik qildi", dedilar. Aytilishicha, ikkinchi kishi munofiq edi, shu sababli unga duo qilmadilar va bu bilan mo'minni yuqori qo'yidilar. So'ng Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) uylariga kirib ketdilar. Odamlar jannatga hisobsiz kiradigan kishilar kimligi haqida gaplasha boshladi. Ba'zilar: "Ular Islomda tug'ilib, Islomda o'lganlar va gunoh ish qilmaganlar", deyidi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) chiqdilar, so'ng bu haqda u zotdan so'rashdi. "Ular dam soldirmaydilar, irim-sirimlarga ishonmaydilar, yaralariga tamg'a qilib bosmaydilar va Rabbilariga tavakkul qiladilar", dedilar Nabiy.

Imron ibn Hasin: "Men nurni ko'rardim va maloikalarning so'zlarini eshitardim, dam soldirgan edim, bu narsa mendan yo'qoldi", deydilar.

A'mash Abu Zabbondan, u Huzayfa ibn Yamondan rivoyat qiladi. U zot bayram qilayotgan odamning oldiga kirib, qo'lini uning biqiniga qo'ydilar. "Nima bu?" deb so'radilar. Haligi kishi: "Tumorim", dedi. Uni olib bo'lib tashladilar va: "Agar o'lganingda senga janoza o'qimasdim", dedilar.

Said ibn Jubayr aytadilar: "Chayon qo'limni chaqib oldi, so'ng onam dam soldirishimga qasam ichtirdi va men folbinga chayon chaqmagan qo'limni berdim".

Abdullohning ayoli Zaynab aytadilar: "Bir kuni Abdulloh bo'ynimdagi ipni ko'rib: "Bu nima?" dedi. "Tumorim", dedim. Uni olib bo'lib tashladi va: "Abdullohning oilasi shirkdan behojat", dedi".

Hasan Basriy aytadilar: "Alloh Halilaj va Balilajni bilmaydigan qavmni rahmat qilsin. Chunki u bilan gumon qilinadi, shifosi bilinmaydi". Ibn Umardan rivoyat qilingan ushbu so'zni ko'rmaysanmi? U: "Kasalni ishtaha tortgan narsadan qaytarmanglar, ehtimol, Alloh uning shifosini ishtahasi tortgan narsasida qilgandir", deganlar".

Dam solish va davolanishni muboh deganlar Ibn Mas'uddan (roziyallohu anhu) qilingan rivoyatni hujjat qilib keltirishadi: "Alloh taolo kasalliklarni davosi bilan ham tushirdi. Faqat qarilik va o'limning da'vosi yo'q, bas, sigir sutini ko'p ichinglar. Chunki unga hamma o'tlardan aralashgan". Boshqa rivoyatda: "u hamma o'tlardan boqilgan", deyiladi.

Sufyon ibn Uyayna Ziyod ibn Aloqadan, u Usama ibn Sharikdan rivoyat qiladi: "Nabiyni (sollallohu alayhi vasallam) Makkada ko'rdim, arablar: "Biz bir-birimizni davolashimizda bizga gunoh bormi?" deb so'rashardi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Allohning bandalarini davolanglar, chunki Alloh har qanday dard uchun shifoni yaratdi", dedilar". Hajjoj ibn Artot Atodan dam solish haqida so'radi, shunda u: "Ey Iroq ahli, bu ishning yomonligini faqat sizdan eshitdik, chunki ibodat badan bilan qoyim bo'ladi, bas, bizga ibodatni to'g'ri qilish uchun hukmlarni ta'lim olish vojib bo'lgani kabi, tib ilmi, badanni davolash ilmi ham vojibdir. Ibodatni isloh qilish uchun uni ta'lim olish yoki unga amal qilishning ziyoni yo'q, chunki hukmlardagi so'z garchi hujjatni va yaqiyinsiz ham, ray bilan joiz bo'ladi. Shuningdek, tabobatdagi so'z ham agar ray va tajribalar bilan bo'lsa, undan foydalanish mumkin.

Dam solishdan qaytarganlik haqida vorid bo'lgan xabarlar mansuxdir. Jobir (roziyallohu anhu) qilgan rivoyatda aytiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) dam solishdan qaytargan edilar. Amr ibn Hazmning oilasida chayonga qarshi dam solishardi, shunda ular Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) aytib: "Siz dam solishdan qaytargan edingiz", deyishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Men bunda biror ziyonni ko'rmayapman, bu ishni birodariga manfaat berishga qodir bo'lgan kishi qilsin", dedilar. Ehtimol, shifoni davodan deb e'tiqod qilishdan qaytarilgandir. Ammo shifo Alloh taolodan va davoni bir sabab deb bilsa, buning ziyoni yo'q.

Darhaqiqat, dam solish va davolanishning mubohligi haqida ham asarlar kelganin. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Uhud kunida jarohatlanganlarida yaralarini davolaganlar. Rivoyat qilinadiki Ansorlardan bir kishi o'z

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) unga yarasiga qizigan narsa bosishni buyurdilar. Yana

naql qilinadiki, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) mu'avvizatayn (Falaq va Nos suralari) bilan dam solar edilar. Bu to'g'ridagi xabarlar behisobdir.

## **27-bob** **Shifobaxsh ozuqalar haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Shahr ibn Havshab Abu Hurayradan (roziyallohu anhumu) rivoyat qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Qo'ziqorin marhamatdandir (ya'ni, Alloh taoloning bandalariga qilgan mehribonligidir. Bu taomni ularga ekmasalar ham berdi). Uning suvi ko'zga shifodir. Xurmo jannatdandir, unda zaharga shifo bor", dedilar.

Rabi' ibn Haysam: "Menda nifos ko'rgan ayollarga davo bo'ladigan faqat ho'l xurmo va kasallarga faqat asal bor", dedilar.

A'mash Abu Solihdan rivoyat qiladi: "Isitmaga tutdan birga bir, yog'dan uchdan bir, asaldan ham uchdan bir, sutdan uchdan bir aralashtiriladi va ichiladi". Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Isitma jahannam issiqligidandir. Uni suv bilan sovutinglar", deganlar. Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Asalda baraka va og'riqlarga shifo bor. Darhaqiqat, etmishta payg'ambar uni muborak qildi", dedilar.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu): "Agar birortangiz biron narsadan shikoyat qilsa, xotinining mahridan uch dirham so'rab olib, unga asal va sut sotib olsin, so'ng uni yomg'ir suvi bilan qo'shib ichsin. Alloh unda xotirjamlik, shifo va muborak suvni jamlagandir".

Muhammad ibn Munkadir Jobir ibn Abdullohdan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Surmani ko'p ishlattinglar, chunki u sochni o'stiradi va ko'zni o'tkirlashtiradi" (bir rivoyatda: ravshanlashtiradi), dedilar.

## **28-bob** **Arab tilini boshqa tillardan afzal ko'rish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Bilgilki, arab tilining boshqa tillarga nisbatan afzalligi bordir. Kim bu tilni o'rgansa yoki boshqaga o'rgatsa, savob topadi. Chunki Alloh taolo Qur'onni arab tilida tushirdi. Bu tilni o'rgangan kishi Qur'onning zohirini va undagi xabarlarning ma'nosini tushunadi.

Ibn Burayda rivoyat qiladi: Umar (roziyallohu anhu): "Kim fors tilini o'rgansa, u uning muruvvati ketibdi", dedilar.

Zuhriy: "Jannat ahlining tili arab tili, do'zax ahlining tili hind tili", deydilar.

Umar (roziyallohu anhu): "Arab tilini mahkam tutinglar", deganlar.

Hasan Basriydan arab tilini chiroyli gapirish va o'qiganini tushunish uchun o'rganayotgan kishi haqida so'raldi. "Bu tilni o'rgansin, chunki kishi oyatlarni o'qiganda ma'nosini buzib

yuborsa, halok bo'ladi", dedilar.

Umar (roziyallohu anhu) tavof vaqtida ikkita kishini ko'rib, ularga: "Arab tilini o'rganishga yo'l izlanglar", dedilar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Arab tilidan boshqa tilda gapirsa bo'ladi, bunda gunoh yo'q, Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) fors tilida gapirganlari haqida xabar bor. Bu Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qilingan. U kishi aytadilar: "Men Xandaq kunida Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) taom tayyorlab, u kishiga bildirdim. Rasululloh ashoblariga: "Jobirning uyiga boringlar u sizlarga sho'rva tayyorladi", dedilar. Shunda Nabiya (sollallohu alayhi vasallam) sadaqaga xurmo keltirildi, yonlarida Hasan va Husayn bor edi (roziyallohu anhumo). Ulardan bittasi xurmoni oldi va og'ziga soldi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) barmoqlarini uning og'ziga kirgizib "qix, qix" dedilar va xurmoni chiqardilar".

Abu Hurayraning qorni og'rib, Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) shikoyat qilganida Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Ishkam dava?" (ya'ni, qorning og'riyaptimi) dedilar va namoz o'qishga buyurdilar. Salmoni Forsiydan ham shu hadis rivoyat qilingan. Shunisi sahihroqdir.

Sufyon: "Insonlar qiyomat kunida jannatga kirishlaridan oldin Suryoniy tilida, jannatga kirganlaridan so'ng, arab tilida gapirishlari xabari bizga etdi", dedi.

Abdusomad ibn Mu'qal rivoyat qiladi: "Vahb ibn Munabbah: "Birorta lug'at-til yo'qki, undan biror narsa Qur'onda bo'lmasa", dedilar. Unga: "Qaerida?" deyildi. "Qur'ondagi "sijjil" so'zi forsiydan, ya'ni, "sang" va "gil"qo'shilgan.

"Ey er, suvingni yutgil" (Hud, 44), so'zi habash tilidan,

"Ularni oldingga to'plagin" (Baqara, 260), so'zi rumiy tildan,

"qochib qutilish vaqti emas edi" (Sod, 3), so'zi suryoniy tildan", dedilar. Habash tilida "ikkita zaif" ma'nosidadir", deydi. Ba'zilar Qur'onda arab tilidan boshqa til bo'lishi mumkin emas, chunki Alloh taolo:

"Ochiq-ravshan arabiy til bilan nozil qildi" (Shuaro, 195), deb aytgan deydi. Bunda javob ikkita: habash, rum tillaridan deb zikr qilingan lafzlar, haqiqatda o'sha tillarning lafzlari, lekin arablar bu so'zlarni iste'mol qiladilar, ularni yaxshi tushunadilar. Arablar ularni ishlatgani sababli, ular arabcha bo'lib ketgan.

Ikkinchi javob: Alloh taoloning "ochiq-ravshan arabiy tili bilan" degan so'ziga ko'ra, haqiqatda Qur'on arab tilida nozil bo'lgan, garchi ba'zi so'zlari boshqa tilda bo'lsa ham. Agar: "Qanday qilib Qur'on ularga hujjat bo'ladi, ularning tilida bo'lmasa?", deb so'ralsa, arablar bu so'zlarni, garchi ba'zi so'zlari boshqa tilda bo'lsa ham, tushunadilar shuning uchun ularga Qur'on hujjat bo'ladi, deb javob beriladi.

## **29-bob**

### **Qur'onning yetti xil o'qilishi borasida**



Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ibn Abbos Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlarini rivoyat qiladilar: "Jabroil menga Qur'onni bir xil o'qitdi, men takrorlab, uni ko'paytirishini so'rayverdim, u ko'paytiraverdi, hatto yetti xil o'qishga etdi". Boshqa xabarda: "Jabroil menga Qur'onni yettita qiroatda o'qishimni buyurdi. Bularning hammasi shifo va kifoya qiluvchidir", deyiladi.

Ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) aytadilar: "Bu Qur'on yettita qiroatda nozil bo'lgan. Har bir o'qishning zohiri va botini bor".

Agar yetti xil o'qishning ma'nosi nima deyilsa, bu haqda har xil so'zlar bor. Ba'zilar: "Bu holat ba'zi oyatlardagina topiladi. Masalan,

(Ahqof, 17), so'zi. Bu so'z yetti harfda o'qiladi. Raf'-pech, nasb-zabar va hafz-zer, yana bular tanvinli va tanvinsiz o'qiladi. Shu olti xil usul bo'ladi, bundan tashqari, jazm-sukun ham o'qiladi, bu yyettinchisidir. Masalan:

(Maryam, 25) so'zlariga o'xshashlar yetti uslubda o'qiladi. Bu usul hamma oyatlarda ham topilavermaydi", deyishadi.

Ba'zilar esa: "Yetti xil usul degani, amr, nahiy, qissa, misol keltirish, mav'iza, jannatni va'da berish, do'zaxdan qo'rqitishdir", deyishgan.

Abu Ubayda: "Yetti harf arab lug'atlaridan yettita lug'atdir. Buning ma'nosi bir harfda yetti uslub bo'ladi degani emas, chunki hech qachon bunaqa o'qilmagan, lekin bu yetti lug'at Qur'onda farq qiladi, ba'zisi Quraysh qabilasining lug'ati, ba'zisi Havozone, ba'zisi Huzayl lug'ati, ba'zisi Yamoma lug'ati", deyidilar.

Ba'zilar: "Yetti harf degani imomlardan yettitasi ixtiyor qilgan yetti xil o'qishdir, birinchisi Osim ibn Najvod, ikkinchisi Hamza ibn Habibuz Ziyod, uchinchisi Kisoiy, bu uchalasi Kufa ahlining qorilari, to'rtinchisi Abdulloh ibn Kasir, u Makkaning imomi, beshinchisi Nofi' ibn Abdurahmon, u Muoviyaning mavlosi va Madina ahlining imomi, oltinchisi Abu Amr, ismi Rayyon, kunyasi Abu Amr ibn Aloyi va u Basra ahlining imomi, yettinchisi Abdulloh ibn Omir va Shom ahlining imomidir. Bu yettitalasidan har biri bir qiroatni ixtiyor qilganlar. Hammalariniki, sahih, Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) olishgan.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ulamolar ikki xil o'qilgan oyat xususida ixtilof qilishdi. Ba'zilari: "Alloh taolo bitta qiroatni aytgan, ikkitaga izn bergan", deyishdi. Ba'zilari: "Alloh ikkalasini ham aytgan" deb aytishdilar. Bizning nazdimizda durust bo'lgani vallohu a'lam: agar har bir qiroat uchun boshqa qiroatning tafsirini xilofidagi tafsiri bo'lganida (bu Alloh ikkalasini ham aytdi deganga javob) ikkita qiroat ikkita oyat o'rnida bo'lardi. Xuddi Alloh taoloning: \$ va \$ degan qavliga o'xshash. Shu oyatga o'xshashgan barcha oyatlar yuqoridagi hukmdadir. Ikkita qiroatning tafsiri bitta bo'lsa, masalan, "al-buyuta", yoki "al-buyuti", "al-muhsonata" va "al-muhsonati"ga o'xshash fatha va kasra bilan bo'ladi. Ikkita qiroatning bittasini aytib, ularni har bir qabilaga o'zlarining tiliga mos qilib ikkinchi qiroatga ijozat berdi. Agar ikkita qiroatning birini aytadi, degan gap durust bo'lsa, Quraysh lug'atida aytishi kerak, deyiladi. Chunki Nabi (sollallohu alayhi vasallam) Qurayshdan edilar va Qur'on uning lug'atida nozil bo'lgan. Vaki' Sufyondan, u Mujohiddan: "Qur'on Quraysh tilida nozil bo'ldi", degan rivoyatni naql qilgan.

### 30-bob Qur'on tafsir qilish haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadiki: Said ibn Jubayr Ibni Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim Qur'onga o'z rayi bilan tafsir aytsa, joyini do'zaxdan tayyorlasin", dedilar.

Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu) Alloh taoloning "\$" (Abasa, 31), degan so'zi haqida so'ralganlarida, bilmayman, dedilar. So'ng: "O'zingizdan ayting", deyishdi. Shunda u zot: "Qaysi er meni ko'taradi qaysi osmon menga soya qiladi, agar Alloh taoloning kitobidan bilmagan narsamni o'z fikrim bilan aytsam, bilmayman", dedi.

Sha'biy Abu Solihning yonidan o'tib ketayotgan edi, uning qulog'idan ushlab: "Qur'on o'qimasdan turib qanday tafsir qila olasan?!" dedi.

Umar (roziyallohu anhu) bir kishining qo'lida Mushafni ko'rdilar, har bir oyatning yonida tafsiri yozilgan edi. Umar qaychini olib, uni qirqib tashladilar.

Hakim aytadilar: "Shurayh Qur'onning uchta oyatidan boshqasini tafsir qilmasdi. Birinchisi:

"Magar ular (yarim mahrni olishdan) kechib yuborsa yoki nikoh qo'lida bo'lgan zot kechsa" (Baqara, 237), oyatidagi "nikoh qo'lida bo'lgan zot erdir", derdi. Ikkinchisi:

"Unga hikmat hamda aniq-ravshan xitob ato etdik" (Sod, 20), oyatidagi "hikmat" so'zi fiqh, "ochiq-ravshan xitob" esa hujjat va iymon, derdi. Uchinchisi:

"Zero, sen yollagan eng yaxshi kishi kuchli, ishonchli kishidir" (Qasas, 26), oyatidagi kishi – Musoning quvvati o'n kishi ko'tara oladigan toshni ko'taradigan quvvatdir, ishonchliligi esa, Joriya uning oldida yurganida, shamol esib qomatini bilintirdi. Shunda Muso (alayhissalom), unga: "Orqada yur va menga yo'l ko'rsat", dedilar".

Oisha (roziyallohu anho): "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Qur'onni tafsir qilmasdilar, faqat o'qiyotgan oyatlarini Jabroil bildirar edi", deydilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) tafsir qilmagan bo'lsalar, boshqalarga ham o'z raylari bilan tafsir qilish joiz bo'lmasa, Qur'onning ma'no-bayonini bilishga qanday yo'l bor? deyilsa, bundagi tafsirdan qaytarish mutashobih oyatlarga tegishli qaratilgan hammasiga emas, deb javob beriladi. Alloh taolo:

"Endi dillarida haq yo'ldan og'ish bo'lgan kimsalar odamlarni aldab fitnaga solish va o'z havoyi nafslariga muvofiq ta'vil-tafsir qilish uchun Uning mutashobih oyatlariga ergashadilar" (Oli Imron, 7), degan. Chunki Qur'on xalqqa hujjat bo'lib tushgan. Agar tafsir ilish joiz bo'lmasa, komil hujjat bo'la olmaydi. Shuning uchun arab tilini va sababi nuzulni bilgan kishiga tafsir qilish joiz bo'ladi. Ammo mutakallif bo'lib, lug'at usullarini bilmasa, tafsir qilishi joiz emas. Faqat eshitganini tafsir qilishi mumkin, bu esa hikoya yo'li bilan bo'ladi, tafsir yo'li bilan emas. Buning ziyoni yo'q. Agar tafsir ilmuni o'rgansa va oyatdan hukm yoki dalil chiqarmoqchi bo'lsa, ziyoni yo'q. Agar eshitmasdan turib, bu

oyatdan murod bunday-bunday desa, halol bo'lmaydi va bu ishdan qaytarilgandir. Ammo ba'zi imomlardan bir oyatning sha'ni haqida biron narsa eshitgan bo'lsa, uni hikoya tarzida aytsa, zarari yo'q. Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) agar biron bir oyatning tafsirida qiynalib qolsalar, Rasulullohning ashoblaridan Ka'b ibn Ahbor va Vahb ibn Munabbah kabi ahli kitobdan bo'lgan va kitoblarni o'qigan musulmonlardan so'rardilar.

Ikrima Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi. U: "Qur'onning hamma tafsirini o'rgandim faqat to'rttasi – avvoh, raqim, hannon va g'islin qoldi", dedilar. Boshqa rivoyatda Ibn Abbos bu harflarni ham tafsir qilganlar aytiladi, ya'ni, raqim – harflarga nuqtalardan iborat belgilar qo'yish, hannon – rahmat, g'islin esa, do'zaxda kofirlarning badanlaridan oqib tushgan narsa, deganlar.

### **31-bob**

#### **Chiroyli muomala va haqlarni bilish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishilar o'zaro munosabatda muloyim so'z, ochiq yuzli bo'lishi kerak. Yaxshiga ham, yomonga ham, bid'atchiga ham, sunnatga amal qilgan musulmonga ham bir xil xushmuomala qilinaveradi. Chunki Alloh taolo Muso va Horunga (alayhissalom):

"Bas, unga (Fir'avnga) yumshoq so'z so'zlanglar!" (Toho, 44), degan. Bas, sen Muso va Horundan afzal emassan va har qanday fojir Fir'avndan iflosroq emas. Vaholanki, Alloh taolo u ikki zotga Fir'avnga muloyim gapirishni buyurdi.

Ibrohim Hamza Omiriydan, u Talha ibn Umardan rivoyat qiladi. U: "Men Atoga: "Sizning oldingizga har xil kishilar keladi, men yolg'izlikni yaxshi ko'raman, ularga ba'zan qo'pol so'zlarni aytaman", dedim. U: "Bunday qilma, chunki Alloh taolo "Insonlarga chiroyli gapiringlar", deb buyurgan". Oyatdagi "insonlar" sirasiga yahudiy va nasroniylar ham kiradi. Shunday ekan, endi qanday qilib to'g'ri yo'ldagi kishi bilan yaxshi muomala qilinmasin", dedi".

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlar insonlarga mollaring bilan kenglik qila olmasalaring, ochiq yuz va chiroyli xulqlaring bilan kenglik qilinglar", dedilar.

Umar (roziyallohu anhu): "Kim birodari bilan do'stligi sof bo'lishini xohlasa, uni yaxshi ko'rgan ismlari bilan chaqirsin, unga yo'liqqanida salom bersin va majlisni unga keng qilsin" (ya'ni, o'tirishiga joy bersin), dedilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Oishaga (roziyallohu anho): "Qo'pol bo'lma, agar birortada qo'pollik bo'lsa, u yomon odamdir", dedilar.

Yaxshilikdan oldin yaxshilik qilish fazilat, yaxshilikdan keyin yaxshilik qilish mukofot, yomonlikdan keyin yaxshilik qilish ulug'lik, yomonlikdan oldin yomonlik qilish jabr-zulm, yomonlikdan keyin yomonlik qilish tenglashish, yaxshilikdan keyin yomonlik qilish malomat va shumlikdir, deyiladi.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishi o'zidan katta kishining haqqi-hurmatini bilishi va ulug'lashi lozim. Chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Qaysi yigit qari kishini ulug'lasa, Alloh uni qariganida hurmat qiladigan yigitga yo'liqtirib qo'yadi", deganlar. Lays ibn Muslim: "Men Talha ibn Mutrif bilan birga ketayotgan edim. U mendan oldin o'tdi, so'ng: "Agar mendan bir kun katta ekaningni bilganimda, sendan oldin o'tmasdim", dedi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim kattalarimizni ulug'lamasa va kichiklarimizga rahm qilmasa, u bizdan emas", deganlar.

### **32-bob** **Birodarlarni ziyorat qilish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Birodar va do'stlarni ziyorat qilish yaxshi va bu savobli ishdir. U bilan do'stlik ziyoda bo'ladi. Abu Umoma Bohiliy: "Bir mil yurib kasalni ziyorat qil, ikki mil yurib Alloh yo'lidagi do'stingni ziyorat qil, uch mil yurib ikki kishining orasini isloh qil", dedilar.

Hukamolardan ba'zisi: "Ziyoratni tark qilib qo'yma, seni esdan chiqarib yuboradilar, ziyoratni ko'paytirma ham, sendan malollanib qoladilar", deydi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Abu Hurayraga: "Yo Abu Hurayra, kamroq ziyorat qilsang, muhabbating ortadi", dedilar.

Bakr ibn Abdulloh Mazaniy: "Sog' odam ziyorat qilinadi, kasal borib ko'riladi", deydilar.

Umar (roziyallohu anhu) Abu Muso Ash'ariyga: "Oldinga kelgan insonlarni yuzlariga qara va ularni hurmat qil, chunki insonlar orasida hojatlarni chiqaradiganlari, zikr qiladiganlari, albatta, bor", dedilar.

Abu Ja'far aytadilar: "Ali ibn Abu Tolibga (roziyallohu anhu) ko'rpacha to'shadim, unga o'tirdilar-da: "Hurmatdan faqatgina eshak bosh tortadi", dedilar".

Toriq ibn Abdurahmon: "Sha'biy huzurida o'tirgan edim, uning oldiga Falon ibn Jarir kelgan edi, unga yostiqlik tashladi, u o'tirdi-da: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlarga biror qavmning ulug'i kelsa, uni hurmat qilinglar", deb aytganlar" deb hikoya qiladi.

Salma ibn Kuhayl Abu Juhayfadan rivoyat qiladi: "Ulug'lar bilan o'tir, ulamolar bilan birga yur, hukamolar bilan do'st bo'l".

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kishi Mahshargohga do'stining dinida keladi, bas, har biringiz kimni do'st tutayotganiga qarasin", dedilar".

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zilar insonlarga aralashishni tark qilib, uzlatga chekindilar va: "Uzlatda salomatlik bor", dedilar. Bu haqda biz aytadigan gap shuki, kishi dinini saqlab qololsa, uzlat qilsin, ammo nafs bilan holi qolib, vasvasaga tushsa, uning uchun insonlar haq-huquqlari bilib, va ularni ulug'lab ularga aralashib yurishi afzaldir.

Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) aytadilar: "Agar vasvasa bo'lmaganida, men insonlar bilan gaplashishni xohlamasdim". Hukamolardan biri o'g'liga: "Ey o'g'ilcham, besh toifa insonlardan tashqari xohlaganing bilan do'st bo'l, ammo besh kishi bilan do'st bo'lishdan saqlan. Yolg'onchini do'st tutma, chunki yolg'onchining so'zi sarob kabi yaqinni uzoq, uzoqni yaqin ko'rsatadi. Ahmoqni do'st tutma, chunki u senga foyda beraman deb zarar keltiradi. Tamagirni do'st tutma, chunki u senga eyimlik va ichimlikni sotadi. Baxilni do'st tutma, chunki baxil senga kerak bo'lganda yordamini bermaydi. Qo'pol bilan do'stlashma, chunki u seni ham, ota-onangni ham so'kadi. Qo'pollik qilayotgani esa, uning xayoliga ham kelmaydi".

### 33-bob Salomlashish haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar biror qavmning oldidan o'tsang, ularga salom ber, shunda ularga javob qaytarish vojib bo'ladi. Insonlar qaysi biri (salom berganmi yoki alik olganmi) afzal ekani haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar: "Salomga javob qaytarishning savobi ko'p, chunki alik olish farz, salom berish sunnat, demak farzning savobi sunnatning savobidan ko'proq bo'ladi. Alloh taolo: ... dedi va salomga javob qaytarishga buyurdi, Alloh taoloning buyrug'i farz", deyishdi. Ba'zilar: "Salom berishning savobi ko'p, chunki u oldin o'tdi, oldin o'tish fazil at", deb aytishdi.

A'mash Amr ibn Murradan, u Abdulloh ibn Horisdan rivoyat qiladi: "Agar bir kishi bir qavmga salom bersa, unga bir daraja fazl bo'ladi. Agar qavm unga alik olmasa maloikalar unga alik olishda va u qavmni la'natlashadi". Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Men sizlarni, agar buni qilsangizlar, bir-birlaringizni yaxshi ko'rib qoladigan ishga buyuraymi?" dedilar. Sahobalar: "Ha, ey Rasululloh", deyishdi. Rasululloh: "Oralaringizda salomni yoyinglar", dedilar.

Ato: "Yurib ketayotgan o'tirganga, kichkina kattaga, ulovli ulovsizga salom beradi. Orqangdan kelgan kishi senga salom beradi, agar ikkita kishi yo'liqib qolishsa, salomdan boshlashadi", deyilar. Hasan aytadilar: "Bir qavmning istiqboliga chiqqan qavm avval salom beradi". Zayd ibn Vahb rivoyat qiladilar: "Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Ulovli ulovsizga, yurib ketayotgan o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi", dedilar".

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar bir jamoat bir qavmga kirsa va salomni tark qilsa, hammasi gunohkor bo'ladi, agar birortasi salom bersa, hammasi savob oladi, agar hammasi salom bersa, ana shu afzal. Agar ali olmasa, hammalari gunohkor bo'ladi, agar birortasi alik olsa, barchalaridan soqit bo'ladi, agar hammalari javob qaytarsa, ana shu afzaldir. Ba'zilar: "Hammalariga javob qaytarish vojib", deydi. Abu Yusuf: "Javob farz shuning uchun, alik olish ularning hammasiga vojib bo'ladi", deyilar. Ba'zilar: "Ulardan bittasi javob bersa, hammasidan soqit bo'ladi", deyishadi. Biz shu so'zni olamiz.

A'mash Zayd ibn Vahbdan rivoyat qiladilar: "Muoviya ibn Hurra Nabi (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi: "Agar salom bersanglar, eshittirib aytinglar, agar alik olsanglar ham, eshittiringlar, o'tirsanglar omonat bilan o'tiringlar, ba'zingiz ba'zingizning so'zini hech ko'tarmasin", ya'ni, bo'hton, g'iybat qilmasin.

Kishi birovga salom bersa, ko'plik lafzi bilan salom bersin, shuningdek javobda ham, chunki salom berilgan kishi yolg'iz bo'lmaydi. ("assalomu alayka", desa, "senga salom bo'lsin", "assalomu alaykum", desa, "sizlarga salom bo'lsin", degani bo'ladi – Muh.)

A'mash Ibrohim Naxa'iydan rivoyat qiladi: "Birortaga salom bersang, "Assalomu alaykum", degin, chunki u bilan farishta birga bo'ladi".

Abu Mas'ud Ansoriy rivoyat qiladi: "Bir ayol Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) huzurlariga keldi va: "Alaykassalom" dedi. Shunda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Bu salom o'liklarga beriladi, balki "Assalomu alaykum", degin", dedilar".

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Salomning eng afzali "Assalomu alaykum va rahmatullohi taolo va barakotuh" deb aytish, javob ham shunday, chunki bunda savob ko'proq, boshqa biron narsani ziyoda qilish joiz bo'lmaydi.

Abu Umoma Suhayl ibn Hanifdan, u otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim assalomu alaykum, desa, unga o'nta yaxshilik bor, kim assalomu alaykum va rahmatulloh, desa, unga yigirmata yaxshilik bor, kim, assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuh, desa, unga o'ttiz yaxshilik bor", dedilar.

Ibn Abbos (roziyallohu anhumo): "Har bir narsaning nihoyasi bor, salomning nihoyasi – barakotdir", dedilar.

Rivoyat qilinishicha, Ibn Abbos bir kishining assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuhu va mag'firatuh, deganini eshitdilar va: "maloikalar solihlar uyi ahliga aytgan: "rahmatullohi va barakotuhu alaykum ahlal bayt innahu hamidum majid" degan so'z bilan tugatinglar", dedilar.

### **34-bob** **Bolalarga salom berish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar bolalarga salom berish haqida ixtilof qildilar. Ba'zilar: "Ularga salom berish durust emas", dedi. Ba'zilar: "Ularga salom berish uni tark qilishdan afzaldir", dedi. Biz shu gapni olamiz.

Ularga salom berilmaydi deganlar, salomni qaytarish farzdir, (balog'atga etmagan) sabiyga farz yuklab bo'lmaydi, bas, salomga javob qaytarish lozim bo'lmas ekan, unga salom berish ham lozim emas, deyishdi. Ash'as Hasan Basriydan rivoyat qiladi: "Bolalarga salom berish odat qilinmaydi, ularning oldidan salom bermasdan o'tilaveradi".

Muhammad ibn Siyrin bolalarga salom berardilar, lekin ularga eshittirmasdilar.

Bolalarga ham salom beriladi, deydiganlar ushbu hadisni hujjat qilishadi: Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) xodimi edilar, aytadilarki: "Bolalar bilan birga edim, to'satdan Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) kelib qoldilar va bizga salom berdilar, so'ng meni chaqirib bir xizmatga yubordilar".

Anbasa ibn Ammor aytadilar: "Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) bizning oldimizdan o'tib, bizga salom berardilar, vaholanki, biz maktab bolalari edik". Hakim: "Shurayh kattayu

kichikka salom berardi", deydilar.

### **35-bob**

#### **Zimmiylarga salom berish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar ahli zimmaga (musulmonlar orasida yashab yurgan kofirlar) salom berish haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar, buning ziyoni yo'q dedi. Ba'zilar, ularga salom berish lozim emas, mabodo ular salom bersa, javob qaytarish lozim, dedi. Biz shu gapni olamiz.

Ziyoni yo'q deganlar Abu Umoma Bohiliyning rivoyatini hujjat qilib keltiradilar. U kishi yahudiy va nasorolarning oldidan o'tsalar, ularga salom beradilar va aytardilarki: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bizga har bir muslim va zimmiyga salomni yoyishni buyurdilar".

Alqama aytadilar: "Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) bilan birga Solihin degan mavze'ga bordim. U erliklarning to'qqizta oqsoqoli ertalab u zotga salom berdi. Ular Kufaga kirishgach, boshqa yo'ldan ketishdi, shunda ayrilayotib u zot ularga salom berdilar. Men: "Kofirlarga salom beryapsizmi?" dedim. "Ha, albatta, bizga hamroh bo'ldilar, hamrohlikning haqqi bor", dedilar.

Ularga salom berilmaydi, deganlar Sahl ibn Abu Solihning otasidan, otasi Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisni olishadi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Yahudiy va nasorolarga salom berib boshlamanglar, agar ular sizlarga yo'lda yo'liqsa, ularni yo'lning tor joyidan yurishga majbur qilinglar", dedilar.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu): "Yahudiy va majusiylarga salom bermanglar", deganlar.

Abdulloh ibn Dinor Abdulloh ibn Umardan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar yahudiylar sizlarga salom bersa, "va alaykum" denglar va bunga ziyoda qilmanglar", dedilar.

Anas: "Biz (ahli kitobga) "va alaykum"ga ziyoda qilishdan qaytarildik", deganlar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar musulmonlar va kofirlar aralash bo'lgan qavm oldidan o'tsang, ixtiyor o'zingda, xohlasang "assalomu alaykum" de va bu bilan mo'minlarni iroda qil, xohlasang "assalomu manittaba' al huda" (hidoyatga ergashganlarga salom bo'lsin) de.

Mujohid aytadilar: "Yahudiy yoki nasoroga xat yozsang, "Assalomu manittaba' al huda" deb yoz".

### **36-bob**

#### **Uyga kirganda salom berish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar uyingga kirsang, ahli baytingga salom ber, uyda hech kim bo'lmasa, "assalomu alayna va 'ala 'ibadillahis solihin", de, chunki Alloh taolo:

... deb marhamat qiladi. Bu oyat ikki amrni: agar uyda birorta odam bo'lsa, ahliga salom berishni, bo'lmasa, o'ziga salom berishni taqozo qiladi.

Said ibn Jubayr Qatodadan rivoyat qiladi. Agar uyingga kirsang, ahlingga salom ber, ular sen salom beradigan kishilarning eng haqlisi. Agar biror kishi bo'lmagan uyga kirsang, "assalamu 'alayna va 'ala 'ibadillahis solihin", de, chunki shunga buyurilgansan". Bizga zikr qilinishicha, maloikalar ularning salomiga javob qaytaradi. Ato rivoyat qiladilar: "Abu Hurayraning (roziyallohu anhu) "Bir kishi senga, kir, desa, yo'q, to kalitni keltirguningcha kirmayman, degin, deb aytganini eshitdim. Shunda men: "Kalit "assalomu alaykum"mi?" dedim. U: "Ha", dedi".

Mug'iyra ibn Shu'ba Ibrohimdan rivoyat qiladi: "Agar bir kishi uyga kelib salom bersa, shayton menga o'rnashishga joy qolmadi, deydi. Agar taomga kelsa va Alloh taoloning nomini aytsa, shayton, dam olish o'rni ham, taomlanish o'rni ham qolmadi, deydi. Ichimlik kelsa va Alloh taoloning nomini aytsa, shayton, dam oladigan, taom eydigan, ichimlik ichadigan o'rin qolmadi, deydi. Natijada omadsiz bo'lib, qochib chiqib ketadi".

### **37-bob**

#### **Mustahab bo'ladigan kiyimlar haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Kishi kiyinishda yaqinlariga muvofiq bo'lishi lozim. Qimmat va juda ko'rimsiz libosni kiyimasligi kerak. Agar bunday qilsa, nahiyni kasb etgan va insonlarni g'iybatga solgan bo'ladi. Rivoyat qilinadiki, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ikki shuhratdan – narxi juda baland va juda uzun libosdan qaytarganlar.

Sha'biy aytadilar: "Ahmoq ustingdan kulmaydigan va fuqaholar ayblamaydigan kiyimni kiy".

Muhammad ibn Siyrin: "Shuhrat oldin kiyimni uzun kiyishda edi, so'ng uni yangilashga aylandi", deyдилar.

Ba'zilar libosni kalta kiyishni ixtiyor qilishdi va bunga Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) qilingan rivoyatni hujjat keltirishadilar. U zot Qanbar bilan birga bozorga chiqdilar va ikkita dag'al qo'ylak sotib oldilar, so'ng Qanbarga tanlash ixtiyorini berdilar. Qanbar bittasini tanlab oldi, unisini o'zlari kiydilar.

Ali ibn Abu Tolibga (roziyallohu anhu) bir qo'ylak olib kelishganda englaridan oshiqchasini kesib tashlashni buyurganlar. Tobe'inlardan biri rivoyat qiladi: "Umar ibn Xattobning xutba o'qiyotganini ko'rdim, ustida yettita yamoqli ko'ylak bor edi".

Umar (roziyallohu anhu) aytadilar: "Dag'al va eskirganini kiyinglar, ko'payinglar, bir bandaning o'rnini ikkita qilinglar".

Ali ibn Abu Tolib bir ko'ylak sotib oldilar va ikkala engining barmoqlaridan oshganini kesib tashladilar, so'ng xodimlariga: "Engini tikib qo'y", dedilar.

Oq rangli kiyim kiyish mustahabdir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Alloh



jannatni oq rangda yaratdi. Kiyimlarning yaxshisi oq ranglisi, sizlar uni kiyasizlar va o'liklaringni u bilan kafanlaysizlar".

Abdulloh ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kiyimlarning oqini kiyinglar va unga o'liklaringni kafanlanglar, chunki u kiyimlarning eng yaxshisidir", dedilar".

Ibni Abbos (roziyallohu anhumo) aytadilarki: "Agar seni xayol surish va isrof adashtirmaydigan bo'lsa, haloldan xohlaganingni egin va xohlaganingni kiygin, chunki men qay bir o'rinda isrofni ko'rsam, uning yonida zoe' ketgan haqni ko'rdim".

### **38-bob** **Chiroyli bo'lib yurish haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Agar kishi muruvvatli, ilimli bo'lsa, kibrlanmasdan eng toza liboslarni kiyishi kerak. Umardan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: "Libosining saraligi kishining olijanobligidandir".

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Kishi ish kiyimidan tashqari yana ikkita libos qilib olishi lozim emas".

Masalda: "Kiyimi eskirmagan kishiga yangisi yo'q", deyilgan.

Anasdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Bandaning xidi hech qachon xushbo'y bo'lmaydi, g'ami kamaymaguncha, libosi toza bo'lmaydi, tashvishi kamaymaguncha", dedilar".

Umar (roziyallohu anhu) aytadilar: "Men kiyimi oppoq qoriga qarashni xush ko'rmayman", deganlar. Va yana: "Agar Alloh sizlarga kenglik bersa, nafslaringga sizlar ham kenglik qilinglar", deydilar.

Omir ibn Sa'ddan rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh pokdir, poklikni yaxshi ko'radi, chiroylidir, chiroylilikni yaxshi ko'radi, saxiydir, saxiylikni yaxshi ko'radi, ulug'dir, ulug'likni yaxshi ko'radi, xushbo'ydir, xushbo'ylikni yaxshi ko'radi", dedilar".

Zayd ibn Aslam Ato ibn Yasordan rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) o'tirgan edilar. Soch-soqoli to'zg'igan bir kishi kirib keldi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) unga, chiq, soch-soqolingni to'g'irla, deb ishora qildilar. U shunday qildi, so'ng qaytib kirdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Bu hol shaytonga o'xshab sochi va soqoli to'zg'ib yurishidan yaxshi emasmi?" dedilar. Zayd ibn Aslam Jobir ibn Abdullohdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi: "Biz Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bilan birga Anmor g'azotiga chiqdik, men bir daraxtning tagiga tushib joylashdim. To'satdan Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) o'tib qoldilar. Shunda men: "Ey Rasululloh, soyaga kelmaysizmi?" dedim. Tushdilar. Men to'rvamni olib, non, kulcha va bodring chiqardim va Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) oldlariga qo'ydim. Tuyalarni boqib ketgan sherigimiz bor edi. U ham keldi, ustida eskirgan ikkita libosi bor edi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) unga qaradilar, so'ng menga yuzlanib: "Uning bu ikki libosidan boshqa libosi yo'qmi?" dedilar. Men:

"To'rvasida boshqa ikkita kiyimi bor", dedim. Rasululloh: "Ularni kiysa bo'lmaydimi?" dedilar. Shunda men uni chaqirib aytdim. U kiyimlarini kiydi, so'ng burilib ketdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh uning bo'yniga ursin, unga nima bo'ldi? Bu yaxshi emasmi?" dedilar. U Nabiyning gaplarini eshitdi va: "Ey Rasululloh, Alloh yo'lida deb ayting?" dedi. Rasululloh: "Alloh yo'lida", dedilar. So'ng Alloh yo'lida o'ldirildi".

### 39-bob

#### Kiyish durust bo'lgan va durust bo'lmagan liboslar haqida

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Erkagu ayolga hazzani – ipakdan kiyim kiyish joizdir, chunki sahobalar hazzani kiyishgan. Ba'zilar uni kiyishni makruh sanashgan. Hasan Basriy (rahimahulloh) aytadilar: "Uzilib ketguncha qamchini bo'ynimga o'rashim menga ipakni kiyishimdan yaxshiroqdir".

Lekin biz aytamizki, bu kiyimning makruhligi xossatan o'zlariga tegishli bo'lishi mumkin, chunki Hasan Basriy juda kamtar bo'lganlar. Boshqalarga harom qilmaganlar.

Haysamadan rivoyat qilinadi: "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) ashobidan o'n uchtasini ko'rdim, ular hazzani kiyishardilar.

Ikrima aytadilar: "Ibn Abbosning (roziyallohu anhumo) hazzadan bo'lgan kiyimi bor edi".

Vahb ibn Hayson aytadilar: "Jobir ibn Abdullohning ustida hazzadan bo'lgan kiyimni ko'rdim".

Shuningdek, Abu Hurayrada (roziyallohu anhu) ham hazza kiyim bo'lgani rivoyat qilinadi.

Erkakka harir, yaltiroq, ipak kiyish joiz emas, ayollarga mumkin. Bu hukm Anas ibn Molik Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilgan hadisga binoan: "Kimki bu dunyoda harir kiysa, oxiratda uni kiymaydi".

Abdulloh ibn Umar (roziyallohu anhumo) aytadilarki: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) chiqdilar, bir qo'llarida oltin va bir qo'llarida harir bor edi va: "Bu ikkalasi ummatimning erkaklariga harom, ayollariga halol qilindi", dedilar".

Muhammad ibn Siyrin erkagu ayolga harir kiyishni makruh sanaganlar. Hujjatlari Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Oxiratda nasibasi bo'lmagan kishi harirni kiyadi", degan hadislaridir, chunki bunda erkak va ayollar orasini ajratilmagan. Javoban aytamizki, albatta, bu xabar erkaklarga qaratildi, chunki boshqa hadisda "ayollarga halol" deb aytilgan so'z uni tafsir qiladi.

Jangda harirni kiyish to'g'risida ixtilof qilingan. Ba'zilar joiz emas deydi. Abu Hanifa ham shunday deganlar. Ba'zilar buni zarari yo'q, deydi. Bu Imom Abu Yusuf va Imom Muhammadning fikrlari.

Urushda harir kiyishni makruh deganlarning hujjati hadisdagi qaytariq ommatan kelganidir. Ikrima jangda harir va yaltiroq libos kiyishni makruh sanardilar va aytardilarki: "Ular harir kiyish sababli shahidlikni rad qildi". Hasan Basriy ham jangda harir kiyishni makruh deganlari rivoyat qilingan.

Ammo joiz deganlarning hujjati Umardan (roziyallohu anhu) rivoyat qilingan hadisdir. "U zotga: "Dushmanga yo'liqqanimizda, ularning quollaridagi harir va yalt-yultlari ko'zimizga haybatli ko'rindi", deyishdi. Shunda Umar (roziyallohu anhu): "Sizlar ham quollaringizga harir va yaltiroq narsalarni o'ranglar", dedilar.

Qosim ibn Muhammad aytadilar: "Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) ashobi jangda harir va yaltiroq libos kiyishda karohiyat ko'rmasdi".

#### **40-bob**

### **Kiyimga belgi qo'yish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zilar kiyimdagi harirdan va yaltiroq belgi (naqsh) qo'yish makruh, deyishdi. Boshqalar esa, buni muboh sanashdi. Biz shunisini olamiz. Makruh deganlar Mujohidning hadisiga asoslanishadi: Ibn Umar (roziyallohu anhumo) salla sotib olganlarida unda ipakli naqshni ko'rdilar.

Muso ibn Ubayda G'olib ibn Yasordan, u Jobir ibn Abdullohdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi: Biz sallalardagi naqshlarni kesib tashlardik".

Ibn Umar (roziyallohu anhumo) aytadilar: "Ipak aralashgan kiyimdan chetlaninglar, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) erkaklarga ipakni harom qildilar".

Muboh deganlarning hujjati Abu Umoma Bohiliy rivoyat qilgan hadisdir: Bir qavm: "Ey Rasululloh, bizni ipak kiyishdan qaytardingiz, bizga undan qanchasi halol bo'ldi?" dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Uch barmoqchasi, ammo bunda ham yaxshilik yo'q", dedilar.

Ibn Abbos aytadilarki: "Naqshning zarari yo'q, balki kiyimdan bir navi makruh".

Ibrohim aytadilar: "Ular belgilarga ruxsat berardilar".

Suvayd ibn G'afla Umar (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: "Bir, ikki va uch barmoq miqdoridagisining zarari yo'q". Chunki oz avf o'rnida, xuddi ozgina amal avf o'rnida bo'lganidek, xuddi namozdagi ozgina amal namozni buzmagandek, xuddi najosatning ozginasi namozning joizligini man' qilmaganidek. Shuningdek, ro'zadorning halqumiga chang kirsam, ro'zasi buzilmaydi, chunki chang oz, bu ham shunga o'xshashdir.

#### **41-bob**

### **Ziynatlardan foydalanish haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Ziynat va harirdan foydalanish masalasida odamlar ixtilof qilishdi. Ba'zilar buning zarari yo'q, dedi. Bu Abu Hanifaning so'zlari. Ba'zilar makruh dedi. Bu Muhammad ibn Hasanning so'zlari. Shunisi olinadi.

Joiz deganlarning hujjati Ibrohim ibn Mas'ud Abu Rashiddan qilgan rivoyatdir: "Men ibn Abbosning (roziyallohu anhumo) to'shaklarida ipak yostiqni ko'rdim", deydi.

Aytishlaricha, Hasan Basriy kelin to'yida qatnashib, ziynatlangan yostiqqa o'tirganlar.

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) nikoh to'yiga borganlarida ipak yostiqa o'tirganlari, unda qushlar surati bo'lgani rivoyat qilingan.

Rivoyat qilishlaricha: Oisha onamiz (roziyallohu anho) hujralari eshigida qushlar surati tasvirlangan parda osig'lik edi. Jabroil (alayhissalotu vassalom) tushdi va: "Ey Rasululloh, men it yoki surat bo'lgan uyga kirmayman, yo ularning boshini kesib tashlang, yoki to'shak qilib to'shang", dedi.

Makruh deganlar Said ibn Molikdan qilingan rivoyatni oladi. U zot: "G'nayotgan ko'mir cho'g'iga suyanishim, ipak yostiqa suyanishimdan ko'ra yaxshiroqdir", deganlar.

Ibn Siyrin: "Men Ubayda Salmoniydan: "Ziynatdan foydalanishni uni kiyish kabi yomon ko'rasanmi?" deb so'radim. U kishi: "Ha", dedilar".

## **42-bob** **Qizil rangli kiyim kiyish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zilar sariq va zafaronga bo'yalgan kiyim kiyishni makruh, deyishdi. Ayrimlar zarari yo'q, deydi. Makruh deganlar Ibn Umarning ushbu hadislarini hujjat qilishadi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) meni sariq va qasiy (kiyimning bir turi) kiyishdan hamda ruku'da qiroat qilishdan qaytardilar".

Hasan Basriy Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlarini rivoyat qiladilar: "Qizil rangdan chetlashinglar, chunki qizil rang shaytonning ziynati va u qizil rangni yaxshi ko'radi".

Amr ibn Shuayb otasidan, otasi bobosidan rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ustimda sariqqa bo'yalgan yopinchiqni ko'rib, mendan yuz o'girdilar. Darhol borib, uni yoqib yubordim va boshqasini kiyib qaytdim. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Yopinchiqni nima qilding?" dedilar. "Siz mendan yuz o'girganingizni ko'rib, uni yoqib yubordim", dedim. Shunda: "Uni ayollaringdan birortasiga bermadingmi?" dedilar".

Sariq, qizil kiyim kiyishni muboh deganlarning hujjati Vaki' Sufyondan, u Abu Ishoqdan, u Baro ibn Ozibdan rivoyat qilgan hadisdir. Baro: "Qizil kiyimda Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) yaxshiroq kishini ko'rmadim", deganlar.

Ka'b ibn Ujraning bir quli: "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) ashobidan sariqqa bo'yalgan kiyimni qiygan to'rtta-beshtasiga yo'liqdim", deb rivoyat qilgan. Molik ibn Mug'avvil aytadi: "Sha'biyni qizil yopinchiq yopingan holda ko'rdim". Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Avvalgi so'z sahihroq, Abu Hanifa ham shuni ixtiyor qilganlar. Biz ham shunisini olamiz. "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) qizil kiyimni kiyishlari esa, nahiydan oldin bo'lgani ehtimol qilinadi. Ammo sahobalardan (roziyallohu anhum) rivoyat qilingan hadis lozim emas, chunki ulardan qaysi biri qizil kiygani bayon etilmagan. Chunki Umar va Ali (roziyallohu anhum) bundan qaytarganlari aniqdir. Sha'biydan rivoyat qilingan hadisga kelsak, u zot qozilikdan qochib sariq kiyimni kiyardilar, shatranj o'ynardilar, yosh bola, yigitlar bilan fil ko'rgani chiqardilar.

### **43-bob**

#### **Yirtqich hayvonlarning terisi haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar yirtqichlarning terisi xususida ixtilof qilishdi. Bizning ashoblarimiz: "Yirtqichlarning terisida zarar yo'q, oshlangan yoki tozalangan bo'lsa, unda namoz o'qisa joiz, faqat cho'chqaning terisidan boshqa", deyishdi. Ba'zilar butunlay hammasini yomon ko'rishdi va Abu Mulih Hazaliy rivoyat qilgan hadisni hujjat keltirishdi. Aytдилarki: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) yirtqichlarning terisini kiyishdan va uni to'shshdan qaytardilar". Umar (roziyallohu anhu) bir kishining boshida tulki terisidan tikilgan bosh kiyimni ko'rib yirtib tashlaganlari rivoyat qilinadi. Hasan Basriydan tulkilarning terisida namoz o'qishni yomon ko'rganlari naql etilgan.

Ammo ashoblarimizning hujjati Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadisdir: U zot (sollallohu alayhi vasallam): "Har qaysi oshlangan teri poqdir", deganlar.

Avf rivoyat qiladilar: "Ibn Siyrindan yo'lbars terisi haqida savol qilishdi. U: "Buni gunoh sanab, tark qilgan birortani bilmayman", dedilar.

Mutrif ibn Shaxir aytadilar: "Ammor ibn Yosirning oldlariga bordim. Huzurlarida tikuvchi bor edi. Unga tulkilarning terisini ko'rsatar edilar".

Ibrohim Naxa'iyning tulki terisidan tikilgan bosh kiyimi bo'lgani rivoyat qilinadi.

Nahiy qilingan asarlar esa, oshlanmagan terilar xususida vorid bo'lib, dunyo ziynatini tark qilish uchundir, harom bo'lgani uchun emas deb ehtimol qilinadi. Chunki, insonlarning yashashi og'ir edi. Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilingan hadisga qara: U zot: "Biz bilan Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) taomi ikkita qora – xurmo va suv edi. Biz sizlarning bazmlaringizni o'ylamasdik, balki bizning libosimiz mana bu nimor (ya'ni, jun) edi", deganlar.

### **44-bob**

#### **Go'sht yeyish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Oldingilar go'shtni eyishni mustahab sanashar, unga rag'bat qilishar, ammo doimiy eyishni makruh bilishar edi. Alidan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: "Go'shtni englar, chunki go'sht go'shtni o'stiradi, eshitishni kuchaytiradi". Yana aytadilar: "Kim qirq kun go'sht emasa, savlatiga zarar beribdi". Zuhriy aytadilar: "Go'sht etmishta quvvatni ziyoda qiladi".

Abdulmalik ibn Marvon bolalarini Sha'biyga tarbiya berishi uchun topshirganida: "Ularning sochini oling, bo'yni qattiqlashadi, ularga go'sht ediring, qalbi mustahkamlanadi va ularni odamlar bilan o'tqizing", degan.

Doim go'shtni iste'mol qilishni makruh sanashgan.

Oisha (roziyallohu anho) aytganlar: "Ey Bani Tamim, go'sht eyishni doimiy qilib

olmanglar, chunki unda aroqqa o'xshash yovuzlik bor".

Umar (roziyallohu anhu) qassoblarga nisbatan ko'p ixtilof qilayotgan kishini ko'rganlarida, uni darra bilan urib: "Albatta, hamrda sovuqqonlik – yovuzlik bo'lgani kabi, go'shtda ham yovuzlik bor", dedilar.

Abu Umoma Boholiy rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taolo semiz erdan, go'shtli uy ahlidan g'azablanadi", dedilar". Ba'zilar, bu erda go'shtni ko'p eydigan kishilarni nazarda tutganlar, deyishadi. Ba'zilar, insonlarni g'iybat qiladigan kishilarni nazarda tutganlar, deyishgan.

Abu Umar Shayboniy Ibn Mas'uddan rivoyat qiladi: "U zot bir kishining dirhamlari borligini ko'rib, unga: "Bu nima?" dedilar. U: "Ramazon oyiga go'sht sotib olmoqchiman", dedi. Ibn Ma'sud: "Uyingga bor, uni xotiningga ber va unga har kun bir dirhamga go'shtni harid qilishni buyur. Senga shu yaxshiroq usul", dedilar.

Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Go'shtni ajamlar kesganidek, pichoq bilan kesmanglar, balki uni tish bilan tishlanglar, chunki bu foydaliroq va mazaliroqdir", dedilar".

#### **45-bob** **Murabbo yeyish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zi insonlar murabbo va suyuq taom eyishni qarib ko'rishdi. Ulamolar ommasi buni muboh deyishgan. Makruh deganlar hujjat qilib Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Kishi xohlagan narsasini eyishi isrofdir", degan hadislarni olishadi. Huzayfa ibn Yamon: "Qancha-qancha bir nafaslik shahvatlar sohibiga uzun-uzun qayg'ularni olib keldi", deganlar.

Umarga (roziyallohu anhu) asaldan ichimlik keltirilganida, uni oldilar, so'ng qaytardilar va: "Alloh taolo: "Kofir bo'lgan kimsalar do'zaxga ko'ndalang qilinadigan Kunda (ularga deyilur):

"Sizlar o'z huzur-halovatlaringizni hayoti dunyolaringizdayoq ketkazdingiz va ulardan foydalanib bo'ldingiz. Endi bugun er yuzida nohaq kibru havo qilganlaringiz va itoatsiz bo'lganlingiz sababli xorlik azobi bilan jazolanursizlar" (Ahqof, 20), degan kishilardan bo'lib qolishimdan qo'rqdim", dedilar.

Muboh deganlar Vaki' Amr ibn Dinordan, u otasidan rivoyat qilgan hadisni olishadi: Umar (roziyallohu anhu) insonlarni Iroqqa yo'llagan vaqtda: "Sizlar shunday erga boryapsizlarki, u erda taom va ne'matlarning turli xiliga yo'liqasizlar, har bir turi qo'yilganda, Alloh ismini zikr qilib, so'ng englar", deganlar.

Hasandan rivoyat qilindi: U zot dasturxon ustida edilar. Molik ibn Dinor ham bor edi. Murabbo keltirildi. Molik undan emadilar. Shunda Hasan unga: "Eyver, chunki Alloh taoloning senga sovuq suvda bergan ne'mati bundagidan ko'proq", dedilar.

Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) ho'l xurmoni tarvuz bilan eganlari rivoyat qilingan.

Umar (roziyallohu anhu) taomni shakar bilan eganlari aytilgan. Hasan Basriy: "Asal, toza yog' bilan aralashgan bug'doy suvi biror musulmon ayb sanamagan taomdir", deydi. Alloh taolo: "Ayting: Alloh bandalari uchun chiqargan bezak (liboslarni) va halol-pok rizqlarni kim harom qildi?!" Ayting:

"Ular (ya'ni, bezak va halol rizqlar) hayoti dunyoda iymon egalari uchun (bo'lib, kofirlar ham ularga sherik bo'lur), qiyomat kunida esa faqat (mo'minlarning) o'zlariga xosdir" (A'rof, 32), deydi".

## **46-bob** **Taomlar haqida kelgan rivoyatlar**

Axvas ibn Hakim otasidan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sirka va yog' qanday yaxshi", dedilar.

Amr ibn Dinor Abu Ja'fardan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sirkasi bo'lgan uy ahli kambag'al bo'lib qolmaydi", dedilar.

Anas ibn Molik Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) oshqovoqni yaxshi ko'rganlarini rivoyat qilganlar va aytganlarki: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) oshqovoqni yaxshi ko'rishlarini bilganimdan beri men ham uni doim yaxshi ko'rdim".

Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) aytadilar: "Qachon anor esam, jannat suvining bir tomchisini ichgandek bo'laman".

Ali ibn Abu Tolib: "Agar anor esanglar, yumshoq joyini englar, chunki oshqozonga parda bo'ladi", deganlar.

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) haqlarida: "U zotning eng yaxshi ko'rgan mevasi tarvuz va ho'l xurmo, suyuq oshlarning eng yaxshisi oshqovoq edi", deb rivoyat qiladilar.

Talha ibn Abdulloh otasidan rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) huzurlariga kirdim. Qo'llarida behi bor edi. Uni menga berib: "Bu senga, u aqlni to'ldiradi", dedilar.

Vahb ibn Munabbah: "Ba'zi kitoblarda tarvuzning taom, sharob, meva, sirka rayhon (o'rnida) ekani, ovqatni hazm qilishi, taomga ishtahani ochishi, rangni tozalab, urug'ni ko'paytirishi yozilganini ko'rdim", deydi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Tarvuzlar to'rt xil: shirin, nordon, mazali, achchiq bo'ladi. Shirini go'shtni o'stiradi, mazalisi yog'ni ko'paytiradi, nordon qurtlarni o'ldiradi, achchiq'i bavo'sirni (gemorroy) kesadi", deganlar.

Faqih (rahimahulloh) aytdilar: "Kishi ahli ayolining taomi va sharobini mo'l qilishi mustahab. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taolo serhosil, keng uyni yaxshi ko'radi", deganlar.

Ibrohim Naxa'iy: "Solihlar saxiy kishilarni yaxshi ko'rardilar va libosda cheklanardilar",

deydilar.

Umar (roziyallohu anhu): "Taom va sharob bilan uylaringizning yaxshiligini ko'paytiringlar. Ko'pincha moli ko'p kishining uyida bu yaxshiliklar kam bo'ladi", deganlar. Hasan Basriy: "Taomda isrof yo'qdir" (ya'ni, agar ahli ayoliga kenglik qilsa), deydilar.

#### **47-bob**

### **Sarimsoq yeyish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytdilar: Ba'zilar sarimsoq eyishni makruh deyishdi, ba'zilar muboh. Makruh deganlar Abu Bakrning quli Qosim rivoyat qilgan hadisni olishdi. Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Kishi mana bu sassiq sabzavotlardan esa, uning hidi og'zidan ketmagunicha bizning masjidimizga yaqinlashmasin", deganlar.

Ibn Yasordan rivoyat qilinadi. Nabi: "Kim mana bu sassiq o'tdan esa, bizning masjidimizda bizga ozor bermasin, uyida o'tirsin", dedilar.

Yana Nabiyan ipga tizib kabobxonaga osib qo'yiladigan sarimsoq haqida so'rashganda, uni ham bo'lmaydi, dedilar. So'ng kabob faqat u bilan durust bo'ladi, deyishdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Faqatgina sarimsoq bilan durust bo'ladigan taomda yaxshilik yo'q", dedilar.

Muboh deganlar Abdurahmon ibn Abu Laylo rivoyat qilgan hadisni olishadi: Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) sarimsoq solingan sho'rva hadya qilindi. Uni Abu Ayyub Ansoriyga yubordilar. Shunda Abu Ayyub: "Ey Rasululloh, siz yomon ko'rgan narsani eymanmi?" dedilar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Men yomon ko'rdim, chunki men Jabroil bilan suhbatlashaman, u uning hidini biladi", deb aytdilar.

Sufyon Abdullohdan, u Abu Yaziddan, u esa otasidan rivoyat qiladi: "Men Abu Ayyub Ansoriy onasining uyiga tushdim. U menga Rasulullohga mana bu sabzavotlar solingan taomni berganlarida u zot (sollallohu alayhi vasallam) uni qarih ko'rganlarini va ashobiga uni eyishga ijozat berganlarini, o'zlari Jabroilga ozor berib qo'yishdan qo'rqib emaganlarini aytib berdi".

Ibn Siyrin aytadilar: "Ibn Umar sarimsoqni bir ipga tizib, qozonga tashlardi, so'ng pishganida ipi bilan ko'tarardilar". Muhammad ibn Hasan ibn Ali: "Biz Muhammad oilasi sarimsoq, piyoz va karrot erdik", deganlar.

Abu Lays: "Men uni yeyish mubohligi haqida Faqihdan so'radim. U biz, buni muboh, deymiz, dedi", deb naql qilgan.

#### **48-bob**

### **Muruvvat haqida aytilgan so'zlar**

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Kim insonlarga zulm qilmasdan, ularga yolg'on gapirmasdan, va'da berib, xilof



qilmasdan muomalada bo'lsa, u muruvvati gapiriladigan kishilardan bo'ladi, adolati ko'rinadi, uni birodar tutish vojib, g'iybat qilish harom bo'ladi", dedilar.

Ibn Zayyod ulug'larning biridan: "Sizlarda muruvvat nima?" deb so'radi. U: "To'rtta xislat,– dedi. – Birinchi, kishi gunohdan uzoqlashishi lozim, chunki gunohkor bo'lsa, xor bo'ladi, muruvvati bo'lmaydi. Ikkinchi, o'zida bor molini isloh etishi, fasod qilmasligi lozim, uni fasod qilsa va boshqaning moliga muhtoj bo'lsa, uning muruvvati bo'lmaydi. Uchinchi, ahliga ular muhtoj bo'ladigan narsani hozirlab qo'yishi lozim, chunki kimning ahli ayoli insonlarga muhtoj bo'lsa, uni muruvvati bo'lmaydi. To'rtinchi, o'ziga mos keladigan taom va sharobga ahamiyat berishi va o'shandan iste'mol qilishi lozim. O'ziga mos bo'lmagan taomni tanavvul qilsa, muruvvati nuqsonli bo'ladi".

Qays ibn Sobit ibn Saidadan rivoyat qilinadi. U Qaysarning oldiga kelib turardi. Qaysar unga: "Oqilning afzali nima?" dedi. U: "Kishi o'z nafsini bilishi", deb javob qildi. "Ilmning afzali nima?" deb so'radi. "Bilmagan vaqtida tek turish", dedi. "Muruvvat nima?" deb so'radi. "Kishi yuzining suvini saqlab qolishi", dedi. "Molning afzali nima?" deb so'radi. "Haqqi ado qilingan", dedi.

Rabiatur Ra'y aytadilar: "Muruvvat oltita, uchtasi muqimlikda, uchtasi musofirlikda bo'ladi. Muqimlikdagisi – tilovatul Qur'on, Alloh taoloning masjidlarini obod qilish, Alloh yo'lida birodar tutinish. Musofirlikdagisi – ozuqani sarf etish, sheriklarga kam xilof qilish, Allohga osiy bo'lmaydigan o'rinlarda hazil-mutoyiba qilish".

Ba'zi ulamolar: "Muruvvatning afzali so'zida sodiq, ahdiga vafodor bo'lish, o'zining foydasiga sarf-xarajat qilish", deyishadi.

Hasan Basriydan rivoyat qilinadi: Sartaroshga mo'ylablarini qisqartirib bir dirham berdilar. Bu haqda (ya'ni, nega ko'p berganlari haqida) so'rashganda: "Torlik – ziqnalik qilmanglar, aks holda sizlarga torlik qilinadi", dedilar. U kishi mayda chaqalar ustida gapirayotgan kishini ko'rsalar: "Alloh mayda chaqani la'natlasin, kim shuning uchun gapirsa, muruvvati bo'lmaydi. Kimning muruvvati bo'lmasa, dini ham bo'lmaydi", dedilar.

Muhammad ibn Hasan aytadilar: "Uchta narsa pastkashlikdir: qon oluvchining haqqi ustida shartlashish, qon oluvchilarning oynasiga qarash, nonni o'lchab qarz olish".

Aytiladiki, yo'llarda o'tirish, muruvvatdan emas. Ba'zi hukamolardan muruvvat nimaligi so'raldi. Aytishdiki: "Ochiq eshik, ehson qilingan taom, qattiq bog'langan bel", ya'ni, insonlarning hojatini ado etish uchun.

Hasan Basriy: "To'rtta narsa kishining muruvvatidan: tilining rostgo'yligi, birodarlarining xato-kamchiliklarini kechirishi, ahli zamonining taniqli kishisiga saxovat qilishi, tanish va qo'shnilarga ozor berishdan tiyilishi", dedilar.

Umar (roziyallohu anhu): "Men qachon arablar halok bo'lishini bilaman", dedilar. "Ey amirul mo'minin, qachon halok bo'ladi?" deyishdi. "Ularni islomiy taqvosi va johiliyat saxovati bo'lmagan kishi boshqarsa", dedilar.

Roviy: "Amirul mo'minin (roziyallohu anhu) rost gapirdilar. Ularni muttaqiy Abu Bakr,

Umar, Usmon, Alilar boshqarib turganida halok bo'lmadi. Johiliyat saxovati bo'lgan Muoviyaga o'xshagan kishi boshqarganida ham halok bo'lmadi. Taqvosiz va baxil Yazidga o'xshash kishilar boshqarganda halok bo'ldi", deydi.

Hukamolarning ba'zisi aytadi: "Kamil muruvvat ikki narsada: insonlarda bo'lgan narsadan tiyilish va ulardan sodir bo'lgan narsani kechirish".

Ali o'g'li Hasanga: (roziyallohu anhumo): "Muruvvat nima?", dedilar. U: "Tiyilish, nafsga egalik qilish, qiyinchilik va farovonlikda ehson berish", deb javob qildilar. So'ng: "O'zini erga urish nima?" dedi. "Nafsining ishini himoya qilish, qarindoshlargagina nafaqa berish, qo'lidagi narsani sharaf, nafaqa qilganini talofat etgan deb bilish", dedilar.

Muruvvatning hammasi Alloh taoloning ( ? ), degan oyatida jamlangan, deyiladi.

Abdulvohid ibn Zayd aytadilar: "Din ahli bilan o'tiringlar, agar qodir bo'lmasanglar, ahli dunyoning muruvvatli kishilari bilan o'tiringlar, chunki ular majlislarida noloyiq so'zlarni (fahshni) gapirmaydilar".

Ahnaf ibn Qays: "Hasadgo'yda rohat, yolg'onchida muruvvat, baxilda do'stlik, so'zni uzun qiluvchida (tiliga erk beruvchida) vafo, xulqi yomonda rahbarlik, malollik keltiruvchida birodarlik bo'lmaydi", dedilar.

## **49-bob** **Aql xususidagi so'zlar**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu): "Ilm – kishining do'sti, aql – yo'l boshchisi, halimlik – vaziri, amal – qo'mondoni, sabr – qo'shinining amiri, muloyimlik – otasi, yaxshilik – akasi", dedilar. So'ng o'g'illari Hasanga: "Ey o'g'lim, doimo ko'rib turadigan kishingni hech yengil sanama. Agar u sendan katta bo'lsa, otang hisobla, agar o'zingga o'xshash bo'lsa, aka, bil, agar kichkina bo'lsa, o'g'il bil", deb nasihat qildilar. Ba'zi hukamolar, oqil kim, deb so'ralganda: "Oshkora qilishdan hayo qiladigan ishni maxfiy holatda ham qilmaydigan kishidir", deyishdi.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Bu gap Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan hadisga muvofiq keladi: "Avvalgi payg'ambarlardan qolgan kalomning oxirgisi – agar hayo qilmasang, xohlaganingni qil". Ya'ni, agar hayo qilinmaydigan ish bo'lsa, bu ishni xohlaganingcha qil.

Luqmoni Hakim o'g'liga: "Ey o'g'lim, yaxshi hojatni talab qilish – ilmning yarmi, insonlarga do'stlashish – aqlning yarmi, yashashda tadbir qilish – kasbning yarmi", deganlar.

Aytiladiki: Sakkiz narsaga agar ahamiyat bermagan kishi faqat o'zini malomat qilsin: chaqirilmagan ziyofatga boruvchi, uy egasiga buyruq beruvchi, dushmanlaridan yaxshilik istovchi, pastkashdan fazilat talab qiluvchi, gaplashib turgan ikki kishining orasiga kiruvchi, sultonni mensimagan kishi, o'zi munosib bo'lmagan majlisda o'tiruvchi, quloq solmayotgan kishiga gapiruvchi.

Said ibn Abu Ishoq Horisdan, u Alidan (roziyallohu anhu) Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlarini rivoyat qiladi: "Oqil faqat uchta narsaga nigohini qaratishi loyiq: yashashdagi aniq maqsadga yoki qiyomatdagi halovatga yoki harom bo'lmagan lazzatga. Oqil kunduzni to'rtta soatga (vaqtga) bo'lishi lozim: Rabbiga munajat qiladigan, nafsini hisob-kitob qiladigan, ilm olishga boradigan – ular unga dinining ishlarini ko'rsatib, nasihat qiladilar, nafsining halol va chiroyli lazzatlar bilan holi qo'yadigan payt. Yana oqilga holatiga nazar qilishi, zamona ahlini tanishi va tilini xatardan saqlashi lozim".

## **50-bob** **Odob haqida**

Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu): "Avval odob, so'ng ta'lim beringlar", dedilar.

Abu Abdulloh Balxiy: "Nafsning odobi ilmning odobidan ko'proq, ilmning odobi ilmning o'zidan kattaroq", deganlar.

Abdulloh ibn Muborak aytadilar: "Agar menga, bir kishida avvalgilaru oxirgilarning ilmi bor, deb sifatlashsa-yu, unda odob bo'lmasa, u bilan uchrashmaganimga afsuslanmayman, agar bir kishi haqida nafs odobi bor deb eshitsam, unga yo'liqishni orzu qilaman, uchrashmasam afsuslanaman".

Aytiladiki, Islom beshta qo'rg'oni bo'lgan shaharga o'xshaydi. Birinchisi, oltindan, ikkinchisi, kumushdan, uchinchisi, temirdan, to'rtinchisi, pishiq g'ishtdan, beshinchisi, xom g'ishtdan. Modomiki, qo'rg'on ahli xom g'ishtdan bo'lgan qo'rg'ondagilar bilan ahdlashsa, dushman ularga hujum qila olmaydi. Agar bir-biri bilan ahdlashuvni tark qilishsa, xom g'ishtdan bo'lgan qo'rg'on xarob bo'ladi, so'ng dushman ikkinchisiga hujum qiladi, so'ng uchinchisiga, hatto qo'rg'onlarning hammasi xarob bo'ladi. Shuningdek, Islom ham beshta qo'rg'on ichidadir: birinchisi yaqiy (qat'iy ishonch), so'ng ixlos, so'ng farzlarni bajarish, so'ng sunnatlarni to'liq qilish, so'ng odobni saqlash. Modomiki, banda odobni saqlab, unga ahd qilar ekan, shayton unga hamla qilolmaydi, agar odobni tark qilsa, shayton sunnatlarga hujum qiladi, so'ng farzlarga, so'ng ixlosga, so'ng yaqiyga. Inson hamma ishlarida odob saqlashi lozim: namoz, tahorat, sotish, sotib olish, suhbat va bundan boshqalarda. Kelgusi boblarda shart bo'lgan odoblarni bayon qilamiz. Avvalo tahorat va namoz odoblari haqida.

## **51-bob** **Tahorat va namoz odoblari**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Kishi tahorat qilishni xohlasa, hojatxonaga "Bismilloh, ey, Parvardigor, men Sendan shaytoni rajim tomonidan bo'lgan najas, xabis ifloslik va nopoklikdan panoh tilayman", deb chap oyog'i bilan kirishi lozim. Chunki Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Albatta, bu pichan nopokdir (ya'ni, shayton uni iflos qilgan). Agar birortangiz hojatxonaga kirsas, Allohdan shaytoni rajimdan panoh tilasin", deganlar. O'ng qo'l bilan istinjo qilish makruh, chunki Nabi (sollallohu alayhi vasallam) bundan qaytarganlar va o'ng qo'lni pokiza, chap qo'lni nopok ishlarga buyurganlar. Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qilinadi: "Rasulullohning (sollallohu

alayhi vasallam) chap qo'llari hojat va sodir bo'lgan zararlarni daf qilishi uchun, o'ng qo'llari taomlari uchun edi". Hafsa (roziyallohu anho): "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) o'ng qo'llari taom, sharob, kiyim va namoz uchun bo'ldi. Chap qo'llari bundan boshqa narsalar uchun edi", deydilar. Ibrohim Naxa'iy: "Kishining o'ng qo'li taom va sharobi uchun, chapi istinjo va burun qoqishi uchun", deganlar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Bu xabarlardan kelib chiqib aytamizki, o'ng qo'l bilan istinjo qilish va burun qoqish durust emas, faqat chap qo'lda nuqsoni bo'lsa, ruxsat. Avratini quyosh va oyga qarab ochish mumkin emas, shuningdek, qiblaga ham qarab o'tirmaydi. Ammo (hojatxonada) qibla tomondan to'siq bilan to'silgan bo'lsa, ziyoni yo'q. Hojat mahalida gapirish durust emas, chunki kotib farishtalar uni xoli qo'yishadi. Agar mana shu vaqtda gapirsa, so'zini yozib olishlari uchun ular qaytishga majbur bo'lishadi, bu esa, ularga qiyinchilik tug'diradi.

Bavldan (siydik) albatta, tozalanish lozim, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Qodir bo'lganlaringcha bavldan saqlaninglar, chunki qabr azobining hammasi shundan", deganlar. Hojatda o'tirganda kiyimini oshiqcha echmasligi, qodir bo'lgunicha avratini berkitishi lozim, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) shunga buyurganlar. Sahobalar: "Ey Rasululloh, atrofda hech kim bo'lmasa-chi" deyishganda, Rasululloh: "Alloh hayo qilishga haqliroq, chunki sen bilan birga ikkita sohibing bor, ular senga ozor berishmaydi", dedilar. Bas, sen ham ularga ozor bermasliging lozim.

Hojatdan o'ng oyoq bilan chiq va: "Mendan ozorini chiqarib, quvvatini qoldirgan Zotga hamd bo'lsin", deb ayt. Tahorat qilishni boshlashdan oldin "Bismilloh, suvni poklovchi qilgan Allohga hamd bo'lsin", deb ayt, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim tahorat vaqtida Allohning nomini aytsa, u tahoratini chiroyli qilibdi va jasadini poklabdi. Kim Alloh nomini aytmasa, tahoratiga chiroy bermabdi va jasadini poklamabdi", deganlar. Istinjo qilgan odam qo'lini devorga yoki erga urib yuvishi mustahabdir (ya'ni, bugungi kunimizga qiyosan aytsak, hojatxonadan chiqqan yoki istinjo qilgan kishi qo'llarini sovun bilan, sovun topmasa, toza tuproq, kesak bilan yuvishi lozim.– Muh.) Shunda najaslardan o'tirgan zarar (mikrob) ketadi. Va bu ish sunnatdir.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Tahorati bo'lmagan kishida namoz, "bismillah"ni aytmagan kishida tahorat bo'lmaydi". ("Bismillah"ni aytish Abu Xanifa mazhablarida sunnatdir – Muh.) Tahorat oluvchi barmoqlarni xilol qilishi va oyog'ining to'pig'ini ishqalab yuvishi lozim. Chunki bunga bee'tibor bo'lishdan qattiq ogohlantirilgan. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Tovonlar uchun do'zaxda vayl bor", deganlar. Abu Ayyub Ansoriy (roziyallohu anhu) Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Xilol qiluvchilar qanday yaxshi", dedilar u zot. "Xilol qiluvchilar kim?" deyildi. "Taomdan xilol qiluvchilar va tahoratda suv bilan xilol qiluvchilar", deb javob qildilar".

Agar tahoratni qilib bo'lsa: "Allohim, Sen aybu nuqsonlardan poksan Senga hamd bo'lsin, Sendan boshqa iloh yo'qligiga guvohlik beraman, Senga istig'for aytaman, tavba qilaman va yana guvohlik beramanki, Muhammad Sening quling va rasulingdir", deb aytadi.

Darhaqiqat, bunday deyish ko'p fazilatlidir. Ibn Mas'uddan rivoyat qilinadiki, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar birortangiz tahoratni tugatsa: "Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad uning bandasi va rasuli, deb guvohlik beraman", desin va menga

salovot aytsin. Shunda unga rahmat eshiklari ochiladi", dedilar.

Tahorat vaqtida qiblaga qaragan bo'lishi va ortiqcha narsalarni so'zlamasligi lozim. Agar masjidga kirsa, uni ulug'lab ta'zim qilishi, o'ng oyoq bilan boshlashi va: "Bismillah, Allohim, menga rahmating eshiklarini och, gunohlarimni mag'firat qil va menga g'azabing eshiklarini yop", deyishi lozim. So'ng namozida xushu'li bo'lsin, chunki Alloh taolo

"Darhaqiqat, mo'minlar najot topdilar. Ular namozlarida (qo'rquv va umid bilan) bo'yin eguvchi – xushu'li kishilardir" (Mo'minun, 1-2), degan. Namozda o'ng va chapga burilmaydi. Chunki u namoz – Buyuk Podshohning huzuridagi buyuk maqomdir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Abu Salma ibn Abdurahmonning namozini maqtadilar va: "Uni ko'zi sajda o'rnidan o'tmayotganini ko'ryapsizlarmi", dedilar.

Namoz o'qishni boshlayotganda qaysi namoz ado etayotganini niyat qilishi lozim. Chunki namoz faqat niyat bilan durust bo'ladi. Namozni tugatgach, o'zi, ota-onasi, mo'min va mo'minalar uchun duo qilish lozim. Shuningdek, masjidga ta'zim bajo aylaydi, chunki Alloh taolo:

"(U chiroq) bir uylarda (ya'ni masjidlarda yoqilurki), Alloh ularni baland ko'tarib (bino) qilinishiga va ularda o'zining nomi zikr qilinishiga izn bergan (ya'ni amr qilgan) edi" (Nur, 36), deydi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) masjidda savdo-sotiq qilishdan va ovozni ko'tarishdan qaytarganlar. Ortiqcha so'zlar, lag'v, she'r va janjal u erda makruhdur.

## **52-bob** **Uxlash odobi haqida**

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Inson tahorat bilan uxlashi lozim, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim tahorat bilan uxlasa, uning boshida bir farishta tunaydi. U kechasi uyg'onsa: "Ey Parvardigor, bu bandangni kechir, chunki u tahorat bilan uxlatdi" deydi", deganlar.

Agar inson doimo tahoratli yurishga qodir bo'lsa, shunday qilsin. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Anas ibn Molikka: "Agar senga tahoratli holatingda o'lim kelsa, shahidlik seni chetlab o'tmaydi", dedilar.

Alloh taolo Musoga (alayhissalom): "Ey Muso, agar senga musibat etganda tahoratsiz bo'lsang, faqat o'zingni malomat qil", dedi.

Aytiladiki, mo'minlar uxlasalar, ruhi osmonga ko'tariladi. Tahoratlariga sajda qilishga ruxsat beriladi, tahoratsizlariga ruxsat berilmaydi.

Uxlashda o'ng yonbosh bilan, qiblaga qarab yotish mustahab. Keyin boshqa tomonga burilmoqchi bo'lsa, burilaveradi.

G'tayotganda: "Ismi tufayli eru samoda biror narsa zarar bermaydigan zot Alloh nomi bilan boshlayman. U eshituvchi va bilguvchidir", degan duoni o'qiydi va yana boshqa

xohlagan duolarini qiladi.

Uyqudan uyg'ongan vaqtida: "O'lganimdan keyin tiriltirgan va huzurida to'planiladigan zot Allohga hamd bo'lsin", deydi. Shunday desa, kechasining shukrini ado etgan bo'ladi.

Uyga kirishda o'ng oyog'i bilan, chiqishda chap oyog'i bilan boshlashi mustahabdir. Musulmon kishi hamma harakatlarida avvalo "bismillah" deyishi, iymon halovati qalbga kirishi uchun har bir ishdan bo'shagandan so'ng "alhamdulillah", deyishi lozim.

Kunning avvalida, shom bilan xufton orasida uxlash makruh. Tush payti uxlash mustahab Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) o'g'illaridan bittasining ertalab uxlagani holda ko'rdilar. Shunda oyoqlari bilan uni tepib: "Alloh taolo ikkala ko'zingni uxlatmasin, rizqlar taqsimlanadigan soatda uxlayapsanmi? Arablarning uyqu dangasalik paydo qiladi, qarilik keltiradi, hojatlarni esdan chiqaradi, deganlarini eshitmaganmisan?" dedilar. So'ng aytdilar: "Uyqu uch xil: tabiiy, fazilatli va ahmoqona bo'ladi. Tabiiysi tush paytiidagi uyqu, fazilatli choshgoh uyqusi, ahmoqona uyqu esa, kunning oxiridagisi. U paytda faqat ahmoq yoki mast yoki kasal odam uxlaydi".

### **53-bob** **Ovqatlanish odobi haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishiga taomdan oldin va keyin ikkala qo'lini yuvishi mustahabdir, chunki bunda barakat bor.

Zozon Salmon Forsiyning shunday deganlarini rivoyat qiladi: "Men Tavrotda taomdan oldin qo'l yuvishda baraka borligini o'qidim, buni Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) aytgan edim, u kishi: "Taomdan oldin va keyin qo'l yuvishda baraka bordir", dedilar". Faqih aytadilar: Issiq taomni ema, chunki Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Taomni sovutinglar, chunki issiq taomda baraka yo'q. Taomni hidlamanglar, chunki hayvonlar shunday qiladi", deganlar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) yana: "Taomni yirtqich hayvonlar hidlaganidek hidlamanglar, taom va ichimlikka puflamanglar, chunki bu yomon odatdir", dedilar.

Ikrima ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) idishning ichiga puflash va unda nafas olishdan qaytarganlarini rivoyat qilganlar.

Eydigan taoming halol bo'lsin, tanovuldan oldin "Bismillahir rohmanir rohiym", deb ayt. Kimniki taomi harom bo'lsa, garchi "bismillah"ni aytsa ham, shayton: "Yo'q, bu taomni ishlab topganingda men sen bilan birga edim. Bas, bunda senga sherik bo'laman va endi sendan ajramayman", deydi. Agar taoming halol bo'lsa va unga "bismillah" desang, shayton sendan qochadi. "Bismillah" demasang, shayton yana senga sherik bo'ladi. Bu gap Alloh taoloning:

"Topgan mol-davlat va bola-chaqalarida ularga sherik bo'l" (Al-isro, 64), degan so'ziga muvofiqdir. Agar "bismillah"ni ovoz chiqarib aytsang, yoningdagi kishilar ham unutganlari bo'lsa, yodlariga tushib aytadi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) deydi: "Birortangiz taom esa, Alloh taoloning ismini zikr qilsin, oldidan olib esin, o'ng qo'li bilan esin, taomning ustidan boshlab eyishdan saqlaninglar, chunki ustidan baraka tushib

turadi. Birortangiz chap qo'li bilan eb-ichmasin, chunki shayton chap qo'li bilan eb-ichadi. Agar birortangizning kechki ovqati idishga qo'yilsa, to ko'tarilguncha turmasin. Taomni ko'pchilik bo'lib englar, shunda baraka bo'ladi".

Oisha onamiz Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Agar birortangiz ovqatlansa, boshida "bismillah" desin, esidan chiqsa, oxirida "bismillah" desin. Kim har bir egan luqmada "bismillah" desa, qiyomat kunida egan narsasi haqida hisob-kitob qilinmaydi", dedilar.

Abdulloh ibn Mas'ud: "Agar kishi uyiga kirib, "bismillah" demasdan ovqatlansa, shayton u bilan birga eydi. Allohning ismini zikr qilsa, qolgan taomidan shayton to'silib, egan narsasini qayt qiladi va u kishi yangi taomni boshlaydi", deydilar. O'ng qo'lda yeyish sunnatdir. Ayo ibn Salama otasidan, u Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) chap qo'lda eya boshlagan kishini ko'rib, unga o'ng qo'li bilan eyishni buyurdilar. U: "Eya olmayman", dedi. Yana buyurdilar. U: "Ilojim yo'q", dedi. "Unda (o'ng qo'ling bilan) eyolmay qol", dedilar Nabiy (sollallohu alayhi vasallam). Shundan keyin o'sha odam o'ng qo'lini umuman og'ziga olib borolmadi".

Taom o'rtasidan eyilmaydi. Said ibn Jubayr Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Baraka taomning o'rtasidan tushadi. Bas, chetidan englar, o'rtasidan emanglar", dedilar.

Hasan Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Taomni tepasidan emanglar, chunki baraka tepasidan tushadi", dedilar.

Agar, ibn Abbosning (roziyallohu anhumo) taom o'rtasidan eganlari va: "Men barakani eyman, uni tark qilmayman", deganlari rivoyat qilingan-ku, deyilsa, u kishining dastlab chetidan eganlari so'ng shunday qilganlari ehtimolga olinadi.

Qo'lni artishdan oldin barmoqlarni yalash sunnat. Tark qilish esa, takabbur ajamlarning ishidandir, shuningdek, idishni yalash ham sunnat. Aytiladiki, idish uni yalagan kishi uchun istig'for so'raydi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh va farishtalari barmoqlarini yalagan kishilarga salovot aytadi", deganlar. Ato Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar birortangiz ovqatlansa, barmoqlarini yalaguncha qo'lini artmasin", dedilar". Jobir ibn Abdulloh Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) idishni yalashga buyurganlarini rivoyat qilganlar. Abdulloh ibn Yazid: "Ibn Abbosning (roziyallohu anhumo) ovqatdan keyin uchta barmoqlarini yalaganlarini ko'rdim", deydilar. Jobir yana Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Agar birortangiz taomlansa, barmoqlarini yalamagunicha qo'lini hargiz artmasin, chunki u taomning qaysi joyda o'ziga baraka borligini bilmaydi", deganlarini rivoyat qilganlar.

Dasturxonga tushgan narsani yeyish ham sunnat. Hajjoj Salamiy rivoyat qilgan hadisda aytiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim dasturxonga tushgan narsani esa, rizqi doim keng bo'ladi. Shunda u o'zining, bolasining va bolasining bolasi haqqiga vafo qiladi", deganlar. Jobir Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Agar birortangizning luqmasi tushsa, olsin va undan zararini olib tashlab esin, shaytonga qoldirmasin", dedilar.

Mevani po'chog'i bilan bir tovoqqa qo'yimaslik sunnatdir. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) xurmo bilan danagini bir tovoqqa solishdan qaytarganlar.

Taomdan so'ng Alloh taologa hamd aytish sunnatdir.

Abu Bakr Huzaliy Atodan rivoyat qiladi: Rasul sallallohu alayhi vasallam: Agar taomda to'rtta xislat topilsa, uning sharti to'liq bo'ladi: haloldan bo'lsa, eyilganda Alloh taoloning ismi zikr qilinsa, so'ng ko'p qo'l unga uzatilsa va tanovuldan keyin Alloh taologa hamd aytsa", dedilar. Alloh azza va jallaga hamd aytganda ovozini ko'tarish durust emas, faqat hamma eb bo'lishgach, joiz, chunki ovoz chiqarib hamd aytishda ularni eyishdan man qilish bor.

Taomdan oldin va keyin tuzdan totish mustahab, chunki bu ishda etmishta kasallikka shifo bor deyilgan. Kishi o'zining oldidan olib eyishi mustahab. Ko'pchilik bo'lib yeyish yolg'iz eyishdan afzal. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Ko'pchilik bo'lib ovqatlansangizlar, Alloh taolo taomlaringizni barakatli qiladi". Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) yana: "Insonlarning eng yomoni yolg'iz ovqatlangan, xizmatkorini urgan va elchini qaytargan kishidir", deganlar. Boshqa bir hadisda aytiladi: "Alloh taologa taomning eng seviklisi unga ko'p qo'llar uzatilganidir".

Inson qorni to'yguncha eyishi makruh. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Odam farzandi biror idishni qorni kabi yomon to'ldirmaydi", dedilar. Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan boshqa hadisda: "Inson farzandiga sulbini qon qila oladigan oziqalar kifoya qiladi, agar shunday bo'lsa, me'dasining uchdan biri taom, uchdan biri sharob va uchdan biri havo uchundir", deyilgan. Yana aytganlarki: "Har bir kasallik ko'p eyishdan va har bir davo oz eyishdan".

Aytishlaricha, oz eyishda ko'p foydalar bor, ulardan ba'zilari: kishi jismi sog'lom bo'ladi, xotirasi yaxshilanadi, fahmi o'tkirlashadi, nafas olishi engillashadi. Va ko'p eyishda oshqozonga og'irlik bor, undan har xil kasalliklar paydo bo'ladi.

Aytiladiki, oz eyishdan illat paydo bo'lsa, ozgina davodan so'ng sog'ayadi, agar illat ko'p eyishdan paydo bo'lsa, uni ketkizish uchun ko'p davoga muhtoj bo'ladi. Ba'zi hukamolar: "Uch toifa odamlar boshqalarni ular ozor etkazmasa ham, yomon ko'radi: baxil, mutakabbir va ko'p eyuvchi", deyishgan.

## **54-bob**

### **Chaqiriqqa javob qilish**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar nikoh to'yiga chaqirilsang, modomiki, moli halol bo'lsa va u erda fosiqlik bo'lmasa, borishning zarari yo'q, agar moli lol bo'lmasa, shuningdek, to'y egasi mashhur fosiq bo'lsa, unga ijobat qilma toki, sen uning fosiqligiga rozi emasligingni bilsin. To'yga borganingda, u erda munkar ishni ko'rsang, ularni bundan qaytar, agar qaytmasalar, sen qayt, chunki ular bilan birga o'tirsang, ular seni o'zlarining ishiga rozi deb o'ylab qolishadi. Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Kimki bir qavmga o'xshasa, u ulardandir".

Ba'zilar, chaqiriqqa ijobat qilish vojib, uni tark qilish mumkin emas, deb Nabiydan



(sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadisni hujjat keltirishadi: "Kim chaqiriqqa ijobat qilmasa, Abulqosimga (ya'ni, Rasulullohga) osiy bo'libdi". Ulamolarning ommasi aytishadiki: "vojib emas", balki muakkada. Agar to'yga boy-kambag'al barobar chaqirilgan bo'lsa, ijobat qilish afzal. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar men qo'yning kalla-pochasiga chaqirilsam ham boraman. Agar menga kalla-pocha hadya qilinsa ham, qabul etaman", deganlar. Yuqorida o'tgan: "Kim chaqiriqqa ijobat qilmasa, Abulqosimga osiy bo'libdi", degan. xabar esa, johiliyatda qavmlar orasida adovat bo'lgani, chaqiriqqa ijobatda qilganda ulfat-do'stlik uyg'onishi, yo'qsa, adovat kuchayishi sababli aytib, ularga ijobat vojib qilingan edi. Agar mana shu tomondan xotirjam bo'linsa, kishi xohlasa, ijobat qiladi, xohlasa, tark etadi, ammo ijobat afzal, chunki ijobatda xursandchilik bor. Hukamolarning ba'zisi:

Agar bir inson seni chaqirsa, sen ijobat qil, bor, agar senda ochiq-ravshan uzr bo'lmasa, bormasliging durust emas. Chunki ijobatni javobsiz qoldirishda jafo, yana va'daga xiloflik bor. Agar to'yga chaqirilganingda, ro'zador bo'lsang, buni to'y egasiga bildir. Agar u: "Siz bormasangiz bo'lmaydi", desa, ijobat qil. Nafl ro'za tutgan bo'lsang va to'ydagilarga noqulaylik tug'dirmasligingni bilsang, og'iz ochma. Agar taomdan emasliging ularga og'ir botsa, og'zingni och, so'ng bir kun qazosini tutasan, xohlasang ochma, lekin og'iz ochishing afzal. Abu Said Xudriy aytadilar: "Bir kishi Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) va u zotni ashobini mehmon qildi, ularning ichida ro'zador kishi bor edi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) unga: "Birodaringga ijobat qil va og'zingni och, so'ng bir kun qazosini tut", dedilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Agar birontangiz taomga chaqirilsa, ijobat qilsin, og'zi ochiq bo'lsa, esin, agar ro'zador bo'lsa, unga salavot aytsin", ya'ni, unga barakot tilab duo qilsin. Umarni (roziyallohu anhu) taomga chaqirishdi, borib o'tirganlarida, taom qo'yildi, qo'llarini cho'zib: "Bismillah, qani, olinglar", dedilar, so'ng qo'llarini olib: "Men ro'zadorman", deb aytdilar.

## **55-bob** **Ziyofat odobi haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadi: Mehmon uy egasi ko'rsatgan o'ringa o'tirishi mustahab, chunki mezbon uyining holatini yaxshi biladi. Mehmonga to'rtta narsa mustahab: ko'rsatilgan joyga o'tirishi, dasturxonga qo'yilgan narsaga rozi bo'lishi, faqat uy egasining izni bilan turishi, chiqqan vaqtda uning haqqiga duo qilishi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) mehmondorchilikdan chiqsalar: "Sizning oldingizda ro'zador og'iz ochdi, yaxshilar taomlaringizni edi, sizlarga maloyikalar salovot aytdi va sizlarga rahmat yog'ildi", deb aytar edilar.

Mehmon uyning egasidan suv va tuzdan boshqasini talab qilmaydi. Yana taomni ayblamasligi va taomdan so'ng Allohga hamd aytishi lozim, bu adabdir. Bir masalda aytiladiki, mehmon xohlagan va orzu qilgan narsasini emas, balki o'ziga keltirilgan narsani iste'mol etadi. Agar dasturxon boshida o'zidan yoshi kattaroq kishi bo'lsa, undan oldin boshlamaydi. Chunki rahbarlik sulton uchun, va boshlash yoshi katta uchun, deyilgan.

Zikr qilinishicha, bir hakim taomga chaqirilganda, aytdiki: "Uchta shart bilan ijobat

qilaman: takalluf etmaysan, xiyonat qilmaysan, jabr bermaysan", dedi. "Takalluf nima?", deb so'radi. "O'zingda bo'lmagan narsaga taklif qilish", deb javob berdi. "Xiyonat nima?", dedi. "O'zingda bor narsaga baxillik qilib, mehmonga olib kelmaslik", deb javob berdi. "Jabr nima?" deb so'radi. "Oilangni mahrum qilib, mehmoningga berishing", deb javob berdi.

Agar bir qavmni taomga chaqirsang, ularga xizmat qil, bu ish muruvvatdandir, Alloh taoloning:

"Ibrohimning izzat-ikromli mehmonlari..." (Zoriyot, 24), degan so'zidagi "izzat-ikrom" ularga xizmat qilishdir.

Ziyofatga zo'rlanmaydi gohida oling-oling deb turiladi. Chunki ot hushtaksiz ham ichadi, ammo hushtak bilan ko'p ichadi, tuya niqtamasa ham yuradi, ammo niqtasa tezroq yuradi. Shuningdek, mehmonga oling-oling deb turish foydali bo'ladi. Ammo majburlanmaydi, chunki bu yomondir. Mehmonlarning oldida sukutni ko'paytma, ularni yolg'iz qoldirma, ularning oldida xizmatkorga g'azab qilma, chunki mehmonlarga ko'rsatiladigan eng yaxshi hurmat ochiq yuz va chiroyli so'zdir. Mehmonlar bilan birga ularga malol keladigan kishini o'tqazish durust emas, chunki malollik taomni bo'g'adi, ishtahani buzadi. Agar ular ovqatlarinib bo'lsalar va ijozat so'rasalar, ularni ushlab turish durust emas, chunki bu ularga og'ir keladi. Muhammad ibn Siyrin: "Birodaringni u yomon ko'rgan narsa bilan ikrom qilma", dedilar va shunday hikoya qildilar: "Bir hakimni bir kishi mehmonga chaqiribdi. U: "Uchta shart bilan senga ijobat qilaman, menga zahar bermaysan, men bilan o'zing yaxshi ko'rgan, menga yoqmagan kishini o'tqazmaysan, meni qamoqqa qamamaysan", dedi. U kishi "Xo'p", dedi. Borganida u bilan birga yosh bolani o'tqazdi. Taomni eb bo'lgach, yana eyishga qistay boshladi, ketishni xohlaganida yana bir oz o'tiring, dedi. Shunda hakim unga: "Shartlarni hammasini buzding", dedi".

Mehmonlarning ba'zisi kelib, boshqalari kechiksa, hozir bo'lganlar taom taqdim etilishga haqlidirlar. Uch narsa sil qiladi: sustkash elchi, yorug'lik bermaydigan chiroq, kuttirilgan taom, deyiladi.

Mehmonlar qo'llarini yuvishlari uchun taomdan oldin suv olib kelishi lozim. Yuvish majlisning oxiridagi kishidan boshlanadi. Davraboshini oxirida yuvadi. Shunda boshqalar uning qo'l yuvib bo'lishini kutib turishadi va tanovulni birga boshlashadi.

Lekin ba'zilar kattadan boshlashni ma'qul ko'rishgan, agar taomdan oldin yuvilayotgan bo'lsa.

Taomdan oldin qo'l yuvgan kishi qo'lini sochiqqa artmaydi, chunki uni ushlagani uchun qo'lini yuvdi va yuvgandan so'ng ushlamasin. Lekin ba'zi odamlar qo'llarini artishni yaxshi bilishgan, demak, artsa ham zarari yo'q.

Taomdan so'ng qo'llar yuvilganda har safar dastsho'ni bo'shatishni ba'zilar yomon ko'rishgan. Chunki Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) shunday rivoyat bor: "Tog'oralarni to'ldiringlar va majusiylarga o'xshamanglar". Boshqa bir hadisda: "Yuvganlaringni jamlanglar, Alloh sizlarni jamlaydi", deyilgan. Har safar dastsho'ni bo'shatish ajamlarning fe'lidan, deyiladi. Ba'zilar: "Bo'shatishning ziyoni yo'q, chunki suv ko'paysa kiyimga sachraydi, natijada uni iflos qiladi", deyishgan.

Kishi o'zinikidan boshqaning luqmasiga qarashi makruhdir, chunki bu yomon odat. Mehmon taom keladigan tomonga ko'p qarayverishi durust emas, bu hol ham insonlarning nazdida makruhdir. Vallohu a'lam.

## **56-bob** **Tishlarni xilol qilish haqida**

Ibn Siyrindan rivoyat qilinadi: "Ibn Umar tishlarni xilol qilishga buyurar va agar tark qilinsa, tishlar zaiflashadi, deb aytar edilar".

Jobir Umar ibn Xattobdan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: "(Tishingizni) o'rik suvi bilan chaymanglar, chunki u moxovni keltirib chiqaradi, qamish bilan xilol qilmanglar, qichima kasalini paydo qiladi". Avzo'iy: "Os (doimo yashil bo'lgan o'simlik) bilan xilol qilmanglar, chunki bu asabiylikni keltirib chiqaradi", deydilar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishi xilol qilganida tishlarining orasidan chiqqan taomni yutib yuborsa ham, olib tashlasa ham joiz. Asarlarda ikki holat ham mubohligi aytilgan. Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilarki: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim taomni esa, xilol qilingan narsani tupirib tashlasin, tili bilan chiqargan narsani yutib yuborsin. Kim shunday qilsa, yaxshi kim qilmasa, ziyoni yo'q", dedilar".

Go'shtdan oldin ikki-uch luqma non eb olish mustahab, shunda xilol qilishga hojat kamayadi. Rayhon, os, anor yog'ochi va taroq bilan xilol qilish makruh. Tishkovlagich qora yoki sariq toldan bo'lishi mustahab. Agar kishi bir mehmon bo'lsa, tishlari orasini xilol qilsa, xilolni yoki tishlari orasidan chiqqan taomni boshqalarga ko'rsatishi durust emas. Uni ushlab turadi. Tog'ora keltirilganda, qo'lini yuvayotib unga tashlab yuboradi.

## **57-bob** **Ichish odobi**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ichimlikni uch nafas bilan ichish mustahab. O'tirgan holatida bir nafasda yoki tik turib ichsa, ziyoni yo'q. Asarlarda buning mubohligi ham, xilofi ham kelgan. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Suvni birdan ichmanglar, tuyaning ichishiga o'xshab, ikki-ikki yoki uch-uch bo'lib ichinglar va ichayotganda Alloh taoloning nomini aytinglar, ichib bo'lsanglar, Allohga hamd aytinglar".

Oatoda Anasdan rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) tik turgan holatda ichishdan qaytardilar".

Nazzol ibn Sabra aytadilar: Men Alining (roziyallohu anhu) tahoratdan qolgan suvni tik turib ichayotganlarini ko'rdim. U zot shunda: "Tikka turgan holda ichishni insonlar yomon ko'rishadi, ammo Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) men qilgan ishni qilganlarini ko'rganman", dedilar.

Amr ibn Shu'ayb otasidan, otasi bobosidan rivoyat qiladi: "Men Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam)ni tik turgan va o'tirgan hollarida suv ichganlarini ko'rganman".

Nofi' Ibn Umardan: "Biz tik turgan holatimizda ichar va yurgan holatimizda er edik", deganlarini rivoyat qilgan.

Ibrohim ibn Said Abu Hurayradan bu holatning xilofini rivoyat qiladi. U zot: "Agar tik turgan holda ichgan kishi o'ziga ziyonni bilganida, albatta, qayt qilib tashlardi", dedilar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar o'tirgan holatida ichsa, bu ish chiroyliroq va ziyon-zarardan uzoqroqdir. Sha'biydan rivoyat qilinadi: "Tik turib ichish kasallik keltirishi sababli makruhdur, shuningdek: yonboshlab yeyish qorin kattalashib ketishi xavfi tufayli yomon ko'rildi, bu ishlardan ular harom bo'lgani uchun emas, balki shafqat qilib qaytarildi. Xuddi idishning og'zidan ichishdan qaytarilganidek".

Darhaqiqat, Nabi (sollallohu alayhi vasallam) idishning og'zidan ichishdan qaytarganlar. "Idishning ulangan va yorilgan joyidan ichma, chunki u erda shayton o'tiradi", deganlar.

### 58-bob

#### O'ng tomonni chap tomondan afzal bilish haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar suv ichsang va sening o'ngingda, so'lingda kishilar bo'lsa, o'ng tomoningdan boshlab uzat, chunki o'ngda fazl bor. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) har bir narsani o'ngdan boshlashni yaxshi ko'rardilar. "Agar sizlarga ikkita yo'l tursa, o'ng tomonga yuringlar", deganlar. Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladilar: "Nabi (sollallohu alayhi vasallam) qadah keltirildi, ichdilar, o'ng tomonlarida bir yosh bola bor edi, u qavmning eng kichigi edi. Kattalar so'llarida edi. Nabi (sollallohu alayhi vasallam) yigitchadan: "Shayxlarga bersam maylimi?" deb so'radilar. U: "Siz tomondan kelgan nasibamni birortaga hadya qilmayman", dedi, shunda Rasululloh unga berdilar".

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) aytadilar: "Nabi (sollallohu alayhi vasallam) chap tomonlarida Abu Bakr (roziyallohu anhu) va o'ng tomonlarida bir a'robiy bor edi. Ichib bo'lgach, a'robiyga berdilar. U: "Ey Rasululloh, Abu Bakrga bering, u mendan afzalrog'i", dedi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "O'ng tomon, o'ng tomon", dedilar.

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Nabi (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlarini rivoyat qiladilar: "Agar oyoq kiyimingni kiysang, o'ngdan boshla, agar echsang, chapdan". Va yana aytganlar: "Birortangiz bir poy kavushda yurmasin, ikkalasini baravariga kiysin yoki echsin". Oisha (roziyallohu anho) yo'lda ketayotgan edilar, bir payt kavushlari oyoqlarini og'ritdi, echdilar va bir poyda yura boshladilar, so'ng: "Men Abu Hurayra aytgan narsaga xilof qilyapman", dedilar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Agar uzrli sabab bo'lsa ziyoni yo'q, uzrsiz bo'lsa, makruhdur, ikkalasi hadisning ma'nosi shundaydir. Vallohu a'lam.

### 59-bob

#### Manzildan chiqish va hamrohlik qilish haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishi uydan chiqayotganda: "Bismillah, Allohga suyandim, Allohdan o'zga kuch ham, quvvat ham yo'q", deb aytishi mustahabdir. Agar u

"bismillah" desa, farishta unga, hidoyat topding, dedi, agar "Allohga suyandim" desa, senga kifoya qildi, deydi, agar "Allohdan o'zga kuch ham, quvvat ham yo'q" desa, saqlanding, deydi. Uydan chiqqach, erga qarab yuriladi, hojatsiz o'ng va chapga qaralmaydi, nazar qadam qo'yiladigan joyga tashlanadi. Chunki olazarak bo'lish shahvatni paydo qiladi, oyog'i ostidagi ozorlardan g'ofil qoladi, natijada o'zi sezmaganda holda musibatlanadi. Bir musulmonga yo'liqsang, yuzlangan holatda salom ber. Agar u do'sting bo'lsa, qo'l berib ko'rish va qo'lingni uning qo'lidan oldin olma, yuziga tabassum qil, chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim buni qilsa, gunohlari kechiriladi", deganlar. Piyodalar yo'l chekkasidan, otliqlar shahar ichida bo'lsa, yo'lning o'rtasidan yuradi. Yalanglik bo'lsa, yayov kishilarga yo'lning o'rtasidan, otliq esa xohlagan tarafdin yurishi mumkin.

Agar yo'lovchining oldidan kofir yoki ayol kishi chiqsa, yo'lning o'rtasidan yurib o'tadi. Darhaqiqat, bu haqda asarlar vorid bo'lgan. Sahl ibn Abu Solih otasidan, u Abu Hurayradan rivoyat qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar yo'lda yahudiy va nasorolarga yo'liqsanglar, ularni yo'lning tor joyiga siqinglar", deganlar. Miqdoddan rivoyat qilingan hadisdi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ayollarga katta yo'lda nasiba yo'q", deydi.

Oqil kishi insonlar o'tadigan joyda burun qoqishi, tuflashi durust emas.

Shayxlar, yaxshi kishilar bilan o'tirishi mustahab. Yoshlar, bolalar, ahmoqlar bilan o'tirish makruh, chunki bu hol kishining haybatini ketkizadi. Oxirat va o'limni ko'p eslaydigan, ularga rag'bati bor kishilar bilan o'tirish yaxshidir. Ammo dunyo ishlariga berilganlar bilan o'tirish makruh xisoblanadi, chunki ular kishining qalbini, dinini va hayotini buzadi. Agar bozorda ishing bo'lmasa, kirma, chunki unda insdan bo'lgan shayton malaylari va kiyimli bo'rilar bor, deyiladi. Kishi agar bozorga kirsam, "La ilaha ilallohu vahdahu la-sharika lah. Lakul mulku va lahul hamd. Yuhyiy va yumiyyat. Va huva hayyul la-a yamut. Biyadihil xoyr va huva 'ala kulli shay'in qodiy", deb aytishi mustahab. Chunki Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) kim shu kalimani aytsa, unga bozordagi butun odamlar sonidan o'n barobar ko'p savob olishini aytganlar.

## **60-bob** **Sotish va sotib olish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishi savdo-sotiq hukmlarida nima joiz va nima nojoizligini bilmay turib, tijorat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) aytadilar: "Dinda faqih bo'lmagan kishi bozorlarimizda hargiz narsa sotmasin".

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) esa: "Kimki dinda faqih bo'lishdan oldin tijorat bilan shug'ullansa, riboga botibdi, riboga botibdi, riboga botibdi", deganlar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Alloh yengil savdo- sotiqni, hukmni, talabni yengil qilgan kishini rahmat qilsin". Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) yana: "Kim kambag'alga qarashsa yoki undan qiyinchilikni olib tashlasa, Alloh unga hech soya bo'lmagan kunda Arshning soyasida joy beradi", deganlar.

Muhammad ibn Samlok bozorga kirib: "Ey bozor ahli, bozorlaring kasod, savdolaring

fasod, qo'shnilaring hasadgo'y, boradigan joylarning qizib turgan do'zax", derdi. Ya'ni, tojir johil bo'lsa, ribodan saqlanmasa.

Ammo tijoratchi fiqhni o'rgansa, savdo vaqtida pok bo'lsa, u jihoddadir, chunki xabarda haloldan kasb qilish jihoddan afzal, deb rivoyat qilingan. Qatoda: "Bizga rostgo'y savdogar qiyomat kuni arshning soyasida bo'lishini aytishdi", deydilar.

Agar bir kishi biror narsani sotsa yoki sotib olsa, so'ng pushaymon bo'lsa va savdoni bekor qilishni so'rasa, unga narsasini qaytarib berish lozim, chunki Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kim afsuslanuvchining savdosini bekor qilsa, Alloh qiyomat kunida uning gunohlarini bekor qiladi", deganlar.

Abu Hanifa (rahmatullohi alayh) bir kishiga ipak matoni sotdilar, so'ng sotib olgan kishi qaytib kelib savdoni bekor qilishni talab etdi, Imom rozi bo'lib, savdoni bekor qildilar. So'ng xodimlariga: "Tur, narsalarni uyga olib bor, savdo-sotiqqa hojatim yo'q edi, faqat Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) "Kim afsuslanuvchining savdosini bekor qilsa, Alloh qiyomat kunida uning gunohlarini bekor qiladi", degan so'zlariga doxil bo'lish uchun chiqqan edim. Darhaqiqat, hozir niyatimga erishdim", dedilar.

Bozordan narsa olmoqchi bo'lsang, sotuvchi sotib olishdan oldin buni tatib ko'r, desa, undan ema, chunki uning eyishga ruxsat berishi sen sotib olishing uchundir. Ko'pincha o'rtangizda savdo amalga oshmaydi, natijada bu tatib ko'rish shubhali narsani yeyish bo'lib qoladi. Lekin agar u narsasini ta'riflasa, sen u sifatlarni topmasang, ixtiyor o'zingda.

Savdogarga savdosi yurishishi uchun qasam ichishi makruhdir. Tijorat kishini farzlarni ado etishdan mashg'ul qilib qo'ymasligi kerak. Agar namoz vaqti kelsa, savdogar tijoratini tark qilishi lozim. Alloh taolo bu haqda aytadi:

"U (masjidlarda) ertayu kech U zotni poklaydigan kishilar bordirki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas. Ular dillar va ko'zlar iztirobga tushib qoladigan (qiyomat) kundan qo'rquurlar. Ular Alloh o'zlarini qilgan amallarining eng go'zallari sababli mukofotlashi va yana ularga o'z fazlu karami bilan ziyoda (savoblar ato) qilishi uchun (ertayu kech Allohni poklab ibodat qilurlar). Alloh o'zi xohlagan kishilarga behisob rizq berur" (Nur, 37-38).

Odamlar oyatda vasfi kelgan kishilar haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar: "Ular tijoratni butunlay tark qilib, suffa ahli kabi doim ibodatda bo'lgan kishilardir", deyishdi. Ba'zilar: "Ular tijorat bilan shug'ullanganlarida ularning tijorati namozlarni vaqtida o'qishdan mashg'ul qilib qo'ymagan kishilardir", deb aytishdi. Hasan Basriy: "Ular tijorat bilan shug'ullanib, tijoratlari ularni Allohning zikridan va namozdan chalg'itib qo'ymagan kishilardir", deganlar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Oyatning ma'nosiga ikkala firqa doxildir, vallohu a'lam.

## **61-bob** **Voliylarga toat qilish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ra'iyatga hokimlarga itoat qilishi vojib, modomiki ularni ma'siyatga buyurmasa. Agar ma'siyatga buyursa, itoat qilishi joiz emas, shuningdek, ularga unga qarshi chiqish ham mumkin emas, ammo zulm qilsalar, ularning zulmidan himoyalani uchun qarshi chiqish joizdir. Biz aytamizki, hokimlarga itoat qilish Alloh taoloning:

"Ey mo'minlar, Allohga itoat qilingiz va Payg'ambarga itoat qilingiz hamda o'zlaringizdan bo'lgan (ya'ni, musulmon) hokimlarga bo'ysuningiz!" (Niso, 59), degan so'ziga binoan vojib. Ba'zi mufassirlar, o'zlaringizdan bo'lgan amirlardir, dedilar. Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Quloq solinglar va itoat qilinglar, garchi sizlarga habash qul boshchilik qilsa ham", deganlar. Ibn Abbas (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki amirida biror yomon narsani ko'rsa, sabr qilsin, biror kishi jamoatdan bir qarich chiqsa va o'lsa, johiliyat o'limi bilan o'ladi", dedilar. Ibn Umardan (roziyallohu anhumo) rivoyat qilinadi. Yazid ibn Muoviyaning xalifa bo'lgani xabari u kishiga etgan vaqtda: "Yaxshi bo'lsa, rozimiz, yomon bo'lsa, sabr qilamiz", deganlar. Ba'zi sahobalar: "Agar imomlar fuqaroga adolat qilsa, fuqaroga shukr va imomlarga ajr bo'ladi. Agar jabr qilsa, fuqaroga sabr va imomlarga gunoh bo'ladi", deyishdi. Ammo gunohga buyursalar, itoat joiz bo'lmaydi. Chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Xoliqqa osiy bo'linadigan ishda maxluqqa itoat yo'q", deganlar. Nofi' Ibn Umardan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Muslim kishi yaxshi va yomon ko'rgan narsalarida quloq solishi va toat qilishi vojib, modomiki, ma'siyatga buyurmasa, agar ma'siyatga buyursa, quloq solinmaydi va toat qilinmaydi", dedilar. Ali (roziyallohu anhu) rivoyat qildilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) qo'shin yubordilar va ularga bir kishini amir qildilar. U amir bir kuni o't yoqdi va g'azab qilib, unga kiringlar, dedi. Ba'zilar unga kirmoqchi bo'lishdi, ba'zilar o'zimiz o'tdan qochib yuribmiz, unga kirmaymiz, deyishdi. Bu voqeani Nabiyya (sollallohu alayhi vasallam) aytishgan edi, u zot: "Agar o'tga kirganlarida, abadiy undan chiqmas edilar". Allohga osiy bo'ladigan ishda maxluqqa itoat yo'q, balki toat ma'rifatda, yaxshilikdadir", dedilar.

Abdulloh ibn Ma'sud: "Alloh azza va jalla bu dinni fojir kishi bilan ham quvvatlaydi", dedilar. Huzayfa ibn Yamon aytadilar: "Alloh sizlarga azob beruvchi amirlarni, albatta, yuboradi. Qiyomat kunida Alloh taolo ularni do'zaxda azoblaydi". Muso ibn Ubayda Ayyub ibn Xoliddan rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Yaqinda sizlarga mendan so'ng amirlar kelib, o'zlari yomon ko'radigan narsani qiladilar va o'zlari qilmaydigan narsalarni sizlarga buyuradilar, sizlar uchun ularga itoat yo'q", dedilar".

Zubayr ibn Adiydan rivoyat qilinadi: "Anas ibn Moliknikiga bordik, unga Hajjojning qilganlarini aytib shikoyat qildik, u kishi: "Sabr qilinglar, chunki bir zamonning ortidan faqat undan yomonrog'i keladi", men buni Nabiyyan (sollallohu alayhi vasallam) eshitganman", - dedilar".

## **62-bob** **Amirlardan (hadya) olish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Insonlar sultonlardan mukofot olish haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar: "Uni olish joiz, modomiki uni haromdan olganini bilmasa", deyishdi.

Ba'zilar: "Yo'q, joiz bo'lmaydi", deb aytishdi. Joiz deganlar Ali ibn Abu Tolibdan rivoyat qilingan hadisni olishadi: "Sultonga, albatta, halol va harom etadi, nimaniki senga bersa uni ol, u senga haloldan beradi". Umardan (roziyallohu anhumu) rivoyat qilinadi: Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Kimgaki so'ramasidan oldin biror narsa berilsa, uni olsin, bu Alloh taolo uni rizqlantirgan rizqdir", dedilar.

A'mash Ibrohim Naxa'iyning: "Amirlardan biror narsani olishda zarar yo'q", degan fikrda bo'lganlarini rivoyat qilganlar.

Habib ibn Abu Sobitdan rivoyat qilinadi: "Muxtor ibn Ubaydan Ibn Umar va Ibn Abbosga hadyalar kelar va ular qabul qilar edilar".

Hasan Basriy ham amirlarning hadyalarini qabul qilganlar.

Muhammad ibn Hasan Abu Hanifadan, u kishi esa (ustozlari) Hammoddan rivoyat qiladilarki, Ibrohim Naxa'iy Xulvonda (Misrdagi mavze') ishboshi bo'lib turgan Zuhayr ibn Abdulloh Azudiydan mukofot talab qilar, o'zlari ham, Hamadoniy ham olar edilar.

Muhammad aytadilar: "Modomiki ayni haromligi haqida biror narsa bilmas ekanmiz, yuqoridagi hukmni olamiz". Bu gap Abu Hanifaning fikrlari hamdir.

Ammo amirlar hadyasini makruh degan kishilar Habib ibn Sobit rivoyat qilgan xabarga amal qilishgan: "Bir amir Abu Zarr G'iforiyga hadya yuborganda, u zot: "Hamma musulmonlarga shunday hadya yuborildimi?", deb so'radilar. "Yo'q", degan javobni eshitib Abu Zarr ushbu oyatni o'qidilar:

"Yo'q, (hech qanday to'lov uni azobdan qutqara olmas!) Albatta, (kofirlar tashlanadigan do'zax o'z harorati bilan bosh terilarini sidirib olguvchi bo'lgan) bir olovdur!" (Maorij, 15-16).

Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) masjid devorining ustida uxlab yotgan Abu Zarr G'iforiyning oldidan o'tib ketayotib, qullariga: "Ushbu dinorlarni olib, to bu kishi uyg'ongungacha kutib tur, so'ng dinorlarni unga ber. Olsa, ozodsan", dedilar.

Qul Abu Zarr uyg'onganlarida pulni berdi, ammo u zot qabul qilmadilar. Qul dedi: "Olsangiz-chi, bu ishda ozodligim masalasi bor". Abu Zarr: "Ularni olmasman, chunki bu ishda mening qullikka tushib qolishim xavfi bor", dedilar.

Abu Voilning quyidagi so'zlari rivoyat qilinadi: "Tijoratdan kelgan birgina dirham, menga hadya qilingan o'n dirhamdan yaxshiroqdir".

Abdul Mur'im ibn Idris otasidan, u esa Vahb ibn Munabbahdan rivoyat qiladi: "Abu Dardoning oldiga bir kishi kelib: "Ey Abu Dardo, falon kishi meni so'kdi, zulm qildi", dedi. Abu Dardo unga: "Agar rost gapirayotgan bo'lsang, yaqin kunlarda Alloh uni azoblaydi", dedilar. Bir necha kun o'tmasdan o'sha zolim amirdan o'n ming dirham hadya oldi. Abu Dardo unga: "Ey birodar, rost aytgan ekansan, Alloh unga uqubat etkazdi", dedilar. "Ey Abu Dardo, bu ham uqubatmi?", deb so'radi. Allohga qasamki, agar orqasiga o'ng ming qamchi urilganda o'ng ming dirham olganidan yaxshiroq bo'lardi", deb javob berdilar u zot.



Faqih aytadilar: Sovg'ani qabul qilish bizning nazdimizda ikki xil bo'ladi.

1. Amirning boyligi pora va haromdan iborat bo'lsa, sovg'ani olish joiz emas. Faqat yuborilgan sovganing halol moldan ekani bilinsa, olish mumkin.
2. Boyligining aksari meros yoki tijoratdan orttirilgan bo'lsa, sovg'a olishning zarari yo'q. Faqat yuborilgan sovg'aning harom yoki shubhali ekani bilinsa, olish joiz emas. Umuman, har qanday holatda olmaslik afzal.

### 63-bob

#### Birovning uyi ichiga qarashdan qaytarish haqida

Faqih aytadilar (Alloh rahmat qilsin): Biror kishi boshqaning uyiga ruxsatsiz qarashi joiz emas. Kim qarasa gunohkor bo'ladi. Qaragan kishining ko'zini uy egasi o'yib olsa, ba'zi faqihlarning fikricha, aslo javobgar bo'lmaydi. Boshqalarning fikricha esa, uy egasi javobgar bo'ladi. Shu hukmni olamiz. "Javobgar bo'lmaydi" degan faqihlar Ibn Shihob Sahl ibn Sa'd So'idiydan rivoyat qilgan hadisga tayanishgan: Bir kishi Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) uylariga kelib qoldi. Rasululloh sochlarini tarab turardilar. U kishini Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ko'rib: "Agar menga qarab turganingni bilganimda, taroqni ko'zingga tiqib olardim. Chunki ruxsat so'rash nazardan saqlanish uchun joriy qilindi", dedilar.

Abu Zannod A'rajdan, u Abu Hurayradan rivoyat qiladi: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Agar biror kishi senga beruxsat qarasa, uni ko'zini o'yib olsang ham, senga gunoh bo'lmaydi".

"Javobgar bo'ladi" degan kishilar ushbu oyati karimalarga suyanishgan:

"Hurmatlar (buzilsa, rioya qilinmasa) qasos (olinadi). Bas, kim sizlarga tajovuz qilsa, sizlar ham ularga tajovuzlari muqobilida tajovuz qiling! Va Allohdan qo'rqingiz! Bilinglarki, Alloh o'zidan qo'rquvchilar bilan birgadir" (Baqara, 194);

"(Ey mo'minlar), agar sizlar (o'zingizga etgan biron ziyon-zahmat uchun) intiqom olmoqchi bo'lsangizlar, u holda faqat sizlarga etkazilgan ziyon barobarida intiqom olingiz. (Ammo) agar (intiqom olmay) sabr-toqat qilsangizlar, albatta sabr qilguvchi kishilar uchun (bu ish intiqom olmoqdan) yaxshiroqdir" (Nahl, 126).

Demak, hadis oyatning hukmiga zid, bunday holatda hadisga amal qilinmaydi. Ehtimol, yuqoridagi oyatlar nozil bo'lishidan oldin hadis mansux bo'lgandir yoxud va'id uchun bo'lib, vujubga dalolat qilmas. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir gapni aytsalar boshqa ma'noni qasd qilar edilar. Masalan, Abbos ibn Mardos Salmiy u kishini maqtaganda Bilolga qarata: "Tur-da, tilini kesib tashla", dedilar. Bu gaplari bilan kesishni emas, balki biror narsa berishni iroda qilganlar.

Shunga o'xshab hadisdagi ko'zni o'yishdan murod, birovning uyiga bundan keyin beruxsat qaramaslik iroda qilingan bo'lishi mumkin. To'g'risini Alloh bilguvchiroqdir.

## **64-bob**

### **Tuhmatga tushib qolishdan qaytarish haqida**

Faqih deydilar: Kishi o'zini tuhmatga tushirib qo'yishi to'g'ri emas. (Shuning uchun) tuhmatchilar bilan o'tirmasin, ularga aralashmasin. Chunki o'zi ham tuhmatchiga aylanib qoladi. Alloh taolo marhamat qiladiki:

"Axir Alloh sizlarga Kitobda: "Qachonki Allohning oyatlari inkor etilayotganini va masxara qilinayotganini eshitsangizlar, to boshqa gapga o'tmagunlaricha unday kimsalar bilan birga o'tirmanglar", degan so'zlarni nozil qilgan edi-ku?! (Modomiki, ular bilan o'tirgan ekansiz) demak, sizlar ham shak-shubhasiz ularning o'zisiz. Albatta, Alloh barcha munofiq va kofirlarni jahannamga jamlaguvchidir" (Niso, 140).

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki biror qavmga o'xshashga harakat qilsa, o'sha qavmdan bo'lib qoladi", deganlar.

Luqmoni Hakimdan rivoyat qilinadi: "Yomon kishi bilan do'st bo'lgan kishi salomat bo'lmas, noloyiq ishlarga kirishgan kishi tuhmatga qolur, tiliga egalik qilolmagan kishi pushaymon bo'lur". Shunga o'xshash ma'no Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) ham rivoyat qilingan.

Ibn Shihob Ali ibn Husayndan rivoyat qiladi: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) oldlariga ammalari Safiyya kelganlarida masjidida o'tirgan edilar. Birga qaytishayotganlarida ansorlardan ikki kishini uchratdilar. Rasululloh ularga: "Bu ayol ammam Safiyya bo'ladi", dedilar. Ikki ansor birdaniga: "Subhonalloh", deb yuborishdi. Shunda Rasululloh: "Shayton odam bolasining qon yo'llarida yuradi, yomon gumon qilib halokatga tushib qolishingizdan qo'rqdim", dedilar.

Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) quyidagi hadis ham rivoyat qilingan: "Kimki Allohga va qiyomat kuniga ishonsa, tuhmat paydo bo'ladigan o'rinlarga tushib o'zini fitnaga solmasin".

## **65-bob**

### **Yumshoq bo'lish haqida**

Faqih aytadilar: Musulmon kishiga har bir narsada yumshoq va o'zini xorlamaydigan darajada tavoze'li bo'lish loyiqdir. Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinadi: "Qaysi bir narsaga rifq – muloyimlik kirsas, uni bezaydi, qaysi bir narsaga qo'pollik kirsas, uni obro'sizlantiradi", dedilar. Mujohid rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar insonlar rifqning yaratilishiga qarasalar, undan yaxshiroq maxluqni ko'rmaydilar va agar qo'pollikning yaratilishiga nazar solsalar, undan xunukroq maxluqni ko'rmaydilar", dedilar". Urva Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qiladilar: "Bir kishi Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) kirishga ruxsat so'radi. Rasululloh: "Unga ruxsat beringlar, Ibn Ashira qanday yomon" (yoki Ashira qanday yomon odam yoki Ashiraning akasi qanday yomon), dedilar. U kirganda esa unga yumshoq so'z aytdilar. Shunda men: "Ey Rasululloh, siz u haqda unday degan edingiz so'ng yumshoq so'z aytdingiz", dedim. Rasululloh: "Albatta insonlarning Qiyomat kunida yomon manzilda turadigani insonlar uning yomonligidan qo'rqqib hurmat qilishgan kishi", dedilar. Abu

Dardo: "Biz ba'zi bir qavmlarning yuziga xo'mrayib qaramaymiz, vaholanki, qalblarimiz ularni la'natlab turadi", deganlar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kam-ko'stsiz tavoze' qilgan, to'plagan molini savob ishga nafaqa etgan, miskin va bechoralarga mehribon bo'lgan, hakim va faqihlar bilan muloqotda bo'lgan kishiga xushxabar bo'lsin", deganlar.

Hishom ibn Urva otasidan, u Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qiladi: "Bir kishi Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bilan xusumatlashganda: " U xusumat qilyapti. Alloh bizga kifoya qiladi va U naqadar yaxshi vakildir", dedilar". Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taolo bandasini ojizligi uchun malomat qiladi. Ojizligingni tan olib, Alloh menga kifoya. U qanday yaxshi vakildir", degin", deb aytganlar.

Luqmoni Hakim o'g'liga: "Ey o'g'lim, achchiq bo'lmaginki, sotilasan, shirin bo'lmaginki, yutilasan", dedi.

Ibrohim Naxa'iy:

"Ular o'zlariga zulm etgan vaqtda (unga qarshi kurashib) g'olib bo'ladigan zotlardir" (Sho'ro, 39), oyatini sharhlab: "Sahobalar mo'min kishi o'zini xorlashini yomon ko'rishardi", dedilar.

Oishadan (roziyallohu anho) quyidagi rivoyat naql qilinadi. Bir xotin u kishiga (roziyallohu anho) dedi: "Ba'zi qo'shnilarim meni tahqirlashadi, ba'zisi esa hurmat qilishadi". Shunda Oisha (roziyallohu anho): "Seni tahqirlagan kishini tahqirla, hurmat qilgan kishini esa hurmat qil", deb maslahat berdilar.

Faqih (u kishini Alloh rahmat qilsin) aytadilar: Oishaning (roziyallohu anho) gaplari ayni adolat va insofdir. Ammo kimki kechirimli bo'lib, o'ziga yomonlik qilgan kishiga yaxshilik qilsa, eng afzal ishdir. Chunki Alloh taolo marhamat qiladi:

"(Ey insonlar), sizlarga ne bir musibat etsa, bas, o'z qo'llaringiz qilgan narsa – gunoh sababli (etur)" (Sho'ro, 30).

Jannat ahlining xulqlaridan bo'lgan uchta xulq borki, ular faqat saxiy, jo'mard kishilarda uchraydi: o'ziga yomonlik qilganga yaxshilik qilish; o'ziga zulm qilgan kishini kechirish; unga bermagan kishiga hadya qilish. Bunday axloq ushbu oyati karimaga muvofiq keladi:

"Marhamatli bo'ling, yaxshilikka buyuring va johillardan yuz o'giring!" (A'rof, 199).

Ibn Zayddan, u Sayd ibn Musayyabdan, u zot esa, Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi:

"Aqlning boshi Allohga iymon keltirgandan keyin insonlar bilan murosas qilishdir. Dunyoda ma'rifat ahli bo'lganlar oxiratda ham ma'rifat ahlidirlar, ular bilan maslahatlashgan kishi hargiz halokatga uchramaydi, chunki oyatda "Va ishlaringizda ularga maslahat soling!" (Oli Imron, 159), deb marhamat qilingan.

## **66-bob** **Asoning fazilati haqida**

Maymun ibn Mahron Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladi: "Tayoq ko'tarib yurish mo'minning belgisi bo'lib, payg'ambarlarning sunnatidir".

Hasan Basriy (Alloh uni rahmat qilsin) deydilar: "Tayoqda oltita xislat bor: "Payg'ambarlar sunnati, mo'minlik belgisi, solih kishi uchun ziynat, dushmanlarga qarshi qurol zaiflarga yordam, munofiqlarning yomon ko'rishlari hamda toatda ziyodalik".

Aytadilarki, agar mo'min kishida tayoq bo'lsa, undan shayton qochadi, munofiq, fosiq kishilar esa, unga ta'zimda qiladi, namozda sutra to'siq bo'ladi, darmonsizlansa, quvvat bo'ladi, Alloh taolo Muso alayhissalomning qissalarida aytganidek, boshqa ko'pgina foydalari ham bor. "Ana u qo'lingdagi nimadir, ey Muso?! (Muso) dedi:

"U asoyim, unga tayanurman va u bilan qo'ylarimga (barg) qoqib berurman. Yana unda boshqa ishlarim ham bor" (Toho, 17-18).

Tayoqqa suyanishda ming xil foyda bor deyishlgan.

## **67-bob** **Mo'min kishidan dunyoning ketishi haqida**

Muoviya ibn Abu Sufyon aytadilar: "Abu Bakr (roziyallohu anhu) dunyoni xohlamadilar va dunyo ham u kishini xohlamadi. Umar (roziyallohu anhu) dunyoni xohlamadilar, dunyo esa u kishini xohladi. Usmon (roziyallohu anhu) dunyoni topdilar, dunyo ham u kishini topdi. Ali (roziyallohu anhu) bo'lsa, dunyoni gohida tark etib, gohida umid qildilar".

Biz-chi? Biz boshdan oyoq dunyoga cho'mganmiz, (shu sabab) ishlarning oqibati nima bo'lishini bilmaymiz.

Zayd ibn Arqam hikoya qiladi: "Abu Bakrning (roziyallohu anhu) huzurlarida edik, u kishi ichishga bir narsa so'radilar. Suv va asal keltirishdi. Og'izlariga yaqinlashtirgach, yig'ladilar. Biz ham yig'ladik, biz to'xtab jim qolsak-da, u zot jim bo'lmadilar. So'ng ko'zlarini artdilar: "Ey Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) xalifasi, qanday hojatingiz bor?, deb so'radik. "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bilan birga edim. Ul zot o'zlaridan nimanidir haydayotganlarini ko'rardimu, ammo oldlarida biror narsa ham, kishi ham yo'q edi. Shunda: "Ey Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam), nimanidir haydayapsiz, lekin na biror narsa, na biror kishini ko'ryapman", deb so'radim. "Bu dunyo ko'zimga jilvalandi, mendan nari tur degan edim, chetlandi-da: "(Ey Rasululloh) siz mendan yuz o'girsangiz ham, sizdan keyin keladiganlar yuz o'girmaydi, dedi", dedilar Rasululloh. Shuning uchun dunyo menga etishidan qo'rqdim", deb javob qildilar hazrati Abu Bakr (roziyallohu anhu), keyin idishni erga qo'ydilar, ichmadilar".

Faqih aytadilar: Kimga dunyodan biror narsa halol yo'ldan etsa va uni olsa, gunohqor bo'lmaydi, lekin olmasa, oxirati uchun foydali. Chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Dunyoning haloliga hisob, haromiga azob", deb marhamat qilganlar. Abdulloh ibn Umar

esa: "Kimga dunyodan biror narsa etsa, oxiratidan kamayadi, garchi u kishi Alloh yo'lida saxiy bo'lsa ham", deganlar. Allohning makridan qo'rqib, o'zidan panoh so'raymiz.

## **68-bob** **Qiyomat alomatlari**

Faqih aytadilar: Vake' Sufyondan, u Furotdan, u Abit Tufayldan, u Huzayfa ibn Usayddan rivoyat qiladi: "Biz qiyomatni eslab, muzokara qilib turganimizda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) hujralaridan chiqib qoldilar. Shunda dedilar: "O'nta alomat kelmasdan oldin qiyomat bo'lmaydi: quyoshning mag'ribdan chiqishi, Dajjol, tutun, er hayvoni, Ya'juj-Ma'juj, Iso alayhissalomning chiqishlari, uchta oy tutulishi mag'ribda, mashriqda, Arabiston yarim orolida Adanning tubidan odamlarni mashhargohga haydab boradigan olovning chiqishi. U olov yotsalar yotadi, uxlasalar birga uxlaydi".

Umar (roziyallohu anhu) Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) oldlarida Dajjol zikr etilganda, quyidagi so'zlarni aytganlarini rivoyat qilganlar: "Alloh sizlardan o'zining g'ilay emasligini va Masih Dajjolning o'ng ko'zi g'ilay ekanini bildirdi. Uning ko'zi o'ynab turadi".

Anas ibn Molik Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Rasululloh dedilar: "Alloh qaysi bir payg'ambarni yuborgan bo'lsa, u qavmini g'ilay yolg'onchi bilan ogohlantirgan: "U g'ilaydir, Parvardigoringiz esa g'ilay emas, g'ilayning ikki ko'zi orasiga "kofir" deb yozib qo'yilgan", deyishgan".

Huzayfa rivoyat qiladilar: "Rasululloh dedilar: "Dajjolda suv va olov bo'ladi, suvi olov, olovi suvdir".

Fotima binti Qaysdan rivoyat qilinadi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir kechasi xuftonni kechiktirib o'qidilar. Keyin chiqib dedilar: "Tamim Doriy gapirib bergan voqea meni ushlab qoldi. Uning amakisining o'g'li dengizning bir oroliga borib qolibdi. U erda bir qasrni ko'ribdi. Unda zanjirlar bilan kishanlangan bir kishi sochini yulib turarkan. "Kimsan?" deb so'rabdi. "Dajjolman", debdi. So'ng: "Hali payg'ambar chiqqani yo'qmi?", deb so'rabdi. "Chiqdi", deb javob qilibdi dengizchi. "Unga itoat qilishyaptimi yo'qmi?", debdi. "Itovat qilishyapti"." Bu menga yomon, o'zlaringga yaxshi", debdi Dajjol".

Faqih aytadilar: Insonlar Dajjolning holati to'g'risida ixtilof qilishgan. Ba'zilari, u hozir hibsda, oxir zamonda chiqadi, deyishadi. Ba'zilari esa, hali tug'ilmagan, oxir zamonda tug'iladi, chiqib, odamlarni o'ziga ibodat qilishga chaqiradi, behisob yahudiylar unga ergashadilar, shaharlarni aylanib, ko'p kishilarni yo'ldan uradi. Keyin Iso ibn Maryam alayhissalom tushib, Baytul Maqdisning Lud degan eshigida Dajjolni o'ldiradilar. Er yuzida Islom dini zohir bo'ladi. Vallohu a'lam.

## **69-bob** **Gapning me'yori haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Aqlli kishining gaplari o'lchovli, o'rnida ishlatilgan bo'ladi. Oqil behuda gap gapirmaydi, ask holda, foydali gaplari ham yo'qoladi. So'ralmagan

narsaga javob bermaydi, chunki bu ishda yengil tabiatlilik, aqli kamlik va nodonlik belgisi bor. Oqil kishi besabab g'azab qilishi loyiq emas. Kishining hayvonlarni urib-so'kishi johilligiga belgidir, deyiladi. Chunki hayvonlar aqlsiz, xitobni bilmaydi. Shuning uchun ularni urib-so'kish to'la johillikdir.

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bir kishi shamolni la'natlayotganini eshitib: "Kimda kim bir narsani la'natlasa-yu, o'sha narsa la'natga loyiq bo'lmasa, la'nat o'ziga qaytadi", deganlar.

Abul Malih otasidan rivoyat qiladi: "Rasululloh sahobalardan birini mingashtirib olgan edilar. To'satdan ot qoqilib ketdi, shunda haligi kishi: "Badbaxt shayton", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Badbaxt shayton desang, shayton kattalashib, uyga sig'may ketadi. Lekin "Bismillah" desang, u pashshadek maydalashib qoladi", dedilar".

Sammok ibn Harb Abu Lifofa Adaviydan rivoyat qiladi: "Bokira joriya oldim va Madinaga kirdim, so'ng uni sotishni xohladim. Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu) oldimdan o'tdilar va: "Ey a'robiy, bu qizni sotasanmi?, deb so'radilar. "Ha, ey Rasulullohning xalifasi", dedim. "Qanchaga sotasan?", dedilar. "Bir yuz elikka", dedim. "Yuzga sotmaysanmi", degan edilar. "Yo'q, Alloh sizga ofiyat bersin", dedim. U zot: "Yo'q, Alloh sizga ofiyat bersin", dema, balki "Yo'q, va Alloh sizga ofiyat bersin", degin, dedilar". Abu Bakr Siddiq bu erda kalomning haddini o'rgatyaptilar, ya'ni, "Yo'q, Alloh sizga ofiyat bersin", deyishda duoni ofiyatni inkor qilishga o'xshash ma'no chiqib qoladi.

Oqil qalbiga zid keladigan va hech eshitmagan hadisni eshitsa, uni yolg'on deyishi ham, rost deyishi ham durust emas. Chunki uni yolg'onga chiqarsa, ehtimol, bu hadis rostdir. Balki: "Bu hadisni bilmayman", desin. Yahyo Abu Kasirdan, u Abu Salamadan, u Abu Hurayradan rivoyat qiladi: "Ahli kitob Tavrotni ibroniy tilda o'qirdilar va uni musulmonlarga arab tilida tafsir qilardilar. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Ahli kitobni tasdiqlamanglar, yolg'onga ham chiqarmanglar. Balki, Allohga iymon keltirdik va bizga va bizdan oldingilarga nozil bo'lgan narsaga iymon keltirdik, denglar", dedilar".

Oldingi ummatlardan bir kishidan, notanish ismni aytib, uning payg'ambarligiga iymon keltirasanmi, deyishdi. Agar u, ha, desa, ehtimol, nabi bo'lmas, agar yo'q, desa, ehtimol, u payg'ambar bo'lib chiqar. Shunda: "Agar u payg'ambar bo'lsa, darhaqiqat, men unga iymon keltirdim", dedi.

Abu Nasr Muhammad Salomdan kalomdagi masala haqida so'ralsa, javob berishdan bosh tortardi. Unga: "Agar bizga shunga o'xshash masalalar og'ir kelsa, nima deymiz", deyishdi. U: "Allohga, Alloh iroda qilgan hamma narsaga, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytgan va iroda qilgan barcha narsaga iymon keltirdik", deb aytinglar", dedi.

## **70-bob** **Rasm chizishdan qaytarish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ruhi (joni) bo'lgan mahluqlarning suratini chizish makruh, daraxt va shunga o'xshash jonsiz narsalarni chizishning ziyoni yo'q.

Nofi' Ibn Umardan rivoyat qiladi: Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Ushbu suratlarning sohiblari qiyomat kuni azoblanadi. Ularga, yaratgan narsalaringizni tiriltiringlar, deyiladi".

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: Alloh taolo:

"Mening maxluqimga o'xshash maxluqni yaratmoqchi bo'lgan kishidan ham zolimroq kishi bormi?" (Niso, 24) degan".

Mujohid Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Farishtalar it yoki surat bo'lgan uyga kirmaydi. Suratning boshi kesilgan bo'lsa yoki erga to'shalgan bo'lsagina kiradilar.

Oishaning (roziyallohu anho) uylari eshigida surat solingan parda osilgan edi. Jabroil alayxissalom kelib: "Biz it yoki surat bor uyga kirmaysmiz. Suratning boshini kesib tashlasangiz yoki erga to'shab qo'ysangiz, kiramiz", dedilar.

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Shu hukmni olamiz, demak rasmlari bo'lgan kiyimlarni to'shab qo'yishning zarari yo'q.

Ato va Ikrima: "Rasmlardan tikka qilib (osib) qo'yilganlari makruhdir. Oyoq ostida bo'lganlarning zarari yo'q", deyishgan.

## **71-bob** **Zinokor ayolga uylanish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar zinokor ayolning nikohi to'g'risida ixtilof qilishgan. Ba'zilar joiz emas, dedi. Ahli ilm jamoasi esa, joiz bilishadi. Biz shu hukmni olamiz. Birinchi toifaning hujjatlari ushbu oyati karimadir:

"Zinokor erkak faqat zinokor ayolga yoki mushrikaga uylanur. Zinokor ayolga faqat zinokor erkak yoki mushrik uylanur. Va bu (ya'ni, zinokor ayollarga uylanish) mo'minlarga harom qilingandir" (Nur, 3). Demak, Alloh taolo zino qilmaganlarning nikohini muboh qilgan. Bu bilan zinokor ayol nikohi botil bo'ladi. Chunki oyatda:

"Zinokor erkak faqat zinokor ayol yoki mushrikaga, zinokor ayolga faqat zinokor erkak yoki mushrik uylanishi va zinokor ayollarga uylanish mo'minlarga harom qilingan" (Nur, 3-4) deb aytilgan.

Bir sahobadan bir xotin bilan zino qilib, keyin unga uylangan kishining hukmi haqida so'rashganda, "Uylanish zinosidan yomonroqdir", deb javob bergan ekanlar. Oisha (roziyallohu anhu) ham bu holatni makruh ko'rganlar.

Ammo joiz degan kishilarning hujjati Abdulloh ibn Abbosning (roziyallohu anhumo) yuqoridagi savolga "Birinchisi zino, ikkinchisi nikoh", deya bergan javoblaridir. Nikoh ixtiyoriy bir ish bo'lib, uni zino taqiqlay olmaydi. Bu xuddi bironing xurmosidan ertalab egach, kechqurun sotib olgan kishining amaliga o'xshaydi.

Mazkur oyati karima esa, Said ibn Jubayr va Zahhok: "Zoniy o'ziga o'xshagan zoniya bilangina zino qiladi", deb ta'vil qilishgan. Xuddi shu ma'no Abdulloh ibn Abbosdan ham rivoyat qilingan. Bu oyat nasx (bekor) qilingan degan qavl ham bor. Chunki bir kishi Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam): "Xotinim zinodan tiyilmaydi", deganida: "Uni taloq qil", deb javob qilganlar. "Lekin uni yaxshi ko'raman", deganida: " Unda uni tiyib ol", deganlar.

## 72-bob

### Kambag'alning boy kishidan afzal ekani to'g'risida

Faqih aytadilar: Kambag'alning boydan afzalligida odamlar ixtilof qilishdi. Ba'zilar kambag'al afzal, desa, boshqalar boy afzal, deydi. Ixtilofning samarasi solih kambag'al afzalmi yoki solih boy? degan savolda ko'rinadi. Ba'zilar solih boy afzal, dedi, boshqalar solih kambag'alni afzal ko'rdi. Biz shu ikkinchi gapni olamiz. Solih boy afzal, degan kishilar

"U zot sizni kambag'al holda topib, boy qilib qo'ydi-ku!" (Zuho, 8) oyatini dalil qilishadi. Alloh taolo o'zining payg'ambariga (sollallohu alayhi vasallam) boylikni minnat qilyapti. Agar boylik afzal bo'lmaganida, buni minnat qilmasdi. Yana Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Taqvo bilan birga bo'lgan boylik naqadar yaxshi", deganlar. Amr ibn Os Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) "Solih kishidagi solih (halol) mol qanday yaxshi", deganlarini rivoyat qilganlar.

Xishom Umarning (roziyallohu anhu) shunday deb aytganlarini rivoyat qiladi: "Ulug'liklaringiz – taqvolaringiz, sharafingiz – boyligingiz, hasablaringiz – xulqlaringizdir".

O'tgan peshvolardan naql qilinadi: "Molu dunyo g'urbatda (safarda) vatandir, kambag'allik vatanda g'urbatdir. Kimki kambag'allikka o'rganib olgan ekan, u qaerda bo'lsa ham, g'aribdir".

Muhammad ibn Ka'b Quraziy: "Agar boy kishi taqvodor bo'lsa, Alloh taolo unga ikki karra savob beradi", deb ushbu oyatni o'qidi:

"Na molu dunyolaringiz va na bolalaringiz sizlarni Bizning dargohimizga yaqin qilguvchidir. Faqat iymon keltirgan va yaxshi amal qilgan zotlar – ana o'shalar uchungina qilgan amallari sababli necha barobar mukofot bo'lur va ular (jannatdagi) yuksak manzillarda tinch-omon bo'lurlar" (Saba, 37).

Said ibn Musayyab deydilar: "Yaqinlariga yordam berish, o'zining haqqini ado qilish va obro'sini saqlash uchun halol mol to'plamagan kishida yaxshilik yo'q".

Hishom ibn Urva otasidan, u Oishadan (roziyallohu anho): "Zubayr ibn Avomning merosi qirq ming-qirq ming dirham qilib taqsimlandi", degan so'zlarni rivoyat qilganlar.

Abdurrahmon ibn Avfning merosidan har bir xotiniga sakson uch ming dirham tekkan. Sufyon ibn Uyayna Umar ibn Dinorning shunday deganlarini rivoyat qiladi: "Talha ibn Ubaydullohning kunlik foydasi to'liq ming dinor edi".



Ammo kambag'allik afzal deganlarning hujjatlari ushbu oyati karimadir:

"Darhaqiqat, (kofir) inson o'zini boy-behojat ko'rgach, albatta, tug'yonga tushar-haddidan oshar" (Alaq, 6-7). Bu oyatda Alloh taolo boy kishi tug'yonga ketishidan xabar berdi.

Boshqa oyatda: "Shunda uning qavmi orasidagi kofir bo'lgan kimsalar:

"Bizlar seni xuddi o'zimizga o'xshagan odam, deb bilamiz va senga faqat ichimizdagi pastkash (yalangoyoq) kimsalar o'ylamasdan ergashganini ko'rmoqdamiz. Bizningcha, sizlarning bizdan biron ortiqchalik joyingiz yo'q, balki biz sizlarni yolg'onchi deb o'ylamoqdamiz", dedilar" (Hud, 27), deb, faqat kambag'allargina payg'ambarlarga ergashganliklaridan xabar berdi.

Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Har kimning hunari bo'ladi. Mening hunarim ikkita: kambag'allik va jihad. Kimki bu ikkisini sevsa, haqiqatda meni sevibdi, kimki ularni yomon ko'rsa, meni yomon ko'ribdi". Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Payg'ambarning (sollallohu alayhi vasallam): "Parvardigoro, kim meni sevsa, uni etarlik narsa va etarli ozuqa bilan rizqlantir, kim meni yomon ko'rsa, uning molu dunyosi va bolasini ko'paytir", degan duolarini rivoyat qilganlar.

Mujohid Ibn Umardan rivoyat qiladilar. "Bir bandaga dunyo molidan nima etsa, saxiy bo'lsa ham, Alloh nazdidagi darajasi pasayadi".

Iso ibn Maryam alayhissalomdan rivoyat qilindi: "Kambag'allik dunyoda ofat, oxiratda rohatdir. Boylik dunyoda rohat, oxiratda ofatdir".

Anas ibn Molik Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Parvardigoro, meni miskin holda tiriltir, miskin holda o'ldir va miskinlar to'dasida to'plagil". "Nimaga bunchalik, ey Rasululloh?", deb so'rashdi. "Chunki ular jannatga boylardan qirq yil oldin kiradilar. Boy o'layotgan paytda kambag'al bo'lsam edi, deb orzu qiladi, ammo kambag'al boy bo'lsam edi, deb orzu qilmaydi", dedilar.

Faqirlikning oxiratda hisob berishi oson bo'lishining o'zi etarli dalildir. Qiyomat kunida Alloh taoloning bandalariga eng katta minnati: "Sening zikringni (nomingni) chiroyli qilib qo'ymadimmi?!" deyishi bo'lar ekan.

Faqih aytadilar: Kambag'allik boylikdan afzal, lekin boylikda hech qanday ayb yo'q. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) sahobalari boy bo'lsalar-da, boyliklarini tark qilishga buyurmadilar. Boylik ayb bo'lganida, ularni mol yig'ishdan, albatta, qaytarardilar. Demak, boylikda ayb yo'qligi aniq. Ayb boylikni Alloh taoloning buyruqlariga xilof qilib ishlatishdadir. Yuqoridagi (boylik yoki faqirlik afzal degan) ixtiloflar avvalgi zamonlarda bo'lgan. Chunki ular asosan haloldan kasb qilishgan. Shuning uchun ba'zilar boylik afzal deyishgan. Ammo molu dunyoning ko'p qismiga haromu shubha aralashgan bugungi kunda ixtilofning ma'nosi yo'qolgan. Kambag'allikning afzalligiga hamma ittifoqdir.

### **73-bob**

#### **Qarz so'rash haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Zarurati bo'lgan kishining qaytarish niyati bilan qarz so'rashida zarar yo'q. Qaytarib berish niyati bo'lmagan qarz oluvchi poraxo'rdir.

Oisha (roziyallohu anho) qarz so'rardilar. "Siz qarzni nima qilasiz?" deyishganda: "Rasulullohning "Kimning bo'ynida qaytarish niyati bilan olgan qarzi bo'lsa, unga Allohdan yordam bo'ladi", deganlarini eshitganman. Men ham Allohning yordami bilan yurishni xohlayman", deb javob berganlar.

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Rizqqa peshvoz chiqinglar, agar u g'olib kelsa, Alloh va Uning rasuli nomidan qarz so'ranglar", deganlar.

Muhammad ibn Ali qarz olar edilar. Unga: "Shuncha mol-dunyongiz bor, qarz olib nima qilasiz?, deyishdi. "Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh qarzdor kishi bilan to qarzini uzgunicha birga bo'ladi", deganlar. Men ham Alloh men bilan birga bo'lishini xohlayman", deb javob berdilar.

Ammo qarz olib, bermay ketish niyatida bo'lgan kishi poraxo'rdir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytganlarki: "Bir kishi mahr bermaslik niyatida bir xotinga uylansa, qiyomat kuni zinokor nomidan keladi, pulini bermaslik niyatida bir narsa sotib olgan kishi qiyomat kuni o'g'ri nomida keladi".

Abu Qatoda Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Ey Rasululloh, Alloh yo'lida o'ldirilgan kishining xatolari kechiriladimi?" deb so'rashdi. "Ha, agar iymonli, sabrli holatida chekinmasdan hujum qilib o'lsa. Lekin qarzlari qoladi. U o'ziga azob bo'ladi", dedilar.

Luqmoni Hakim deydilar: "Temirni, toshni ko'tarib ko'rdim, biroq qarzdan ko'ra og'irroq narsani ko'tarmadim".

### **74-bob**

#### **Azl haqida**

Faqih aytadilar: Xotinning ruxsati bo'lsa, azl qilishning zarari yo'q. Azl – kishi xotini bilan jinsiy aloqa qilayotganida homiladan saqlanish uchun maniy to'kilishidan oldin xotinidan uzilishdir. Yahudiylar azlni yomon ko'rib, bu ish kichik qotillik, der edilar. So'ng ushbu oyat nozil bo'ldi:

"Xotinlaringiz ziroatgohlaringizdir. Bas, ziroatgohingizga xohlagan holatingizda yaqinlashaveringiz" (Baqara, 223). Ibn Abbosdan azl haqida so'rashganda:

"Agar bu haqda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) biror narsa degan bo'lsalar, gap shu, agar hech narsa demagan bo'lsalar, ish Alloh taolo aytganidek, "Xotinlaringiz ziroatgohlaringizdir. Bas, ziroatgohingizga xohlagan holatingizda yaqinlashaveringiz" (Baqara, 223), deyman. Xohlagan kishi azl qilsin, xohlamagan qilmasin", deb javob qildilar.

Abdulloh ibn Mas'ud bu savolga quyidagicha javob berganlar: "Xohlasang azl qil, xohlasang qo'shil".

Abu Said Xudriy Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) azl haqida so'rashganda, shularga o'xshash javob berganlarini rivoyat qilganlar.

Ibn Umardan yuqoridagi oyat haqida so'rashganda: "Xohlaganingizni qiling", deb tushuntirganlar.

Ato Jobirdan rivoyat qiladilar: "Biz Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) davrlarida, Qur'on nozil bo'lib turgan vaqtda azl qilar edik, lekin azldan man' qiluvchi oyat tushmadi".

### **75-bob**

#### **O'lik yaqinlarining yig'isi tufayli azoblanishi haqida**

Faqih aytadilar: Odamlar o'lik yaqinlarining yig'isi tufayli azoblanishi haqida bahs qilishdi. Ba'zilar, azoblanadi deb, quyidagi hadisning zohir ma'nosini dalil qilishdi. Ibn Umar va Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qilinadi: Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Mayyit yaqinlarining yig'isi tufayli azoblanadi", dedilar. Ahli ilmning ko'pchiligi esa, mayyit yaqinlarining yig'lashidan azoblanmaydi, chunki Alloh taolo:

"(Qiyomat kunida) hech bir ko'targuvchi (ya'ni, gunohkor jon) o'zga jonning yukini (ya'ni, gunohini) ko'tarmas" (Fotir, 18), deb marhamat qilgan, deyishadi.

Oosim ibn Muhammad aytadilarki: "Oishadan (roziyallohu anho) yuqoridagi hadis haqida so'rashganda: "Sizlar ibn Umar va ibn Abbosdan hadis rivoyat qilyapsizlar. Ular yolg'onchi, kazzob emaslar. Lekin eshitishda xato bo'lishi mumkin", deb javob berdilar".

Hadis quyidagi ta'vilga ega: o'sha paytlarda bir inson o'lishidan oldin unga baqirib yig'lashlarini ahliga buyurib ketar edi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Mayyit yaqinlarining yig'isi tufayli azoblanadi", dedilar, chunki mayyit gunoh ishni vasiyat qilgandir. Boshqa ta'vili: Bir yahudiyning qabri ustida qarindoshlari yig'lab turganlarida, Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) o'tib qoldilar va: "Ular mayyitga yig'lashyapti, u esa qabrda azoblanmoqda", dedilar. Roviy yig'ilari sababli azoblanyapti, deb o'ylagan. Bu hadis Urva Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qilgan hadisga o'xshaydi. Ibn Umarning hadisini aytishganda, Oisha (roziyallohu anho): "Abu Abdurrahmon unutilib qoldirgan, aslida, "Mayyitning qarindoshlari uning uchun yig'lashadi, mayyit esa, gunohlari tufayli azoblanadi", bo'lgan", deganlar.

### **76-bob**

#### **Mayyit uchun yig'lash haqida**

Faqih aytadilar: Baqirib yig'lash harom, ovozsiz yig'lashning zarari yo'q, sabr qilish esa eng afzaldir. Chunki Alloh taolo:

"Hech shak-shubha yo'qki, sabr-toqat qilguvchilarga ajr-mukofotlari hisob-kitobsiz to'la-to'kis qilib berilur" (Zumar, 10), deb marhamat qilgan. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Baqirib yig'lovchi ayol va uning atrofidagi eshitib turuvchilarga Allohning, farishtalarning va barcha insonlarning la'nati bo'lsin", deganlar.

Hasan ibn Hasan o'lganida xotini Fotima binti Husayn bir yil uning qabri ustida e'tikof o'tirgan ekan. Bir yil o'tgach, chodirini ko'tarishganda, bir tarafdin: "Yo'qotgan narsangizni topdingizmi?" degan ikkinchi tarafdin: "Balki noumid bo'lib ketdilar", degan xitobni eshitishibdi.

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) o'g'illari Ibrohim o'lganida, ikki ko'zlaridan yosh oqdi. Abdurrahmon ibn Avf: "Ey Rasululloh, bizni yig'lashdan qaytarmaganmidingiz?" dedilar. Shunda u zot aytdilar: "Men sizlarni ikki ahmoqona buzuq ovozdan qaytargan edim, nag'maning ovozidan, chunki u o'yin, bekorchilik va shaytonning cholg'usi, yana yuzni yulib, yoqa yirtib yig'lash, u esa shaytonning nolishidir. Lekin bu yig'i Alloh taolo rahmdillarning qalbiga solgan rahmatdir". Keyin qo'shib qo'yidilar: "Qalb qayg'uradi, ko'z yig'laydi, ammo Allohning g'azabini keltiradigan so'z aytmaymiz".

Vahb ibn Kayson Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Umar (roziyallohu anhu) o'lik ustida yig'layotgan bir ayolni ko'rib qaytargan edilar, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Ey Abu Hafs (Umar), qo'y uni, ko'z yig'lovchi, jon musibatlanuvchi va zamon yangilanib turuvchidir", dedilar".

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) Bani Abdul Ashhal (qavmining) yaqinidan o'tib ketayotganlarida, ular Uxud g'azotida o'lgan jangchilarga yig'lashayotgan edi. "Hamma shahidning yig'lovchisi bor, lekin Hamza uchun biror yig'lovchi yo'q", dedilar Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam). Bu gapni eshitgan ayollar Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) eshiklariga kelib Hamzani eslab yig'lay boshlashdi. Rasulullohning ham hujralaridan yig'ilari eshitilib turardi.

## 77-bob

### Fazilat va sharaf ahlini hurmat qilish haqida

Faqih aytadilar: Fazilat ahlini haddidan oshirmasdan hurmat qilish mustahabdir. Biror kishini boyligidan umid qilib, boy bo'lgani uchun hurmat qilish joiz emas. Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki boyga boyligi uchun tavoze' qilsa, dinining uchdan ikki qismi ketadi. Lekin fazilat ahli fozilligi va ulug'ligi uchun hurmat qilinadi", deganlar.

Hishom ibn Hason Hasan Basriydan rivoyat qiladilar. "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) sahobalari bilan o'tirgan edilar. Ali ibn Abu Tolib kirib keldilar. U kishiga o'tirishga bo'sh joy yo'qligini ko'rgan Abu Bakr (roziyallohu anhu) o'rinlarini bo'shatib: "Ey Abu Hasan, bu yoqqa o'tiring", dedilar. Abu Bakrning qilgan ishlaridan xursand bo'lgan Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Fazilat ahli fazilat ahli bilan ulug'dir. Fazilat ahlining fazlini faqat fazilat ahllari biladi", dedilar".

Sufyon ibn Uyayna dedilar: "Kimki birodarlikni xorlasa, odamgarchiligi ketadi, kimki sultonni xorlasa, dunyosidan benasib bo'ladi, kimki solihlarni xorlasa, oxiratidan benasib

qoladi".

Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qilinadi: Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Obro'li kishilarning xatolarini, agar Allohning shariati chegarasida bo'lsa, kechiringlar".

Bir gado Oisha onamizning (roziyallohu anho) uylari oldidan o'tib borar edi. Unga bir burda non berishni buyurdilar. Keyin bir obro'li odam o'tganida, uni dasturxonga taklif qildilar. Sababini so'rashganda: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bizga odamlarning obro'larini joyiga qo'yishimizni buyurganlar", dedilar.

Toriq ibn Abdurrahmon hikoya qiladilar: "Sha'biy bilan o'tirgan edim, Bilol ibn Jariy kelib qoldi. Sha'biy unga ko'rpacha to'shadi-da: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Agar oldingizga bir qavmning boshlig'i kelsa, uni hurmat qilingiz", deganlar", dedi".

Hurmat va muhabbatda haddan oshish yaxshi ish emas. Chunki har qanday ishning haddan oshishida ofat xavfi bor. Hazrat Ali ushbu hadisni aytadilar: "Do'stingni engilroq yaxshi ko'rgilki, bir kun kelib dushman bo'lib qolishi mumkin, dushmaningga ham engilroq dushmanlik qilgilki, ehtimol bir kun kelib, senga do'st bo'lib qolar".

Nasroniyalar Iso alayhissalomni haddan ortiq yaxshi ko'rganlaridan u zotni xudo deb sig'inishdi, yahudiylar ham Uzayrni ortiq sevib, xudo darajasiga ko'tarishdi. Rofiziylar Alini (roziyallohu anhu) qattiq yaxshi ko'rib, u kishidan o'zgalarni dushman ko'rishdi.

Demak, aqlli kishi fazilat ahllarini yaxshi ko'rib, ularning haqqiga o'z haddida rioya qilishi lozimdir. Chunki haddan oshishda yaxshilik yo'q, balki zararlidir.

## **78-bob** **Rashk haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Mo'min kishi rashkchi bo'lishi kerak. Biror erkak yoki ayolning fahsh ishlarini bilsa, hech rozi bo'lmasin. Agar qodir bo'lsa, qo'li bilan qaytarsin, bo'lmasa, tili bilan. Hech bo'lmasa, qalbi bilan yomon ko'rsin.

Zayd ibn Aslam Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam): "Rashk iymondandir, oilasidagi fahsh ishlarga rozi bo'lish esa, munofiqlik alomatidir", deganlarini rivoyat qilganlar.

Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu) deydilar: "Kishining malomatga loyiq eng yomon sifati rashkchi bo'lmaganidir. Birortangizning onasi yoki ayoli bozor va majlislarda odamlar ko'p to'plangan joyga chiqishidan uyalmaydimi?"

Mug'iyra ibn Sho'ba rivoyat qiladilar: Sa'd ibn Ubodaning: "Agar biror kishini xotinim bilan birga ko'rsam, qilich bilan kallasini kesib tashlar edim", degan gapi Payg'ambarga (sollallohu alayhi vasallam) etganida: "Sa'dning rashkidan ajablanayapsizlarmi? Allohga qasamki, men undan-da rashkchiroqman, Alloh taolo esa, mendan-da rashkchiroqdir. Shuning uchun ham U fahsh ishlarni harom qilgan. Alloh taolodan ko'ra uzrni yaxshi ko'radigan biror zot yo'q, shu sababdan ogohlantiruvchi, xushxabar beruvchilarni

(payg'ambarlarni) yubordi. Alloh taolodan ko'ra maqto'vni yaxshi ko'radigan biror kishi yo'q, shuning uchun ham jannatni va'da qildi", dedilar".

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) aytadilar: "Menga ayollaringizning ba'zi bir hojatlari uchun bozorga chiqayotganlarining xabari etdi. Rashkchi bo'lmagan kishini Alloh yomon ko'radi".

Faqih (rahimahulloh) deydilar: Alloh va Uning rasuliga dayuslardan ko'ra yomonroq kishi yo'q. Chunki Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taolo dayus va dayusani la'natlasin", deganlar. Dayus – xotining fahsh ishlariga rozi bo'luvchi erkakdir. Shuningdek, erining fahsh ishlariga rozi bo'luvchi xotin – dayusadir.

## **79-bob** **Saxiylik va baxillik haqida**

Faqih aytadilar: Urva Oisha onamizdan (roziyallohu anho) rivoyat qiladilar: Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Jannat saxiylarning uyidir. Fosiq bo'lgan saxiy yigit Allohga obid bo'lgan keksadan suyukliroqdir".

Jobir ibn Abdulloh Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) "Alloh kengchilik bergan, lekin o'ziga va ahli ayoliga kengchilik qilmagan kishi bizdan emas" deganlarini rivoyat qilganlar.

Hasan aytadilar: "Banda Allohdan chiroyli odobni oladi. Agar Alloh unga kengchilik qilgan bo'lsa, kengchilik qiladi, agar (boylikdan) qisib qo'ygan bo'lsa, (banda ham) ziqnalik qiladi".

Yusuf ibn Xolid Samniy rivoyat qiladilar: "Abu Hanifaga (rahimahulloh) Hajjoj tomonidan ming juftga yaqin kavush hadya qilindi. U kishi birodarlariga bo'lib berdilar. Shundan bir-ikki kun o'tgach, o'g'illariga kavush sotib olayotganlarini ko'rdim. U kishidan: "Sizga ming juftga yaqin kavush hadya qilinmaganmide?", deb so'radim. "Mening yo'lim hadyalarni keng tarqatishdir. Mukofot ham shunga o'xshash yoki ko'proq bo'ladi. Hadyani birodarlarimga tarqatdim". Chunki Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Agar kishiga biror narsa hadya qilinsa, uning majlisida o'tirganlar ham (o'sha hadyaga) sherikdir", deganlar. Birodarlarim, majlisdoshlarimdir, ularsiz yolg'iz o'zim olmasman, balki o'z ulushimni ham ularga beraman. Hadyani olishni joiz deb bilaman. Chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) hadya olardilar va chaqirilgan joyga borardilar. Mukofotni esa hadyadan ham yaxshi deb bilaman. Chunki bunga oyatlar bor:

"Qachon sizlarga bir ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa) o'sha iborani qaytaringlar" (Niso, 86);

"O'zaro bir-birlaringizga fazlu karam qilishni unutmangiz!" (Baqara, 237)", dedilar Abu Hanifa".

Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qilinadi: U kishi bir ayolning hadyasini qabul qilmaganlarida Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Hadyasini olganigda edi", dedilar Oisha onamiz: "Chunki u ayol shu hadyaga mendan ham muxtojroqligini bilaman", deb

javob qildilar. Keyin Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Hadyasini olib, undan yaxshirog'ini sovg'a qilsang bo'lardi", dedilar.

Zayd ibn Aslam Ato ibn Yasordan rivoyat qiladilar: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) Umarga hadya yuborganlarida, u kishi oldilar. Rasululloh: "Nimaga rad qilding?" dedilar. "Ey Rasululloh, bizdan birortamiz biror kishidan bir narsa olsak, yaxshi bo'lmasligini aytgan edingiz-ku!", dedilar Umar. "So'rab olinadigan narsadan qaytargan edim, ammo so'ralmagan narsa Allohning unga bergan rizqidir", dedilar".

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) deydilar: "Men hech kimdan biror narsa so'ramayman. So'ramasimdan nima bersa, olaman".

## **80-bob** **Shafolat (yordam) haqida**

Bilgilki, farz ibodatlarini ado etganingdan so'ng, amallarning eng afzali hojatmand kishiga chiroyli yordam qilish yoki undan zulmni daf' etishdir. Chunki Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Odamlarning eng yaxshisi insonlarga foydasi tegadigan kishidir", deganlar.

Sufyon ibn Uyayna Umar ibn Dinordan rivoyat qiladi: Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Ko'maklashsangiz mukofot olasiz. Birortangiz mendan bir narsa so'rasa, unga man' qilaman, toki shafolat qilishinglar – o'rtaga tushib ko'mak berishinglar va ajr olishinglar uchun".

Hasan Basriy: "Shafolatning foydasi davom etar ekan, egasiga ham ajri bo'lib turadi", deydilar.

Mujohid

"Kim (odamlar orasida) chiroyli – haq taraf olish bilan taraf olsa, o'ziga ham uning savobidan bir ulush tegur. Kim nohaq taraf olish bilan taraf olsa, o'zi uchun uning gunohidan bir ulush tegur. Alloh hamma narsaga qodir bo'lgan zotdir" (Niso, 85), degan oyati karimaning tafsirida deydilar: "Haq taraf olish odamlarning bir-birlariga qilgan ko'maklaridir".

Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) bir kishi g'azotga chiqish uchun tuya berishlarini so'radi. Tualari yo'qligi tufayli bir ansoriyning oldiga yubordilar. Ansoriy u kishiga tuya berdi. Tuyani Payg'ambarning (sollallohu alayhi vasallam) oldlariga olib keldi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Yaxshilikka undovchi kishi o'sha ishni bajaruvchi kabidir", dedilar.

Aytiladiki, har bir narsaning sadaqasi bo'ladi. Rahbarlikning sadaqasi shafolat va zaiflarga yordamdir. Ba'zi adiblar: "Kimki amirlarning oldiga ko'p kirib-chiqadigan bo'lsa-yu odamlarga yordam bermasa, u xudbindir", deyishgan. Ja'far ibn Muhammad deydilar: "Alloh taolo Dovud alayhissalomga vahiy qilib: "Bandalarimdan qaysi biri bir chiroyli amalni qilgan bo'lsa, uni jannatga kiritaman", dedi. Dovud alayhissalom: "Ey Rabbim, u qaysi amal ekan?" deb so'radilar. Alloh taolo dedi: "Bir mo'minning bitta g'amini yarimta

xurmo berib bo'lsa ham aritish".

## **81-bob** **Qasddan odam o'ldirish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Mo'minni qasddan o'ldirgan kishi haqida odamlar ixtilof qilishdi, ba'zilari qotil do'zaxda abadiy qoladi, deyishdi. Ahli ilmlar esa: "Alloh taoloning xohishida bo'ladi, xohlasa kechiradi, xohlasa azoblaydi", deb aytishdi. Do'zaxda abadiy qoladi, degan kishilar Solim ibn Abul Ja'dning rivoyatiga asoslanishgan: Ibn Abbosning huzurida edim. Bir kishi kelib: "Mo'minni qasddan o'ldirgan kishi haqida nima deysiz?" dedi. Ibn Abbos: "Uning jazosi abadiy do'zaxdir", dedilar. Haligi kishi yana so'radi: "Tavba qilsa, imon keltirsa, solih amallar qilib hidoyat topsa-chi?" "Unga hidoyat qaerdan bo'lsin, jonim qo'lida bo'lgan Zotga qasamki, bu haqda oyat nozil bo'ldi, biror oyat uni nasx qilgani yo'q", dedilar".

Qotilga tavba foyda qiladi, deganlarning asoslari ushbu oyatdir:

"Albatta, Alloh o'ziga (biron narsaning) sherik qilinishini kechirmas. Shundan boshqa gunohlarni o'zi xohlagan bandalari uchun kechirur" (Niso, 48). Boshqa bir oyatda:

"Ular Alloh bilan birga boshqa biron ilohga iltijo qilmaslar va Alloh (o'ldirishni harom qilgan) biron jonni nohaq o'ldirmaslar hamda zino qilmaslar. Kim mana shu (gunohlardan birontasini) qilsa, uqubatga duchor bo'lur" (Furqon, 68), deyilgan. Yana:

"Magar kim tavba qilsa va imon keltirib yaxshi amallar qilsa, bas, Alloh ana o'shalarning yomonlik – gunohlarini yaxshilik – savoblarga aylantirib qo'yur. Alloh Mag'firatli, Mehribon bo'lgan zotdir" (Furqon, 70), deyiladi.

"Kim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannam bo'lib, o'sha erda abadiy qolajak" (Niso, 93), oyatining javobida Ibn Abbos: "Ushbu oyat Muqayyas ibn Juboba bir kishini qasddan o'ldirib, murtad bo'lib, Makkaga ketib qolgan paytda nozil bo'lgan", dedilar.

"Jazosi jahannam", so'zining ma'nosi haqidagi boshqa javob shuki, agar jazo beradigan bo'lsa, jazosi jahannam, lekin biz, inshaalloh, jazo bermasligini umid qilamiz. Bu Anas ibn Molik Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilgan hadisga o'xshaydi: "Kimga Alloh taolo bir amal uchun savob va'da qilgan bo'lsa, tezda oladi, kimni bir amal uchun jazo bilan qo'rqitgan bo'lsa, bu Allohning ixtiyoridadir".

Kishi o'zini o'zi qasddan o'ldirsa, ba'zilarning fikricha, do'zaxda abadiy qoladi. Ba'zi kishilar esa, Allohning ixtiyorida, deyishgan. Do'zaxda abadiy qoladi, degan kishilarning asosi Sufyon Savriy A'mashdan, u Abu Solihdan, u Abu Hurayradan rivoyat qilgan hadisdir. Rasul (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Kimki o'zini zahar bilan o'ldirsa, jahannam olovining ichida abadiy shu zahardan yutib turadi. Kim o'zini temir tig' bilan o'ldirsa, jahannam olovida abadiy shu temir tig' bilan qorniga urib turadi. Kim o'zini tog'dan tashlab o'ldirsa, do'zax oloviga o'zini abadiy tashlab turadi". Boshqa hadisda Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Kim o'zini bir narsa bilan o'ldirsa, shu narsa bilan qiyomat kunida azoblanadi", deganlar.



Ammo, Allohning ixtiyorida deganlar "Shundan boshqa gunohlarni o'zi xohlagan bandalar uchun kechirur" oyatiga asoslanishgan. Unda yuqoridagi xabarlar esa qo'rqitish uchun bo'ladi". "Mo'minni la'natlash o'ldirish kabidir", "Mo'minni so'kish fisqdir, uni o'ldirish kufrdir" hadislar singari u hadislar ham qo'rqitish uchundir.

Alloh subhonahu va taolo bilguvchiroqdir.

## **82-bob** **Yosh bolani o'pish haqida**

Faqih aytadilar: Yosh bolani o'pishning zarari yo'q, bu ishdan savob olinadi, chunki bunda bolaga nisbatan shafqat bor. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki keksalarimizni ulug'lamasa, yoshlarimizga rahm qilmasa, bizdan emas", deganlar. Muhammad ibn Asvad otasi Asvad ibn Xalafdan rivoyat qiladilar: "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) Hasanni (roziyallohu anhu) quchoqlariga olib o'pdilar. Keyin sahobalariga yuzlanib: "Bola qizg'aniladigan, qo'rqiladigan, o'rganilmagan, g'amxo'rlik qilinadigan (ne'mat)dir", dedilar".

Ash'as ibn Qays Kindiy Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar. "Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Bolalar haqiqatan ham qizg'aniladigan, qo'rqiladigan ne'matdir, albatta, ular qalblarning mevasi, ko'zlarning qorachig'idir".

Umar (roziyallohu anhu) bir kishini ba'zi ishlar uchun yolladilar. U kishi Umarning oldlariga kirganida bir bolakayni o'pib o'tirganlarini ko'rib: "Mening bir nechta bolam bor, lekin bittasini ham o'pmaganman", dedi. "Senda go'daklarga mehr yo'q ekan. Kattalarga mehning kamroq bo'ladi. Shartimizdan qaytdik", deb xazrati Umar u kishini yumushdan bo'shatdilar.

Suyish besh xil bo'ladi: do'stona, rahmat bilan, shafqat qilib, salomlashib, shahvat bilan. Do'stona o'pish – ota-ona farzandini peshonasidan o'pishidir. Rahmat bilan o'pish – bola ota-onasining boshidan o'pishidir. Shafqat qilib o'pish – opa ukasini peshonasidan o'pishidir. Salomlashib o'pish – mo'minlar bir-birlarining qo'llaridan o'pishidir. Shahvat o'pishi – er xotinini o'pishidir.

Ba'zilar erkaklar bir-birlarini yuz-qo'llaridan o'pishni makruh ko'rishgan va Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) quchoqlashish va o'pishishdan qaytarganlar, deb hujjat ko'rsatishgan. Ba'zi kishilar esa, bunga ruxsat berishadi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) Ja'far ibn Abu Tolib Habashistondan qaytganlarida quchib, ikki ko'zining o'rtasidan o'pganlarini rivoyat qilishgan. Sahobalar ham safardan kelganlarida bir-birlarini quchib o'pishardilar. Baro ibn Ozib Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Allohdan bola so'ranglar, chunki bola qalblarning mevasi, ko'zlarning qorachig'idir. Qari, tug'mas xotindan saqlaninglar". Boshqa bir hadisda: "Bolalarimiz jigarlarimizdir", deganlar. Shuning uchun shoir aytadi:

Kim shod bo'lsa ko'rib jigarporsin,  
Yerda yurgan bolasiga qarasin.

### 83-bob Daf urish (nog'ora chalish) haqida

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Insonlar kelin to'yda daf chalish to'g'risida ixtilof qilishdi. Ba'zilar zarari yo'q, deyishsa, ba'zilar makruh deyishdi. Zarari yo'q, deganlar Oisha onamiz Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilgan hadisga suyanishgan: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytdilarki: "Nikohni e'lon qilinglar, uni masjidlarda o'tkazinglar va unda daf chalinglar". Muhammad ibn Hotib rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Halol bilan harom orasini ajratish nikohda daf chalish va ovozni ko'tarish", dedilar". Muhammad Siyrin aytadilar: "Men xabar topdimki, Umar (roziyallohu anhu) agar daf ovozini eshitsalar uni to'xtatar, so'ng so'rar, agar kelin yoki xatna to'yi deyishsa, unga ruxsat qilar edilar".

Hishom ibn Urva otasidan, otasi Oishadan (roziyallohu anho) rivoyat qiladi: "Abu Bakr (roziyallohu anhu) kirganlarida, Oishaning oldida ikkita joriya bor edi. Ular Iyd kunida daf chalib o'ynashar va ularning oldida Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ham bor edilar. Abu Bakr ularni koyib: "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) huzurlarida shu ishni qilyapsizlarmi?" dedilar. Shunda Rasul alayhissolatu vassalom: "Ey Abu Bakr, ularni o'z holiga qo'y, har bir qavmni bayrami bor, bugun bizni bayramimiz", dedilar.

Oisha (roziyallohu anho) kelin to'yida edilar. Qaytganlarida Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Biror narsa aytdingmi?" deb so'radilar. Oisha onamiz: "Ha, bunday dedik", deb quyidagi she'rni aytdilar:

Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Agar Rahmonga toat bo'lmaganida, biz vodiylaringga kelmasdik" deb aytmadingmi?" dedilar.

Ikrima rivoyat qiladilar: Ibn Abbos o'g'illarini xatna qilganlarida ashulachilarni chaqirdilar va ularga besh dirham berdilar.

Ammo bu ishni makruh deydiganlar Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan hadisga tayanganlar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytdilarki: "Mo'min uchun uchtasidan tashqari hamma bekorchi ishlar botildir. Otini o'rgatish, kamon otish, xotini bilan o'ynashish".

Abu Burayda otasidan rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) g'azotdan qaytganlarida bir ayol kelib: "Agar siz g'azotdan sog' qaytsangiz, oldingizda daf chalishni nazr qiluvdim?", dedi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Agar nazr qilgan bo'lsang chal, agar nazr qilmagan bo'lsang chalma?" dedilar. Ayol: "Ey Rasululloh, men nazr qilganman", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Unday bo'lsa chal", dedilar. Shunda u ayol chaldi. Shu payt Abu Bakr (roziyallohu anhu) keyin Umar kirdilar. Ayol birdan dafni otib yubordi va o'tirib qoldi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ey Umar shayton sendan qochadi deb o'ylayman?" dedilar".

Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) agar nazr qilgan bo'lsang chal, nazr qilmagan bo'lsang, chalma, deganlarining ma'nosi nazr qilmagan bo'lsa, chalishdan qaytarganlaridir va bu chalish joiz emasligiga dalildir. Nabiyaning (sollallohu alayhi vasallam), nikohni e'lon qilinglar, deganlari nikohni ma'lum qilishda kinoyadir, bunda

aynan dafni chalish tushunilmasligi kerak.

Faqih aytadilar: Ammo bizning zamonimizda chalinayotgan daflar bular sinjot va jalolotdir. Bas, bilittifoq makruhdir. Ixtilof esa, oldingi zamonlarda chalingan daf xususidadir.

## **84-bob** **Yaxshilikka buyurish haqida**

Faqih Abu Lays (Alloh rahmat qilsin) aytadilar:

Yaxshilikka buyurish (amri ma'ruf) vojib, chunki Alloh taolo: "Olim va donishmandlari ularni gunoh so'zlardan, haromxo'rlikdan qaytarmaydilarmi?! Qilayotgan hunarlari naqadar yomon hunar" (Moida, 63), deb xabar bergan.

Darhaqiqat, Alloh ularni amri ma'rufni tark qilganlari sabab mazammat qildi. Alloh azza va jalla yana:

"(Ey ummati Muhammad), odamlar uchun chiqarilgan millatlarning eng yaxshisi bo'ldingiz. Zero siz yaxshi amallarga buyurasizlar, yomon amallardan qaytarasizlar va Allohga iymon keltirasizlar" (Oli Imron, 110), dedi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Albatta, sizlar yaxshilikka buyurasizlar, yomon ishdan qaytarasizlar yoki Alloh sizlarning tepangizga yomonlarni sulton qilib qo'yadi, so'ng yaxshilaringiz duo qilsa ham, ijobat bo'lmaydi", dedilar. Yaxshilikka buyurishning bir necha usluli bor. Agar amri ma'ruf qilganida, insonlar undan qabul etib, yomon ishlardan tiyilib qaytishini bilsa, bu ish unga vojibdir. Agar chuqur fikr qilib bilsaki, agar amri ma'ruf qiladigan bo'lsa, odamlar qabul etishmaydi, balki uni urib-so'kishadi. Bunday holda tark qilishi afzaldir. Shuningdek, agar insonlar uni urib-so'kishini bunga sabr qila olmay, o'rtalarida adovat va urush-janjal kelib chiqishini bilsa, bunda ham amri ma'rufni tark qilishi afzaldir. Mabodo, insonlarning aziyatlariga sabr qiladigan bo'lsa va ular birortaga shikoyat qilmasliklarini bilsa, uning nahiy munkar qilishida zarar yo'qdir va u bu ishi bilan mujohidlar kabi bo'ladi, zero, payg'ambarlarning ishlari ham shunday edi. Agar insonlar undan qabul qilmasligini bilsa va ularning urib-so'kishidan qo'rqmasa, u bu holda ixtiyorlidir. Xohlasa, amri ma'ruf qiladi, xohlasa, bu ishni tark etadi. Lekin amri ma'ruf qilgani afzaldir.

Abu Said Xudriy rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar birortangiz munkar ishni ko'rsa, uni qo'li bilan o'zgartirsin, agar qodir bo'lmasa, tili bilan, unga ham qodir bo'lmasa, qalbi bilan (qaytarsin), bu uchinchisi iymonning eng zaifi", dedilar.

Aytiladiki, to'rt toifa kishisi bo'lgan shaharning aholisi balodan omonda bo'ladi: biror narsada zulm qilmaydigan odil podshohi, hidoyat yo'lida bo'lgan olimi, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaradigan, Qur'on va ilm o'rganishga undaydigan shayxlari, johiliyat odatlarini qilmaydigan mastura-o'ralgan ayollari bo'lgan shahar.

Ba'zilar: "Qo'l bilan yaxshilikka buyurish amirlarga, til bilan buyurish olimlarga va qalb bilan buyurish avom xalqqa xos", deydi. Vallohu a'lam bis-savob.

## 85-bob Nikoh haqida

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Insonlar nikoh xususida ham ixtilof qilishdi. Ba'zilar uni farz, desa, ba'zilar sunnat, dedi. Biz aytamizki, agar kishining nafsi nikohga talabchan bo'lsa, uylanishi afzaldir, nafsi talab qilmasa, xohlasa uylansin, xohlasa uylanmasdan, Rabbining ibodati bilan mashg'ul bo'lsin. Nikoh farz degan kishilar Anas ibn Molikning rivoyatini keltiradilar: Nabi (sollallohu alayhi vasallam) tug'adigan ayolga (uylanishga) buyurib, tug'maydigan ayoldan qattiq qaytarar va: "Vadudaga, vadudaga (ko'p tug'adigan ayolga) uylaninglar, chunki men qiyomat kuni payg'ambarlarga sizlarning ko'pligingiz bilan faxrlanaman", der edilar.

Uylanish sunnat deganlarning hujjati Nabi (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadis: U zot (sollallohu alayhi vasallam) Akkof ibn Vado'aga: "Xotining bormi?" dedilar. U: "Yo'q", dedi. "Joriyang ham yo'qmi?" deb so'radilar. Yana: "Yo'q", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Bo'ydoqmisan?" dedilar. "Ha, Allohga hamd bo'lsin", dedi u. Shunda Rasululloh: "Sen shaytonning birodarisan yoki nasroniy ruhoniysan, agar bizdan bo'lsang, biz qilganimizdek qil, chunki nikoh bizning sunnatimizdan", dedilar.

Agar nafsining buzilishidan qo'rqmasa ibodat bilan mashg'ul bo'lishi afzaldir, chunki Alloh taolo payg'ambari Yahyo alayhissalomni maqtab shunday dedi:

"(Ey Zakariyo), Alloh senga Allohning so'zini tasdiq etadigan, (o'z qavmiga) xoja bo'ladigan, (shahvatlardan o'zini) tiyadigan va solih payg'ambarlardan bo'ladigan Yahyo ismli farzand xushxabarini berur" (Oli Imron, 39).

Oyatdagi "hasur" – "tiyadigan" so'zi ojiz bo'lmasa-da ayollarga bormaydigan kishiga aytiladi, ya'ni u zot Rabbiga ibodat qilish bilan mashg'ul bo'lganlari sababli shahvatni sindirganlar. Agar ayolga uylanishni xohlasalar dindoriga uylanishlari joiz bo'lar edi. Rasuli akram alayhis-salom aytganlaridek: "Ayolga moli, jamoli, husni va dini uchun nikohlaniladi. Sen dindoriga uylangin". Ali (roziyallohu anhu) aytadilar: "Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Go'ng qo'ng'izdan saqlaninglar", dedilar. "Ey Rasululloh, go'ng qo'ng'izi nima?" deyishdi. Rasululloh: "Yomon sharoitda o'sgan chiroyli ayol", dedilar.

Ba'zi hukamolar: "Ayollarning eng afzali uzoqdan ko'rimsiz, yaqindan malohatli, ne'matlangan, hojatbaror, barakali va doimo unga ehtiyoj sezilib turadiganlaridir", deyishgan.

## 86-bob Kasb-kor to'g'risida

Faqih Abu Lays (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zilar kasb-kor bilan mashg'ul bo'lishni yomon ko'rishgan. Ular ibodat qilish bilan mashg'ul bo'lish va Allohga suyanish vojib, degan fikrdagilar. Ahli ilmni ko'pchiligi: "O'zini va oilasini ta'min etarlik miqdorda kasb qilish vojib, agar undan ziyoda qilsa, muboh va ibodatga mashg'ul bo'lish afzal. Agar ziyoda qilish talabi bilan mashg'ul bo'lsa, va bu bilan faxrni, riyoni iroda qilmasa va farzlarni tashlab qo'ymasa, harom emas", deydi.

Kasb-qor bilan mashg'ul bo'lish durust emas, deganlar, Alloh taoloning ushbu so'zini dalil qilishgan:

"Men jin va insni faqat o'zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim" (Zoriyot, 56). Bas, Alloh taolo xalqni o'ziga ibodat qilish uchun yaratdi. Shunday ekan, ibodat bilan mashg'ul bo'lish lozim, kasb-kor bilan emas, deyshadi. Yana Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh menga mol jamlashni va savdogar bo'lishni vahiy qilmadi, balki: "Rabbingni maqtab tasbeh ayt, sajda qil va doim ibodatda bo'l", deb vahiy qilindi", degan hadisni keltirishadi.

O'ziga kifoya qiladigan miqdorda kasb qilish vojib, deganlarning hujjati shuki, Alloh taolo farzlarini farz qildi. Bandalar farzlarni ado qilishi uchun libos va nafs ozuqasiga muhtoj. Banda bunga faqat kasb qilish bilan etishadi. Alloh taolo:

"Endi qachon namoz ado qilingach, erga tarqalib, Allohning fazlu marhamatidan (rizqu ro'z) istayveringlar" (Jum'a, 10), deydi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Bo'z bilan savdo qiling, chunki otalaringiz (Ibrohim) bazzoz bo'lganlar", deganlar. Abdulloh ibn Muborak: "Kim bozorni tark qilsa, uning muruvvati ketibdi va xulqi yomonlashibdi", deb aytganlar. Ibrohim ibn Yusuf: "Bozorni mahkam tut, chunki u sohibiga ulug'lik keltiradi", deydilar.

Kasb-korni tark qilish uchta sabab – kasallik, taqvo va or sababli joiz, deyiladi. Kasallik sababli tirikchilikni tark qilgan kishi tilanchilik qiladi, taqvo sababli tark etgan kishi tama'ga, qilishga or yoki hamiyat sababli tark etgan kishi o'g'irlik qilishga majbur bo'ladi.

Uchta narsaning davosi yo'q, deyiladi. Birinchisi, harom aralashgan kasallik, ikkinchisi, hasad aralashgan adovat, uchinchisi, kasallik aralashgan kambag'allik.

Hakim Abul Qosim aytadilar: "Haloldan kasb qilish iffatli kambag'alni go'zallashtiradi, zaifning muhtojligini bekitadi, pastkash g'iybatchining tilini kesadi". Har bir narsaning zeb-ziynati bor, yigitlikning bezagi va ziynati kasb orqasidan, deyishadi.

Kishida oltita xislat bo'lsa, u odamlarning sayyidi bo'ladi. Uchtasi uydan tashqarisi, uchtasi uyning ichida. Uydan tashqaridagi xislatlar: olimlardan istifoda etish – ilm olish, taqvodorlar bilan aralashib yurish, o'zini va oilasining ozuqasini halol yo'l bilan talab qilish. Uyning ichidagilari: ahli oilasi bilan ulamolardan eshitgan narsalarini eslashi, taqvodorlardan ko'rgan narsaga amal qilishi, oilasining toqatiga etadigan kiyim va taomni hozir qilishi.

## **87-bob** **Tabobat haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishiga badaniga zarar beradigan narsalardan saqlana oladigan miqdorda tabobat ilmini o'rganish mustahabdir. Hukamolarning aytishicha: ilm ikki xil bo'ladi: din ilmi; badan ilmi. Kishi din ishlarini isloh qila oladigan miqdorda ta'lim olishi zarur bo'lgani kabi, badanini salomat saqlab oladigan darajada tabobatni bilmog'i va zarar beradigan narsalardan chetlashmog'i lozim. Tabiblar tabobatda parhezdan

foydaliroq narsa yo'q degan so'zga ittifoq qilishgan. Bir sahobiy bir kishiga: "Senga tabiblar suyanadigan tabobatni, olimlar suyanadigan ilmni, hakimlar suyanadigan hikmatni o'rgataymi?", dedi. U: "Ha", dedi. "Tabiblar suyanadigan tabobat – dasturxonga qorning och bo'lgan vaqtda o'tirish va ishtahang bo'lsa ham (to'ymasdan) turish. Ulamolalar suyanadigan ilm shuki, bilmaydigan narsa haqida so'rashganda, "Alloh biluvchiroq", deyish. Hakimlar suyanadigan hikmat – agar sen bir qavmning yig'inida o'tirsang, sukut qil, ular yaxshilik haqida gapirsalar, ular bilan gaplash, agar yomon narsa haqida gapirsalar, turib ket", dedi sahobiy.

Qadimda uzoq umr ko'rgan bir kishiga umring nima sababli uzun bo'ldi, deyilganda, taom pishirsak, yaxshilab pishiramiz, chaynasak, yaxshilab chaynaymiz va qornimizni to'ldirib yubormaymiz uni bo'sh qoldirmaymiz ham, dedi.

Kishi kunduzgi taomdan so'ng cho'zilishi, kechki taomdan so'ng yurishi foydaliroq, deyiladi. Masalda aytiladiki, agar kunduzgi taomni eb bo'lib cho'zilsa, badaniga yuqadi, kechki taomdan so'ng yursa, singadi.

Zuhriy rivoyat qiladilar: "Ibn Abbos (roziyallohu anhumo): "Beshta narsa xotirani susaytiradi: nordon olma yeyish, suvga bavl qilish, sun'iy yo'l bilan bo'yindan qon oldirish, bitni tuproqqa tashlash, sichqon tekkan suvni ichish", dedilar". Aytiladiki, qabr toshlardagi lahvni o'qish, kashnich yeyish, oldin-ketin bog'langan, ikki tuyaning o'rtasida yurish va ikkita ayolning orasida yurish ham xotirani susaytiradi.

Zahhoq Ibn Abbosdan rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Misvokni ko'p ishlatmalar, chunki unda o'nta xislat bor: og'izning pokligi, Rabbning rizoligi, farishtalarga xursandchilik, ko'zga jilo, tishga oqlik, milkni mustahkamlash, tishdan chirish va toshlarni ketkazish, taomni hazm qilish, balg'amni kesish, farishtalar uning oldida hozir bo'lishi, namozning savobi ikki barobar bo'lishi, shaytonni xorlash", dedilar.

Aytiladiki: Sariq poyabzal kiygan kishi Alloh taoloning:

"U zotning aytishicha, u ochiq-mallarang sigir bo'lib, ko'rganlarning ko'ngli chog' bo'ladi" (Baqara, 69), degani sababli huzur, halovatda bo'ladi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim aqiq ko'zli uzuk taqib yursa, doimo barakot va xursandchilikda bo'ladi", deganlar.

Aytishlaricha, kim uyni latta bilan supursa, xamirturush ishlatmasa, o'rgimchak to'ridan uyini tozalamasa, faqir bo'ladi. Kim oxurni o'rgimchak to'ridan tozalamasa, hayvonlari semirmaydi, degan gap ham bor. Yana aytiladi: yashil rangga, oqar suvga, chiroyli chehraga, ota-onaning yuziga, namozda sajda o'rniga, shirin limonga, qizil kabutarga qarash ko'zni ravshanlashtiradi. Qishda olovga qarashda beshta xislat bor: sovuqni ketkazadi, yuzni chiroyli qiladi, taomni hazm etadi, adashish va qiyinchilikni ketkazadi, qo'rqinchdan chalg'itadi.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu): "Kim uzun umr ko'rishni xohlasa, erta nonushta qilsin, kechki ovqatni kechiktirsin, ridoni engillatsin, ayollar bilan jinsiy aloqani kamaytirsin, deganlar. "Ridoni engillatish nima?" deyilganda, "qarzni kamaytirish", dedilar.

## 88-bob

### Ozuqalardan badanga zarar beradigan narsalardan chetlashish haqida

Faqih Abu Lays (Alloh rozi bo'lsin) aytadilar: Badan kuz va qish kunlarida quvvatli bo'ladi, taomni ko'taradi, chunki oshqozon bu vaqtda qiziydi va taomni hazm qiladi. Yoz va bahorda oshqozon soviydi, sovuqligi sababli taomni ko'tarishga zaiflik qiladi.

Yoz kunlari sovuq suvni ko'p ichishning zarari kam, qish kunlari zarari ko'p. Kishi qish kunlarida suv ichishni kamaytirishi lozim. Shuningdek, kechasi ham ko'p suv ichmaslik kerak, chunki bu vaqtda oshqozon soviydi, unga zarari etishi va kasallanishi xavfi bor, lekin issiqlik g'olib kelsa yoki isitmasi bo'lsa, ichaverishi mumkin. Uxlamoqchi bo'lgan odam qorni to'q bo'lsa, sunnatga muvofiq birinchi o'ng tomoni bilan yotishi lozim bo'ladi, so'ng chap tomonga buriladi, chunki bu hol taom hazm bo'lishini osonlashtiradi. Ammo oshqozon to'la holda uxlash qalbni qattiq qiladi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Taomlaringni namoz bilan parchalanglar, u bilan uxlamanglar, aks holda qablaring qattiqlashadi", degandilar. Kishi uzrsiz qorni bilan yotishi durust emas. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir kishini qorni bilan yotganini ko'rib, uni turtganlar va: "Bunday yotma, chunki bu yotishdan Alloh g'azablanadi", deganlar. Agar qorni to'q bo'lsa va qorni og'rishidan qo'rqib, yostiqni qornining ostiga qo'yib uxlasa, zarari yo'q, chunki bu uzrlidir, zarurat mamnu' ishlarni muboh qiladi, so'ng ko'p egani uchun tavba qilishi lozim. Taomdan oldin sovuq suv ichish oshqozon olovini o'chiradi, uni taomdan so'ng ichish oshqozonni qizdiradi va badanni yog'laydi. Agar kishi olma, o'rik, uzum va shunga o'xsha ho'l mevalardan esa, uning orqasidan suv ichishi durust emas, chunki bu ish oshqozonni buzadi. Bir-ikki soatdan so'ng ichishi durust. Agar issiq guruch yoki holva esa, ustidan hech qachon sovuq suv ichmasin, chunki tishlarga zarar qiladi, juda ichgisi kelsa, avval bir-ikki luqma non esin, so'ng ichsin, shunda zarar kamroq bo'ladi. Issiq non bilan tut yeyish qorinda qurt paydo qiladi.

Ibn Muqfa' aytadilar: "Kim qirq kun tinmay piyoz esa, so'ng yuzida dog' paydo bo'lsa, faqat o'zini malomat qilsin. Agar kamaytirsas va uning (piyozning) ortidan sho'r esa, so'ng unda qichima paydo bo'lsa, faqat o'zini malomat qilsin. Kim baliq bilan tuxumni aralashtirib esa, so'ng falaj bo'lsa, faqat o'zini malomat qilsin, kim shira bilan sutni aralashtirsas, pes kasalligi bilan balolansas, faqat o'zini malomat qilsin".

Kishi taom eyayotganda, taomning hammasini eb bo'lmaguncha, suv ichmasin, shunda zarari kamroq. Baliq ko'p yeyish ko'zga ziyon qiladi, kishiga qornida sut bilan nordon narsa yoki ko'katni jamlashi durust emas. Taomdan oldin ho'l meva eyishning zarari kam, undan keyin eyishning zarari ko'proq. Sut bilan ho'l mevani birga yeyish durust emas, shuningdek, quduq suvi bilan daryo suvini birga ichish ham noma'qul.

To'rtta narsa o'tib ketgunicha maqtalmaydi: taom hazm bo'lgunicha, jangchi qaytib kelgunicha, ekin yig'ib olingunicha, ayol o'lgunicha.

Kun isiganda (kunning o'rtasida) go'shtni ko'p yeyish kasallikni qayta qo'zg'aydi. Nonning badanga eng zararlisi issiq bo'lgani, badanga zarari kamrog'i bir kun turgani. Go'shtning badanga zararlisi orqa yarmi, zarari kamrog'i boshga yaqinrog'i. To'yib ho'l xurmo yeyish oshqozon kasalligini keltiradi. Danakni non bilan yoki yolg'iz o'zini yeyish hazmni og'irlashtiradi. Patir non va shunga o'xshashlarning hazmi ham sekin. Tut

mevasi va o'rikni saharda eyishning zarari yo'q. Taomdan so'ng eyilsa, og'riqni paydo qiladi. Yaxshi pishmagan o'rik oshqozonni zaiflashtiradi.

Qurtilgan xurmoni ko'p yeyish milkka foyda. Mayiz va boshqa shirinliklar ham. Anjirni ko'p eyishning ziyoni bor. Sho'r narsani ko'paytirish ko'zga zarar qiladi. Agar bir kishi safar qilsa va bir shaharga kirsas, avval achchiq bilan piyoz esin, shunda shaharning suvi unga zarar bermaydi. Piyozni ko'p yeyish balg'amni paydo qiladi va ko'zga qorong'ilik keltiradi. Aytiladiki, achchiq va nordonni ko'paytirish tez qaritadi. Kishi yog' eyishni tark qilish lozim emas, chunki u aqlni to'ldiradi, shirinlik halimlikni ziyoda qiladi, ammo buni ko'paytirish tishga zarar beradi. Mosh qalbni yumshatadi, qonni tozalaydi, ammo ko'p yeyish tishga ziyon qiladi. Qovoq dimog'ni (nafas olishni) yaxshilaydi.

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) aytadilar: Kim ovqatlanishni tuz bilan boshlab, tuz bilan tug'atsa, Alloh undan etmish baloni ketkazadi". Va yana aytganlarki: "Kim har kuni yettita xurmo esa, qornidagi qurtlarning hammasi o'ladi. Kim har kuni qizil mayiz esa, jasadida biron yomon narsa qolmaydi, magar o'lim kasalligidan boshqa".

Aytadilarki, go'sht go'shtni ko'paytiradi, xamir ovqat va holvayitar qorinni kattalashtiradi va orqani bo'shatadi. Sigir go'shti dard, suti shifo va yog'i davodir. Baliq jasadni eritadi. Bularning hammasi Alidan (roziyallohu anhu) rivoyat qilingan.

Ayollarga ho'l xurmodan ortiq shifo yo'q. Xushbo'ylik dimoqni ochadi, ko'zni o'tkirlashtiradi. Kofur va atirgul suvidan boshqa xushbo'ylikni ishlatish quruqlikni keltiradi. Aytiladiki, atirgul suvi qarilikni tezlashtiradi, muloyim libos qonni yurishtiradi, qalin, dag'al libos uni quritadi. Yana aytiladiki, qattiq xursandchilik xafachilikka nisbatan halokatni tezlashtiradi, chunki xursandchilikning tabiati sovuqlik, sovuqlik esa issiqlikka nisbatan halokatga yaqinroq, xafalikning tabiati esa issiqlik, chunki u jigardan paydo bo'ladi.

## **89-bob** **Jimo' haqida**

Faqih aytadilar: Ibn Muqfa': "Kim ayoliga yaqinlik qilsa, so'ng zakarini suv bilan yuvmasa, buyrakda mayda toshchalar paydo bo'ladi. Buning uchun faqat o'zini malomat qilsin", dedi. Ammo men yuvsa, foydasi bor, yuvmasa, unga zarar qilmaydi, degan umiddaman, chunki Ibn Umar Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) junub hollarida suvni ushlamaganlarini rivoyat qilganlar. Ibn Muqfa': "Kim ihtilom bo'lsa, g'usl qilmasa, so'ng ahli ayoliga yaqinlik qilsa, undan majnun yoki hushi joyida bo'lmagan bola tug'iladi, bunda faqat o'zini malomat qilsin. Joxil kishi, ko'pincha men shu ishni qilaman, menga hech zarar qilmadi, degan fikrga aldanmasin, chunki o'g'ri agar birinchi marta o'g'irlaganidayoq jazolansa, biror kishi o'g'rilik qilmas edi, shunga o'xshash agar birinchi martadayoq kasallansa, dunyoda sog' odamni ko'rmaysan", deyдилar.

Kishi jimo'dan so'ng darhol sovuq suvda yuvinishi durust emas, chunki bunda isitmaning xavfi bor.

Aytiladiki, jimo'ni ko'paytirish yoz va kuz oylarida zarari ko'proq, qish va bahorda zarari kam, me'yorida bo'lgani yaxshi. Qorin bo'sh vaqtida jimo' qilishning zarari kam, qorin



to'q vaqtidagi jimo'ning zarari ko'p, agar qorin to'q vaqtida jimo' qilsa va ayol homilador bo'lsa, bola nafsi, ruhi og'ir, qorin och vaqtda jimo' qilsa, bola nafsi, ruhi yengil bo'ladi. Kechaning oxirida jimo' qilish avvalida jimo' qilishdan foydaliroq, chunki oshqozon kechening avvalida to'q bo'ladi.

Aytiladiki, to'rtta narsa umrni qiskartiradi, ko'pincha o'ldiradi: hammomga qorinni to'yg'izib kirish; quritilgan go'sht yeyish; qorinni to'ldirib yurish; qari kampir bilan jimo' qilish.

Agar jimo'dan bo'shasang, tik turma, balki o'ng tomonga moyil bo'lib yot, shu ish jismga foydaliroq.

Erkak ayolni erkalab, mayl uyg'otib jimo' qilishi durust, chunki bu badanga rohat beradi va bola sog'lom bo'ladi.

Aytiladiki, har qanaqa shahvat qalbni qattiqlashtiradi, ammo jimo' qalbni sof qiladi, shu sababli anbiyolar (sollallohu alayhim vasallam) jimo' qilar edilar.

Jimo'dan ba'zan foyda, ba'zan zarar bo'ladi, foydasi shuki, agar kishida g'am bo'lsa, uni kamaytiradi, agar qalbi harom ishlarga bog'lanib qolgan bo'lsa, uni ketkizadi, vasvasalarni aritadi, g'azabni so'ndiradi, agar tabiati issiq bo'lsa, tanasidagi ba'zi yara, jarohatga foyda beradi. Zarari esa, ikkala boldirda, boshda va orqada qattiq og'riqni paydo qiladi, badanni zaiflashtiradi, ko'rishni kuchsizlantiradi. Xususan, kishining tabiati sovuq va quruq bo'lsa, bunday holda jimo'ni kamaytirish foydaliroqdir.

Jimo' vaqtida gapirish durust emas, chunki bunda bolaning gung bo'lishi xavfi bor, jimo' holatida er-xotin ustida yopinchiq bo'lish kerak. Yo'qsa, bolaning hayosi kam bo'ladi, deyishadi. Aytiladiki, kampirni jimo' qilish badanni zaiflashtiradi, qarilikni tezlashtiradi. Kasalni jimo' qilishda kasallik va og'riq xavfi bor.

Ba'zi tabiblar jimo'dan keyin g'usl qilmay, yana jimo' qilishni yoki g'usl qilmasdan uxlashni yomon ko'rishgan, lekin bizning mazhabimizda buning zarari yo'q. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bunga ruxsat berganlari rivoyat qilingan. Darhaqiqat, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ummatlariga mushfiq-mehribon edilar, agar bunda zarar zohir bo'lganida, ruxsat bermasdilar.

Tik turib jimo' qilish durust bo'lmaydi, chunki bu hol badanni zaiflashtiradi.

## **90-bob** **Hamomga kirish haqida**

Faqih aytadilar: Junub holatda tukni olish makruh sanaladi. Xolid ibn Ma'don rivoyat qiladiki: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim g'usl qilishdan oldin tukini olsa, qiyomat kuni har bir tuki unga kelib: "Ey Rabbim, bundan so'ragin, nima uchun meni yuvmasdan turib oldi?" deb aytadi", dedilar".

Aytiladiki, och holda hammomga kirilsa badanda quruqlik paydo bo'ladi. Agar to'q holda kirilsa, qorinda kasallik, o'n ikki barmoqli ichakda qurt paydo bo'lish xavfi bor.

Hammomga taom eb, hazm bo'lgandan so'ng kirish mustahab.

Ibn Muqfa' aytadilar: "Kim hammomga qorni to'q holda kirsa va unga qo'lanj kasalligi etsa, faqat o'zini malomat qilsin. Kim baliqni sovuq holatda esa va hammomga kirsa, o'sha soatda bas unga falaj va qo'lanj kasalliklari etsa, faqat o'zini ayiblasin".

Agar kishi hammomga kirishni xohlasa, birdaniga ichkari xonaga kirmasin, balki har bir xonada ozgina vaqt turib, so'ng boshqasiga kirsin. Chiqishda ham shunday. Chiqqandan so'ng o'ziga sovuq suv sepishi yoki sovuq suv ichishi yaxshi emas, chunki bu badanga nihoyatda zararli.

Aytiladiki, yoz kunlari hammomga kirish qish kunlariga nisbatan foydaliroqdir. Yoz kunlari hammom juda issiq bo'lishi lozim emas, chunki bunda ofatning xavfi bor. Agar qish kunlari hammomdan chiqsa, sovuq havo uni kasallantirib qo'ymasligi uchun tezda kiyimini kiyishi lozim, aks holda unga zarar etadi. Bosh og'rig'i etmasligi uchun hammomdan chiqqach, boshini o'rab olishi kerak. Agar tukini olishni xohlasa, bir kecha va kunduz jimo' qilmasin keyin ham qo'shilmasin aytiladiki: sovuq suv bilan ko'p yuvinish yuzni qoraytiradi va kasallik kelib chiqadi.

Aytiladiki, yoz kunlari sovuq suv bilan yuvinish foydaliroq, lekin juda issiq va juda sovuq bo'lmasligi lozim.

## **91-bob** **Qon oldirish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Zuluk bilan qon oldirish mustahab sanaladi. Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan hadisda: "Zuluk bilan qon oldirishda shifo va barakot bor, bu ish aql va xotirani kuchaytiradi", deyilgan. Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) biror kishi bosh og'rig'idan shikoyat qilsa, faqat qon oldirishga, agar oyoq og'rig'idan shikoyat qilsa, tosh osishga buyurganlari rivoyat qilingan.

Kishi qon oldirishdan bir kecha-kunduz oldin ayoliga yaqinlik qilmasligi lozim. Shuningdek, keyin ham. Agar ertaga qon oldirishni xohlasa, kechki ovqatni asr paytida emog'i mustahab bo'ladi, chunki bu foydaliroq. Birinchi marotaba oldirayotgan kishi oldin bir narsa eb olsin.

O'sha kuni hammomga kirish durust emas. Ba'zi tabiblar aytishadiki, agar kishi qon oldirgan kunida, jimo' qilsa va hammomga kirsa, o'lmasa hayron qolish kerak.

Qon oldirgandan so'ng sho'r narsa eyilmaydi, chunki bunda yara chiqish va musibat xavfi bor. Ammo sirka iste'mol qilish mustahab. So'ng iloji bo'lsa, sho'rva ichsin va biror shirinlik tanovul qilsin. O'sha kunda sog'ilgan sutni yoki qatiq yoki shunga o'xshash narsani eyishi durust emas, suvni kam ichadi.

Shanba va payshanba kunlari qon oldirish makruh. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim shanba va payshanba kunlari qon oldirsa, so'ng unga oqsim kasali etsa, faqat o'zini malomat qilsin", deganlar.

Ba'zi xabarlarda esa u kunlarda qon oldirishga ruxsat berilgani rivoyat qilinadi, lekin saqlanish afzalroq. Qon oldirish uchun eng yaxshi kunlar yakshanba va dushanba, ba'zida seshanba ham ixtiyor qilingan. Qattiq issiqda va qattiq sovuqda ham qon oldirmaslik mustahab. Qon oldirishning eng yaxshi payti bahorda oy yarimidan o'tib, oxiriga yaqinlashganda. Oyning boshida va oxirida, oy tug'ilganda makruh.

Aytildiki: ikkita elkaning orasidan qon oldirish foydali. Bo'yin kovagi, gardandan qon oldirish makruh, chunki bu parishonxotirlikni keltirib chiqaradi. Boshning o'rtasidan qon oldirish ham foydali. Bakr ibn Abdullohdan rivoyat qilinadi: "Aqra' ibn Hobis kirganlarida Rasululloh boshlarining o'rtasidan qon oldirayotgan edilar, shunda u zotga: "Boshingizdan qon oldiryapsizmi?" dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Ey Ibn Hobis, albatta bu qon oldirish bosh og'riqqa, tish og'riqqa, alahsirashga, moxov, oqsim va jinnilik kasaliga foydalidir", dedilar".

Ammo davomli qon oldirish mumkin emas, chunki zarar beradi. Alloh subhonahu biluvchiroq.

## **92-bob** **Hojat odobi haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadi: Yo'lga, suv bo'yiga, mevali daraxt tagiga, insonlar soyasida o'tiradigan daraxt tagiga hojat chiqarish makruhdur. Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "La'natdan qochinglar" (ya'ni, la'natni vojib qiladigan fe'llardan qochinglar), deganlar.

Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinadi: "Kimki mevali daraxt tagiga yoki o'tiladigan yo'l ustiga yoki suv bo'yiga hojat chiqarsa, unga Allohning maloikalarning, jami insonlarning la'nati bo'lsin". Bavl to'plangandan keyin ushlab turish yaxshi emas, chunki u qovuqqa zarar beradi.

Bir tabibga: "O'g'lingizni falon joyda bavl qistadi, u o'sha joyda ulovdan tushdi va manziligacha sabr qilolmadi", deyishdi. "Ulovdan tushib qanday yomon ish qilibdi, shu ishni tushishdan oldin qilmabdi-da", dedi.

Hojatda uzoq o'tirish durust emas. Luqmoni Hakim quliga: "Hojatingda uzoq o'tirma, chunki bundan bavirusir (gemorroy) kelib chiqadi", degan ekan.

Toshli erga bavl qilish ham durust emas, chunki unga jin, hashorot va ilondan ozor etishi xavfi bor. Abdulloh ibn Shurahbil Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlarning birortangiz toshga bavl qilmasin, chunki bu shaytonlarning makoni", deb aytganlarini rivoyat qilganlar. Aytishadiki, Sa'b ibn Uboda toshga bavl qildilar, natijada u kishiga jindan ofat etdi va o'ldilar. Jin buni she'r qilib aytdi:

Hazrajning sayyidi Sa'd ibn Ubodani o'ldirdik,

Bir o'q otib, uning yuragiga bexato urdik.

### **93-bob**

#### **Yolg'izlikning makruhligi haqida**

Faqih aytadilar: Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qilinadi: Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam): "Insonlarning eng yomoni yolg'iz ovqatlangani, elchini qaytargani va qulini urgani", dedilar. Darhaqiqat, xabarlarda keladiki, Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) kishilarni yolg'iz uxlashdan, yolg'iz safar qilishdan qaytarganlar va: "Shayton yolg'iz kishi bilan birga, ikkitadan uzoq", deganlar. Yana: "Bitta ulovli bitta shayton, ikkita ulovli ikkita shayton va uchtasi bitta karvon", dedilar.

Said ibn Musayyab Nabiyydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Shayton bitta va ikkitaga ahamiyat beradi, agar ular uchta bo'lsalar, bora olmaydi".

Faqih aytadilar: "Bu gaplar shafqat uchun, harom deb emas, chunki ko'pincha dushman yolg'iz kishiga yo'liqadi, agar ular jamoa bo'lsalar, bir-birlariga yordam beradilar, agar kishi o'ziga ishonsa, yolg'izlikning zarari yo'q, chunki Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) Dihya Kalbiyni Rum podshosi Qaysarga yolg'iz yuborganlar.

Aytiladiki, to'planish – quvvat, ajralish – halokat. Va bu ma'no Alloh taoloning Muso alayhissalom qissasidagi sehrgarlar haqidagi hikoyasida zikr qilingan:

"Bas, makr-hiylangizni yig'ingiz, so'ng bir saf bo'lib kelingiz. Bugun ustun bo'lgan kishilar najot topurlar" (Toho, 64).

Ba'zi mufasssirlar bu oyatni: "Birlashinglar, g'olib bo'lasizlar, ixtiloflashmanglar, mag'lub bo'lasizlar", deb tushuntirdilar.

Aytiladiki, bir kishining fikri nozik ip kabi, ikki kishining fikri ikkita eshilgan ip kabi, uch kishining fikri uzilmaydigan ko'p iplar o'rami kabi.

Agar bir jamoa safarda bo'lsa, ikkitasi uchinchini ortda qoldirib ildamlab ketishlari makruhdir, chunki bu hol sheriklarini xafa qiladi. Ibn Abbos Nabiyyning (sollallohu alayhi vasallam): "Agar uch kishi bo'lsalar, ikkitasi uchinchisiz ildamlab ketmasin", - deganlarini rivoyat qilganlar.

### **94-bob**

#### **Muhofaza farishtalari haqida kelgan rivoyatlar**

Faqih aytadilar: "Ulamolar muhofaza farishtalari (ya'ni, bandaning amalini nomai a'molda hiifz qilib – saqlab boruvchi farishtalar – Muh.) haqida ixtilof qilishdilar, vaholanki, ular ulug' kotiblardir. Ba'zilar: "Ular odam farzandining hamma so'zlari va fe'llarini yozadi", deyishdi. Ba'zilar esa: "Ular faqat ajr-savob va gunoh hisoblangan amallarnigina yozadi", deyishdi. Boshqalar: "Hammasini yozadilar, so'ng osmonga ko'tarilganlarida savob va gunohdan boshqalarini o'chirib tashlaydilar va bu Alloh taoloning:

"Alloh xohlaganini o'chirib, xohlaganini qoldiradi" (Ra'd, 39), degan so'zining

ma'nosidir", degan fikrni bildirishgan.

Hishom ibn Hason Ikramadan, u Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) Alloh taoloning:

"U biron so'zni talaffuz qilmas, magar (talaffuz qilsa) uning oldida hoziru nozir bo'lgan bir kuzatguvchi (farishta u so'zni yozib olur)" (Qof, 18), degan so'zi haqida: "Odam farzandining so'zlaridan yaxshi va yomoni yoziladi, boshqa narsa yozilmaydi", deganlarini rivoyat qilganlar.

Hishom: "Ey g'ulom, so'zing o'chirilishi uchun menga suv, hayvonlarga o't ber", dedilar. Hasan Basriy: "Gapirgan hamma so'zi yoziladi", deganlar.

Ibn Jarir: "U ikkalasi ikkita farishta, bittasi o'ng tomonda, ikkinchisi chap tomonda, o'ng tomondagi sherigining guvohligisiz yozadi, chap tomondagisi faqat sherigining guvohligi bilan yozadi. Agar kishi o'tirsa bittasi o'ng, boshqasi chap tomonda bo'ladi, agar yursa, bittasi oldida va boshqasi orqada. Agar uxlasa biri bosh tomonida, boshqasi oyoq tomonida bo'ladi", deyдилar. Ba'zilar: "Ular to'rtta, ikkitasi kunduzi, ikkitasi kechasi bo'ladi", deyishadi. Abdulloh ibn Muborak: "Ular beshta, ikkitasi kunduzi, ikkitasi kechasi va bittasi kechayu kunduz undan ajralmaydi", deganlar.

Kofirlarda ham muhofaza farishtalari bo'ladimi yoki yo'qmi, deb ixtilof bor. Ba'zilar: "Ularda muhofaza farishtalari bo'lmaydi, chunki ularning ishi aniq, amallari bitta. Bu haqda Alloh taolo:

"(Chunki u Kunda) jinoyatchi-osiy kimsalar siymo-belgilaridan tanilib peshona va oyoqlaridan olinurlar" (Rahmon, 41), degan", deyishadi.

Faqih aytadilar: Biz bu so'zni olmaymiz, balki ularda ham muhofaza farishtalari bo'ladi, deymiz. Oyat esa kofirlarning holati haqidadir. U farishtalarning zikri bilan nozil bo'lgan.

Alloh taoloning ushbu so'zlari bilmaysanmi:

"Ular sizlar qilayotgan ishlarni bilurlar" (Infitor, 12); "Endi o'z kitobi chap qo'lidan berilgan kimsaga kelsak, bas, u der:

"Eh, qaniydi, menga kitobim berilmasa!" (Al-haqqa, 25). Bas, Alloh subhonahu va taolo, albatta, kofirlarda ham uchun kitob nomai a'mol va muhofaza farishtalari borligini xabar qildi. Uning yaxshiligi bo'lmasa, o'ng tomondagi farishta nimani yozadi, deb aytilsa, javob shuki, chap tomondagisining ruxsati bilan yozadi. O'zi yozmasa ham, bunga guvoh bo'ladi. Alloh bilguvchiroq.

## **95-bob** **Chigirtkani o'ldirish haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Odamlar chigirtkani o'ldirish haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar o'ldirish joiz emas deyishsa, ahli fiqh zarari yo'q, deydi. O'ldirishni makruh ko'rganlar, chigirtka ham Alloh taoloning maxluqi, U bergan rizqdan eydi, uning ustida qalam (hisob) joriy emas, deyishadi.

O'ldirishning zarari yo'q, degan faqihlar chigirtkaning molu-mulkka zarar etkazishini hisobga olishgan. Hattoki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) musulmonlarning molini olmoqchi bo'lgan musulmonni o'ldirishga ruxsat berganlar. "O'z molini himoya qilib vafot etgan kishi shahiddir", deganlar.

Mol-mulkka, ekin-tikinga zarar qiladigan chigirtkani o'ldirish yaxshiroqdir. Olimlar ilon va chayonni o'ldirishga ittifoq qilishgan. Chunki ular aziyat berishadi. Chigirtka ham shularga o'xshashdir. Jobir Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "U kishi chigirtkani qarg'ab: "Parvardigoro, maydalarini halok qil, kattalarini o'ldir, tuxumini buzib, ketini uzgil. Bizning rizqu nasibalarimizdan ko'nglini burgil. Albatta, Sen duoni eshituvchidirsan", deganlarida, "Ey Rasululloh, Alloh taoloning askarlaridan birining keti uzilsin, deb bad duo qilyapsizmi?" deb so'rashdi. Nabiy dedilar: "Chigirtka dengizdagi kitning mayda bir turidir".

Jobirning rivoyat qilishlaricha, Umar (roziyallohu anhu) zamonlarida chigirtka qirilib ketdi. Bundan qayg'urib u zot bir otliqni Yaman tomonga, birini Shom tomonga, boshqasini Iroqqa jo'natdilar. Yaman tomonga ketgan otliq bir hovuch chigirtka keltirdi. Uni ko'rib Umar (roziyallohu anhu): "Allohu akbar", dedilar. "Men Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taolo ming xil maxluq yaratgan. Olti yuztasi dengizda, to'rt yuztasi quruqlikda. Bulardan eng avval qirilib ketadigani chigirtkadir, keyin boshqa maxluqotlar ham halok bo'ladi, bu hol xuddi ipi uzilgan tizmaning to'zishidekdir", deganlarini eshitganman". Vallohu a'lam.

## **96-bob** **Masjidni bezash xususida**

Faqih aytadilar: Ba'zilar masjidni tilla suvi yoki boshqa narsalar bilan bezash makruh deyishadi. Boshqalar mubox deyishadi". Abu Hanifa rahmatulloh alayh, "menimcha, pul masjidning daromadidan bo'lmasa, bezashning zarari yo'q",-dedilar.

Ammo makruh degan kishilar Alining (roziyallohu anhu) so'zlariga asoslanishadi: "Odamlarga shunday zamon keladiki, fqatgina Islomning ismi, Qur'onning rasmi qoladi. O'sha kunlarda odamlarning masjidlari binosi chiroyli qurilgan, qalblari esa, hidoyatdan burilgan bo'ladi. O'sha kunlarda olimlar osmon tagidagi olimlarning eng yomoni bo'lib, ana shulardan fitna chiqib, o'zlariga qaytadi".

Anas ibn Molik Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) ushbu so'zlarini rivoyat qiladilar: "Shunday qavmlar bo'ladiki, masjidlarni bezab, minoralarini uzun qiladilar, badanlarini yog'laydilar, qalblarini o'ldiradilar. Vo ajabo, qanday ham dinlarini zoe' qildilar".

Ibn Abbos (roziyallohu anhu) aytadilar: "Masjidlarni pastroq, shaharlarni balandroq qurishga buyurilganmiz".

Rivoyat qilinishicha, ansorlar Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) mablag' keltirib: "Ey Rasululloh, bu molni olib masjidningizga zeb bering", deyishdi. Shunda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ziynat va tasvirlar kanisa va cherkovlar uchundir. Allohning masjidlarini oppoq qilinglar", dedilar.

Bezashning zarari yo'q, degan kishilar fikrlarini shunday izohlashadi: "Bu ishda masjidlarni ulug'lash bor. Alloh taolo ham masjidlarni ulug'lashga buyurgan:

"Alloh ularni baland ko'tarib (bino) qilinishiga va ularda o'zining nomi zikr qilinishiga izn bergan (ya'ni amr qilgan) edi" (Nur, 36). Boshqa oyatda:

"Allohning masjidlarini faqat Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan, namozni to'kiso etgan, zakotni (haqdorlarga) ato qilgan va yolg'iz Allohdingina qo'rqadigan zotlarga obod qilurlar" (Tavba, 18), deb marhamat qilgan.

Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) Payg'ambarimizning masjidlarini dub daraxti bilan ko'tarib, chiroyli qilib qo'yganlar. Umar ibn Abdulaziz esa, naqsh soldirib, bezak va qurilishiga e'tibor qilganlar. Bu ish voliylik paytlarida, xalifa bo'lishlaridan oldin bo'lgan, hech kim u kishini inkor qilmagan edi.

Valid ibn Abdulmalik Damashq masjidini ta'mirlash va bezashga Shom xirojidan uch barobar pul sarf etgani rivoyat qilingan.

Sulaymon ibn Dovud alayhissalom Baytul Maqdisni juda bezab qurganlari rivoyat qilingan. Aytishlaricha, qurilishda necha ming kishi ishlab, yetti yil davom etgan. Gumbazining qubbasiga qizil fosfordan bir g'isht qo'yilgan. Uning yorug'ligida o'n ikki mil masofada, to'quvchilar kechalari to'qiyverganlar. Masjid Buxtanasar va boshqalar tomonidan buzilguncha shu holda bo'lgan.

## 97-bob

### Masjidda tuflashning makruhligi haqida

Faqih (rahmatullohu alayh) aytadilar: Masjid ichiga tuflashi makruhdir, shuning uchun kiyimga tuflab, keyin yuvib tashlanadi. Chunki Alloh taolo:

"Alloh ularni baland ko'tarib (bino) qilishiga va ularda o'zining nomi zikr qilinishiga izn bergan (ya'ni amr qilgan) edi" (Nur 36), deb aytgan.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Masjid namlikdan (tuflashdan) olovga tashlangan teridek burishadi". Abu Hurayra rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) masjidda tupukni ko'rib, qirib tashladilar va: "Birortangiz namozda bo'lganingizda, yuziga tuflanishini yaxshi ko'radimi? Tuflashni xohlasa o'ngiga ham, oldiga ham, tuflamasin. Lekin chap tomonga yoki oyog'ining tagiga tuflasin. Joy topilmasa kiyimga tuflab keyin qirib tashlasin", dedilar.

Sahobalardan rivoyat qilinadiki, kishi masjidni ulug'lab, mishig'ini ichiga qaytarsa, Alloh qorniga shifo kiritib, dardini chiqaradi. Masjiddan boshqa joylarda esa, oyog'ining ostiga yoki chap tomonga tuflashi kerak, o'nga yoki yoniga emas. Chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Birortangiz tuflamoqchi bo'lsa, o'ng yoniga yoki oldinga tuflamasin", deganlar.

Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu) kasal bo'lganlarida o'ng tomonga tufladilar va: "Islomga kirganimdan beri o'ng tomonga tuflamagan edim", dedilar. Ba'zi solihlar hajga

borayotganlarida taxti ravonning chap yonini tanlashar ekanlar. Sababini so'rganlarida: "Chap yonimga tuflash oson bo'lishi uchun" deb javob berganlar.

## 98-bob

### Mudroq kishining namozi makruhligi to'g'risida

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: "Kishi uyqusi kelib turganda namoz o'qishi makruh. Lekin namozning amalu arkonlarini, qiroat va boshqa farzlarini ado qilsa, joiz bo'ladi. Mudroq bosishidan qo'rqqan kishi namozga kirishdan oldin yuziga suv sepsin. Namoz o'qiyotganda mudroq bossa, ketkazishga harakat qilsin.

Hishom ibn Urva otasidan, u Oishadan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Birortangiz namozda mudrasa, to uyqu ketguncha mizg'ib olsin, chunki mudragan holda namoz o'qisa, Allohga istig'for aytaman, deb o'zini so'kib qo'yishi mumkin".

Hamid Anas ibn Molikdan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) masjidga kirganlarida, ikki ustun o'rtasidagi osilgan arqonni ko'rib: "Bu qanday arqon?" deb so'radilar. "Falonchining arqoni. Uyqusi kelsa, shunga osilib oladi", deyishdi. Rasul (sollallohu alayhi vasallam): "Aql bilan namoz o'qisin. Uyqu bosishidan qo'rqsa, uxlasin", dedilar.

## 99-bob

### Ilmu odob haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishi ilmu odobdan ozgina bo'lsa ham, o'rganmog'i lozim, chunki bularning ozi ham muhimdir. Kishi ilmu odobdan bitta kalima bilsa, hech narsa bilmagan kishidan afzal bo'ladi. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) deydilar: "Har bir narsaning bahosi bo'ladi. Kishining bahosi qilgan yaxshiligi va bilgan narsalaridir".

Sha'biy aytadilar: "Bir kishi Shom mamlakatining bir chekkasidan Yaman mamlakatining bir burchagiga borib ilmdan biror so'z o'rgansa, bekorga safar qilgan bo'lmaydi".

Ayyub ibn Muso Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Birorta ota farzandiga chiroyli odobdan afzalroq narsani bera olmaydi".

Bir fozil kishi o'g'liga dedi: "Ey o'g'ilcham, ilm o'rgan, chunki u jamoling bo'lmasa, jamol bo'ladi, moling bo'lmasa, mol bo'ladi".

Sufyon ibn Uyaynaning oldiga jiyani kelib: "Ey amaki, qizingning qo'lini so'rayman", dedi. "Munosibsan,– dedilar Sufyon,– o'tirib o'nta hadis ayt". Aytolmagach, o'nta oyat o'qi, dedilar, bunga ham qodir bo'lmadi. "Hech bo'lmasa, o'nta she'r o'qi", dedilar. Buni ham bilmagach, "Na qiroat, na hadis va na she'r bilding. Nimaning hisobiga qizimni senga beray. Noumid bo'lmagin-da, o'n ming dirham keltir", deb aytdilar.

Bir hakim deydilar: "Foydali ilm va yaxshi odob sendan hech kim tortib ololmaydigan kasbdir. Bu ikkisi sening husning, ziynating, dining, dunyo va oxirating ustunidir.



Shuning uchun bu ikkisini o'rganishga bor kuchingni sarfla".

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) deydilar: "Kim ilm talabida yo'l yursa, Alloh uni jannat yo'liga solib qo'yadi"; "Uch toifa qiyomat kunida shafolat qiladi: payg'ambarlar, olimlar, shahidlar"; "Eru osmondagi jonzotlar olimlarning gunohi mag'firat qilinishini so'raydi"; "Ilm fazilati menga ibodat fazilatidan yaxshiroqdir".

Jobir ibn Ablulloh Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Kishining qirqta hadis o'rganib, unga amal qilishi qirq ming dirham sadaqa qilganidan yaxshiroqdir. Alloh unga har bir hadis uchun jannatda bir shahar beradi va qiyomat kunida har bir hadis uchun bir nur bo'ladi".

Faqih aytadilar: Agar ahli ilmning

"Biladigan kishilar bilan bilmaydigan kishilar barobar bo'ladimi?" (Zumar, 9) oyati karimasida aytilganidan boshqa fazilati bo'lmaganida ham ulug' bo'lar edilar. Chunki olimning johildan ustunligining xabari berilyapti. Boshqa oyatda ilmni ziyoda qilishni talab etish buyurilgan:

"Rabbim, ilmimni ziyoda qil, deb ayting" (Toha, 114). Olimlarning madhida:

"(Ey Muhammad), axir sizga Parvardigoringiz tomonidan nozil qilingan narsa aniq haqiqat ekanini biladigan – iymon keltiradigan kishi (ko'ngil ko'zi) ko'r kimsaga o'xshaydimi?" (Ra'd, 19);

"Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja-martabalarga ko'tarur" (Mujodala, 11), oyatlarini nozil etib, olimlar uchun ko'p fazilatlar va baland darajalar borligini xabar qildi. Yana bir oyati karimada:

"Odamga hammasining ismini bildirdi" (Baqara 31), deb marhamat qilingan. Odam alayhissalomga hamma narsaning ismini bildirib, farishtalardan ham (darajasini) ko'tardi va ularga Odamga sajda qilishni buyurdi.

## **100-bob** **Uzuk taqish haqida**

Faqih aytadilar: Uzuk taqish o'ng qo'lga ham, chap qo'lga ham joiz va mubohdir, ikkala holat haqida ham xabarlar kelgan, ammo erkak kishi oltin uzuk taqishi joiz emas. Ba'zi odamlar temirdan yasalgan uzuk taqishni ham makruh sanashgan, ba'zilar esa, ruxsat berishgan. No'mon ibn Bashir rivoyat qiladilar: "Oltindan uzuk taqib, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) oldlariga kirdim. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Senga nima bo'ldi, do'zax ahlining libosini taqibsan", dedilar. Uni yechib, misdan yasalganini taqdim va oldlariga kirdim. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Nima bo'ldi, senda but-sanamlarning hidini sezayapman", dedilar. Shunda men: "Ey Rasululloh, nima qilay?", dedim. "Uzukni kumushdan qilib ol, lekin uni bir misqoldan oshirma va uni o'ng qo'lingga taq", dedilar".

Jobir ibn Abdulloh rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) uzukni avval o'ng,

so'ng chap qo'llariga taqardilar, yechishda oldin chap, so'ng o'ng qo'llaridagisini yechardilar".

Muhammad ibn Siyrin aytadilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam), Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali (roziyallohu anhum) chap qo'llariga uzuk taqardilar". Amr ibn Shuayb rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir kishining qo'lida oltin uzuk ko'rdilar va unga uni yechib tashlashni buyurdilar, so'ng u kishi uni otib yubordi va qo'lga temir halqani oldi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Uni otib yubor, bu oldingisidan ham yomon, bu do'zax ahlining libosi", dedilar. Bas, uni ham otib yubordi va kumush uzukni taqib oldi, shunda Rasululloh bundan qaytarmadilar". Avf ibn Abu Juhayfa otasidan rivoyat qiladi: "Umar (roziyallohu anhu) bir kishida temir uzukni ko'rdilar va uni yechib tashlab yubordilar, so'ng: "Sen kumush uzuk taq", dedilar".

A'mash rivoyat qiladilar: "Men Ibrohim Naxa'iyning qo'lida temir uzuk ko'rdim va u: "Bir kishi menga ibn Mas'ud temir uzuk taqib yurganini ko'rganini aytdi", dedi".

Faqih aytadilar: Ba'zi odamlar uzuk taqishni yomon ko'rishdi. Ilm ahlining ommasi bunga ruxsat bergan. Buni makruh sanaganlar esa, ba'zi xabarlarda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) sultonlardan boshqalarni uzuk taqishdan qaytarganlarini hujjat qilishadilar. Ba'zi tobe'inlar: "Uzukni faqat uch toifa – amir yoki kotib yoki ahmoq taqadi", deyishgan. Ba'zi xabarda rivoyat qilinadiki, Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) uzuklarini u zotdan keyin Abu Bakr (roziyallohu anhu), so'ng Umar (roziyallohu anhu), so'ng Usmon (roziyallohu anhu) taqqanlar. Uzuk butun xalifalik davrida u kishining qo'llarida edi, so'ngra bu muborak uzuk Aris qudug'iga tushib ketdi. Harchand qidirtirmasinlar, topilmadi.

Uzuk taqish sultonlarga ham, boshqalarga ham mumkin, deganlarga kelsak, ular Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) sahobalari va ulardan keyingilar (tobe'inlar) hokim bo'lmasalar ham, uzuk taqqanlari haqidagi rivoyatlarni hujjat qilishadi.

Ja'far ibn Muhammad otasidan rivoyat qiladi: "Hasan va Husan (roziyallohu anhum) chap qo'llariga uzuk taqishar va ularning uzuklarida Alloh taoloning ismi bor edi".

Ya'lo ibn Ubayd Ibn Siyrindan, u kishi Rashid ibn Quraybdan rivoyat qiladi: "Men Muhammad ibn Hanifani chap qo'lida uzuk taqqanlarini ko'rdim". Yunus ibn Isxoq: "Men Qays ibn Abu Hozim, Abdurrahmon ibn Asvad, Sha'biy va boshqalarning chap qo'llarida uzuk taqqanlarini ko'rdim", deydi. Ular sulton ham, hokim ham emas edilar, chunki sulton ziynat uchun va uzukka muhtojligi uchun taqadi. Sultondan boshqa ziynat va uzukka muhtoj kishilar hukmda barobardirlar. Sultonlarga mumkin bo'lgan narsa boshqalarga ham mumkin. Biz shu gapni olamiz.

Qozi va sultonlardan boshqalar tilla uzuk taqmasligini tark qilish afzal.

### **101-bob**

#### **Uzukka naqsh berish va unga yozish haqida**

Faqih aytadilar: Anas ibn Molik Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Mushriklarning o'ti bilan yoritmanglar va uzuklaringga arabchada naqsh soldirmanglar". Hasan Basriydan bu haqda so'rashganida, "Mushriklar bilan ishlarigda

maslahatlashmanglar va uzuklaringga "Muhammad Rasululloh" deb yozmanglar", deganlar. Umoma Anasdan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) uzuklari naqshi uch satr edi: "Muhammad" bir satr, "rasul" bir satr, "Alloh" bir satr". Abu Bakr (roziyallohu anhu) uzuklarida "Ni'mal qodirulloh" (Alloh qanday qudratli) deb, Umarning (roziyallohu anhu) uzuklarida "Ey Umar, o'lim senga nasihatgo'ylikka kifoyadir", Usmonning (roziyallohu anhu) uzuklarida "Albatta sabr qilasan, yo'qsa, pushaymon bo'lasan", Alining uzuklarida "Mulk Allohnik", Umar ibn Abdulaziz uzuklarida "G'azot qilsang, qiyomat kunida sen uchun mujodala qiladi", deb /zilgan edi.

Faqih aytadilar: Uzukning ko'zida surat bo'lishi, makruh emas, bu narsa kiyim va uylardagi suratlarga o'xshamaydi, chunki uzukdagi suratlarda ko'z bo'lmaydi va ular bilinmaydi, balki qaraganda ko'zga ko'rinadigan yirik suratlar makruhdur. Abu Hurayraning uzuklari ko'zida ikkita pashsha surati bo'lgani rivoyat qilingan. Huzayfa va Abu Musoning uzuklarida ikkita yulduz naqsh etilgan. Anas ibn Molikning uzuklarida ikkita odam orasida turgan bir sher yoki ikkita sher orasida bir odam surati solingani xabarlarida kelgan. Agar uzuk ko'zida Alloh taolo yoki payg'ambarlardan birining nomi bo'lsa, hojatxonaga kirgan vaqtda uzukning ko'zini kaftida ushlab turishi mustahab. Istinja qilmoqchi bo'lsa, uni o'ng qo'lga oladi, shunday qilmasa, yozuvdagi narsani yengil sanagan yoki ulug'lashni tark etgan bo'ladi.

## **102-bob** **So'zni ma'ruz qilish haqida**

Faqih aytadilar: Ibn Umardan rivoyat qilinadi: "Albatta, so'zni ma'ruz qilishda yolg'ondan qochish bordir". So'zni ma'ruz qilish degani kishi bir narsani o'ylab turib boshqa narsani aytishidir. Ibn Abbas (roziyallohu anhumo): Muso alayhissalomning Xizr alayhissalomga:

"Unutganim sababli meni ayblama" (Kahf, 73), degan so'zlari haqida: "Muso alayhissalom esdan chiqarmadilar, balki so'zni ma'ruz qildilar", deganlar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir tomonga safar qilishni xohlasalar, boshqa tomonga chiqmoqchidiek, falon joyga yo'l qanday, deb aytardilar, so'ng boshqa joyga safar qilardilar. U zot (sollallohu alayhi vasallam): "Sirni berkitish bilan hojatlarning bajarilishiga yordam beringlar, chunki har bir ne'mat egasiga hasadgo'y bor", deganlar. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) agar qavmiga bir narsani buyursalar va qavmi bunga xilof qilsa, boshini osmonga ko'tarib: "Ey Parvardigor, men yolg'on gapirmadim, Sen yolg'on gapirmading", derdilar. Shunda ular Ali (roziyallohu anhu) bu haqda Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) biron narsa eshitgan bo'lsa kerak, deb o'ylab qolardilar.

Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) uchta narsada – ikkitaning orasini islox qilishda, urushda va er ayolini rozi qilishida yolg'on gapirishga ruxsat berilgani rivoyat qilinadi.

## **103-bob** **Risola haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Kishi risola (xat) yozsa, uni muhrlashi lozim, chunki shubhani ketadi, odat ham shunday bo'lib kelgan va bu haqda xabarlar bor. Ibn Abbos (roziyallohu anhumo): "Maktubning hurmati uni muhrlashdir", deganlar. Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu): "Qaysi maktub muhrlanmagan bo'lsa, u jildlangandir" va yana: "Qaysi sahifa muhrlanmagan bo'lsa, bas, u jildga solingandir", deganlari rivoyat qilingan. Oldingilarning odati shu ediki, kotib falonchidan falonchiga deb o'zidan boshlardi. Umar (roziyallohu anhu) xalifaga xat yozganlarida o'zidan boshlaganlari va hokimlarga, o'zlariningdan boshlanglar, deb maktub yozganlari rivoyat qilinadi. Vaki' ibni Dovuddan, u Abdulloh ibn Muhammad ibn Sirindan rivoyat qiladi: Abdulloh safar qilmoqchi bo'lganida otasi Muhammad ibn Siyirin unga: "Agar menga maktub yozmoqchi bo'lsang, o'zingdan boshla, chunki agar sen mendan boshlasang, maktubingni o'qimayman", dedilar.

Robi' ibn Anas: "Biror bir kishi hurmatda Nabiyydan (sollallohu alayhi vasallam) ulug'roq emas. Agar sahobalar u zotga xat yozsalar, o'zlaridan boshlardilar", deydi. Ibn Siyirin aytadilarki, Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam): "Forslar maktub yozsa, ulug'lari va kattalaridan boshlaydi. Bas, sizlar o'zlariningdan boshlanglar", dedilar.

Ammo maktubni undan (maktub yozilayotgan kishidan) boshlasa ham, joiz, chunki ummat hammasi shunga ijmo' qilgan. Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam): "Ummatim zalolatga jam bo'lmaydilar", deganlar. Bas, ummat shunga jam bo'lgan ekan, demak, unda foyda ko'rganlar. Oldingi rivoyatlar esa, mansuh bo'lgan. Darhaqiqat, biz ummatning ijmosi bilan oyat nasx bo'lganini ko'rdik, xuddi Alloh taoloning:

"Agar juftlaringizdan birontasi kofirlar tomonga o'tib ketsa-yu (ammo ular o'sha xotin uchun berilgan mahrni uning eriga qaytarib bermasalar), so'ng sizlar o'ch olsangizlar (ya'ni u kofirlar bilan urushib g'alaba qilsangizlar va o'ljalar olsangizlar), u holda (o'sha o'ljalardan) juftlari (kofirlar tomonga o'tib) ketgan kishilarga ular sarflagan mahr miqdorini beringlar!" (Mumtahana, 11) degan so'z ummatning ijmosi bilan mansux bo'lganidek. Endi ohad xabarni ijmo bilan tark qilish avloroqdir.

Rivoyat qilinadiki, Hasan maktub u kishining nomi bilan boshlanishida ziyon ko'rmasdilar.

Faqih aytadilar: Bizning zamonamizda maktubni uning nomi bilan boshlab, so'ng o'zinikini yozishi yaxshidir, chunki o'zinikidan boshlash xat yozilgan kishini mensimaslik va unga takabburlik qilish sanaladi. Ammo quliga g'ulomiga xat yozsa, o'zidan boshlayversin.

Kishi salom kabi maktubga ham javob qaytarish lozim bo'ladi. Ibn Abbos maktubga javob qaytarishni salomga alik olishdek vojib bilardilar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Bir-birlaring bilan maktub orqali bog'laninglar, garchi diyorlar uzoq bo'lsa ham", deganlar.

### **104-bob** **Hazil-mazax haqida aytilgan gaplar**

Faqih aytadilar: Gunoh sanaladigan gaplarni gapirmasdan, insonlarni kuldirishni qasd

qilmasdan hazil qilishning zarari yo'q. Rivoyat qilinadiki, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Men faqat haq so'z bilan hazil qilaman va gapiraman", dedilar. Anas rivoyat qiladi: "Bir kishi Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) yuk ortishga tuya so'radi. Rasululloh: "Men senga urg'ochi tuyaning bolasini beraman", dedilar. U: "Men urg'ochi tuyaning bolasini nima qilaman?" dedi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) "Urg'ochi tuyadan boshqasi ham tug'adimi?" dedilar". Anas (roziyallohu anhu): Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) biz bilan aralashib yurar va ukamga: "Ey Abu Umayr, nima qildi nug'ayr", derdilar.

Rivoyat qilinishicha, bir kampir Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taologa duo qiling, meni jannatga kirgizsin", dedi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kampirlar jannatga kirmaydi", dedilar. Shunda kampir yig'lay boshladi Oisha (roziyallohu anhu): "Siz uni xafa qilib qo'ydingiz", dedilar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam):

"Darvoqe' Biz ularni (ohu ko'z hurlarni) daf'atan paydo qildik. So'ng ularni o'ng tomon egalari uchun (yoshda ham, husnu jamol va qaddu qomatda ham) bir-biriga teng, ehtirosli bokira qizlar qilib qo'ydik" (Voqea, 35-37), deb o'qidilar, bundan kampir xursand bo'ldi".

Hammod ibn Salama Abu Ja'far Xutamiydan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Abu Umra (Umraning otasi) kuniyali kishiga: "Ey Ummu Umra" (Umraning onasi), dedilar. Shunda u kishi farjini ushlab: "Ey Rasululloh, men o'zimni ayol deb o'ylab qolibman", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Men ham insonman, sizlar bilan hazillashaman", dedilar.

Faqih (roziyallohu anhu) aytadilar: Ko'p hazil qilma, chunki u haybatni ketkizadi va solih kishilar nazarida obro'yingni tushiradi. Ahmoqlar senga jur'at qiladilar, engiltak hisoblanasan. Oralaringda aloqa bo'lmagan kishiga axloqini bilmay, hazil qilma. O'rtoq va yaqinlaring bilan gunoh so'zlarsiz va haddan oshmasdan hazil qilsang, zarari yo'q, chunki ishlarning yaxshisi o'rtachasidir. Vallohu a'lam.

## **105-bob**

### **Foydalar haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Vake' Savrdan, u Mahfuzdan, u esa, Alqamadan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir kishini quyoshda turganini ko'rib: "Soyaga o't, chunki bu foydali", dedilar". Abu Hurayra: "Soyaning cheti shayton o'tiradigan joy", deganlar.

Abu Zubayr Jobirdan, u Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi: "Agar maktub yozsanglar, uni tuproq-loy bilan berkitinglar, chunki bu hojatga tezroq chiqaradi, talabni tezroq qondiradi. Baraka tuproqdadir", dedilar. Nofe' Ibn Umardan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) hojatlari esdan chiqmasligi uchun qo'llariga ip bog'lar edilar. Bu ip "xaytur ratima" (eslash uchun barmoqqa bog'lanadigan ip) deyilardi.

Abu Najihdan, u Mujohiddan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir kishini eslab, u haqda so'radilar. Shunda bir kishi: "Men yuzini ko'rsam, taniyman", dedi. Nabiy

(sollallohu alayhi vasallam): "Bu tanish emas" (ya'ni, ismini bilmasang, bu tanish emas), dedilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Eshikni qulflanglar, meshning og'zini bog'langlar, chiroqlarni o'chiringlar, chunki sichqon uyni yoqib yuboradi", dedilar (ya'ni, sichqon pilikni tortadi).

Nofe' Ibn Umardan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) iydgga piyoda yurib chiqardilar, qaytayotganlarida boshqa yo'ldan ulovga minib qaytardilar. Iydi fitrdan oldin egulik eb olardilar. Iydi Qurbonda (taomni namozdan) kechiktirardilar".

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Yaxshilikni yuzi chiroylilardan izlanglar", deydilar.

Yahyo ibn Abu Kasir aytadilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) hokimlariga: "Yuzi, qomati chiroyli (bir rivoyatda ismi chiroyli) kishidan boshqaning ko'nglini olmanglar", deganlar. Yana: "Alloh rasul qilib, faqat yuzi, ovozi, ismi chiroyli odamlarni yubordi", deydilar. Ibn Abu Mulaykadan: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar miskinni uch marta qaytarsang ham, u qaytmasa, uni urishib koyishning zarari yo'q", dedilar.

Umar (roziyallohu anhu) bir kishining qo'lida kichkina Mushaf ko'rdi va: "Buni kish yozdi?", deb so'radilar. U: "Men", dedi. So'ng Umar uni qamchi bilan urdilar va: "Qur'onni ulug'langlar", dedilar. Ibrohim Naxa'iy: "Mushafning kichkina narsaga yozilishi makruh", deganlar.

Amr ibn Uboda aytadilar: "Bir kecha masjidida tunadim, menda hech narsa yo'q edi. Uyg'onib qarasam, kiyimimda hamyon bog'langan edi. Ichida qirq dirham atrofida pul bor ekan. Ato'ni oldiga borib, undan fatvo so'radim. U: "Sening kiyimingga hamyonni bog'lagan kimsa u narsa seniki bo'lishini xohlagani uchun bog'lagan. Agar hojating bo'lsa, ishlat, agar behojat bo'lsang, uni muhtojga ber", dedi.

Ibn Siyrindan: Biz Abu Qatoda bilan qirg'oqda edik. Bir payt bir yulduz pastga uchdi. Biz uning orqasidan qarab qoldik, shunda Abu Qatoda bizni qaytarib: "Ko'zlaringizni unga ergashtirmangizlar, chunki biz bundan qaytarilganmiz", dedi".

Vake' ibn Zuayb deydilar: "Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) gul berilsa, uni og'izlariga qo'yardilar". Hasan: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Agar birortangiz qilichni yalang'ochlasa, uni qiniga solmaguncha boshqaga bermasin", dedilar va shu ishni qilayotgan qavmni ko'rib: "Men bundan qaytarmaganmidi? Bas, kim shunday qilsa, unga Allohning la'nati bo'lsin", deb aytdilar.

Abu Hurayradan rivoyat qilindi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) jinlar uchun suyishdan qaytardilar", jinlar uchun so'yish degani, yangi hovlidan shumlanib so'yishdir yoki hayvonning ko'zini o'yib olishdir.

Ali (roziyallohu anhu) aytadilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) "masjidcha" yoki "qur'oncha" deb kichraytirib aytishdan qaytardilar".

Sha'biy Abu Juhayfadan, u Alidan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: "Men Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam): "Qiyomat kunida parda orqasidan bir nido qiluvchi:

"ko'z'laringizni Rasulullohning qizi Fotima jannatga kirgunicha yopib turinglar", deb nido qiladi", deganlarini eshitdim", dedi.

### **106-bob**

#### **Dunyoda ikki marta erga tekkan ayol haqida**

Faqih aytadilar: Insonlar dunyoda ikki marta erga tekkan ayolning oxiratda qaysinisi bilan bo'lishi xususida ixtilof qilishdi. Ba'zilar, ikkinchisi bilan bo'ladi, desa, ba'zilar, ixtiyor beriladi, qaysi birini xohlasa, o'shanisi bilan bo'ladi, dedilar. Ikkala firqaning ham so'zini quvvatlaydigan rivoyatlar kelgan. Ikkinchisi bilan bo'ladi, deganlar Muoviya ibn Abu Sufyondan rivoyat qilingan hadisni oldilar. Muoviya Ummu Dardoga sovchi yubordilar. Shunda Ummu Dardo bosh tortib: "Menga Abu Dardo: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) "Ayol oxiratda oxirgi eri bilan bo'ladi", deganlarini eshitganman va agar sen oxiratda ham xotanim bo'lishingni xohlasang, mendan keyin erga tegma", degan", dedilar". Ixtiyori o'zida bo'ladi, deganlar Ummu Habibadan rivoyat qilingan hadisni olishgan. Ummu Habiba Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam): "Ey Rasululloh, ko'pincha biz ayollar ikki marta erga tegamiz. Oxiratda qaysi biri bilan bo'lamiz?" deb so'radilar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ixtiyor beriladi, xilqati chiroylirog'ini ixtiyor qiladi", dedilar. So'ng: "Xilqatning chiroyi dunyo va oxirat yaxshiligi bilan ketadi", deb qo'shib qo'yidilar.

### **107-bob**

#### **Mushriklarning bolalari haqida aytilgan so'zlar to'g'risida**

Faqih aytadilar: "Mushriklarning (balog'atga etmasdan o'lib ketgan) bolalari haqida ba'zilar, ular jannati, ba'zilar, do'zaxda, deyishdi. Yana birovlar, jannat ahliga xizmat qiladi, deganini aytishdi, boshqalar buning aksini gapirishdi.

Bu haqda ham turli xabarlar kelgan. Ularni jannatda bo'ladi, deganlar Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Har bir tug'ilgan bola musulmon bo'lib tug'iladi, keyin otanasi uni yahudiy, nasroniy va majusiy qilib yuboradi", degan so'zlarini olishgan. Ularni do'zaxiy, deganlar esa, Xadicha onamizdan rivoyat qilingan hadisga suyanishadi. Xadicha onamiz Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) johiliyat davrida oldingi eridan tug'ilgan o'lgan bolalari haqida so'radilar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam):

"Xohlasang, ularni do'zaxda ko'rsataman, xohlasang, senga ularning nolalarini eshittiraman, Alloh taolo "va ular faqat ko'rnamak, nopok (kimsalar)ni tug'ib-ko'paytirurlar" (Nuh, 27), degan. Ular tug'ilgan vaqtlarida kofir bo'lgan edilar", dedilar.

Oisha (roziyallohu anho) yosh go'dak bolaning janozasi oldidan o'tdilar va: "Unga jannat, jannat qushlaridan bir qush bo'lsin", dedilar. Shunda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Qaydan bilasan, agar u katta bo'lsa, undan nimalar sodir bo'lardi?" dedilar.

Ular jannat ahliga xizmatkor bo'ladi, deganlar Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan ushbu hadisni hujjat qilishadi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ummatimdan e'tiborsiz tashlab qo'yiladiganlar kimligini bilasizlarmi?" dedilar. Sahobalar: Alloh va Uning rasuli biluvchiroq", deyishdi. Rasululloh: "Mushriklarning

gunoh qilmaganlari sababidan azoblanmaydigan va yaxshilik ham qilmaganliklari sababidan savob ham olmaydigan go'daklari, ular jannat ahliga xizmatkordirlar". Ular haqida xabar va asarlar turli xil bo'lgach, sukut qilish afzaldir. Biz, Alloh rasul ularning ishini biluvchiroq, deb aytamiz. Abu Hanifa (roziyallohu anhu) mushriklarning bolalari haqida so'ralganida: "Men bu haqda bilmayman", deganlar. Muhammad ibn Hasan esa: "Men bolalar masalasida sukut qilaman, lekin shuni bilamanki, Alloh taolo birortani gunohsiz azoblamaydi", dedilar. Vallohu a'lam.

## **108-bob** **Payg'ambarlar zikri haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Xabarlarda rivoyat qilinishicha, payg'ambarlar 124000 ta bo'lgan, 313 tasi rasul, qolganlari rasul emas. Shuningdek, Abu Zar G'iforiy Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: U zot (sollallohu alayhi vasallam) Badr kuni ashobiga: "Sizlarning soningiz rasullarning va Tolut ashoblari daryodan o'tganlaridagi adadichasiz", ya'ni, 313 ta. Payg'ambarlardan rasul bo'lmaganlarining ba'zilariga tushida vahiy kelardi, ba'zilar biror shaxsni ko'rmasdan, ovoz eshitardi. Rasullarning birinchisi Odam alayhissalomdir. U zot farzandlariga rasul edilar. Alloh uni tuproqdan ayoli Havvoni uning chap qovurg'asidan yaratdi. Havvo onamiz yigirma martada qirqta o'g'il-qizni tug'di. Ular ko'payib Alloh taolo aytgan darajaga etishdi:

"Ey insonlar! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havvoni) vujudga keltirgan hamda u ikkovidan ko'p erkak va ayollarni tarqatgan Parvardigoringizdan qo'rqingiz!" (Niso,1)

Odamning jannatdagi kuniyasi Abu Muhammad edi, chunki Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) farzandlarining eng ulug'dirlar va u Odamzotning nomlari bilan kunya oldi. Odamning erdagi kuniyasi Abul Bashardir. Alloh taolo unga o'likni, qonni va cho'chqa go'shtini harom qildi. 930 yil yashadi. Tavrot ahli ham uni zikr qilgan. Vahb ibn Munabbah ming yil yashaganin rivoyat qilganlar. So'ng undan keyin Shiys ibn Odam payg'ambar va rasul edilar, Odamning vasiysi, ahdining valiysi edilar. Vahb ibn Munabbah: "Alloh Shiysga ellik sahifa tushirdi, To'qqiz yuz yil yashadi", deganlar. Shiys butun basharning otasi edilar, butun insonlarning nasabi unda to'xtaydi. So'ng Idris alayhissalom keldilar, u ham nabiy va rasuldirlar. Alloh taoloning kitobi va Islom sunnatlarini ko'p dars qilganlar sababli qalam bilan xat yozganlar u kishi kiyim tikib kiygan birinchi odam edilar, ya'ni, paxtadan. Odamlar u zotdan oldin teri va jundan kiyardilar. U dav'at qilgan odamlardan ming tasi ijobat qildi. U zot Nuhning otasining bobosidir. 365 yoshda osmonga ko'tarildi. Alloh taolo:

"Va Biz uni yuksak martabaga ko'tardik" (Maryam, 57), degan. Alloh unga o'ttizta sahifa tushirdi.

So'ng undan keyin Nuh alayhissalom payg'ambar bo'ldilar, u zotning ismlari Shokir edi. Allohdan qo'rqib ko'p yig'laganlari sababli Nuh (yig'loqi) deb ataldilar. U kishi hukmlarni nasx qilgan va shariatga buyurgan birinchi odam edilar. Oldin kishi singlisiga uylanish muboh edi va bu ish u zotning davrlarida harom qilindi. Natijada qavmi uni yolg'onchiga chiqardi va Alloh ularga to'fon yubordi. Dunyoning hammasi g'arq bo'ldi, faqat u kishi bilan kemada qirqta erkak va qirqta ayol jon saqladi. Ular kemadan chiqqach, hammasi



halok bo'ldi, faqat Nuhning farzandlari Som va Xom, Yofas va ularning ayollari qoldi. Alloh taolo:

"Va uning zurriyatini (to qiyomat) boqiy qolguvchi kishilar qilib qo'ydik" (Soffat, 77), deb aytgan, bas, ular o'z-o'zlaridan tug'ilib ko'paydilar. Arab, fors va rumliklarning hammasi Somning avlodlari, habash, sind va hindlar Xomning farzandlari, ya'juj va ma'jujlar, saqolaba va turklar Yofasning bolalaridir.

So'ng u zotndan keyin Hud alayhissalom keldilar. U zot Abdullohning o'g'li bo'lib, Hud ibn Torix ibn Javob bin, Ayus deb atashgan. Alloh taolo u zotni Od qavmiga payg'ambar qilib yubordi. Ba'zilar Od qabilaning nomi desa, ba'zilar podsholarining ismi, ular podsholarining nomi bilan atalardilar, deydi. Ular Hudni yolg'onga chiqardilar, shu sababli Alloh ularga halokatli shamol yubordi va barchasini halok qildi.

So'ng Solih ibn Ubayd keldilar. U kishini Solih ibn Qonu deyishardi. Alloh Solihni Samud qavmiga yubordi. Samud – Hajr eridagi bir quduqning nomi. Qabila mana shu quduqning nomi bilan ataldi. Savmud qavmi u zotni yolg'onchi qildi va u zotdan tog'dagi harsang toshdan tuya chiqarishlarini so'radi. Solih alayhissalom bu ishni qilganlaridan keyin ham u zotni yolg'onchiga chiqarib, tuyani so'ydilar. Tuyani so'ygan kishining yuzi qizil, ko'zi ko'k edi, ikkala ko'zi ko'rshapalakni ko'ziga o'xshardi. U Qodir ibn Solif bo'lib, qavmning eng badbaxti edi. Alloh taolo Qur'onda:

"Eslang, ularning eng badbaxtlari (tuyani so'yish uchun) qo'zg'alganlarida..." (Shams, 12), degan. Natijada Alloh ularni chaqmoq va zilzila bilan halok qildi.

So'ng Ibrohim Xalil (sollallohu alayhi vasallam) keldilar. U zotni Ibn Ozar ibn Torix ibn Noxur deyishardi. Ibrohim alayhissalom misvoq ishlatgan, suv bilan istinjo qilgan, sochi oqargan, xatna qilingan, ishton qilib olgan, nonni ushatgan, mehmondo'stlik qilgan birinchi kishidirlar. Ibrohim alayhissalomning to'rtta – Ismoil, Ishoq, Madyan va Madoin nomli o'g'illari bo'lgan. Oltita, o'n ikkita o'g'li bo'lgan ham deyiladi.

Ismoil alayhissalom rasul edilar va u zot arablarning otasidirlar. Ishoq alayhissalom ham rasul edilar, u zotning Ya'qub va Aysu degan egizak o'g'illari bor edi. Ya'qub Aysudan keyin tug'ilgan, shu sababli Ya'qub (ergashuvchi) deb atalgan. U zot Bani Isroilning otalaridir. U zotni Isroil deb ham atashadi, bu ularning tilida Abdulloh – Allohning quli deganidir. Aysu esa Running otasi.

Lut alayhissalom Ibrohim alayhissalom bilan zamondosh bo'lib, u zotga amakivachcha edilar. Sora Lutning singlisi edi. U Ishoqning onasi. Lut alayhissalomni Ibn Horun ibn Torix ibn Noxur deyishgan.

Ibrohimdan so'ng Ayyub alayhissalom payg'ambar bo'ldilar. U zot Lut alayhissalomga qizdan nevara bo'lib, Muso degan kishining o'g'li edilar. Xotinlari Layyo esa, Ya'qubning qizi edi. Xotinlari Yusuf alayhissalomning qizi Rama bo'lgan degan gap ham bor.

So'ngra Shu'ayb ibn Nuvayb keldilar. Alloh u zotni Madyan ahliga yubordi. Madyanliklar Shu'ayb payg'ambarni yolg'onga chiqargach, Alloh ularni chaqmoq va zilzila bilan halok qildi.

So'ng Muso va Horunni yubordi. Ular Imronning o'g'illaridir. Alloh bu ikki payg'ambarini Misr fir'avni Valid ibn Mus'abga jo'natdi. So'ng Yusha' ibn Nun alayhissalom bo'ldilar. U zot Musoning xalifasi edilar.

So'ng Yunus ibn Muto alayhissalom keldilar. Alloh u zotni baliq bilan sinadi. Baliq yutganda u kishi o'zlarini ko'p malomat qildilar. Baliqning qornida uch kun yotdilar. (Olti kun, qirq kun ham deyilgan.) Alloh uni Musal qishloqlaridan Naynavoga yubordi. Ular u zotni yolg'onga chiqarishdi, natijada Alloh ularga azob yubordi. Iymon keltirishgan edi, ustilaridan azob ketdi.

So'ng Dovud alayhissalom bo'ldilar. Otalarining ismi Iyshodir. U zot rasullardan edilar. Bani Isroil podshosi bo'lganlar.

So'ngra uning o'g'li Sulaymon alayhissalom, so'ng Zakariyo ibn Masson, so'ng u zotning o'g'li Yahyo alayhissalom, so'ng Iso ibn Maryam alayhissalom, so'ng Ilyos alayhissalom kelishdi. Alloh taolo Ilyosni Ba'labakka ahliga rasul qilib yubordi. Al-Yasa' Ilyosning shogirdi va keyin u zotning xalifasi bo'ldilar. Asbotlar Ya'qub avlodlaridan tarqaldi, u zotning o'n ikkita farzandi bor edi. Ya'qub Misr erida 17 yil yashadilar, yoshlari 147 da edi. Yusuf alayhissalom u zotdan keyin 23 yil umr ko'rdilar. 120 yil yashadilar, 110 yil ham, deyiladi.

Ka'bul Ahbordan rivoyat qilinadi: "Ba'zi kitoblarda payg'ambarlardan o'ntasi xatna qilingan holatda tug'ilgani yozilgan: "Alloh taolo Odam, Shis ibn Odam, Idris, Nuh, Lut, Ismoil, Yusuf, Zakariyo, Iso, Muhammadni (solavatullohi vasalamahu alayhim ajma'in) xatna qilingan holatda yaratdi.

Vahab ibn Munabbahdan zikr qilinadi: "Odam bilan to'fonning orasi 2240 yil edi. To'fon bilan Nuhning orasi 350 yil, Nuh bilan Ibrohimning orasi 2240, Ibrohim bilan Musoning orasi 900 yil, Muso bilan Dovudning orasi 500 yil, Dovud bilan Isoning orasi 1100 yil edi". Ba'zilar: "Bu miqdor to'g'ri emas, chunki Alloh taolo:

"Od, Samud (qabilalarini) va quduq egalarini (ya'ni, Shu'ayb payg'ambarini yolg'onchi qilganlari sababli quduqqa qulab halok bo'lgan kimsalarni) hamda shu oradagi ko'pdan-ko'p asrlarni (eslang)!" (Furqon, 38), deya oralarida judu ko'p asrlar o'tganini bildirgan. Buning miqdorini Alloh taolodan boshqa hech kim bilmaydi. So'ng Iso alayhissalomdan keyin payg'ambarlik payg'ambarimiz Muhammadgacha (sollallohu alayhi vasallam) uzilib qoldi. Boshqalarning orasidagi uzilish ham shunday edi. Alloh azza va jalla:

"Ey ahli kitob, mana, elchimiz (Muhammad alayhissalom) avvalgi payg'ambarlardan ancha zamon o'tib: "Bizga na biron (jannat haqida) xushxabar berguvchi va na biron (do'zax azobidan) qo'rqitguvchi kelmagan", demasligingiz uchun sizlarga din hukmlarini bayon qilgan holda keldi. Alloh hamma narsaga qodirdir!" (Moida, 19), dedi. Bu fitrat, ya'ni uzilish deb nomlanadi, chunki din uzilib qoldi. Qatoda: "Ikkalasining orasi 560 yil edi", deydi. Kalbiy 540 yil degan. Muqotil, 600 yil dedi. Zahhoq ham shunday dedi. Vahab ibn Munabbah: "Ikkalasini orasi 620 yil", deydi".

Alloh o'z payg'ambarlariga nozil qilgan va insonlar orasida ma'lum kitoblar to'rtta: Muso alayhissalomga tushgan Tavrot; Dovud alayhissalomga tushgan Zabur; Iso alayhissalomga tushgan Injil; Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga tushgan Furqon

(ularning hammasiga Allohning salotu-salomi bo'lsin).

Vahab ibn Munabbahdan rivoyat qilinadi: "Alloh taolo yuzta sahifa va 4 ta kitob nozil qildi: Ilk sahifa Shiys ibn Odamga, 30 sahifa Idris alayhissalomga, 20 sahifa Ibrohim alayhissalomga nozil bo'ldi. Odamlar Zulqarnayn va Luqmon haqida ular payg'ambar bo'lganmi yoki yo'qmi, deb ixtilof qildilar. Ko'pchilik ahli ilmlar, Luqmon hakim bo'lgan, nabiy bo'lmagan, Zulqarnayn esa solih podsho bo'lgan, payg'ambar bo'lmagan, deyishdi. Ikrima: "Zulqarnayn ham, Luqmon ham payg'ambar bo'lganlar", deyдилar. Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) Zulqarnayn haqida so'rashganda: "U solih kishi bo'lgan", deb javob berganlar. Ba'zilar: Zulqarnayn deb nomlandi Fors va Rum podshosi bo'lganligi uchun", deyдилar. Ba'zilar: "Uning boshi shohga o'xshash edi", degan. Ba'zilar: "U quyoshning ikki qarni – qirrasigacha, ya'ni mag'ribu mashriqqacha sayyohat qilgani uchun", dedi. Ayrimlar: "U ikki qarn – asr yashadi", dedi. Ba'zilar: "U yigitlik paytida, tushida quyoshga yaqinlashib, uning ikki shoxidan ushladi va buni o'z qavmiga xabar qildi. Natijada uni Zulqarnayn deb nomlashdi. Asli nomi Iskandar edi", deydi.

Aytildiki, payg'ambarlardan beshtasining tili arabiydir. Ismoil, Hud, Solih, Shu'ayb va Muhammad (salavatullohi va salamahu alayhim ajma'in).

Odamlar Ibrohim bolasini so'yishga buyurilganda bola haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar u Ismoil, ba'zilar esa Isxoq deydi. Ali ibn Abu Tolib, Abu Hurayra, Abdulloh ibn Salom, Ikrima, Muqotil, Ka'bul Ahbor va Vahb ibn Munabbahlar, Ishoq edi, deganlar. Ibn Abbos, Ibn Umar, Mujohid, Muhammad ibn Ka'b Quraziy va Kalbiylar: "U Ismoil edi", deganlar. Bu so'z kitob va sunnatga mos, chunki kitobda Alloh taolo:

"Biz (Ismoilning) o'rniga (Ibrohimga) katta bir (qo'chqor) so'yishni – qurbonlikni evaz qilib berdik" (Saffot, 107), deydi. Zabih qissasidan so'ng:

"Yana Biz unga – payg'ambar (va) yaxshilardan (bo'lg'usi) Ishoqning xushxabarini berdik" (Saffot, 112), degan. Xabarda Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinadi: "Men ikkala zabihning o'g'liman", ya'ni, otalari Abdulloh va Ismoil alayhissalom. Butun ummat Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Ismoilning avlodidan deb ittifoq qilgan. Tavrot ahli qurbonlik uchun yotqizilgan bola Ishoq edi, deydi.

Aytishlaricha, dunyo podsholarining to'rttasidan boshqasi butun dunyoga podsholik qilmagan: ikkitasi musulmon va ikkitasi kofir. Ikkala musulmoni – Sulaymon ibn Dovud alayhissalom va Zulqarnayn. Ikkala kofir – Namrud ibn Kan'on va Buxtanassar. U muqaddas Baytullohni xarob qildi va aholisidan etmish mingtasini o'ldirdi va etmish mingini asir oldi. Asirlarni Bobilga olib bordi, ularning ichida Doniyol ham bor edi. Hali kichkina edi. U kishi nabiy bo'lgan.

To'rtta chaqaloq gapirgan. Bittasi Iso ibn Maryam, ikkinchisi Uhdud ashoblaridan, uchinchisi Jurayj rohib qissasidagi bola, To'rtinchisi Yusufning alayhissalom sohiblaridan.

Alloh taolo: "(Yusuf) aytdi: "Uning o'zi meni yo'ldan urmoqchi bo'ldi". (Shu payt Zulayhoning) urug'laridan biri guvohlik berib (dedi):

"Agar uning ko'ylagi old tomondan yirtilgan bo'lsa, u holda (Zulayhoning) gapi rostdir va (Yusuf) yolg'onchilardandir" (Yusuf, 26), dedi. Insonlar bu oyat haqda ixtilof qilishgan.

Ba'zilar guvohlik bergan odam katta odam edi, yosh bola emas, deyishdi.

Ka'bul Ahbordan rivoyat qilinadi: "Men payg'ambarlarning kitoblarida topdimki (ularga Allohning saloti va salomi bo'lsin), Odamning alayhissalom 930 yil, Nuh alayhissalom 950 yil, Ibrohim alayhissalom 195 yil, Ismoil alayhissalom 137 yil, Ishaq alayhissalom 180 yil, Ya'qub alayhissalom 149 yil, Yusuf alayhissalom 123 yil, Dovud alayhissalom 70 yil, Sulaymon alayhissalom 180 yil, Shu'ayb alayhissalom 254 yil, Solih alayhissalom 180 yil, Hud alayhissalom 165 yil, Iso alayhissalom 33 yil, payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) 63 yil umr ko'rganlar. Alloh Subhonahu va taolo biluvchiroqdir.

### **109-bob**

#### **Alloh taolo yaratgan maxluqotlarning sifatlari haqida**

Faqih aytadilar: Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinadi: "Alloh taolo 18 ming olamni yaratdi, bu dunyo ham bitta olam", dedilar. Umar ibn Xattobdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Alloh taolo erda mingta ummatni yaratdi 600 tasini dengizda, 400 tasini quruqlikda".

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Oq xo'rozni so'kmanglar, chunki u namozga – ibodatga chaqiradi". Abdulloh ibn Horis aytdilar: "Ka'b Ibn Abbosning (roziyallohu anhu) huzurlariga kirdi. "Ey Ka'b, menga Baytul ma'mur haqida gapirib ber, u qaerda?", dedilar. "U to'rtinchi osmondagi uy. Har kuni unga etmish ming farishta kiradi, so'ng qayta kirishmaydi, to qiyomat qoim bo'lgunicha", dedilar Ka'b.

Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) maxluqotlarning qaysi biri qattiq, kuchliligi haqida so'radilar. Shunda u zot: "Maxluqotning eng kuchlisi baland tog'lar, temir undan kuchli, tog'lar temir bilan kesiladi, olov temirdan g'olib keladi. Suv olovni o'chiradi, bulut suvni ko'taradi, shamol bulutni ko'taradi, inson shamoldan binolar qurish bilan g'olib keladi, uyqu insonga g'olib keladi, g'am uyquga g'olib keladi. Alloh taolo yaratgan maxluqotlarning eng kuchlisi g'am va o'limdir", dedilar.

### **110-bob**

#### **Osmonlaru yerning yaratilishi haqida**

Faqih aytadilar: Ibn Abbos (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Alloh taolo yaratgan narsalarning birinchisi qalam. Alloh uni xohlaguncha tashlab qo'ydi, u tomchi-tomchi bo'lib tomchi va ming yil oqdi. Qiyomat kunigacha bo'ladigan narsalarni yozdi. So'ng baliqni yaratdi va erni uning ustiga jamladi".

Aytiladiki, Alloh erni yaratishdan oldin, erning o'rni butunicha suv bo'lgan. Natijada Ka'baning o'rnida ko'pik to'plandi. So'ng qo'rg'on shaklida qizil tepalik paydo bo'ldi. Bu yakshanba kuni edi. So'ng bug' ko'tarildi, hatto osmonga etdi. Alloh taolo uni ko'k dur qildi va undan osmonni yaratdi. Dushanba kuni bo'lganda quyosh, oy, yulduzlarni yaratdi. So'ng erni tepalik tagidan yoydi. Bu Alloh taoloning:

"(Ey mushriklar), sizlarni yaratish qiyinroqmi yoki osmonnimi? (Alloh) uni bino qildi" (Noziot, 27), degan so'zida xabar qilingan. Seshanba kuni dengiz va quruqlik hayvonlarini, qushlarni yaratdi. Chorshanba kuni daryolarni oqizdi, dengizlarni bo'ysundirdi, daraxtlarni o'stirdi, rizqlarni taqsimladi, ozuqalarni belgiladi. Bu Alloh taoloning:

"U zot erning (ustida) tog'larni (paydo) qildi va uni barakotli qildi hamda o'sha (er)da uning emishlarini (ya'ni er ahlining rizqu ro'zlarini) to'la to'rt kunda belgilab - taqsimladi. (Bu tafsilot) so'raguvchilar uchundir" (Fussilat, 10), degan so'zidir. Aytishlaricha, er suv yuzida chayqalib yurardi. Shunda Alloh taolo mustaxkam tog'larni yaratdi va ularni erga qoziq qildi. Natijada er qaror topdi.

Payshanba kuni jannat va do'zaxni yaratdi. So'ng juma kuni Odam alayhissalomni xalq qildi va osmonda o'n ikkita burj yulduzlarini yaratdi. Bu haqda Alloh taolo aytadi:

"Osmonda burujlarni paydo qilshgan zot barokotli – buyukdir" (Furqon, 61);

"Burujlar egasi bo'lmish osmonga qasam" (Buruj, 1).

Burujlarni nomlari: hamal – qo'y, savr – xo'kiz, javzo – egizaklar, saraton – qisqichbaqa, asad – sher, sunbula – boshqoq, mezon – tarozi, aqrab – chayon, qavs – kamon, jadi – echki, dalv – qovg'a, ut – baliq.

Ibn Abbos (roziyallohu anhu) aytadilar: "Oy 40 farsaxga 40 farsax, quyosh 60 farsaxga 60 farsaxdir, har bir yulduz dunyodagi katta tog' kabi". Ba'zilar: "Quyosh dunyo kengligichadir, agar shunday bo'lmaganida dunyoni hammasini yorita olmasdi, oy ham shunday", deydi. Ibn Abbos (roziyallohu anhu) aytadilar: "Yulduzlar xuddi qandil kabi osmonga muallaq osilgandir". Ba'zilar: "Yulduzlar eshiklar va sandiqlardagi yulduzlar kabi osmonga o'rnashgandir", deydi. Nabiyydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinadi: "Chaqmoq bulutlarni baqirib haydaydigan farishtaning ismi, insonlar eshitadigan ovoz esa uning ovozi".

Aytiladiki, momaqaldiroq bulutlarni baqirib haydaydigan farishtalarning qo'llaridagi yo'l ochadigan asbob.

Aytiladiki, "Osmon bilan erning o'rtasidagi masofa 500 yillik yo'l, mashriq va mag'ribning orasi 500 yillik yo'l, buning ko'prog'i cho'l, dengiz, tog'lardir va ozginasi aholi yashaydigan joylardir. Buning ham ko'pi kofirlar va ozginasi musulmonlardir. Dunyoning atrofi zulmatdir, zulmatning ortida Qof tog'i joylashgan. Bu tog' yashil zumratdan bo'lib, osmonning cheti unga yopishgan". Aytiladiki: "Dunyoda hech bir tog' yo'qki, uning ildizlaridan bir Qofga etmasa. Agar Alloh taolo bir qavmni halok qilmoqchi bo'lsa, farishtaga buyuradi, farishta tog'ning uchidan harakatlantiradi va ularni to'kib tashlaydi".

Ibn Burayda otasidan rivoyat qiladi: "Dunyo osmoni bir qotirilgan to'lqindir va ikkinchisi oq zumraddir, uchinchisi temirdandir, to'rtinchisi oltindan, beshinchisi misdan, oltinchisi kumushdan, yettinchisi tillo pardadir. Yettinchi osmon va undan oldingilarining orasida nurdan to'lgan dengiz bor". Ka'b: "Yettinchisi yoqutdan", deydi. Bular faqat munajjimlarning so'zi emas, tavhid ahlining so'zlari hamdir". Alloh biluvchiroq.

## **111-bob** **Jannat va do'zaxning ismlari haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Jannatlar Alloh taolo aytganidek to'rtta:

"Parvardigori (huzurida) turishidan (ya'ni, o'zining Parvardigor oldida turib hayoti dunyoda qilib o'tgan barcha amallariga javob berishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat bordir" (Rahmon, 46), bundan so'ng yana

"U ikki (jannat)dan quyiroqda yana ikki jannat bordir" (Rahmon, 62). Bas, bular bittasi jannatul xuld, ikkinchisi jannatul firdavs, uchinchisi jannatul ma'vo va to'rtinchisi jannatu Adn. Jannatlarning eshigi sakkizta, bu haqda xabarlarda kelgan lekin Alloh taoloning kitobida eshiklar adadi zikr qilinmagan. Ba'zilar aytishadiki, Alloh taoloning kitobida jannat eshigi sakkiztaligiga dalil bor, chunki Alloh taolo:

"Qachon ular darvozalari ochilgan holdagi (jannatga) kelib etganlarida..." (Zumar, 73), deb, "vov" harfi bilan aytyapti. Do'zaxning zikrida:

"Qachon ular (jahannamga) kelib etganlarida, uning darvozalari ochildi" (Zumar, 70), deb, bu erda "vov" harfni aytmadi. Jannat eshiklarida u haqida aytgan edi. Bu jannat eshiklarining sakkiztaligiga dalil, chunki "vov" harfi sakkiz soni oldidan aytiladi. Alloh taoloning ushbu so'ziga qara: "Hali ular: "Uchtadir, to'rtinchilari itlaridir", desalar, ayrimleri:

"Ular beshta bo'lib, oltinchilari itlaridir", deb g'aybga tosh oturlar" ham deydilar" (Kahf, 22). Alloh taolo bu erda "4" va "6" dan oldin "vov" harfini aytmadi, "Yana:

"Ular yettitadirlar, sakkizinchilari itlaridir" (Kahf, 22), deganida "vov"ni aytdi. Shuningdek, Alloh taolo:

"(Ular - tavba qilguvchilar Allohning o'zigagina) ibodat qilguvchilar, shukr etguvchilar, ro'za tutguvchilar, ruku'-sajda qilguvchilar, yaxshilikka buyurguvchilar, yomonlikdan to'xtatguvchilar" (Tavba, 112), deb turib so'ng, sakkizinchisida

"va Alloh belgilab qo'ygan qonun-qoidalarga doimiy rioya qilguvchi (mo'minlar)dir" (Tavba, 112), deb, "vov"ni keltirgan. Yana:

"Ehtimol Parvardigori - agar u sizlarni taloq qilsa - unga sizlardan yaxshiroq juftlarni musulima, mo'mina (Alloh va uning payg'ambariga) itoat etguvchi, tavba-tazarru qilguvchi, obida, (mudom Allohning yo'lida) ketguvchi juvon va qizlarni almashtirib berur" (Tahrim, 5), deb sakkizinchisida "vov" harfni aytgan. Sahih gap shuki, xabarlardan jannat eshiklari sakkiztaligi ma'lum deb aytishdir. Ibn Abbos (roziyallohu anhu) aytadilar: "Jannat ahlining eng past darajadagilari uchun jannatdagi o'rin 500 yil yuriladigan masofadir va unda 500 ta hur bo'ladi. Dunyo hayotidagidek xotini uni quchoqlaydi, dasturxon uning oldiga qo'yiladi, ammo dunyo hayotidagidek to'yishi bilan tugab qolmaydi, ichimlik ham shunday".

Aytiladiki, jannatdagi har bir narsaning dunyoda o'xshashi bor. Jannat ahli eydilar,

ichadilar, ammo bavl qilmaydilar, hojat chiqarmaydilar. Dunyodagi uning o'xshashi qorindagi boladir. Jannat ahli uchun xizmatkorlar bor. Agar kishi biror narsa xohlasa, ularga buyurmasdan oldin uni keltiradilar. Gapirishdan oldin hojatini biladilar. Bu holning dunyodagi uning o'xshashi uning a'zolaridir, agar inson biror narsani xohlasa, uning a'zolari buni biladi va buyurmasidan oldin qiladi. Jannatda bir daraxt bor, uni Tubo deb nomlashadi, uning asl tomiri Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) hovlisida, shoxlari har bir hovli va har bir o'rindadir. Uning o'xshashi quyoshdir. Darhaqiqat, uning nuri har bir hovli va har bir o'ringa etadi, har qanday tepalikka, har qanday dalaga, har qanday teshikka kirib bordi va butun dunyoga tarqaladi. Jannatning taomi tugamaydi, garchi undan har qancha esalar ham, undan biror narsa kamaymaydi. Uning dunyodagi o'xshashi Qur'ondir. Insonlar uni o'rganadilar va o'rgatadilar, vaholanki u o'z holatida turadi, undan biron narsa kamaymaydi. Jannatda uzun soya bor, uning dunyodagi o'xshashi quyoshning chiqishidan oldingi va botganidan keyingi qorong'ulik kirguncha bo'lgan vaqt. Jannatning hammasi uzun soyadir va bu Alloh taoloning so'zidan keladi:

"Rabbingizning soyani qanday uzun qilganini ko'rmadingizmi?" (Furqon, 45).

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilarki: "Sizlarga jannat ahlining bir vaqtiga o'xshash vaqtning xabarini beraymi, ogoh bo'linglar, u quyosh chiqishidan oldingi vaqtdir, uning soyasi doim bo'ladi, rahmati keng yoyilgan va barakoti ko'p. Jannat xazinabonining ismi Rizvon deyiladi. Darhaqiqat, u rahmat va mehribonlik bilan burkalgan".

Do'zax esa, yettita bo'lib, bir-birining ustidadir. Bu xabar Alloh taoloning so'zida keladi:

"Do'zaxning yettita eshigi bor, ulardan har birining belgilangan juz'i-bo'lagi bor" (Hijr, 44). Ularning birinchisi va eng balanddagisi jahannam bo'lib, qiyomat kunida xalq uning ustidan o'tadi. Alloh taolo:

"Sizlardan har biringiz unga tushguvchidirsiz. (Bu) Parvardigoringiz (amriga binoan) vojib bo'lgan hukmdir" (Maryam, 71), deydi. Ikkinchisi Lazo, uchinchisi Hutama, to'rtinchisi Sa'ir, beshinchisi Saqar, oltinchisi Jahim, yettinchisi Haviya va u do'zaxning eng pastdagisi, azobning eng qattig'i unda, u zindiqlarga tayyorlab qo'yilgandir, ular munofiqlardir. Do'zaxning qo'riqchilarining eng kattasi Malik deyiladi, u g'azab va haybatga burkalgandir. Bundan, Ey Parvardigor, bizni o'z fazling va karaming ila qutqar, yo arhamar rohimin. Amin.

## 112-bob

### **Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) nasablari, farzandlari va ayollari haqida**

Faqih aytadilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) o'z nasablarini zikr qilib: "Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdulmuttalib ibn Hoshim ibn Abdumannof ibn Qusay ibn Qilob ibn Murra ibn Ka'b ibn Luay ibn G'olib ibn Fihr ibn Molik ibn Nazr ibn Kanona ibn Huzayma ibn Mudrika ibn Ilyos ibn Muzar ibn Nazor ibn Ma'd ibn Adnon", deganlar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Adnongacha bog'lanishlarini va nasablari Adnondan o'tmasligini rivoyat qildilar. Ka'bul Ahbor va boshqalardan Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) nasablarini Odamgacha zikr etganlari rivoyat qilinadi. Ba'zilar buni inkor etishgan. Abdulloh ibn Mas'ud aytadilar: "Nasab aytguvchilar yolg'on gapirdilar, chunki

Alloh taolo:

"Od, Samud (qabilalarini) va quduq egalarini hamda shu oradagi ko'pdan-ko'p asrlarni (eslang)!" (Furqon, 38);

"Sizlarga ilgari o'tgan kishilarning - Nuh qavmining, Od, Samud (qabilalarining) va ulardan keyin o'tgan, (sonu sanoqlarini) faqat Allohgina biladigan qavmlarning xabari kelmadimi?" (Ibrohim, 9), deb aytgan".

Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) onalari homiladorlik paytida otalari vafot etgach, shu sababli bobolari Abdulmuttalib qaramog'ida o'sganlar. Abdulmuttalib Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) sakkiz yosh bo'lganlarida vafot etdi va amakilari Abu Tolib qo'lga o'tdilar. Onalarining ismi Omina binti Vahbdir Rasululloh olti yoshlarida onalari ham vafot qildi. Rasulullohni emizgan enagalari toiflik ayol Halimadir.

Alloh u kishiga qirq yoshlarida vahiy yubordi. Rasululloh vahiydan so'ng Makkada o'n uch yil turdilar, so'ng Madinaga hijrat qildilar va unda o'n yil yashadilar, so'ng oltmish uch yoshlarida vafot etdilar. Vafot etganlarida to'qqizta ayollari bor edi. Jami uylangan ayollari o'n to'rttadir. 1. Xadicha binti Xuvaylid. U ayollarning sayyidasi edilar. Insonlarning eng birinchi Islomga kirganidirlar. 2. Savda binti Zum'a. 3. Oisha binti Abu Bakr. Bu ayollarga Makkada uylandilar. 4. Hafsa binti Umar. 5. Ummu Salama binti Abu Umayya. 6. Ummu Habiba binti Abu Sufyon. Bu oltitasi Qurayshdan. 7. Juvayriya, Bani Mustaliqdan. 8. Safiyya binti Huyya ibn Ahtob, 9. Zaynab bilan Jahsh, u Zayd ibn Horisanning xotini edi, unga saxiyligi sababli miskinlarning onasi deyilardi. U Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) keyin vafot etgan ayollarining birinchisi. 10. Maymuna binti Horis Aslamiya, u Ibn Abbosning (roziyallohu anhumo) xolasi. 11. Zaynab binti Huzayma. 12. Bani Xiloldan bir ayol, u o'zini Nabiyya (sollallohu alayhi vasallam) hadya qilgan. 13. Kindo qabilasidan bir ayol, u Rasulullohdan panoh tilagan edi, so'ng uni taloq qilganlar. 14. Kalb qabilasidan bir ayol.

Rasulullohning uchta o'g'illari va to'rtta qizlari bor edi. 1 Qosim, Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) uning nomi bilnan kunya oldilar (Abulqosim - Qosimning otasi), so'ng qizlari Zaynab, so'ng o'g'illari Abdulloh, uning ismi Tohir edi, vahiy nozil bo'lgandan keyin tug'ildi, shu sababli Tohir deb nomlandi. So'ng qizlari ummu Gulsum, so'ng qizlari Fotima, so'ng qizlari Ruqiya, ularning barchasi Makkada Xadichadan (roziyallohu anho) tug'ildilar. So'ng Madinada o'g'illari Ibrohim qibtiy Moriya degan ayollaridan tug'ilgan. Fotimani Ali ibn Abu Tolibga (roziyallohu anhu) turmushga berdilar, Ruqiyani Usmon ibn Affonga (roziyallohu anhu) berdilar. Ruqiya Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) Badr jangiga chiqqanlarida vafot etdi. Badrdan qaytganlarida Usmonga Ummu Gulsumni berdilar (roziyallohu anho). Shu sababli Usmon Zunnurayn (ikki nur egasi) deb nomlandilar. Zaynabni Abul Os ibn Rabi'ga turmushga berdilar. Farzandlarining hammasi Rasulullohdan oldin vafot etgan, faqat Fotima Rasulullohdan so'ng 6 oy yashadi. Rasulullohning barcha ayollari sayyiba – erga tegib chiqqan edi, faqat Oisha (roziyallohu anho) bokira edilar. Nikohlanganda yoshlari oltida edi. To'qqiz yoshga etganlarida Rasululloh bilan qo'shildilar. Rasulullohning ayollari shu vaqtda to'qqizta edi.

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) to'rt marta umra va bir marta haj qildilar, bu haj Hajjatul vado'dir.



Hijratdan olti yil keyin Haybar, sakkiz yil keyin Makka fath qilindi.

Rasulullohning vafotlari rabiulavval oyining dushanba kuni edi.

Biz qo'yayotgan kunlar hijriydir. Umar (roziyallohu anhu) sahobalar bilan maslahatlashib sana qo'yishni hijratdan boshlashga buyurdilar.

Zayd ibn Horisa Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) quli edi. U avval Xadichaniki edi, so'ng uni Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) hadya qildilar va Rasululloh uni ozod etdilar. Nabiyning qullaridan yana biri Abu Rofe' bo'lib, u Abbosniki edi, uni Nabiyya (sollallohu alayhi vasallam) hadya qilganlar. Abbas musulmon bo'lganlarida Abu Rofe' Nabiyya (sollallohu alayhi vasallam) uning Islomga kirgani xushxabar bergan, shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) uni ozod qilgandilar. Qullaridan yana biri Safina bo'lib, asli Ravhon yoki Mixron edi. Uni Raboh deb atashardi. Ba'zi safarlarda Rasulullohning yuklarini olib yurardi. Bir marta ko'p narsani ko'tarib olgan edi, shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) unga: "Sen safinasan" (kemasan), degan edilar, keyin shu nom bilan nomlandi. Savbon, Shaybon, Shikron, Yosor va boshqalar Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ozod qilgan qullardir.

### **113-bob**

#### **Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) xalifalari nomlari haqida**

Faqih aytadilar: Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) vafotlaridan keyin sahobalar ixtilof qilishdi. Ansorlar: "Bizdan bir amir, sizlardan bir amir bo'lsin", dedilar. Muhojirlar: "Amir bizlardan bo'ladi", deyishdi. Ba'zilar: "Xalifalik Aliga (roziyallohu anhu) xos", dedi. Ba'zilar: Abu Ubayda ibn Jarroh xalifa bo'lsin", dedi. So'ng ularning barchasi Abu Bakrga (roziyallohu anhu) bilittifoq bay'at qilishdi. U zot ikki yil xalifalik qildilar. Ismlari Abdullohdir. Islomdan oldin Abdul-Ka'ba bo'lgandi, chunki johiliyat davrida Ka'badan chiqmasdilar. Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) u zotga Abdulloh deb ism berdilar. Abu Bakrni "Rasulullohning xalifasi", deyishardi. U zot vafot etgach, Umar (roziyallohu anhu) voliy bo'ldilar. U zot sahobalarga: "Sizlar Abu Bakrni Rasulullohning xalifasi der edinglar. Endi meni qanday nomlaysizlar?" dedilar. Ba'zilar: "Rasululloh xalifasini xalifasi", deymiz", deyishdi. Shunda: "Bu nom uzun, og'irlik qiladi Sizlar mo'min emasizlar? Amirul mo'minin, denglar", dedilar. Amirul mo'minin deb nomlangan birinchi xalifa Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) bo'ldilar. U zotning xalifaligi o'n yil bo'ldi. Uni Mug'iyra ibn Shu'baning quli mal'un Abu Lu'lua o'ldirdi. Keyin Usmon (roziyallohu anhu) xalifa bo'ldilar, u kishining xalifaligi o'n ikki yil davom etdi. Usmonni fitnachilar o'ldirdi. So'ng u zotdan keyin Ali (roziyallohu anhu) amir bo'ldilar. Uning xalifaligi olti yil bo'ldi. U zotni Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirdi (Muljam – yuganlangan, ya'ni, Alloh og'zini o'tli yugan bilan yuganlagan ma'nosida.) So'ng Muoviya ibn Abu Sufyon amir bo'ldilar. Uning amirligi o'n yil davom etdi. So'ng Yazid ibn Muoviya bo'ldi. U uch yil amirlik qildi, u vafot etgach, fitna voqe bo'ldi. Iroq ahli Abdulloh ibn Zubayrga, Shom ahli Marvon ibn Hakamga bay'at qildi, uning voliyligi to'qqiz oy davom etdi. So'ng Abdulmalik ibn Marvon voliy bo'ldi. Abdulmalik Hajjoj ibn Yusufni Abdulloh ibn Zubayrga yubordi, Abdulloh ibn Zubayr o'sha vaqtda Makkada edilar, Hajjoj uni qamal qilib asir olgach, osib o'ldirdi. Butun boshqaruv Abdulmalik ibn Marvonga o'tdi, uning voliyligi o'n yil bo'ldi. Farg'onagacha bo'lgan ommaviy fath uning voliyligi davrida yuz berdi. So'ng Valid ibn Abdulmalik voliy bo'ldi, so'ng Sulaymon ibn Abdulmalik, so'ng solih banda Umar ibn

Abdulaziz ibn Marvon, so'ng Hishom ibn Abdulmalik, so'ng Yazid ibn Valid, so'ng Ibrohim ibn Valid, so'ng Marvon ibn Muhammad. Bularning hammasi Muoviyadan boshlab ummaviylardan edi. Ularning poytaxti Shom edi. So'ng voliylik Abbosning avlodlariga o'tdi, ularning poytaxti Iroq bo'ldi, ular Bag'dod shahrini qurishdi. Abul Abbos voliy bo'ldi, uning to'liq ismi Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbos edi, so'ng uning birodari Abu Ja'far Davoniy (uni Mansur deyishardi), so'ng uning o'g'li Muhammad ibn Abdulloh voliy bo'ldi (uni Mahdiy deyishardi). So'ng uning o'g'li Muso ibn Muhammad bo'ldi, so'ng uning boshqa o'g'li – Rashid ibn Muhammad voliy bo'ldi. So'ng Muhammad ibn Horun bo'ldi (amirlik unda qaror topmadi), so'ng Ma'mun deb nomlangan Abdulloh ibn Horun amir bo'ldi.

### **114-bob** **Mustahab bo'lgan ismlar haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Alloh biror bir rasul yuborgan bo'lsa, uning yuzi, ismi, ovozi chiroyli edi va uning nomi ufqqa yozilardi. Agar menga chopar yuborsanglar, yuzi va ismi chiroyligini yuboringlar". Ali ibn Abu Tolibdan rivoyat qilinadi: "Men urushni yaxshi ko'rardim. Hasan tug'ilganda uni Harb (urush) deb nomladim. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) kirdilar. U zotga buni aytgan edim, Rasululloh: "Yo'q, bu Hasandir", dedilar. (Hasan – chiroyli, degani.) Husayn tug'ilganida unga ham Harb deb nom qo'ydim. Shunda Rasul (sollallohu alayhi vasallam) kirdilar, yana: "Yo'q, bu Husayn", dedilar. (Husayn – kichik hasan degani) So'ng u zot (sollallohu alayhi vasallam): "Men bu ikkalasini Horunning ikki o'g'li Shabar va Shubayrlarning nomi bilan nomladim", dedilar".

Said ibn Musayyabdan rivoyat qilinadi: "Uning bobosi Huzn ibn Bashir Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) huzurlariga kirdi. Shunda: "Isming nima?" deb so'radilar. U: "Huzna ibn Bashir", dedi (Huzn – xafa, mahzun, degani). Rasululloh: "Yo'q, sen Sahlsan", dedilar (Sahl – yengil, degani. U: "Ota-onam qo'ygan nomni o'zgartirmayman", dedi. Said ibn Musayyab aytadilar: "U shu kungacha xafa bo'lib yurdi", deyilar.

Muhammad ibn Abu Sufra otasidan rivoyat qiladi. U kishi Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) huzurlariga kirdi, Rasululloh undan ismi va nasabi haqida so'radilar, shunda u: "Men Soriq" (Soriq – o'g'ri degani), ibn Qote' (qaroqchi degani) ibn Zolim ibn falon ibn falon", deb aytib ketdi, hatto kemalarni zo'rlik bilan olib ketadigan podshoh Jalnadvacha nasabini etkazdi. Muhammad: "Otamning ustida zafaronga bo'yalgan ishton bo'lar edi", dedi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Soriq va Qote'ni tashla, sen Abu Sufra" Soriqning (otasi), dedilar. Shunda u: "Ey Rasululloh, men uchun dunyoda sizdan yomonroq biror odam yo'q edi, endi men uchun sizdan sevikliroq odam yo'q. Kecha qizim tug'ildi, men uni Sufra deb nomladim, mana, kunyam uning ismiga muvofiq keldi", dedi.

Arablar farzand ko'rgach, uning nomi bilan kunya oladi. Ayol eriga Abu falon, eri ayoliga Ummu falon deydi. Abu Salama, Ummu Salama, Abu Dardo, Ummu Dardo, Abu Zar, Ummu Zar deyilganidek. Kishi farzandli bo'lmaganicha kunya olmaydi.

Muhammad ibn Xasim rivoyat qiladi: "Abu Ja'far ibn Muhammad ibn Ali menga: "Ey

Muammar, kunyang nima?" dedi. Men: "Kunyam yo'q, hali farzandli bo'lganim yo'q", dedim. U: "Kunya qo'yishdan nima to'syapti?" dedi. Men: "Ali (roziyallohu anhu) aytgan hadisda: "Biron bir kishi farzandi tug'ilmasdan oldin kunya olsa, u Abu Ja'dadir" – (zulf, gajak, deyilgan", dedim. U: "Bu Alining so'zi emas, chunki biz farzandlarimiz kichikligida ularga yomon laqab etib qolishidan qo'rqib, kunya qo'yib qo'yamiz", dedi".

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytganlar: "Mening nomim bilan nomlaninglar, kunyam bilan kunyalanmanglar va ahli oilam bilan nomlanmanglar". Bu hadisni mansux deyishadi, chunki Ali (roziyallohu anhu) Hanifadan tug'ilgan o'g'lini Muhammad deb nomlaganlar va Abul Qosim deb kunya ham qo'yganlar. Darhaqiqat, Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) bunga ruxsat so'rashganda, izn berganlar.

Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilinadi: "O'g'illaringizni payg'ambarlar ismlari bilan nomlanglar, Alloh taologa ismlarning eng sevimlisi Abdulloh va Abdurahmondur".

Faqih aytadilar: "Men ajamlarning Abdurahmon yoki Abdurahim degan ism bilan nomlanishini yaxshi ko'rmayman, chunki ular buning tafsirini (ma'nosini) bilmaydi. Bu nomlarni tasg'ir – kichraytirish siyg'asida ishlatishsa, noma'qul – yoqimsiz bo'lib qoladi. Agar shunday bo'lsa, bu kabi ismlar bilan ham nomlanishlari durust bo'lmaydi.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) qullarni Nofi' (foydali), Yasor yoki Baraka deb nomlashlardan qaytarganlar", chunki agar bir kishi so'raganda, bu erda baraka yoki foyda beruvchi yo'q, deb aytish durust bo'lmaydi.

Umar (roziyallohu anhu) bir kishiga: "Isming nima?", dedilar. "Jamra (ko'mir yoquvchi)", dedi. Umar: "Kimning o'g'lisan?", deb so'radilar keyin. "Shahobning" (yonib tushayotgan yulduz), dedi. Umar: "U kimning o'g'li?", deb so'ragan edilar, "Haqranning" (yondirish, kuydirish), dedi. Umar qayerda yashashligini so'radilar. U: "Hurrada" (issiq joyda), dedi. Umar unga: "Ahlinga bor. Ular yonib ketishdi", dedilar. Kishi ahliga qaytganida, haqiqatda, ularning hammasini kuyib ketgan edi.

Molik ibn Anas Yahyo ibn Saiddan rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kim tuyani sog'adi?", dedilar. Bir kishi "Men", dedi. Rasululloh: "Isming nima?", deb so'radilar. U: "Murra" (achchiq), dedi. Rasululloh: "O'tir", dedilar. So'ng yana: "Kim tuyani sog'adi?", dedilar. Boshqa bir kishi turib: "Men", dedi. Rasululloh: "Isming nima?" dedilar. U: "Harb" (urush), dedi. "O'tir", dedilar. So'ng: "Kim tuyani sog'adi?", dedilar. Shunda bir kishi o'rnidan turib: "Men", dedi. Rasululloh: "Isming nima?", dedilar. U: "Ya'ish" (hayot) dedi. Rasululloh: "Sen sog'asan", dedilar. U sog'ib keldi".

## **115-bob** **Kunlar va oylar zikri haqida**

Faqih aytadilar: "Bilgilki, bir yil 12 oydan iborat. Birinchisi muharram deb nomlangan, chunki johiliyat vaqtida bu oyda urush harom qilingan edi. So'ng safar oyi. Safar deb nomlanishiga sabab, insonlarga bir kasallik etganida, ularning yuzi sarg'ayib ketdi, shu oyda yuzlar sarg'aygani sababli safar – sariq deb nomlandi. Aytiladiki, safar deb nomlanishiga yana bir sabab, muharram oyidan chiqib, urush halol bo'lganda, iblis o'z

askarlari bilan erkin, ozod bo'ladi. So'ng rabi'ulavval oyi, chunki bu kuzni avvaliga to'g'ri kelgan, shu sababli, avvalgi bahor, deb nomlangan. So'ng robi'uloxir oyi, chunki bu kuzga to'g'ri keldi, shu sababli buni ikkinchi bahor nomi bilan nomlashdi. So'ng jumodulavval, so'ng jumoduloxir. Bu ikki oyni shunday deb nomlandi, chunki bular qish kunlariga, sovuq qattiq bo'lib, suv muzlagan paytga to'g'ri keldi. So'ng rajab oyi, rajab deb nomlanishiga sabab, arablar bu oyni ulug'ladilar, yana buni kar oyi bilan ham nomlaydilar, chunki bular bu oyda urush ovozini eshitmasdilar. So'ng sha'bon oyi, bu oyning sha'bon deb nomlanishiga sabab, arab qabilalari bu oyda dalalarga tarqab ketadi. Aytiladiki, sha'bon deb nomlanishiga sabab bu oyda ramazon uchun ko'p yaxshiliklar tarqaldi. So'ng ramazon keladi. Ramazon deb nomlanishiga sabab, bu oy issiq paytiga to'g'ri kelgan, "ramazon" so'zining ma'nosi qattiq issiq degani. Yana aytiladiki, chunki bu oyda gunohlar kuyib ketadi. So'ng shavvol keladi. Arab qabilalari bu oyda o'z joylaridan ko'chib ketadi, shuning uchun Shavvol deb nomlandi. So'ng zulqa'da keladi. Bu oyni zulqa'da deb nomlashlariga sabab, ular bu oyda urushdan tiyiladilar, so'ng zulhijja oyi keladi, bu oyda ular haj qiladilar. Bu oylar qamariy oylar nomi bilan mashhur bo'lib, arabiy oylarning nomlari. Qamariy oylar hisobi oyning aylanishi bilan bog'liq. Shamsiy oylar rumiy hisob bilan, quyosh aylanishi bilan o'rganadi. Nomlari suryoniy tilida. Bu oylar mehrjon kunlaridan boshlanadi. Oylarning avvali tashrini avval, so'ng tashrini soniy, so'ng qonunul avval, so'ng qonunussoniy, so'ng shabot, so'ng ozor, so'ng nayson, so'ng ayyor, so'ng haziron, so'ng tamuz, so'ng ob, so'ng aylul, bu oylarning forscha nomlari ham bor, u navro'z kunlaridan boshlanadi. Avvl farurdin, so'ng ardu behisht, so'ng xurdod, so'ng yabru, so'ng muraddo, so'ng shahru buvad, so'ng mehr, so'ng abon. So'ng yil kunlaridan hisoblanmaydigan besh kun bor, buni ayyomul musriqa – o'g'irlangan kunlar deb ataydilar. So'ng ard, so'ng diy, so'ng buhn, so'ng isfandiyo'ri madiyur. Forsiy oyning 10 kuni o'tganda, ya'ni har oyning o'ninchi kuni rumiy oylaridan bir oy boshlanadi. Har yili navro'z juma kunlaridan bir kun kechikadi. Agar navro'z bu yil payshanba kuni bo'lsa, kelgusi yil juma kuni bo'ladi, uchinchi yilda shanba kuni keladi. Arabiy (qamariy) oylar har yili 10 kun kamayadi, ko'pincha 11 kun kamayadi. Bulardan olti kuni oylarni qisqarishi bilan bo'ladi, to'rt kuni esa, ayyomul masruqa-o'g'irlangan kunlar. Bir kecha va kunduz 24 soat bundan ko'paymaydi ham kamaymaydi ham. Kecha qisqargan vaqtda kunduzi uzayadi, kunduzi qisqarganda kecha uzayadi, kunduzning eng uzun vaqti haziron oyning yarmida bo'ladi. O'shanda kunduzi 15 soat va kecha 9 soat bo'ladi va bu kechaning eng qisqa vaqti. So'ng kunduzi qisqarib, kechasi uzaya boshlaydi, to mehrjon kunlari kelguncha. Mehrjonda kun va tun tenglashib, har ikkalasi ham o'n ikki soatdan bo'ladi, hatto qonuni avval oyining o'n yettinchi kunida kecha 15 soatga etadi va bu kechaning eng uzoq vaqtdir. Shunda kunduzi 9 soatga etadi, bu kunduzning eng qisqa payti, so'ng kecha qisqara boshlaydi, hatto navro'zdan 19 kun yoki undan kamroq oldin kecha va kunduz baravar bo'ladi, so'ng haziron oyining yarmigacha kun ziyoda bo'laveradi. Bu Alloh taoloning:

"Quyosh (biron soniya to'xtamay) o'z qarorgohi sari joriy bo'lur" (Yosin, 38) va:

"U kechani kunduzga kiritur va kunduzni kechaga kiritur" (Hadid, 6), degan so'zlaridir.

## 116-bob

### Inson tabiatlarining sifatlari haqida

Faqih aytadilar: Bilgilki, Alloh subhanohu va taolo maxluqotni yaratdi va unga to'rtta

tabiatni – quruqlik, namlik, issiqlik va sovuqlikni kiritdi va jasadning foydasi uchun nafsdan to'rtta narsani yaratdi. Jasad faqat shular bilangina qoim turadi: qora pufak, sariq pufak, qon va balg'am. Quruqlikning o'rnini qora pufakda, namlikning o'rnini sariq pufakda, issiqlikning o'rnini qonning ichida va sovuqlikning balg'amning ichida qildi. Qaysi jasad bu to'rttalasi mo'tadil bo'lsa, salomatlik komil bo'ladi, agar birortasi boshqasidan ortib ketsa, kasallik tug'iladi, qay biri kamaysa, zaiflik kiradi. Bu tabiatlar xulqidagi fitrat – tabiatga aylanadi, quruqlikdan qasd-qat'iylik, namlikdan muloyimlik, issiqlikdan qiziqqonlik, rashk, g'azab va sovuqlikdan sabr, bardosh paydo bo'lgan. Agar bulardan birortasi ko'payib yoki kamayib ketsa, shu tomonidan sog'liqda nuqson paydo bo'ladi. Alloh taolo boshda har bir narsadan manfaatning bir turini joyladi, ko'rishni ko'zda, eshitishni quloqda, hidlashni burunda, so'zlashni tilda qildi. Shuningdek, qorinda har bir narsa uchun bir makon qildi: kulgu va xursandchilik o'rnini taloq va jigarda, qo'rquv va haybat o'rnini o'pkada, g'azab o'rnini jigarda, ilm va tushuncha – farosat o'rnini qalbdan, aql o'rnini dimog'da, xursandchilik va xafachilik o'rnini buyrakda, (yurakda deb ham aytiladi) qildi. Jasad Alloh taolo 360 ta tomirni va 240 ta suyakni yaratdi va bu Alloh taoloning:

"(Ey insonlar), erda (undagi tog'u toshlar va vodiylar, dengizlar va daryolarda, hayvonot va nabotot olamida) hamda o'zlaringizda (ushbu hayotga kelib-ketishingizdan tortib, vujudlaringizdagi har bir a'zoyingizda, balki har bir hujayrangizning naqadar nozik tartib-intizom bilan yaratilib, o'z o'rniga joylashtirilganida va o'z zimmasidagi Yaratgan buyurgan vazifani quloq qoqmasdan ado etib borishida) ishonguvchi zotlar uchun (Allohning qudratiga dalolat qiladigan) oyat-alomatlar bordir" (Zoriyot, 20–21-oyatlar), degan so'zidir.

Ali (roziyallohu anhu): "Aql qalbdan, rahmat jigarda, muloyimlik taloqda va nafas o'pkada bo'ladi", deganlar, va yana aytganlar: "Bolaning jasadi 21 yoshgacha, aqli 28 yoshgacha o'sadi, bundan keyin uning aqlida o'sish bo'lmaydi, faqat tajribasi oshadi".

Ba'zi hukamolar: "Aqlning o'rnini dimog'da va ahmoqlikning o'rnini ko'zda, botilning o'rnini quloqda, hayoning o'rnini yuzda, ruhning yo'li burunda, hayotning o'rnini og'izda, tashvish-g'amning o'rnini yurakda, kulgining o'rnini taloqda, rahmat va g'azabning o'rnini yurakda, xafachilik va xursandchilik o'rnini qalbdan, kasbning o'rnini ikkala qo'lda, qiyinchilikning o'rnini ikkala oyoqda", deyishgan. Alloh subhonahu va taolo biluvchiroq.

## 117-bob

### Suzish, chavandozlik va merganlik haqida

Faqih aytadilar: Umar ibn Hattob deydi: "Farzandlaringga suzishni, chavandozlikni va merganlikni o'rgatinglar hamda ularni nishonlar orasida yashirinishga buyuringlar". Ibn Umar (roziyallohu anhumu) Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Bolalaringga suzishni, chavandozlikni va merganlikni, ayollaringga tikishni o'rgatinglar", deganlarini rivoyat qilganlar. Uqba ibn Omir Nabiyaning (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Yoydan otinglar va ulovga mininglar, yoydan otishlaring ulovga minishlaringdan yaxshiroq. Kishi o'ynaydigan har bir narsa botil, faqat uchta narsa: kamondan otish, otga tarbiya berishi va ayoli bilan xushlashish (botil emas)". Alloh taolo biluvchiroq.

## **118-bob**

### **It saqlashdan qaytarish haqida**

Faqih (rahimahullohi alayh) aytadilar: Solim otasidan rivoyat qiladi: Rasul (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki itni chorva va ovdan boshqa narsa uchun saqlasa, u har kuni o'z ajrining ikki qirotidan mahrum bo'libdi", dedilar.

Atiyya Ibn Umardan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki chorva, ov yoki ekindan boshqa narsa uchun it saqlasa, har kuni ajridan ikki qirot mahrum bo'libdi", dedilar.

Ibn Umarga: "Ey Abu Abdurahmon, biz bir qirot, deb eshitgan edik", deyishdi. U zot: "Men buni ikkala qulog'im bilan eshitdim va qalbim buni o'zida saqlab qoldi. Undan boshqa iloh bo'lmagan Zot ikki qirot deb aytgan", dedilar.

Abu Hurayra Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Kimki chorva, ov yoki ekindan boshqasi uchun it saqlasa, u har kuni o'z ajridan bir qirotidan mahrum bo'libdi".

Faqih aytadilar: Xabarda itni hojat uchun saqlasa, zarari yo'qligi, ammo ermak uchun saqlasa, makruh bo'lishi aytilyapti. Ibrohim Naxa'iy Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) vabarliklarga it saqlashga ruxsat berganlarini rivoyat qilganlar. Vahb ibn Munabbahdan rivoyat qilinadi: "Odam alayhissalom erga tushirilgan vaqtda Iblis yirtqich hayvonlarga, bu sizlarning dushmanlaring, uni halok qilinglar", dedi. Hayvonlar to'planishib, itga: "Sen bizning eng shijoatlimizsan", dedilar va uni o'zlariga amir qilib oldilar. Odam buni ko'rganda hayron bo'ldi. Jabroil alayhissalom unga kelib: "Qo'ling bilan itni boshini sila", dedi. Shunda Odam itning boshini siladi. Hayvonlar it odam bilan do'stlashganini ko'rganlarida tarqalib ketdilar. Ilojsiz qolgan it Odamdan omonlik so'radi. Odam unga omonlik berdi. Shunday qilib, it Odam va uning bolalari bilan qoldi". Alloh subhonahu va taolo biluvchiroq.

## **119-bob**

### **Yo'q bo'lib ketgan hayvonlar haqida**

Faqih aytadilar: Odamlar Alloh taolo yo'q qilgan maxluqotlar haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar: "Maymun va to'ng'iz Alloh taolo yo'q qilgan qavmning naslidan. Xuddi shunday sichqon, da'mus va boshqa asarlarda xabari kelgan maxluqotlar yo'q qilindi", deyishadi. Ilm ahli aytdiki: "Bunday deyish durust emas. Maymun va boshqalar oldin yaratilgan edi. Alloh taolo yo'q qilgan maxluqlar halok bo'ldilar va ulardan nasl qolmadi, chunki ularga g'azab va azob kelgach, ular uch kun ichida er yuzidan yo'qoldi".

Musavvar ibn Ahnaf aytadilar: "Abdulloh ibn Ma'sudga hozirgi maymun va to'ng'izlar oldingi maymun va to'ng'iz naslidan deb o'ylaysizmi?", deyishganda, Abdulloh: "Biror ummat yo'q qilinib, ularning o'rniga bular nasl qilinib qoldirilmadi, ular o'zlaridan oldin bo'lgan maymun va to'ng'iz naslidan", dedilar.

Odamlar Zuhra va Suhayl haqida gapirishdi, vaholanki, ikkalasi ham yulduzdir. Ba'zilar: "Ibn Abbosdan rivoyat qilinishicha, ikkalasi yo'q bo'lib ketgan", deydi. Ato: "Ibn Umar

Zuhra yoki Suhaylni ko'rsa, so'kar edi va: "Suhayl Yamanda ushr yig'uvchi edi, odamlarga zulm qilardi. Zuhra Horut va Morutning sherigi bo'lgan, Alloh Taolo ularni yulduzga aylantirdi", derdi".

Mujohid aytadilar: "Ibn Umarga agar qizil yulduz (ya'ni, Zuhra) chiqibdi, deyilsa, uni xush ko'rmadik, der edilar. Ba'zilar: "Bunday deyish durust emas, chunki bu yulduz osmon yaratilganda yaratilgan edi", deydi. Xabarda rivoyat qilinadiki, osmon yaratilgan vaqtda yetti sayyora – Zuhra, Mushtariy, Bahrom, Zuhra, Atorud, Quyosh va Oy ham yaratilgan. Alloh taoloning so'zida ham aytiladi:

"(Alloh) kecha va kunduzni, quyosh va oyni yaratgan zotdir. (Bularning) barchasi o'z falak-fazosida suzurlar" (Anbiyo, 33). Er uchun mana shu yetti sayyoraning foydasi bordir. Ulardan har birining bir foydaga ega. Zuhra rutubat – namlikka ega. Shu so'z bilan Zuhra va Suhayl yo'q qilingan – yulduzlarga aylantirilgan, degan kishilarning so'zi durust emasligi sobit bo'ldi, chunki Zuhra va Suhayl Odam alayhissalom yaratilishidan oldin bor edi. Ibni Umarning: "Suhayl Yamanda ushr eg'uvchi va Zuhra Horut va Morut bilan fitnalangan edi. Alloh taolo ularni yulduzlarga aylantirib qo'ydi", degan rivoyatlaridagi gap shundaki, Suhayl nomli kishi va Zuhra nomli ayol bor edi. Alloh taolo ularni yulduzlarga aylantirib qo'ydi, lekin ular qolmadi, halok bo'ldi va do'zaxga tushdi, deyishadi. Ammo Ibn Umar ularni so'kar edi, degan rivoyat esa, ehtimol qilinadiki, u zot yulduzlarni so'kmaganlar, balki ushshor Suhaylni so'kkanlar, xuddi shuningdek, Zuhra haqida ham, balki Zuhra nomli ayolni so'kkanlar, yulduzni emas. Alloh subhonahu va taolo biluvchiroq.

## **120-bob** **Iymon haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zilar odamlar o'z nafsiga men mo'minman deb aytishlarini makruh sanashdi, magar istisno qilib, men inshaalloh, musulmonman desa, joiz deyishdi. Chunki bu lafz madh – maqtashdir, nafsini maqtash esa, joiz bo'lmaydi. Xuddi men zohid, men obid deb aytish joiz bo'lmagani kabi. Shuningdek, men mo'minman deb aytish ham joiz bo'lmaydi" deyidilar. Chunki Alloh taolo mo'minlarni alomatlar bilan sifatladi, bas, kimdaki shu alomatlar topilmasa, mo'min deb atalishi joiz emas. Bu alomatlar haqida Alloh taolo shunday deydi:

"Faqat Alloh (nomi) zikr qilinganida qalblariga qo'rqinch tushadigan, Uning oyatlari tilovat qilinganda iymonlari ziyoda bo'ladigan va Parvardigorlarigagina suyanadigan kishilar (haqiqiy) mo'mindirilar. Ular namozni to'kis ado etadilar va Biz ularni bahramand qilgan narsalardan infoq-ehson qiladilar. Ana o'shalar haqiqiy mo'minlar bo'lib, ular uchun Parvardigorlari huzurida (ya'ni, jannatda, yuksak) darajalar, mag'firat va ulug' rizq bordir" (Anfol, 2–4-oyat). Yana Alloh taolo aytdiki: "A'robiylar: "Iymon keltirdik", dedilar. (Ey Muhammad, ularga) ayting:

"Sizlar iymon keltirganlaringiz yo'q, lekin sizlar "Bo'yinsundik", denglar, (chunki hali-hanuz) iymon dillaringizga kirgan emasdir. Agar sizlar Allohga va Uning payg'ambariga itoat etsangizlar, U zot sizlarga (qilgan yaxshi) amallaringizdan (ya'ni ularning savobidan) biron narsani kamaytmas" (Hujurot, 14). Shunday qilib, Alloh ularni o'z nafslarini mo'min deb atashdan qaytardi va ularga o'zlarini musulmonman –

bo'ysunuvchi deb atashni buyurdi.

Boshqalar quyidagi hadisga binoan buning zarari yo'q, deydilar. Ato aytadilar: "Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) ashoblari biz mo'min-musulmonlarmiz, deb aytganlarini bilaman". Zayd ibn Aloqa Abdulloh ibn Yazid Ansoriydan rivoyat qiladi: "Agar birontangizdan iymon haqida so'ralsa, u hech ham shubhalanmasin", dedi. Ibrohim Taymiy: "Sizlarning birontangiz musulmonman deb aytishni hech makruh sanamasin, agar u so'zida to'g'ri bo'lsa, so'ziga binoan, albatta, ajr oladi. Agar yolg'onchi bo'lsa, unda uning kufridan, yolg'onidan ham yomonroq narsa kirmaydi, chunki Alloh taolo:

"Ey mo'minlar, taqvoli kishilar bo'lishingiz uchun sizlardan ilgari o'tganlarga farz qilingani kabi sizlarga ham sanoqli kunlarda ro'za tutish farz qilindi" (Baqara, 183), dedi, boshqa o'rinda esa:

"Ey mo'minlar, namozga turganingizda yuzlaringizni hamda qo'llaringizni chig'anoqlarigacha yuvingiz, boshlaringizga mash tortingiz (ya'ni nam qo'llaringiz bilan silangiz) va oyoqlaringizni oshiqlarigacha yuvingiz!" (Moida, 6), dedi. Kimki o'zining mo'min ekaniga shak-shubha qilsa, unga ro'za va namozni ado etmasligi kerak bo'ladi, chunki Alloh taolo bularni xossatan mo'minlarga vojib qildi", deydilar.

Faqih aytadilar: Agar birontangiz men, inshaalloh, mo'min holatda o'laman, desa joiz bo'lmaydi, chunki istisno qaytadan boshlovchiga ishlatiladi, hozirgi va o'tgan zamonga ishlatilmaydi, chunki gapda: "bu narsa, Xudo xohlasa, kiyim" va "bu, inshaalloh, ustun" deb aytish durust bo'lmaydi.

Hasan Basriydan rivoyat qilinadi: "Inshaalloh, bunday qilaman desa, bu gap kishining aqlliligidan, agar, inshaalloh, bu ishni qildim, desa, bu uning ahmoqligidan". Taloq va 'itoqda (qulni ozod qilish) istisno qilsa, taloq va 'itoq tushmaydi, agar o'z iymonida istisno qilsa, iymonga xalal va qusur etib qolishi xavfi bor.

## 121-bob

### Iymon ziyoda bo'lishi yoki bo'lmasligi haqida

Faqih (rahimahulloh): Odamlar iymon haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar, iymon ko'payadi va kamayadi, dedi, ba'zilar, ko'paymaydi ham, kamaymaydi ham, deb aytdi, ba'zi birovlar: ko'payadi, lekin kamaymaydi, dedi.

Iymon ko'payadi va kamayadi, deganlarning hujjati Alloh taoloning:

"Iymonlariga iymon qo'shish uchun..." (Fath, 4) va

"Iymon keltirganlarning iymonlarini ziyoda qilur" (Tavba, 124), degan so'zidir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Men qiyomat kuni shafaat qilaman, shunda do'zaxdan uning qalbida bir bug'doy misqolicha iymoni bo'lgan kishi chiqadi. So'ng yana shafaat qilganimda uning qalbida bir xardal misqolicha iymoni bo'lgan kishi do'zaxdan chiqadi. So'ng yana shafaat qilaman, bunda esa qalbida zarra misqolicha iymoni bo'lgan kishi



ham do'zaxdan chiqadi", dedilar.

Iymon ko'payadi, kamaymaydi, deganlarning hujjati Muoz ibn Jabaldan qilingan rivoyat. Musulmon kofirdan meros olardi, ammo kofir musulmondan meros olmasdi. U kishi aytdilarki: "Men Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Islom ziyoda bo'ladi, lekin kamaymaydi", deganlarini eshitganman". Boshqa bir rivoyatda: "Iymon ko'payadi, ammo kamaymaydi", deyilgan.

Iymon ko'paymaydi ham, kamaymaydi ham, deganlarning hujjati Abu Muti' Hammod ibn Salamadan, u Abu Mahzumdan, u Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisdir: "Saqif qabilasidan Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) elchilar keldi va aytdilarki: "Ey Rasululloh, iymon kamayib ko'payadimi?". Nabi (sollallohu alayhi vasallam): "Iymon qalbdan mukammaldir, uning ko'payib kamayishi kufirdir", dedilar". Avn ibn Abdullohdan rivoyat qilinadi:

"Men Umar ibn Abdulazizning minbardan turib: "Agar ish huv ana u adashgan, shakkoklar aytganidek, gunohlar iymonni kamaytiradigan bo'lganida, birortamiz kech kirganida iymonni qanchaga ko'payganini yoki undan qancha qolganini bilmasdi", deganlarini eshitdim". Alloh taoloning: "Iymonlariga iymon qo'shish uchun..." (Fath, 4) degan so'zining ma'nosi haqida mufasssirlar yaqiyin ziyoda bo'ladi, deyilmoqda, deyishgan. Darhaqiqat, iymon Qur'onda bir necha uslubda zikr qilingan. Ularning ma'nolari tafsir ahlining so'zlari bilan izohlanadi. Abu Muti': "Osmon va er ahlining iymonni birdir, ular orasida ziyodalik va nuqson yo'q", deydi. Hishom Abu Yusufdan rivoyat qiladi: "Men haqqan mo'minman va men Alloh huzurida mo'minman, ammo iymonim Jabroil alayhissalom va Mikoil alayhissalomning iymonlariga o'xshash, deb aytmayman". Muhammad ibn Hasan: "Men: "Iymonim Jabroil alayhissalomning iymoniga o'xshash", degan kishini yomon ko'raman. Balki Jabroil va Mikoil iymon keltirgan zotga iymon keltirdim, desin, shuningdek, iymonim Abu Bakr (roziyallohu anhu) iymonlaridek deb aytmasin, lekin Abu Bakr (roziyallohu anhu) iymon keltirgan zotga iymon keltirdim, deb aytsin", deydi.

Muhammad ibn Hasan yana aytdiki: "Sufyon Savriy: "Inshaalloh, men mo'minman", deb aytar edi, so'ng bu so'zidan qaytdi va istisnoni tark etdi va: "Men mo'minman", dedi".

Muhammad ibn Hasan yana aytadi: "Agar ish mening qo'limda bo'lganida, qamoqlarni o'g'rilar bilan emas, iymonim Jabroil alayhissalomning iymonidek, deb aytadigan kishilar bilan to'ldirar edim. Vaholanki, men, Jabroil alayxissalom iymon keltirgan zotga iymon keltirdim, deb aytaman".

## **122-bob** **Iymon amalmi yoki iqror**

Faqih aytadilar: Odamlar iymon haqida gapirib, ba'zilar, iymon so'z va amaldir, dedi. Bu Ahmad ibn Hanbal va Ishaq ibn Rohavayh va unga ergashganlarning so'zi: Ba'zilar, iymon – qalb bilan tanish, dedi. Bu Jahm ibn Safvan va unga ergashganlarning so'zi. Boshqalar, iymon til bilan iqror bo'lib, qalb bilan tasdiqlash va uning shariat – qonunlariga amal qilish, dedilar, bu Abu Hanifa va unga ergashganlarning so'zidir. Biz shu gapni olamiz. Iymon so'z va amaldan iborat, degan kishilarni hujjati Alloh taoloning

ushbu oyatidir:

"Alloh iymonlaringizni (ya'ni, namozlaringizni) zoe' qilguvchi emasdir" (Baqara, 143) – Alloh taolo Quddusga qarab o'qilgan namozning zoe' bo'lmasligini aytdi.

Iymon so'zdan iborat degan kishilarning hujjati Alloh taoloning ushbu so'zi:

"Aytgan gaplari sababli Alloh ularni mukofotladi" (Moida, 85).

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Men insonlar hatto "La ilaha illalloh" deb aytgunlarigacha urush qilishga buyurildim. Agar bu so'zni aytsalar, mendan qonlari va mollarini saqlaydilar yoki haqqini (jiz'ya) berib saqlaydilar ularning hisob-kitobi Allohga havola", dedilar. Iymon-qalb bilan tanish, degan kishilarning hujjati, agar kishi kufr e'tiqodda bo'lsa, buni gapirma ham, u kofirga aylanadi. Shuningdek, iymon keltirsa va uni gapirma ham, mo'min bo'laveradi.

Iymon-til bilan iqror bo'lish, qalb bilan tasdiqlash, deganlar Jabroil alayhissalom Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) huzurlariga kirib, iymon haqida so'rganida, Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Iymon Allohga va Uning maloikalari, kitoblari, rasullari, oxirat kuni, o'limdan keyin tirilish, qadarning yaxshi va yomonligi Alloh taolodan ekaniga iymon keltirish", deb bergan javoblariga suyanishadi. Jabroil alayhissalom shunda: "Rost gapirdingiz, deganlar. Jabroil alayhissalom bu bilan sahobalarga ta'lim berishni, din va shariatni zohir qilishni xohladilar, Alloh taolo:

"Ayting: "Ey ahli kitob, bizga ham, sizga ham barobar bo'lgan bir so'zga kelingiz" (Oli Imron, 64), deb aytgan. Sobit bo'ldiki, kishi so'z bilan mo'min bo'ladi, so'z tasdiqlash bilangina to'liq bo'ladi, chunki Alloh taolo munofiqlar qissasida:

"Odamlar orasida shunday kimsalar ham borki, o'zlari mo'min bo'lmaganlari holda "Allohga va oxiratga iymon keltirdik", deydilar" (Baqara, 8), degan. Alloh ulardan iymonni nafiy qildi, chunki ularda so'zning tasdig'i yo'q edi. Agar so'z tasdiq bilan birga topilsa, mo'min bo'ladi.

### **123-bob**

#### **Iymon maxluqmi, maxluq emasmi**

Faqih aytadilar: Odamlar iymon haqida ixtilof qilishdi. Ba'zilar uni maxluq dedi; ba'zilar maxluq emas, dedi. Iymon maxluq deganlarning hujjati: albatta iymon til bilan iqror bo'lish va qalb bilan tasdiqlash va ular (iqror va tasdiqlash) bandalarning fe'llari ekan, iymon maxluqdir. Chunki banda butun fe'llari bilan maxluqdir. Alloh taolo:

"Alloh sizlarni va qilayotgan amallaringni yaratdi" (Soffat, 96), degan. Iymon maxluq emas deganlarning hujjati: iymon "La ilaha illalloh", "Va ashhadu al-la ilaha ilalloh" deb guvohlik berishdir. Bu Allohning kalomidir va Allohning kalomi maxluq emasdir. Kimki bu kalomni maxluq deb, gumon qilsa, Qur'onni maxluq deb gumon qilibdi.

Faqih aytadilar: Bir so'z bilan aytganda, bu masalada ixtilof yo'q, chunki kimki iymonni

maxluq desa, bu bilan bandaning fe'lini va lafzini iroda qilibdi. Biz buni olmaymiz. Kimki maxluq emas desa, u bu bilan shahodat kalimasini iroda qilibdi, biz shuni olamiz. Vallohu a'lam.

## **124-bob** **Qur'on haqidagi so'zlar**

Faqih aytadilar: Odamlar Qur'on haqida gapirishdi. Ba'zilar: "U maxluq, chunki sahifalarda yozilgan", deyishdi. Bu Bashir Marisiy, Husayn Najjor va ularga ergashganlarning so'zi. Ba'zilar: "Qur'on maxluq emas va u mushaflarda yozilmagan", dedi. Bu Abu Abdulloh ibn Kirom, Qilobiy va ularga ergashganlarning so'zi. Ba'zilar: "U Allohning vahiyi, Alloh uni tushirgan va biz bu maxluq yoki g'ayri maxluq deb aytmaymiz", deydi. Bu Jahmiy va unga ergashganlarning so'zi. Ba'zilar: "Qur'on mushafda yozilgan va u g'ayri maxluq", dedi. Bu Ibrohim ibn Yusuf, uning tug'ishgani Zohid va mashoixlarimiz mazhabining so'zi. Qur'on maxluq, deganlar Alloh taoloning ushbu oyatlarini dalil qilishadi:

"Alloh hamma narsani yaratuvchidir" (An'om 102);

"Biz uni arabiy Qur'on holida nozil qildik" (Yusuf, 2).

Qur'onni maxluq emas, deganlar Ibn Abbosning:

"(Biz uni) biror egrilik bo'lmagan arabiy Qur'on holida (nozil qildik)" (Zumar, 28), oyati haqidagi Qur'on g'ayri maxluq, degan so'zlarini olishdi. Sufyon ibn Uyayna Alloh taoloning:

"Ogoh bo'lingizkim, yaratish va buyurish faqat Unga xosdir" (A'rof, 54), oyati haqida shunday deganlari rivoyat qilinadi: "Xalq yaratish – maxluqlar, buyurish – Qur'on va u maxluq emasdir, u haqda har xil fikrda bo'lmanglar".

Muhammad ibn Abu Bakr Maloiy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ja'fardan, u Muhammad ibn Azhardan rivoyat qiladi: "Men Abu Bakr Muhammad ibn Askarning Bog'odda: "Qur'on Allohning kalomi, maxluq emas, kim uni maxluq desa, Allohga kofir bo'libdi va kim lafz bilan aytib, so'ng to'xtasa, u Jahmiy bo'ladi", deb aytganini eshitdim.

Sufyon Savriy aytadilar: "Kim Qur'onni maxluq desa, u kofir bo'ladi". Anas ibn Molikdan bir kishi "Qur'on maxluq", deb aytgan kishi haqida so'radi. Anas ibn Molik: "Kim Qur'onni maxluq desa, u kofir bo'ladi, uni o'ldiringlar", dedilar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Allohning butun tom kalimalari bilan panoh tilayman", dedilar. Darhaqiqat, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Allohdan boshqadan panox tilashdan qaytargan edilar. Demak, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Allohning kalomi bilan panoh tilagach, u maxluq emasligi isbot bo'ladi, chunki maxluq biror narsadan panoh bera olmaydi.

Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qilinadi: "Alloh taolo yaratgan narsani birinchisi qalam", deganlar. Agar Allohning kalomi maxluq bo'lganida Ibn Abbos Alloh yaratgan narsaning birinchisi so'z deb aytgan bo'lar edilar, chunki Alloh taolo narsalarni "kun" (bo'l) degan so'zi bilan yaratdi.

## 125-bob Allohni ko'rish haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Odamlar Allohni ko'rish haqida turlicha gapirishdi. Ba'zilar: "Boriy subonahu va taolo dunyo va oxiratda ko'rinmaydi", dedi. Ba'zilar: "Jannat ahli Allohni oxiratda kayfiyatsiz va tashbehsiz ko'radilar, xuddi ular dunyoda o'xshatishsiz bilganlaridek", deyishdi. Biz shu gapni olamiz va bu sahih, bid'addan uzoq.

Alloh subhonahu va taolo ko'rinmaydi, deganlar Alloh taoloning:

"Ko'zlar Unga eta olmas" (An'om, 103), oyatini va Muso alayhissalomga aytgan

"Sen Meni hargiz ko'rolmassan" (A'rof, 143), degan so'zini hujjat qilishdi. Uni ko'radi, deb aytganlar Alloh taoloning:

"U kunda (mo'minlarning) yuzlari yashnab, Parvardigorlariga boqib turuvchidir" (Qiyomat, 22–23);

"Chiroyli amal qilganlar uchun go'zal oqibat va ziyoda ne'matlar bordir" (Yunus, 26) degan so'zlarini hujjat qilib olishdi. Ibn Abbos (roziyallohu anhumo): "ziyoda ne'mat"ni Allohni kayfiyatsiz ko'rish, deb aytganlar. Alloh taolo yana aytadi:

"Hech shak-shubha yo'qki, ular o'sha kunda Parvardigorlaridan to'silguvchidirlar" (Mutaffifin, 15).

Jarir ibn Abdulloh Bajliy rivoyat qiladi: "Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam): "Yaqinda Parvardigorlaringni hech narsa to'smagan to'lin oyni ko'rgandek ko'rasizlar. Quyosh chiqishdan oldin va botishidan oldin namozga mag'lub bo'lmaslikka qodir bo'lsanglar, shuni qilinglar", dedilar, so'ng ushbu oyatni tilovat qildilar:

"... va quyosh chiqishidan ilgari va botishidan avval Parvardigoringizga hamdu sano aytish bilan (U zotni) poklang – namoz o'qing!" (Toha, 13).

Faqih aytadilar: Ibn Osim: "Ahli sunna Alloh taolo bu dunyoda birorta mahluqqa ko'rinmaydi, jannat ahli Uni oxiratda ko'radi", deb ijmo qilgan, dedi. Vallohu a'lam.

## 126-bob Sahobalar haqida qanday gapirish lozim?

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Aqlli kishi sahobalar haqida yaxshi so'zlash va dini salomat bo'lishi uchun ularni faqat yaxshilik bilan eslash lozim.

Abdulloh ibn Mug'fal Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Alloh, Alloh, mendan keyin sahobalarim haqida yomon g'arazda bo'lmanglar, bas, kimki ularni yaxshi ko'rsa, men ham ularni muhabbatim bilan sevaman, kimki ularni yomon ko'rsa, men ularni g'azabim bilan yomon ko'raman, kimki ularga aziyat etkazsa, batahqiq, menga ozor beribdi, kimki menga ozor bersa, Allohga ozor beribdi va kimki Allohga ozor bersa, Alloh uni tezda ushlaydi".

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) minbarda turib: "Bu ummatning payg'ambaridan keyingi eng yaxshirog'i –Abu Bakr (roziyallohu anhu), Abu Bakrdan (roziyallohu anhu) keyin eng yaxshisi Umar (roziyallohu anhu). Allohga qasamki, agar xohlasam, uchinchisini aytaman", dedilar. Ba'zilar: "U zot Usmonni nazarda tutdilar", deyishadi, ba'zilar esa: O'zlarini nazarda tutdilar", deyishadi. Muhammad ibn Fazl aytdilar: "Albatta, bu ummat payg'ambarlaidan keyin yaxshi kishi Abu Bakr (roziyallohu anhu), keyin Umar (roziyallohu anhu) deb ijmo qilishdi, Usmon va Ali (roziyallohu anhu) o'rtasida ixtilof qilishdi. Bas, biz aytamizki, So'ng Usmon (roziyallohu anhu), so'ng Ali (roziyallohu anhu), so'ng qolgan sahobalar. Ular hammasi yaxshi va solihlardir. Ularni faqat yaxshilik bilan eslaymiz, gapiramiz".

Ibrohim Naxa'iydan sahobalar o'rtasida bo'lgan urush haqida so'rashganda: "Bizning qo'llarimiz o'sha qonlardan salomat va tillarimiz u bilan bulg'anmaydi", deb javob berdilar.

Abu Hurayra Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlarini rivoyat qilganlar: "Ushbu to'rt kishining muhabbati faqat mo'min kishining qalbida jamlanadi. Ular: Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (roziyallohu anhum)".

Abu Ishoq Hamadoniy Qosi'dan, u Alidan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: "Rusululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh menga Abu Bakrni ota, Umarni maslahatchi, Usmonni suyanchiq va Alini yordamchi qilib olishimni buyurdi. Ushbu to'rt kishidan Alloh taolo Ummul kitobda va'da-ahdlarini olgan. Ogoh bo'lingki, ularni faqat taqvodor mo'min yaxshi ko'radi va badbaxt faqat fojir yomon ko'radi. Bas, ular nubuvvatimning o'rinbosarlari, dunyoimning marjonlari, ishimning pokligi va hikmatimning ma'danlaridir, bular bilan aloqalarni uzmanglar, hasad qilmanglar", dedilar.

Abu Zubayr Jobir ibn Abdullohdan, u zot Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Abu Bakr vazirim va mendan keyin ummatimning orasida qoim (boshliq), Umar do'stim, Usmon bilan Ali birodarim va bayroqdorim".

Muhammad ibn Jubayr otasidan rivoyat qiladi: "Bir xotin Rasululloh huzurlariga keldi, zot ayolga bir ish buyurdilar. Shunda u xotin: "Ayting-chi, agar sizni topa olmasam, nima qilaman", dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Agar meni topa olmasang, Abu Bakrning oldiga kel", dedilar".

Abu Ismat Nuh ibn Maryam rivoyat qiladi: "Men Abu Hanifadan ahli sunnat val jamoat kimlar, deb so'radim. U kishi: "Abu Bakr (roziyallohu anhu) va Umarni (roziyallohu anhu) afzal bilgan, Usmon (roziyallohu anhu) va Alini (roziyallohu anhu) yaxshi ko'rgan va mahsiga mash tortishni to'g'ri bilib, ummatdan birontasini bir gunoh uchun kofirga chiqarmagan, qadarning yaxshi va yomonligi Allohdan deb, Alloh haqida biron narsa demagan va xurmo nabizini haromga chiqarmagan odamlar", deb aytdilar". Vallohu a'lam.

## **127-bob** **Taqdir haqida**

Faqih aytdilar: Agar taqdir haqida talashib-tortishmaslikka qurbing etsa, tortishma,

chunki bunga chuqur kirishdan qaytarilgan. Abdulloh ibn Ma'sud Nabiyydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Agar qadar haqida gapirilsa, o'zingizni tiyinglar, yulduzlar haqida gapirilsa, tiyilinglar va agar sahobalarim haqida gapirilsa, tiyilinglar".

Xabarlarda zikr qilinishicha, Uzayr alayhissalom Allohdan qadar to'g'risida so'rab dedi: "Ey Rabbim, Ssen yaxshilikni ham, yomonlikni ham belgilab qo'ygansan, ammo yomon ish qilishsa, ularni jazolaysan", dedilar. Alloh unga vahiy qilib: "Ey Uzayr, bu masala haqida Mendan so'rama, seni qaytarganimdan so'ng shu narsa haqida so'rasang, payg'ambarlar devonidan ismingni o'chiraman", dedi.

Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam): "Taqdirning yaxshiligi va yomonligi Alloh dandir" dedilar.

Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadi: Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) Jabroil iymon haqida so'raganida: "Iymon – Allohga, farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga va taqdirning yaxshi va yomonligi Allohdan ekaniga iymon keltirishing", dedilar.

Amr ibn Shuayb otasiban, otasi buvasidan rivoyat qiladi: "Biz Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) oldlarida o'tirgan edik, Abu Bakr va Umar (roziyallohu anhumo) bir to'da odamlar bilan kelib, Rasulullohga salom berishdi. Shunda ba'zilar: "Ey Allohning elchisi, taqdirning yaxshi va yomonligi Allohdanmi yoki yaxshilik Allohdan, yomonlik bizdanmi?", deyishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Ikkalasi ham Allohdan", dedilar. Abu Bakr (roziyallohu anhu): "Hasanotlar (yaxshiliklar) Allohdan, yomonliklar bizdan", dedilar. Umar (roziyallohu anhu): "Yaxshiliklar ham, yomonliklar ham Allohdan", dedilar. Odamlarning ba'zisi Abu Bakrga (roziyallohu anhu) ergashdi, ba'zisi Umarga (roziyallohu anhu). Shunda Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh Jabroil va Mikoil orasida hukm qilganidek, o'rtalaringda hukm qilaman. Jabroil, ey Umar, sening gapingni gapirdi, ey Abu Bakr, Mikoil sening gappingga o'xshash narsani aytdi, shunda Jabroil aytdiki: "Agar samo-yu er ahli ixtilof qilsa, ketdik, Isrofilning hukmiga murojaat qilamiz", dedi. Ular Isrofilga voqeani so'zlab berishdi va Isrofil ularning orasida qozilik qilib, albatta, qadarning yaxshi va yomonligi Allohdan ekanin aytdi", dedilar. So'ng Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Men ham o'rtalaringizda shunday hukm chiqaraman", deb "Ey Abu Bakr, agar Alloh erda o'ziga osiylik qilishlarini xohlamaganida, iblisni yaratmagan bo'lar edi", dedilar". Vallohu a'lam.

## **128-bob** **Rofiziylar haqida**

Faqih aytdilar: Ali (roziyallohu anhu): "Mening ustimdan ikki kishi halok bo'ladi: o'ta yaxshi ko'ruvchi va o'ta yomon ko'ruvchi", dedilar. Yana aytdilarki: "Oxir zamonda bir qavm chiqadi, bizning firqamizni da'vo qilishadi, ammo ular bizning firqamizdan emaslar. Ularni rofiziylar deyishadi. Bas, agar ularni uchratsangiz, o'ldiringiz, ular mushriklardir".

Maymun ibn Mehron Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo), u zot Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Oxirgi zamonda rofiziylar degan qavm bo'ladi. Ular Islomni inkor qilishadi, undan voz kechishadi, bas, ularni qatil qilinglar, chunki ular mushrikdirlar".

Aytadilarki, kim sahobalarni so'ksa, kofirdir, kim ularni yomon ko'rsa, rofiziyydir.

Horun Rashid mazkur hadisga binoan, ularni qatl qilgan, deyishadi.

Omir Sha'biy aytadi: "Rofiziylilik xudosizlikka narvondir, rofiziyning barchasi zindiq – xudosiz ekanini ko'rdim".

### **129-bob**

#### **Namoz vaqtida ovqat hozir bo'lishi haqida**

Faqih aytadilar: Agar kishi taomini oldiga qo'yganida namoz vaqti kirib, taomini eb bo'lguncha namoz qazo bo'lmaydigan bo'lsa, ovqatini eb olib, so'ng namoz o'qishida zarar yo'q. Chunki ovqatlanishni boshlab qo'yib, namozga tursa, qalbi taom bilan mashg'ul bo'ladi. Ovqatlanaturib qalbi namozda bo'lishi namozda bo'lib qalbi taomda bo'lishidan afzalroqdir. Ibn Abbos (roziyallohu anhumo) namoz vaqtida kechki ovqat hozir bo'lib qolganida: "Malomatchi nafsdan boshlamayman", dedilar. Nofi' Ibn Umardan, u zot Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Agar birontangiz ovqatni ustida bo'lsa, undan etarlicha emasdan turib shoshilmasin va garchi namoz vaqti qoim bo'lsa ham".

Abdulloh ibn Arqam Rasulullohdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Agar birontangizga namoz vaqtida qazoyi hojat hozir bo'lsa, oldin hojatni chiqarsin". Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Sizlardan birontangiz bavl qilishni xohlagan holida namoz o'qimasin". Bundan ma'no shuki, uning qalbi namozdan boshqa narsa bilan mashg'ul bo'ladi.

### **130-bob**

#### **Safardan kechasi qaytishning karohiyati haqida**

Faqih aytadilar: Biror-bir kishi safardan qaytsa, uyiga kunduzi kirishi mustahabdir, ahli g'aflatda bo'lgan holatda kechasi ularning oldiga kelishi to'g'ri emas. Jobir ibn Abdulloh Rasulullohning shunday deganlarini rivoyat qilganlar: "Agar birontangiz g'oibdan (safardan) kelsa, eshigini kechqurun aslo taqillatmasin". Boshqa xabarda aytiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) g'azotdan qaytdilar va ashoblariga: "Uyingizning eshigini kechasi aslo taqillatmang", dedilar, ikki kishi taqillatgan edi, ular ayoli bilan erkakni topishdi".

Faqih aytadilar: Bu qaytariq mustahab qaytariqdir, tahrimiy qaytariq emas. Afzali ahliga kelganini bildirish. Kutib olishga tayyor bo'lishlari uchun. Agar bildirmasa, ahli bilmasdan kirib borsa, sunnatni tark qilgan bo'ladi, ammo harom emas. Vallohu a'lam.

### **131-bob**

#### **Yomg'ir paytida ulovning ustida namoz o'qish haqida**

Faqih aytadilar: Agar kishining uyi masjididan uzoq bo'lib, o'zi va kiyimiga yomg'irdan zarar etishidan qo'rqsa, namozni uyda o'qishi mumkin, bunga ruxsat bor. Nabiy

(sollallohu alayhi vasallam): "Agar poyabzalga zarar etsa, namoz ulovning ustida, dedilar va ruxsat berdilar, chunki ularning oyoq kiyimlari arabiy edi, agar yomg'irga chiqilsa, yaroqsiz bo'lib qolardi. Shuningdek, kiyimlari ust-boshlari yupun edi, gohida sovuqdan aziyat chekishardi. Shuning uchun ularga uyda namoz o'qishga ruxsat berildi. Ibn Abbosdan rivoyat qilinishicha, u zot yomg'irli kunda azon aytayotgan muazzinga: "Azoningda, namoz ulovda, degin", dedilar. Shunda odamlar u zotga qarashdi, Ibn Abbos: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) shunday qilganlar", dedilar. Nofi' Ibn Umardan, u kishi Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) qattiq sovuq bo'lsa, ulov ustida namoz o'qir edilar va muazzinlarga azon aytayotganda oxirida "G'mg'irli kechada ulovning ustida namoz o'qinglar", deb aytishni buyurar edilar".

### **132-bob**

#### **Qo'ng'iroqning karohiyati haqida**

Faqih aytadilar: Ibn Umar Ummu Habibidan, U Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi: "Qo'ng'irog'i bor karvonga maloikalar yo'ldosh bo'lmaydi".

Xolid ibn Ma'dan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) qo'ng'iroqli tuyani ko'rib: , "Anavi shaytonning ulovidir", dedilar". Oishaning (roziyallohu anho) huzurlariga bir ayol kirdi, u bilan birga oyog'iga qo'ng'iroqchalar taqilgan bola bor edi. Shunda Oisha onamiz: "Maloikalarni quvadiganni chiqarib yuboringlar", dedilar. Ularni chiqarib yuborishdi.

Omir ibn Abdulloh Rayhona ismli ayoldan rivoyat qiladilar. U ayol aytdi: "Umarning oldiga kirdim, yonimda oyog'iga qo'ng'iroq taqilgan bola bor edi. Umar: "Sherigingga bu shaytondan ekanining xabarini berib qo'y", dedilar".

Faqih aytadilar: Ulamolar, agar manfaati bo'lsa, hayvonga qo'ng'iroq taqish joiz, ammo o'yin uchun bo'lsa, mumkin emas, deyishgan.

### **133-bob**

#### **Ta'ziya bildirish haqida**

Faqih aytadilar: Boshiga musibat tushgan kishiga ta'ziya bildirish yaxshidir va unda ajr bor. Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) bu haqda ko'p rivoyatlar kelgan. U zot aytadilar: "Musulmonning musulmondagi haqqi – biriga musibat etsa, ko'nglini olib tasalli berishdir".

Mouviya ibn Qurra otasidan, otasi Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladi: "Ashoblardan biri ko'rinmay qoldi, Nabiy u haqda so'radilar, uning o'g'li vafot etganini aytishdi. "Biz bilan yuringlar, uning ko'nglini olib, tasalli beramiz", dedilar Nabiy. So'ng borib, ta'ziya bildirib keldik". Ahli musibat uchun uyda yoki masjidida uch kun o'tirishida va insonlar ta'ziya bildirib kelishlarida zarar yo'q. Chunki Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) Jafar ibn Abu Tolib, Zayd ibn Horisa va Abdulloh ibn Ravohaning o'limi xabari etgan vaqtda u zot masjidida o'tirar edilar, odamlar kelib, u zotga ta'ziya bildirishardi. Ammo hovlining eshigidan tashqarida o'tirish makruh, u johiliyat amallaridan, Nabiy



ushbu ishdan qaytarganlar.

### **134-bob**

#### **Musobaqalashish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Musobaqalashishda zarar yo'q. Musobaqalashish otlarning bir-biridan o'zish uchun yugurishidir. Agar buning evaziga ov-yutuq bo'lmasa zarari yo'q. Agar biror-bir narsani to'lash sharti bilan musobaqalashishsa, bu boradagi gap ikki turlidir: Agar g'olibga falon mukofot beriladi, deb musobaqalashish joiz emas, bu ish qimordir. Ammo mening otim o'zsa, menga falon mukofot, agar sening oting o'zsa, senga hech narsa yo'q, deb musobaqalashsa joizdir. Bas, to'lov bir tarafdin bo'lsa, joiz va ikki tarafdin bo'lsa, nojoiz. Agar to'lov ikki tomondan joiz bo'lishini xohlashsa, oralariga bir hakam kiritishadi va: mening otim yutsa, menga sendan falon narsa, agar sening oting yutsa, mendan senga falon narsa, uchinchimiz yutsa, unga hech narsa yo'q, deb shartlashishadi, shu joizdir. Mujohid Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Maloikalar sizlarning o'yinlaringizdan birontasida hozir bo'lmaydi, magar kamon otish va ot musobaqasida (hozir bo'ladi)".

Zuhriydan rivoyat qilinadi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) zamonlarida ot va tuyada, yana odamlar yugurishda musobaqalashishar edi".

Anasning (roziyallohu anhu) shunday deganlari rivoyat qilinadi: "Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) Azbo degan tuyalari bo'lib, hech kimniki undan o'zolmas edi. Bir arobiy yosh tuyasini minib keldi-da, o'zib ketdi. Bu musulmonlarga og'ir keldi. Shunda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Alloh har bir narsani o'z o'rniga qo'ygandan keyingina ko'taradi".

Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Oisha onamiz bilan musobaqalashganda Oisha onamiz Rasulullohdan o'zib ketdilar. Oisha onamiz yoshlari ulg'ayganda, yana musobaqalashganda Rasululloh o'zdilar va: "Ey Oisha, endi barobar bo'ldi", dedilar. Molik Yahyo ibn Said ibn Musayyabdan rivoyat qiladi: "Ot musobaqasida garov o'ynashda zarar yo'q, agar ikkisi orasida muhallil bo'lsa".

Faqih aytadilar: Musobaqadagi foyda shuki, qavm uchun chidamlilik, nafsni chiniqtirish, jangga tayyorgarlik bor. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Abu Bakr va Umar bilan musobaqalashganlari, Rasululloh birinchi, Abu Bakr ikkinchi va Umar uchinchi bo'lganlari rivoyat qilingan.

### **135-bob**

#### **Shirinlik sochish haqida**

Faqih aytadilar: To'yda yoki amirlar va askarlarga shirinlik sochilganda, ba'zilar, sochilgan narsani olishning zarari yo'q, desa, ba'zilar, joiz emas, deyishida, ba'zilar, esa to'yda bo'lsa, joiz, umarlarga sochilsa, joiz emas, deyishgan.

Joiz emas deganlarning hujjati Hamid Anas ibn Molikdan rivoyat qilgan hadisdir: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) biror narsani tortib yulib olishdan qaytarganlar va: "Tortib

yulib oluvchilar bizdan emas", deganlar. Adiy ibn Sobit Abdulloh ibn Zayd Xutamiydan rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) musla (o'liklarning a'zolarini kesish) va tortib olishdan qaytarganlar". Abdulloh ibn Ma'sud gar go'daklarga shirinlik sochsalar, o'z bolalarini undan olishdan qaytarib, ularga o'sha narsani sotib olib berardilar.

Shirinlik terib olishning zarari yo'q, deganlar bu ishni muboh bilishgan. Hasan va Ikrimalar to'yda shirinlikni terib olishlikning zarari yo'q, deb hisoblar edilar. Sha'biy aytadilar: "Egasi chin qalbdan sochmagan narsasini olish makruhdur. Ammo qalbdan qilgan bo'lsa, zarari yo'q".

To'yda joiz, ulamolarga sochilgani makruh, deganlar quyidagi rivoyatni ushlaganlar: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ansoriy bir yigitning to'yida ishtirok etdilar. Joriyalar tovoqlarda qant va yong'oq keltirdi, ammo undan hech kim olmadi. Rasululloh: "Talashib-tortishib olmaysizlarmi?!" dedilar. Ular "Qaytarar edingiz-ku?!", deyishdi. Rasululloh: "U askarlarda edi, ammo to'yda zarari yo'q", dedilar.

Faqih aytadilar: Shunga amal qilamiz, agar to'yda bo'lsa yoki ziyofatda yoki bir kishiki qurbonlik qilib, go'shtini odamlarga tarqatsa, yoki bir kishi safardan kelib, biror narsa sochilsa, uni olishning zarari yo'q. Agar sochilgan narsa amirlar uchun bo'lsa, makruh, olish joiz emas, chunki ularga sochilgan narsa poradir. Amirlarga hadya berish makruhligi barchaga ma'lum. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Umarolar hadyasi g'aluldir", deganlar. Shuningdek, ularga hadya sochish va jonliq so'yish ham. Ammo go'shti qamoqdagilarga berilsa joiz.

### **136-bob**

#### **Hadya olish va berish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Bilgilki, agar bir inson senga hadya bersa va u zolim bo'lmasa, moli halol bo'lsa, afzal ish hadyani olishing va unga berganidan ham yaxshiroq narsani sovg'a qilishingdir. Agar sovg'a berishga ojiz bo'lsang, uning haqqiga duo va yaxshi so'z bilan mukofotla. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki insonlarga shukr qilmasa (ya'ni minnatdor bo'lmasa) Allohga shukr qilmaydi", degalar. Ibn Umar aytadilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki sizlarga biron-bir qadrli narsa hadya qilsa, unga ham javob hadyasi bering, agar berishga hech narsa topa olmasangiz, mukofotlaganingizni bildirib haqqiga duo qiling", dedilar".

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Chaqirilgan joyga boringlar va hadyani qaytarmanglar".

Anas Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): Hadya, samo' (eshitish) bag'ritoshlik va adovatni ketkizadi" dedilar. Ato Xurosoniy Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam): "Bir-birlaringiz bilan qo'l berib so'rashib turinglar, so'rashish g'azabni ketkazadi, bir-birlaringizga hadya berib turinglar, o'zaro muhabbatli bo'lasizlar, hadya g'azabni, bir-birini yomon ko'rishni ketkazadi", deganlarini rivoyat qilganlar. Jobir Payg'ambardan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Odamlar ichida Allohga ko'p shukr qilgani odamlardan ko'p minnatdor bo'lganidir. Oziga shukr qilmagan ko'piga ham shukr qilmaydi".

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Kimgaki biron yaxshi narsa hadya qilinsa, undan ham yaxshiroq narsa bilan mukofotlasin, agar mukofotlashga qurbi etmasa, tashakkur aytib, hadya qilgan kishini maqtab, ko'nglini olsin, agar shukr qilmay, uni maqtamasa, ne'matga noshukrchilik qilibdi".

Ibn Abbos Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Kimga hadya berilsa, uning huzurida bo'lganlar hadyada unga sherikdirlar".

Faqih aytadilar: Insonlar hadisning ma'nosi va ta'vili haqida turlicha fikrlar aytishdi. Ba'zilar: "Hadisning zohiri olinadi, kimga hadya berilsa, atrofida o'tirganlar bilan hadyani bo'lishadi", degan bo'lsalar, fiqh ahli "Xabar mustahab vajhidadir, ular bilan bo'lishishi oliyjanoblik va muruvvatdir agar bunday qilmasa, majbur qilinmaydi", deydi.

Abu Yusuf Qoziyga bir narsa hadya qilinganida, atrofida o'tirgan ba'zilar o'sha hadisni rivoyat qilishdi. Shunda Abu Yusuf aytdilar: "Hadis meva va shunga o'xshagan narsalar haqida, Abu Qosim Ahmad ibn Ahmadga hadya qilinganida, unga ham shu hadis aytili. U kishi ular xursandchilikda sherikdirlar, hadyada emas, dedilar", deb javob berdilar. Ba'zilar aytishadiki: Xabar ashobi suffa va ahli xonaqohlar haqida, ammo fuqaholarga hadya berilsa, ashoblari uchun sheriklik yo'q, agar xohlasa, ularni saxovat yuzasidan sherik qiladi".

### **137-bob**

#### **Aksa uruvchiga tashmit aytish to'g'risida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Anas ibn Molik rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam) huzurlarida ikki kishi aksa urdi. Rasululloh biriga tashmit (yarhamukalloh lafzini) aytdilar, ikkinchisiga aytmadilar. So'rashdi: "Yo Rasululloh, bunga tashmit aytib, unga aytmadingiz", "Bunisi Allohga hamd aytdi, unisi aytmadi", dedilar.

Faqih aytadilar: Kishi aksa urganda ovozini pasaytirishi va gapini eshitishlari uchun baland ovozda Allohga hamd aytishi yaxshidir. Uning hamd aytganini eshitganlarga tashmit aytib javob berish vojib bo'ladi.

Ibn Umardan rivoyat qilinadi: U zot bir kishining aksa urganini eshitib: "Alloh senga raxim qilsin, agar hamd aytgan bo'lsang", dedilar. Molik Abdulloh ibn Abu Bakr ibn Amr ibn Hazmdan, u otasidan rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Agar kishi aksa ursa, unga tashmit ayt, yana aksa ursa, tashmit ayt, so'ng yana aksa ursa, unga, sening tobing qochibdi, degin". Abdulloh aytadilar: "Uchinchisidan keyinmidi yo to'rtinchisidan, bilmadim".

Abu Hurayra: "Aksa uruvchiga uch marta tashmit ayt, agar ziyoda aksa ursa, bas, u shamollagan", deganlar. Sha'biy aytadilar: "Tashmit aytishlik bir marta, sajda oyatiga sajda qilgani kabi, agar qaytarsa, sajda qilmaydi".

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aksa ursalar, boshlarini egib, yuzlarini berkitib, ovozlari pasaytirib, aksa urardilar, deyilgan.

Faqih aytadilar: Agar bir kishi aksa urganda boshqasi hamd aytsa, bu narsa yaxshidir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam)ning shunday deganlari rivoyat qilinadi: "Kimki aksa uruvchidan oldin hamd aytsa, shavsdan, lavsdan va 'ulusdan omon qolibdi". Ahli lug'atlar aytadiki: "Shavs – til va bel og'rig'idir, lavs – quloq va biqin og'rig'i, 'ulus – qorin og'rig'i".

### **138-bob**

#### **Insonlar bilan murosa qilish haqida**

Faqih aytadilar: Kishi iloji boricha insonlar bilan murosa qilishi, ular bilan tortishmasligi, xusumatlashmasligi lozim. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam)dan rivoyat qilinadi: "Alloh meni butlarga sig'inishdan qaytarganidan keyingi birinchi qaytargan narsasi – xamr ichish va kishilar bilan urushib tortishishdir". Jobir Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Insonlar bilan murosa qilish sadaqadir". Said ibn Musayyab Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Allohga iymon keltirishdan keyingi aqlli ish insonlar bilan murosa qilishdir".

Ba'zi hukamolar aytishadi: "Kimki ota-onasiga oq bo'lsa, bolasidan xursandchilik ko'rmaydi, kimki ishda maslahat so'ramasa, hojat-maqсадiga etmaydi, kimki ahli bilan murosa qilmasa, hayotining lazzati ketadi. Kishi uyiga kirsam, ahliga salom berishi, yaxshilab o'tirib joylashmaguncha gapirmasligi, agarda gapirsa, muloyimlik, murosai madora va mehr-muhabbat bilan gapirishi mustahabdir. Chunki Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlarning yaxshilaringiz ahliga yaxshilaringizdir", deganlar. Alloh taolo: "Ular bilan totuv yashanglar" (Niso 19-oyat), deydi".

Sufyoni Safriy: "Agar ayoling sendan g'azablansa va jahl qilsa, kaftingni uning kaftlari orasiga urib: "Ey najas xabis, pok jasaddan chiq", deb ayt. Allohning izni bilan chiqadi", deyдилar.

Amr ibn Maymun aytadilar: "Uch toifa borki behosil, befoyda, beunumdir, uch toifa borki, ularning duosi ijobat bo'lmaydi va yana uch toifa borki, ular jannatga kirmaydi. Behosil-beunumlardan biri amir, agar unga yaxshilik qilsang, senga tashakkur bildirmaydi, agar yomonlik qilsang, seni kechirmaydi. Ikkinchisi yomon qo'shni, sendan yaxshilik ko'rsa oshkor qilmaydi, yomonlik ko'rsa, berkitmaydi. Uchinchisi yomon ayol, agar uni ko'rsang, ko'zing quvonmaydi, ketsang ko'ngling xotirjam bo'lmaydi. Duolari ijobat bo'lmaydiganlarning birinchisi yaqin qarindoshini undan mahrum bo'lish uchun bad duo qilgan kishi. Ikkinchisi, belgilangan muddatga qarz olib, vaqtida bermagan kishi. Uchinchisi, Parvardigoro, meni xotinimdan xotirjam qil, degan kishi. Alloh taolo unga, xotiningni ishi qo'lingda, xohlasang uni taloq qil, xohlasang, u bilan yasha, deydi. Jannatga kirmaydigan toifa: ota-onasiga oq bo'lganlar, xamr – aroqqa mukkasidan ketganlar va minnatchi. Vallohu a'lam.

### **139-bob**

#### **So'zda o'xshatishlar qilish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ibn Abbos (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) gapirganlarida o'xshatishlar – so'z o'yinlarini

qilar edilar. Masalan, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) deganlar: "Mo'min kishi ikki marotaba aldanmaydi"; "Mo'min bir teshikdan ikki marta chaqilmaydi"; "Kishining so'zi qo'lidan ko'proq zarar etkazadi"; "Nafsigga g'olib bo'lgan kishi kuchlidir"; "Hozir qattiq jang qizimoqda"; "Xabarni eshitish uni ko'rish kabi emas"; "Shohid g'oib ko'rmagan narsani ko'radi"; "Qavmga suv quyuvchi oxirida ichadi"; "Agar bir tog' boshqa tog'ga tajovuz qilsa, Alloh taolo uni parchalab tashlaydi"; "Urush hiyladir"; "Avval o'zingdan boshla, so'ng qo'l ostingdagilardan"; "Balo tilga vakil qilingandir"; "Musulmon musulmonning oynasi"; "Insonlar taroqning tishlari kabi"; "Yomonlikni tark qilish sadaqadir"; "Qavmning sayyidi ularni xizmatkoridir", "Ba'zi she'rlarda hikmat bor, ba'zi bayonlarda sehr bor"; "Mo'minning niyati amalidan yaxshiroqdir". "Erdagilarga rahm qilsang, osmondagi zot senga rahm qiladi"; "Maslahatlashilgan ish ishonchlidir"; "Kim rahm qilmasa, rahm qilinmaydi"; "Hadya qilgan narsasini qaytarib oluvchi qayt qilgan narsasiga qaytguvchiga o'xshaydi"; "Yaxshilikka dalolat qiluvchi yaxshilik qiluvchi kishi kabidir"; "Biror narsaga muhabbat qo'yish seni ko'r va kar qiladi"; "Har bir yaxshilik sadaqadir"; "Adashgan faqat adashganga boshpana beradi"; "Boyning biror-bir narsani berishini cho'zishi zulmdir"; "Safar azobdan bir bo'lakdir"; "Insonlar oltin va kumush konlari kabi kondir. Sizlarning johiliyatdagi yaxshilaringiz Islom ham yaxshilaringizdir, agar tushunib, dinni yaxshi o'rgansa", "Zulm qiyomat kuni zulmatdir"; "Qalblar o'zlariga yaxshilik qilganlarni yaxshi ko'rishga va yomonlik qilganlarni yomon ko'rishga yaratildi"; "Insonlardan minnatdor bo'lmagan kishi Allohga ham shukr qilmaydi"; "Shohlarning adolati ularning saltanatini davomli qiladi", ya'ni adolatli podshoh garchi kofir bo'lsa ham, boqiy qoladi, johil podshoh garchi musulmon bo'lsa ham, yo'q bo'lib ketadi.

Ba'zi hukamolar aytadi: "Kimki o'z aybini ko'rsa, birovning aybi bilan ishi bo'lmay qoladi, kimki taqvo libosini echsa, biror-bir narsa bilan o'zini bekita olmaydi, kimki Alloh bergan rizqqa qanoat qilsa, qo'lidagi narsaga xafa bo'lmaydi, kimki zulm qilichini chiqarsa, shu qilich bilan o'zi chopiladi, kimki birodariga quduq qazisa, o'zi o'sha chuqurga tushadi, kimki o'zganing hijobini echsa, o'zini uyatli eri ochiladi, kimki o'z xatosini unutsa, o'zganing xatosi unga katta ko'rinadi, kimki ishlariga siqilib tashvish qilsa, halok bo'ladi, kimki o'z aqlidan behojat bo'lsa, adashadi, kimki odamlar orasida takabburlik qilsa sharmanda bo'ladi, ishda chuqur ketgan kishi malollanib qoladi, kimki insonlarga faxrlansa sinadi, kimki ahmoqlik qilsa, haqoratlanadi, kimki razil, pastkash kishilar bilan do'stlashsa, xor bo'ladi, kimki olimlar bilan o'tirsa, viqori oshadi, kimki yomon eshikka kirsam tuhmatga qoladi, qarzga beparvo bo'lgan kishi qiyin ahvolda qoladi, odamlar molini o'lja olgan kishi faqir bo'ladi, oqibatga qarab ish qilgan kishi sabrli bo'ladi, bilmay qadam qo'ygan kishi nadomatga qoladi, Allohdan qo'rqqan kishi najot topadi, ishlarda sinab ko'rilmagan kishi aldanadi, haq ahli bilan kurashgan kishi yiqiladi, toqati etmaydigan narsani ko'targan kishi ojiz qoladi, ajalini bilgan kishi orzusini qisqa qiladi, jahldan yordam so'ragan kishi adolatni tark qiladi, kuch va quvvat faqat Allohdan. Muslimning jizyasi – uyini ijaraga berishi, bo'ynini qullikdan ozod etishi – qarzini ado qilishi, bo'ynini xorlashi – qarz olishi, azoblanishi – ayolining yomon xulqi".

Ba'zi hukamolar aytishadi: "Do'stlar bilan uchrashish aqllarni urchitish", ya'ni, serhosil qilish.

Abu Muso Ash'ariy rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Qur'on o'qiydigan mo'minning misoli utrujjaga (apelsin) o'xshaydi, hidi ham, ta'mi ham shirin. Qur'on o'qimaydigan mo'minning misoli xurmoga o'xshaydi, tami shirin, hidi yo'q. Qur'on o'qiydigan fojirning misoli rayhonga o'xshaydi, hidi shirin, tami achchiq. Qur'on

o'qimaydigan fojirning misoli xanzalaga o'xshaydi, tami achchiq, hidi yo'q", dedilar".

Faqih aytadilar: Rasululloh bu o'rinda utrujja deganlarida hijoz ahlining mevasini nazirda tutdilar, uning hidi va mazasi shirin bo'ladi, lekin biz diyorumizdagi utrujjalarning hidi yaxshi bo'lsa ham, ta'mi yo'qdir. Vallohu a'lam.

## **140-bob** **Imoratlar, binolar haqida**

Faqih aytadilar: Ba'zi odamlar molini uy qurishga sarflashni makrux sanashadi va Abu Hurayra Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilgan hadisni hujjat keltirishdi: "Agar Alloh bandaga yomonlikni xohlasa, uning molini g'ishtda halok qiladi". Boshqa bir xabarda Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam): "Kim o'ziga etarli binodan ortiqcha uy qursa, qiyomat kuni uni bo'ynida ko'tarib keladi", deganlar.

Hasan Basriyga bir kishi: "Men hovli qurdim, kelib, baraka so'rab, bir duo qiling, dedi. Shunda Hasan sheriklari bilan bordilar va hovliga qarab; "O'zingni uyingni buzib, boshqa birovning hovlisini qurdingmi? Seni erdagilar aldabdi, osmondagilar yomon ko'ribdi", dedilar.

Ba'zilar:

"Buning ziyoni yo'q, chunki Alloh taolo: "Sizlarni Od (qavmi)dan keyin xalifa qilib qo'yganini va sizlarga Erning tekisliklarida (yozlik) qasrlar qurib olishingiz, tog'lik joylarida (qishlik) boshpanalar yo'nib (tiklab) olishingiz uchun maskan berganini eslangiz va erda buzg'unchilik qilib sang'ib yurmangiz!" (A'rof, 74), degan. Demak, qasrlarni qurish Alloh taoloning nematlaridan ekan. Yana bir oyatda:

"Ayting, "Alloh bandalari uchun chiqargan ziynatlar va halol-pok rizqni kim harom qildi?!" (A'rof, 32), deydi.

Zikr qilinishicha, Muhammad ibn Siyrinning o'g'li hovli qurdi va unga ko'p mol sarfladi. Bu ish Muhammad ibn Siyringa aytilganida, u zot: "Bir odam o'z molidan foydali bir narsa qurishida ziyoni yo'q deb o'ylayman", dedilar.

Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam): "Agar Alloh bandasiga ne'mat in'om qilsa, uning ustida bu ne'matning ko'rinib turishini yaxshi ko'raman", deganlar. Ne'matning asari chiroyli bino qurish va chiroyli kiyim kiyishdir. O'ylab ko'ring, agar katta pulga chiroyli joriyani sotib olsa, bu ish joiz bo'ladi, vaholanki, unga boshqasi ham kifoya qilardi. Bino ham shunga o'xshash.

Faqih aytadilar: Afzal ish molni oxirat uchun sarf qilishdir, agar dunyo ishida bino va kiyimga sarflasa, bu uchta narsadan saqlangandan so'ng harom emas: molini haromdan yoki shubhadan topmasa; muslimga ham, zimiyyga ham zulm qilmasa; Alloh taoloning farzlaridan biror-bir farzni zoe' qilmasa. Vallohu a'lam.

## **141-bob** **Kufr ahli bilan muomala haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Musulmonlar ahli zimma bilan muomala qilishida ziyon yo'q, agar bu muomala zarur narsalardan bo'lsa masalan, kasal bo'lgan holatida uni borib ko'rish va unga tavhid kalimasini talqin qilishning ziyoni yo'q. Darhaqiqat, Nabi (sollallohu alayhi vasallam) kasal bir yahudiyni borib ko'rganlar va unga Islomni taklif etganlar, so'ng u musulmon bo'lgan va iymonda vafot etgan. Rasululloh uning oldidan chiqib: "Men sababli do'zaxdan bir jonni ozod qilgan Zotga hamd bo'lsin", deganlar.

Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) bir nasroniynikiga kirdilar, u jon berayotgan edi. Rasululloh unga: "Allohga tavba qil", dedilar. Uning tili aylanmadi, shunda ko'zi bilan ishora etdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) tabassum qildilar, "Ey Rasululloh nima uchun tabassum qildingiz?", deyishdi. Rasululloh, "U ikkala ko'zi bilan imo qilganida Allah taolo: "Ey maloikalarim, men u imo qilgan narsani qabul etganimga sizlarni guvoh qilaman va uning imosini zoe' qilmayman", dedi", dedilar.

Musulmonlar ahli zimma bo'lgan qarindoshlariga hadya berishlarida va ularni hurmat qilishlarida ziyoni yo'q. Darhaqiqat, Nabi (sollallohu alayhi vasallam) tog'alariga bir joriyani hadya qilganlar, vaholanki, u kofir edi.

Maymun ibn Mahrondan rivoyat qilinadi: "Odamlar ichida Allah yo'lida yaxshi ko'radiganim va o'zim uchun yomon ko'radiganim bor, yana Allah yo'lida yomon ko'radiganim va o'zim uchun ham yomon ko'radiganim bor yana Allah uchun yaxshi ko'radiganim va o'zim uchun yaxshi ko'radiganim bor. Allah yo'lida yaxshi ko'rib, o'zim uchun yomon ko'radiganim menga foyda beradigan mo'min. Allah yo'lida va o'zim uchun yomon ko'radiganim, menga ozor beradigan kofir. Allah yo'lida yomon ko'rib, o'zim uchun yaxshi ko'radiganim, menga foyda beradigan kofir. Uni kofir bo'lgani uchun yomon ko'raman va menga bergan manfaati uchun yaxshi ko'raman".

## **142-bob** **Nonushtani erta qilish haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Nonushtani erta qilishda uchta xislat bor: og'izni xushbo'y qiladi, achchiqni bosadi va muruvvatni ziyoda qiladi". "Muruvvatni qanday ziyoda qiladi?", deb so'rashdi. U zot: "Agar uyimda nonushta qilsam, nafsim boshqaning taomini tama' qilmaydi", dedilar.

Zikr qilindiki, bir kishi Muoviya ibn Abu Sufyonnikiga kirganida, u zot ertalabki nonushtani qilayotgan edilar. Muoviya uni taomga chaqirdilar, u kishi nonushta qilganini aytdi. Shunda Muoviya: "Sen bu vaqtdan oldin ovqatlangan bo'lsang, ochko'zlik qilibsang", dedilar.

U kishi: "Men to'rt ish uchun qildim: Qorin muammosidan forig' bo'lish uchun; chanqaganimda ichdim; agar biror hojatim chiqsa bemalol bajaraveraman; agar bir taom ko'rsam, unga ishtaham qo'zg'amaydi", dedi.

Aytiladiki, nadomat to'rtta: bir kunlik nadomat, bir yillik nadomat, bir umrlik nadomat va

abadiy nadomat. Bir kunlik nadomat ushbu: bir kishi uyidan nonushta qilmasdan chiqadi, so'ng kutilmagan ish to'g'ri kelib qoladi, u uyiga qayta olmaydi va kuni bilan pushaymon bo'ladi. Bir yillik pushaymon ushbu: dehqon ekin ekishini tark qiladi va yilning oxirigacha pushaymon bo'ladi. Bir umrlik pushaymon ushbu: kishi o'ziga muvofiq kelmaydigan ayolga uylanib, umrining oxirigacha pushaymon bo'ladi. Abadiy pushaymonlik ushbu: kishi Alloh buyruqlarini tark qilib, Unga osiy bo'ladi va abadiy, pushaymon bo'ladi. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu): "Kim boqiylikni xohlasa, erta nonushta qilsin, ridoni yengil qilsin va ayollar bilan aloqani kam qilsin", dedilar. "Ridoni yengil qilish nima?" deb so'rashdi. "Qarzning kamligi", dedilar.

### **143-bob**

#### **Hukamolarning so'zlari haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Yazid Raqqoshiy: "Beshta narsa besh toifa kishida bo'lishi chiroyli emas: amirlarda yolg'on, hirs zohtlarda, nasabi ulug'larda ahmoqlik, boyda baxillik, kambag'alda manmanlik", dedilar.

Bu narsalar hech kim uchun yaxshi emas, lekin ularda bo'lishi yanada xunukroq.

Aytiladiki, o'n narsa o'n toifa odamlarda qabihdir: sultonlarda qiziqqonlik, boylarda baxillik, ulamolarda tama', faqirlarda hirs, hasab egasida hayoning kamligi, zohtlarning ahli dunyolar eshigiga borishi, qarilarda yigitlik xulqi, obidlarda johillik, g'oziyda qo'rqqoqlik, erkaklarning ayollarga o'xshashi va ayollarning erkaklarga o'xshashi.

Hukamolar aytishadi: "Tafakkur – nur, g'aflat – zulmat, jaholat – zalolat, odamlarning eng noqisi – ojiz kishiga zulm qilgani".

Ibrohim ibn Ziyod Adaviy: "Uchta narsa ko'ngilni xushnud etadi: chiroyli xotin, rizqqa kifoyalanish va mehribon birodar", deganlar.

Bir hakim zot aytadi: "Ilmni izlanishda, hikmatni ochlik mahalida" Islom nurini tungi namozda, xalqni haybatini Xoliqdan qo'rqishdan topdim".

Ja'far ibn Muhammad rivoyat qiladi: "Amirul mo'minin Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) oltita so'zni aytdilarki, biror odam johiliyatda ham, Islomda ham bu kabi so'zlarni aytmagan edi: birinchisi, kim so'zni muloyim qilsa, uni sevish vojib bo'ladi; ikkinchisi, kishi vafot etganidan keyin; uni qadri bilinadi; uchinchisi, har bir narsaning qiymati bor, er kishining qiymati chiroyli ko'rsatadigan narsasidir; to'rtinchisi, kimdan so'rasang (tilansang), sen uning asirisan; beshinchisi, bergan kishingga sen amirisan; oltinchisi, xohlagan narsangdan behojat bo'lg'in, sen uni nozirisan".

Ba'zi kitoblarda yozilishicha, kafil bo'lish la'natlangan va yomon ko'rilgan ishdir, unda oltita xislat bor: munkir kelish, ziyon ko'rish, yo'qotish, aloqani uzish, malomat va nadomat. Kim bu so'zga ishonmasa, tajribada sinab ko'rsin.

Yana aytiladiki, Rum podshosining eshigiga "Kafillikda nadomat, malomat va yo'qotish bor, deb yozilgan ekan.



Aytishlaricha, me'yoridan oshgan to'rt narsa kishini halok qiladi: ayol, ov, qimor va aroq.

Hukamolarning biri aytadi: "Kim adashgan kishi bilan do'st bo'lsa, dinini buzibdi kim fosiqni madh qilsa, ketibdi, kimki boshqani malomat qilsa, molidan baraka ko'tarilibdi, kim boy kishiga boyligi uchun tavoze' qilsa, iymoning uchdan biri ketibdi".

Hukamolarning yana biri aytadi: "Kim o'ziga berilgan narsaga qanoatlansa, berilmagan narsadan behojat bo'ladi, kim bilgan narsasiga amal qilsa, bilmagan narsasiga muvofiq keladi, kim o'ziga tegishli bo'lgan narsani tark qilsa, o'ziga tegishli bo'lmaganidan forig' bo'ladi".

Hakimlar aytishadi: "Hazil-mazaxdan chetlashgin, chunki unda yettita yomon xislat bor: birinchisi, taqvoni ketkazadi; ikkinchisi, haybatni yo'qotadi; uchinchisi, qalbni qattiqlashtiradi; to'rtinchisi, hamroh-sherikka xiyonat; beshinchisi, do'stlikni ketkazib, adovatni paydo qiladi; oltinchisi, aqllilar uni yomon ko'radi, ahmoqlar ustidan kuladi; yettinchisi, unga ergashgan kishining gunohi uning bo'ynida bo'ladi". Aytishlaricha, Zoe' bo'ladigan narsalar o'nta: undan so'ralmaydigan olim, amal qilinmaydigan ilm, qabul qilinmaydigan to'g'ri fikr, ishlatilmaydigan qurol-asbob, namoz o'qilmaydigan masjid, o'qilmaydigan mushaf, undan nafaqa qilinmaydigan mol, minilmaydigan oti, dunyoni istaydigan kishining zohidlik ilmi, qiyomat uchun dunyoda zodrohila qilinmagan uzun umr.

Bir kishi Ibn Abbosdan: "Ey ibn Abbos, aqlning boshi nima?", deb so'radi. U zot: "O'ziga zulm qilgan kishini kechirishi, o'zidan past kishiga tavoze' qilishi, o'ylab turib so'ng gapirishi", dedilar. Haligi kishi: "Joxillikning boshi nima?", deb so'radi. Ibn Abbos: "Kishi faxrlanishi, o'ziga tegishli bo'lmagan narsani ko'p gapirishi, odamlarni ayblashi", deb javob qildilar. "Odamlarning ziyinati nima?", deb so'radi so'ng. "Zaiflik qilmaslik, halim bo'lish, xolis soxiylik qilish, dunyo talab qilmasdan ibodat-ijtihad qilish", dedilar.

Bir hukamodan: "Aqlli odam kim?" deb so'radilar. U: "Uch narsani mahkam ushlagan odam haqiqiy oqildir: o'zi bilan Alloh o'rtasidagi toatlarda sidq va ixlosni mahkam ushlagan, o'zi bilan xalq orasidagi munosabatida yaxshilik va muruvvatni mahkam ushlagan, o'zi bilan xalq orasidagi balolar va musibatlarida sabr va qanoatni mahkam ushlagan kishi", dedi.

Bir hakim zot aytadi: "Odamlar to'rt toifadir: saxiy, baxil, isrofgar, tejamkor. Saxiy dunyodagi nasibasini oxirati uchun saqlab qo'ygan kishi; baxil dunyoda ham, oxiratda ham nasibasini qoldirmagan kishi; isrofgar oxirat nasibasini dunyoda ishlatgan kishi; tejamkor ikkala hayotda ham nasibasini olgan kishi".

Iso alayhissalom: "Ey havoriylar, din uchun dunyoning oziga rozi bo'linglar, xuddi dunyo ahli dunyo uchun dinning oziga rozi bo'lgandek", deganlar.

## **144-bob** **Tik turib bavl qilish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ba'zi odamlar tik turib bavl qilishga ruxsat bergan ba'zilar uzrsiz makruh sanashadi. Biz ikkinchi gapni olamiz.

Ruxsat berganlar Huzayfa (r.a.) rivoyat qilgan hadisni oladilar: "Nabiy bir xurmo tupiga borib, tikka turgan hollarida bavl qildilar, so'ng tahorat qilib mahsilariga mash tortdilar", deganlar.

Makruh, deganlar Oisha onamizdan rivoyat qilingan hadisni oladilar. Oisha onamiz: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) u kishiga Qur'on nozil bo'lganidan beri tik turib bavl qilmadilar. Kim senga Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) tik turib bavl qilganlar, desa, yolg'on gapiribdi, dedilar.

Nofe' Ibn Umardan rivoyat qiladi: "Umar (roziyallohu anhu): "Islomga kirgandan buyon tikka turib bavl qilmadim", degan ekan".

Ibn Abu Burayda otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "To'rtta narsa jafodir: kishining tik turib bavl qilishi; namozda peshonasini silashi; azonni eshitganda, shohidlik beriladiganidek shohidlik bermasligi; men zikr qilinganimda salovot aytmasligi", dedilar".

Huzayfa (r.a.) rivoyat qilgan xabarga kelsak, ehtimol Rasululloh o'rinning najosatligi yoki boshqa uzr sababli shunday qilgandirlar. Agar bu ehtimol qilinsa, makruh degan xabarlarini olish avlo. Aytiladiki, tik holatda bavl qilish makruh va harom sanaladi, chunki mushriklar shunday qiladi, vaholanki, musulmonlar mushriklarga o'xshashi haromdir. "Kim o'zini bir qavmga o'xshatsa, u ulardandir", degan rivoyat bor.

## **145-bob** **Hayvonlarni bichish haqida**

Ba'zi odamlar har qanday hayvonni bichishni makruh sanaydilar va Nabiydan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qilingan hadisni hujjat qiladilar: "Islomda bichish yo'q va qadimda bo'lganidan boshqa kanisa yo'q". Alloh taolo so'zida zikr qilingan (?) oyati ham bichish haqida aytilgan deyishadi.

Ibn Umar (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) tuyani, sigirni va otni bichishdan qaytardilar".

Ibn Umar aytadilarki: "Xalqni o'sishi u bilan, ayollarning islohi erkaklik. Bichish naslni kesadi, naslni kesish esa, joiz emas".

Ba'zilar: "Otdan boshqa hayvonlarni bichish joiz", deyдилar. Umar (roziyallohu anhu) otlarni bichishdan qaytargan ekanlar. Ba'zilar: "Hayvonlarni bichish joiz, ammo insonni bichish joiz emas", deyдилar. Biz ham shu gapni aytamiz, chunki hayvonni bichishda manfaat bor va odamlar shunga muhtojlar. So'yish joiz bo'lgani kabi, bichish ham joizdir. Rivoyat qilinishicha, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) ikkita bichilgan qo'chqorni qurbonlik qilganlar. Agar bichishda foyda bo'lmasa, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) qurbonlik uchun bichilganini ixtiyor qilmas edilar. Chunki bichilgan hayvonning go'shti shirin va ko'p bo'ladi. Demak, qo'yni bichish mumkin, shuningdek, boshqa hayvonlarni ham ham. Ammo "Islomda bichish yo'q", degan hadisdan murod, aksar ilm ahli nazdida, bani odamdir. Ba'zilar: "Buning ma'nosi kishi o'zini bichishi, bas, bundan qaytarilgan", deydi.

Agar, nima uchun bani odamni bichish joiz emas, bunda ham manfaat bor-ku, deyilsa, bunda manfaat yo'q, chunki bichilganda ham ayollarga qarash joiz emas. Shuningdek, Oisha onamiz va boshqalardan rivoyat qilinadi: "Erkakning (nomahram ayolga) qarashi joiz bo'lmaganidek, bichilganning ham qarashi joiz bo'lmaydi".

Ba'zi odamlar hayvonlarga en solishni yomon ko'rishgan, chunki bunda foyda yo'q, balki ularga azob berish bor, deydi. Ba'zilar: "Buni ziyoni yo'q, agar manfaat bo'lsa. U belgi uchun qo'yiladi", deyishadi. Darhaqiqat, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) qurbonlik tuya o'rkachining uchiga belgi qo'yganlari rivoyat qilingan. En solish ham shunga o'xshash. Ammo Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) hayvonlarning yuziga belgi qo'yishdan qaytarganlar, bas, bu xabarda yuzdan boshqa o'ringa belgi qo'yish joizligiga dalil bor.

### **146-bob**

#### **Xuftondan so'ng suhbat qilish haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Ba'zilar xuftondan keyin suhbat qurishni makruh sanashadi. Ba'zilar bunga ijizat berishgan. Makruh deganlar Nabi (sollallohu alayhi vasallam) xuftondan oldin uxlashni va xuftondan keyin gaplashishni qaytarganlari haqidagi rivoyatni hujjat qilishadi. Umar (roziyallohu anhu) suhbatni xuftondan keyinga qoldirmaganlari va: "Qaytinglar, shoyad Alloh sizlarga bir namozni yoki tahajjudni rizq qilib bersa", deganlari rivoyat qilinadi. Muboh deganlar Alqama Abdulloh ibn Ma'suddan rivoyat qilgan hadisni olishgan: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ko'pincha xuftondan keyin Abu Bakrning (roziyallohu anhu) uylarida musulmonlarning "ishi" haqida gaplashib o'tirganlar. Ibn Abbosdan rivoyat qilinishicha, Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) Masvar ibn Muxrima bilan Surayyo yulduzi chiqquncha gaplashib o'tirganlar.

Faqih aytadilar: Kechasidagi suhbat uch xildir: ilm tahsil qilish, bu uyqudan afzal; oldingilarning rivoyatlari, yolg'on gaplar va masxaralashlardan iborat suhbat bu makruhdur; do'stona suhbat, bunda yolg'on va botil so'zlardan chetlashilgan holda ziyoni yo'q. Ammo kechasi suhbatlashishdan tiyilish haqida nahiy kelgani sababli suhbatlashmaslik afzaldir. Mabodo, suhbat qursalar, Alloh taoloning zikri, tasbeh va istig'forda bo'lishlari lozim. Oisha (roziyallohu anho): "Kechasi musofir va namoz o'quvchidan boshqasi suhbat qurmaydi", deganlar. Ya'ni, musofir yurish uchun uyquni qochirishga muhtoj bo'ladi, shuning uchun unga muboh garchi bunda qurbat va toat bo'lmasa ham. Namoz o'quvchi esa, agar kechasi suhbat qursa, so'ng namoz o'qisa, keyin yotsa bas, uyqusi namozga ulanibdi. Shunda suhbatining oxiri toat bilan tugaydi.

### **147-bob**

#### **Qur'on suralarining soni haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Ibn Mas'uddan rivoyat qilinadi: "Qur'on suralarining hammasi 112 ta", deganlar u kishi, chunki muvvatayanni (Falaq va Nos suralarini) Qur'ondan hisoblamaganlar. Va ularni mushafga ham yozmaganlar, ammo ikkala sura ham osmondan tushganiga iqror bo'lganlar va Rabbul-olaminning kalomi, der edilar. Nabi (sollallohu alayhi vasallam) ular bilan dam solganlari uchun u ikkalasi

Qur'ondanmi yoki Qur'ondan emasmi, deb shubhalanib qolgandi. Mujohid Qur'on suralarini 113 ta, deganlar, Anfol va Tavba suralarini bitta hisoblaganlar. Ubay ibn Ka'b 116 ta, deganlar, chunki Qunut duosini ikki suradan iborat deb bilganlar. Zayd ibn Sobit 114 ta, deb aytganlar va bu gap Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) sahobalarining so'zidir. Usmon (roziyallohu anhu) mushafida ham, ansorlarning mushafida ham shunday. Vallohu a'lam.

### **148-bob**

#### **Qur'on oyatlari va kalimalarining adadi haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Qorilar Qur'on oyatlari soni haqida ixtilof qilishdi. Ixtiyor qilingan so'z ko'faliklarnikidir va bu sanoq Ali ibn Abu Tolibga (roziyallohu anhu) mansub – 6236 oyat. Ba'zilar bundan boshqaroq so'z ham aytgan. Abdulloh ibn Ma'sud Qur'on oyatlarini 6218 ta, deganlar. Ibn Abbos 6216 oyat deb aytganlar. Ismoil ibn Ja'far Madaniyning sanog'i 6214 oyat, makkaliklarniki 6212, basraliklarniki 6204, Shom ahlining hisobi bo'yicha 6226, Ibrohim Taymiyniki 6099 oyat. Ba'zi bir shomliklar 6250 oyat deyishgan. Jumhur ulamolar esa, 6266 oyat deyishgan.

Qorilar Qur'on kalimalari sanog'i haqida ham turli fikrdalar. Hamid A'raj: "Qur'on kalimalarining sanog'i 76430 ta", degan; Mujohid 77250 ta, Ato ibn Yasor 77439 ta, Abdulaziz ibn Abdulloh 77436 ta, deyishgan. Qorilar shu so'zlarni aytishdi, yana bundan boshqa so'zlar ham bor. Vallohu a'lam.

### **149-bob**

#### **Qur'on harflarining soni haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Abdulloh ibn Ma'sud (roziyallohu anhu): "Qur'on harflarining soni 322670 ta va Qur'on o'quvchiga har bir harf uchun uch hasanot bor", dedilar. Ibn Abbos (roziyallohu anhu): "Qur'on harflari 323621 ta yoki 323670 ta", deganlar. Mujohid 321621 ta, Ibrohim Taymiy 32315 ta, Abdulaziz ibn Abdulloh 321200 ta, deyishdi.

Aytishlaricha, Qur'on 321200 ta harfdan iborat, "alif" ning soni 48872 ta, "bo"ning soni 11428 ta, "ta"ning soni 10199 ta, "sa" harfi 27276 ta, "jim" 3193 ta, "ho" 3993 ta, "xo" 2416 ta, "dol" 5672 ta, "zol" 4697 ta, "ro" 11793 ta, "za" 1590 ta, "sin" 5891 ta, "shin" 2253 ta, "sod" 2310 ta, "zod" 1617 ta, "itqi" 1490 ta, "izg'i" 842 ta, "ayn" 9220 ta, "g'ayn" 2218 ta, "fo" 8499 ta, "qof" 6818 ta, "kof" 95 ta, "lom" 30432 ta, "mim" 26135 ta, "nun" 26560 ta, "vov" 25536 ta, "hoi-havvas" 10070 ta, "lom-alif" 4720 ta, "yo" 25919 ta. Bu haqda ixtilof ko'p, qorilardan bir jamoasi shu adadni aytishgan. Vallohu a'lam.

### **150-bob**

#### **Muallimlarning fazli haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Zayd ibn Aslama otasidan, otasi Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) ba'zi sahobalaridan rivoyat qiladi: "Payg'ambarlar va zohidlardan so'ng Alloh taologa bandalarining ichida eng afzali muallimlardir. Masjidlardan keyin er yuzidagi erlar ichida kitob tilovat qilingan bir parcha erdan

seviklirog'i Alloh taolo uchun yo'qdir".

Ibrohim Naxa'iy aytadilar: "Bolalarning muallimiga osmondagi farishtalar, erdagi hayvonlar, havodagi qushlar va dengizdagi baliqlar istig'for aytadi".

Aytilishicha, agar bola maktabga kirsa va "Bismillahir rohmanir rohiym" kalimasini o'rgansa, Alloh shu sababli uchta kishini – otasini, onasini va muallimini kechiradi.

Abu Said Xudriy: "Kishi o'g'il yo qiziga Qur'ondan o'rgatgan biror narsani yoki muallim uchun bergan biror dirhami sababli Uhud tog'ining og'irligicha (ajr topadi), agar bola uydin maktabga chiqsa, otasining uyida yaxshilik ko'payadi va yomonliklar kamayadi, shayton undan qochadi", deganlar. Hasan Basriy aytadilar: "Kim bolasiga Qur'onni o'rgatsa, Alloh unga qiyomat kunida jannat kiyimlaridan uchtasini kiygizadi. Ularning bittasi dunyo va undagi narsalardan yaxshiroqdir. Vaholanki, insonlar yalang'ochdir. So'ng unga Alloh kitobidagi, har bir harfi uchun daraja bor".

Abu Abdurahmon Sulaymoniy Usmon ibn Affondan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Sizlarning afzalingiz Qur'onni o'rganib so'ng, uni o'rgatganingiz", dedilar". Abdurahmon: "Bu hadis meni bu majlisga o'tkazdi", dedilar. Ya'ni, u kishi insonlarga ta'lim berar va Hasan va Xusaynlarning (roziyallohu anhumu) muallimi edilar. Zahhok ibn Abbosdan rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Haujjatul vadoda: "Ey Parvardigor, muallimlarni kechir, ularning umrlarining uzun qil va ularni kasblari va maishatlariga (tirikchiliklariga) baraka ber", dedilar".

Anas ibn Molik aytadilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ey Parvardigor, ulamolarni boy, muallimlarni faqir qil", dedilar. Faqih aytadilar: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Muallim ularning kasblariga baraka ber", degan so'zlarida kunlik ozuqani nazarda tutdilar, "ularni faqir qil", degan so'zlarida ularni mollari ko'paytirmasligini aytdilar, chunki ularning moli ko'paysa, ta'lim berishni tark qiladilar. Muallim savobga etishni, amali payg'ambarlar amalidan bo'lishini xohlasa, besh narsani yodda tutishi lozim: birinchisi, haqni shart qilmasligi va uni chuqur so'rab-surushtirmasligi, nimani bersa, olishi, bermasa so'ramasligi lozim. Ammo o'qish va yozishni ta'lim berishni shartlashishi va bolaga yod oldirishi joizdir; ikkinchisi, doimo taxoratli bo'lishi lozim, chunki har vaqt, har soatda mushafni ushlaydi; uchinchisi, ta'lim berish vaqtida nasihat berishi va o'z amriga iqbol qilishi; to'rtinchisi, nizolashib qolgan bolalar orasida adolat etishi, ularga insof qilishi, kambag'allarning bolasi qolib boylarning bolasiga moyil bo'lmasligi lozim; beshinchisi, urmasligi kerak, had joiz emas, chunki qiyomat kunida hisob beradi.

Habib ibn Abu Said aytadilar: "Muallimlar podshohlarni yulduzida tug'iladilar, ular podshohlar hisob-kitob qilinganidek, hisob-kitob qilinadilar".

Oldingilardan birining o'g'li uyiga yig'lab keldi. "Senga nima bo'ldi?" deb so'radi. "Muallim urdi", dedi o'g'il. Shunda: "Menga Ikrima Ibn Abbosning "Bolalaringizning muallimlari ichida Allohga eng yomoni etimlarga mehribonchiligi oz va miskinlarga qo'pol muomala qilganidir; deganlarini aytgan edi", dedi ota.

Ba'zi sahobalar: "Uch kishiga qiyomat kunida Alloh nazar solmaydi; etimga toqat qila

olmaydigan, haqqini yuklaydigan muallimga; sulton huzurida havo nafsicha gapirib o'tiradigan kishiga; behojat bo'laturib, odamlardan tilanadigan kishiga;

Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) aytadilar: "Qur'onni yod oladigan kishiga har yili baytul moldan 200 dinor yoki 2000 dirham berishi lozim. Agar unga bu mablag' berilmasa oxiratda beriladi. Qur'onni yarmini yod olsa, unga 100 dinor yoki 1000 dirham (beriladi). Berilmasa, qiyomat kunida voliydan olinadi. Yaxshiliklari bo'lsa, yaxshiliklaridan olinadi, agar yaxshiliklari bo'lmasa, qorining gunohlari unga yuklanadi".

## **151-bob** **Oz yeyish haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Kishi ovqatni oz eyishi, to'q qoringa emasligi lozim. Albatta, bu ish Alloh nazdida yomon ko'rilgan, mazammam qilingan, odamlar nazdida esa, badanga zarardir.

Bir tabibdan: "Alloh taoloning kitobida tabobatni topdingmi?" deb so'raldi. U: "Ha, Alloh taolo tabobatning hammasini mana bu oyatda jamlagan: "Englar, ichinglar, lekin isrof qilmanglar, chunki U (Alloh) isrofgarlarni sevmas". Isrof ko'p eyishda, undan kasalliklar kelib chiqadi", dedi.

Hasan Basriy aytadilar: "Kishining ziynati to'rtta narsada: xulqini tutishi; o'lchov bilan gapirishi; molini aql bilan ishlatishi; kirib chiqayotgan narsaga rioya qilishi".

Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu): "Kishi xohlagan narsani eyverishi isrofdir", deganlar.

Sumra ibn Junbuddan rivoyat qilinadi: U kishining o'g'li bo'kkunicha edi, so'ng holi og'irlashib qayt qildi. Shunda Sumra: "Agar o'lib qolganingda, men senga janoza o'qimas edim", dedilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Odam farzandi to'ldirgan idishlar ichida qornidan yomonrog'i yo'q. Odam bolasiga qomatini tutib turadigan ozuqa kifoya qiladi, agar iloji bo'lsa, qorinning uchdan biri taom uchun, uchdan biri sharob uchun va uchdan biri havo uchun", dedilar.

Aytiladiki, ko'p eyishda beshta yomonlik bor: Allohdan qo'rquvni qalbdan ketkazadi; toat-ibodatni kishiga og'irlashtiradi; hikmat eshitsu, undan ta'sirlanmaydi; agar u hikmatli gaplarni gapirsa, uning gapi odamlar qalbida o'rnashmaydi; tanasida kasallik uyg'onadi.

Aytiladiki, taomda to'rtta xislat bo'lishi farz, to'rttasi sunnat, to'rttasi odob, ikkitasi davo va ikkitasi makruh. Farz bo'lgan to'rt xislat: faqat haloldan yeyish; taom Allohdan ekanini unutmaslik; unga rozi bo'lish; uning quvvati bilan Allohga osiylik qilmaslik. Sunnat bo'lgan to'rt xislat: eyishdan oldin Alloh taoloning nomini aytish; taom oxirida Allohga hamd aytish; qo'lini taomdan oldin va keyin yuvish; ovqatlanayotganda chap oyog'ini tagiga to'shab, o'ng oyog'ini ko'tarib o'tirish. Odob bo'lgan to'rt xislat: oldidan olib yeyish; luqmani kichik qilish; mayda chaynash; boshqalarning luqmasiga

qaramaslik. Shifo bo'lgan ikki xislat: dasturxonga tushgan ushoqlarni terib yeyish, tavoqni yalab, tozalab qo'yish. Makruh bo'lgan ikki xislat: taomni hidlamaslik va taomga puflamaslik, ya'ni, issiq taomni sovugunicha kutish lozim. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) aytganlarki: "Issiq taomda baraka yo'q". Vallohu a'lam.

## **152-bob** **Tahiyya – salomlashish haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Tahiyya musulmonlarning o'zaro salomlashishlaridir. Va bu jannat ahlining salomlashishi sanaladi. Musulmon kishi boshqa bir musulmon birodariga salom berishi lozim. Chunki bu ish musulmonning axloqidan. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Anas ibn Molikka: "Agar uyingdan chiqqaningda, ko'zing tushgan har bir qibla ahliga salom bersang, qalbingga iymon halovati kiradi. Uyinga kirganingda ham salom ber, o'zingning va uyingning barakasi ko'payadi", deganlar.

Bir solih kishining oldiga do'sti kelib: "Qanday tong ottirding?" deb so'rabdi. Kishi unga: "Senga vayl bo'lsin, nega salom bermaysan? Agar salom berganingda, senga o'nta hasanot bo'lar edi, keyin men olardim va menga ham o'nta hasanot yozilar edi. Yigirmata hasanot to'plansa, shu vaqtda rahmat tushishiga umid qilinadi", dedi.

Solihlarning biridan bir kishining xotiniga: "Alloh umringni uzun qilsin", degan so'zi haqida so'rashdi. U: "Bu dahriylarning ko'rishuvidir, musulmonlarniki "Asalomu alaykum", dedi.

Ibn Umardan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi. U bozorga chiqar, lekin hech narsa sotib olmas edilar. "Hech narsa olmasangiz bozorda nima qilasiz?" deyishdi. "Salom berish uchun chiqaman", dedilar. U zot biror kishining oldidan o'tsalar, albatta, salom berar edilar. Luqmoni Hakim o'g'liga: "Ey o'g'ilcham, agar bir qavmning majlisiga kirsang, ularga islom o'qini ot" (ya'ni, salom ber). So'ng o'tir, ular gapirganini ko'rmasang – gapirma, agar ular yaxshilik haqida gapirsalar, ular bilan birga kir, bundan boshqa narsa haqida ko'p gapirsalar, boshqa tomonga burilgin", degan edi. Alloh muvaffaq qilguvchi.

## **153-bob** **Nikoh haqida aytilgan so'zlar haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Nikohning eng barakalisi ta'minot jihatidan engilidir", dedilar.

Bir kishi Hasan Basriyning oldiga kelib, qizini uzatish haqida maslahat so'radi. U zot: "Qizingni taqvodor kishiga turmushga ber, chunki agar uni yaxshi ko'rsa, hurmat qiladi. Agar yoqtirmasa ham, unga zulm qilmaydi", dedilar.

Hasan Basriy aytadilar: "Baloning kattasi to'rtta: oilaning kattaligi, molning ozligi, yomon qo'shni va xiyonatkor xotin".

Ummu Yahyo vafot etganida, Molik ibn Diynorga: "Ey Abu Yahyo, uylanmaysizmi?"

deyishdi. Shunda u kishi: "Agar qodir bo'lganimda, nafsimni taloq qilar elim", dedilar.

"Arablarda bir gap bor: "Uylanish bir oy xursandchilik, bir zamon qayg'u, mahr og'irligi va orqani kesishdir".

Abu Hurayra Nabiyan (sollallohu alayhi vasallam) rivoyat qiladilar: "Uch toifaga yordam berish Alloh zimmasidagi haqdir: Alloh yo'lida jihod qiluvchi, Alloh harom qilgan narsadan saqlanib, nikohlanuvchi, ozod bo'lishni xohlagan mukotab qul".

Xabarlarda keltirilishicha, Bani Isroildan bir kishi: "Yuzta odam bilan maslahat qilmagunimcha, uylanmayman!" dedi. 99 tasi bilan maslahatlashib, biri qoldi. Ertasiga birinchi uchragan kishi bilan maslahatlashib, uning fikriga amal qilishni o'ziga qasd qildi. Tong ottirib uydan chiqqan vaqtda, qamishga minib olgan jinnini uchratdi. Birinchi uchragan kishi bilan maslahatlashish haqidagi ahddan chiqishga chora topa olmadi va jinniga yaqinlashdi. Jinni unga: "Otimdan ehtiyot bo'l, seni urib yubormasin", dedi. Kishi unga: "Men sendan bir narsani so'ramoqchiman, otingni to'xtat", dedi. So'ng: "Men uylanmoqchiman, qanday ayolga uylanay?", deb so'radi. Shunda jinni unga: "Ayollar uch xil bo'ladi: biri sening foydanga, biri sening zararingga va biri sening foydangga yoki zararingga", dedi. So'ng: "Otimdan nari tur, turtib yubormasin", deb yo'lida davom etdi. Haligi kishi: "Bu nima degani bo'ldi", dedi-da, ortidan bordi. "Ey to'xta,– dedi unga yaqinlashib.–Tushuntirib gapir, nima deding?". Shunda jinni: "Sening foydangga bo'lgani bokira ayol, uning qalbi va muhabbati seniki, u sendan boshqa birontani bilmaydi. Senga ziyoni bo'lgan ayol farzandli, er ko'rgan ayol, u sening molingni eb, avvalgi eriga yig'laydi. Sening foydangga yoki zararingga bo'lgan ayol – er ko'rgan, lekin bolasi yo'q ayol, agar sen avvalgi eridan yaxshi bo'lsang, u sening foydangga, agar bunday bo'lmasa, sening ziyoningga", dedi. So'ng yo'lga ketdi. Haligi kishi yana uning ortidan borib: "Vayl bo'lsin senga, hakimlarning gapini gapirasana-u, qilayotgan ishing jinnilarniki", dedi. U: "Bani Isroil meni qozi qilmoqchi bo'ldi, men bosh tordim, shunda ular meni so'kib, haqorat qilishdi. Men o'zimni jinnilikka soldim va ulardan najot topdim", dedi.

Xabarlarda aytilishicha, bir kishi Dovud alayhissalomga kelib: "Men uylanmoqchiman, qanaqasiga uylanay?", deb so'radi. Dovud alayhissalom: "O'g'lim Sulaymonga bor va undan so'ra", dedilar. O'sha paytda Sulaymon alayhissalom yetti yoshda edilar. Kishi Sulaymon alayhissalomning oldlariga bordi. U kishi bolalar bilan o'ynayotgan edilar. Kishi o'sha savolni so'radi. Sulaymon alayhissalom: "Qizil oltin bilan oq kumushni mahkam tut, seni tepib yubormasligi uchun otdan ehtiyot bo'l", dedilar. Kishi bu gapga tushunmadi. So'ng kishi Sulaymon alayhissalomning javobini Dovud alayhissalomga aytib berdi. Dovud alayhissalom: "Qizil oltin – bokira ayol, oq kumush – yosh juvon, tepadigan ot – kampir yoki bolali ayol", dedilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) tug'adigan ayolga uylanishga buyurganlar, tug'maydigan ayoldan qattiq ogohlantirganlar va: "Sevikli yoqimtoy ayollarga uylaninglar, chunki men sizlarning ko'pligingiz bilan qiyomat kunida payg'ambarlarga faxrlanaman", deganlar.

Abdulloh ibn Umar va Ibn Abbosdan rivoyat qilinadi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Ogoh bo'linglarki, Alloh to'rt toifani la'natladi va maloikalar unga imon keltirdi: Alloh unga xasislik qilmagan holda ziqnalik qilgan kishini, Alloh uni ayol qilib yaratgan holda



o'zi erkakka o'xshagan ayolni, Alloh uni erkak qilib yaratgan holda o'zi ayolga o'xshagan erni va ko'r kishini yo'ldan adashtirgan kishini", dedilar.

### 154-bob

#### Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) vahiyning boshlanishi haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) yoshlari yigirma beshga etganida, amakilari Abu Tolib: "Ey birodarimning o'g'li, seni o'z molimdan uylantiray desam, Allohga qasamki, molim ko'p emas. Otangdan ham senga biror narsa qolgani yo'q, o'zingda Xadicha binti Xuvaylidga beradigan biror narsa bormi? U (Xadicha) ish haqiga ikki tuya beradi, yana bitta so'rasang shoyad qo'shib bersa", dedi va Nabiy bilan Hadichaning oldiga keldi. Shunda Xadicha: "Ha, bosh ustiga, ikki tuya ustiga yana bir tuya qo'shaman", dedilar. Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) Hadichaning Maysara degan g'ulomi bilan Shom tomonga Busro bozoriga bordilar va ko'p foyda ko'rdilar. Alloh taolo Maysaraning qalbiga Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) muhabbatini soldi. Ikkalasi Marroz-zahron degan joyga etganlarida, Maysara: "Ey Muhammad, oldinga o'ting va Xadichaga foydamizni ayting, shoyad u sizga yana bir tuya qo'shsa", dedi. Rasululloh shunday qildilar, shunda Xadicha onamiz yana bitta tuyani ko'shdilar. So'ng Maysara Xadichaga Muhammaddan (sollallohu alayhi vasallam) yo'lda ko'rgan, hisoblab bo'lmaydigan ajoyibotlar, alomatlar va barakalarning xabarini berdi. Bu Xadichaning qalbida Rasulullohga nisbatan sevgi paydo qildi. Taom tayyorlab, Quraysh raislarini chaqirdilar va otasidan o'zini Muhammadga (sollallohu alayhi vasallam) berishini talab qildilar. Otasi g'azablandi, bosh tortdi, shunda Xadicha unga aroq quydilar, hatto otasi mast bo'lib qoldi. So'ng undan yana talab qildilar, shunda otasi uni Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) uylantirdi. Chol o'ziga kelganida, kiyimlarida atir hidini sezdi va Xadicha onamizdan: "Nima bu?" deb so'radi. "Meni Muhammadga (sollallohu alayhi vasallam) uzatdingiz", dedilar. Otasi: "Qavmning kazo-kazolari senga sovchi qo'ydi, men bosh tortdim, sen moli bo'lmagan kishiga nikohlandingmi?", dedi. Hadicha: "U hasabli va nasabli, uning moliga menda hojat yo'q", dedilar. Shunday qilib, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) unga uylandilar. So'ng qirq yoshga etganlarida havoda bir narsani ko'rdilar, xuddi u o'zlariga tushib kelayotgandek edi. Qo'rqdilar. So'ng: "Qo'rqmang, men Jabroilman", degan ovozni eshitdilar. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Xadicha onamiz yonlariga mahzun holda keldilar va: "Bir narsani ko'rib juda qo'rqdim. U, qo'rqma, men Jabroilman, dedi. Men jinnilikdan qo'rqyapman", dedidar. Xadicha Varaqa ibn Navfal oldiga keldilar. U amakisini o'g'li, kitob o'qir, ko'p o'qiganidan ko'r bo'lib qolgan edi. Xadicha: "Ey amakimning o'g'li, erim bir narsani ko'rdi va undan qo'rqdi, u, men Jabroilman, debdi", deb aytdilar. Shunda Varaqa ibn Navfal: "Subhonallohil-quddus, Jabroil ulug' Allohning nomusi va payg'ambarlarga Allohning safiri", dedi. (Nomus – yaxshi xabarning sohibi, josus – yomon xabarning sohibi, safir – ikki kishining orasini isloh qiladigan elchi). Varaqa: "Agar ering haqiqatda buni ko'rgan bo'lsa, u nabiydir", dedi. Xadicha Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) yonlariga qaytdilar va uning gapini aytib berdilar.

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bir kuni Xadicha onamiz bilan o'tirgan vaqtlarida, osmon bilan erning orasida bir zotni ko'rdilar va: "Ey Xadicha, men osmon bilan erning o'rtasida bir zotni ko'ryapman", dedilar. Xadicha: "Menga yaqin keling", dedilar. Nabiy yaqin kelganlarida boshlarini u zotning qorinlariga qo'ydilar va: "Endi ko'rmayapsizmi?", deb so'radilar. Rasululloh: "Yo'q, ketdi", dedilar. Shunda: "Xursand bo'ling, u farishta.

Agar shayton bo'lganida, hayo qilmas edi", dedi Xadicha (r.a.).

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Xiro g'orida ekanlarida, to'satdan Jabroil alayhissalom keldi va qimmatbaho gilamni to'shadi. So'ng oyoqlarini erga ishqalagan edi, suv chiqdi. So'ng tahorat olishni o'rgatdi, so'ng Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bilan ikki rak'at namoz o'qidi va nubuvat xabarini berdi, so'ng:

"Yaratgan zot bo'lmish Parvardigoringiz nomi bilan o'qing" oyatidan "U zot insonga uning bilmagan narsalarini o'rgatdi" (Alaq, 1–5-oyatlar) gacha o'qidi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Xadichaning oldiga qaytdilar va unga buning xabarini berdilar. Shunda Xadicha onamiz imon keltirdi, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) unga tahoratni va namozni o'rgatdilar, so'ng Abu Bakr (roziyallohu anhu) va Ali (roziyallohu anhu) musulmon bo'ldilar, ba'zilar avval Ali (roziyallohu anhu), so'ng Abu Bakr (roziyallohu anhu), so'ng Bilol (roziyallohu anhu) musulmon bo'ldi, deyishadi. So'ng Abu Bakrning (roziyallohu anhu) do'stlari Usmon (roziyallohu anhu), Abdurahmon ibn Avf (roziyallohu anhu), Talha, Zubayr, Sa'd va boshqalar musulmon bo'lishdi. Umar (roziyallohu anhu) musulmon bo'lganlarida ularning adadi qirqtaga etdi.

## 155-bob

### Nabiying (sollallohu alayhi vasallam) hijratlari haqida

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Nabi (sollallohu alayhi vasallam) haj mavsumida Minoga chiqib, odamlarni islomga chaqirdilar. So'ng Madina ahliidan bir necha nafariga Islomni taklif qildilar. Maoz ibn Ifro musulmon bo'ldi, so'ng qavmning hammasi musulmon bo'ldi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ularga: "Rabbimning risolatini etkazgunimcha, menga yordam berasizlarmi?", deb so'radilar. Ular: "Ey Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam), o'tgan yili bizning oramizda urush bo'lgan edi. Biz bir-birimizga g'azablanganmiz, shuning sizga kelgusi yil mavsumida va'da qila olamiz", deyishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bunga rozi bo'ldilar, ular Madinaga qaytib ketishdi va odamlarni yashirincha da'vat qilishdi. Bir yil o'tmay Madinada ko'pgina xonadonlar musulmon bo'ldi. Haj mavsumiga Madinadan ko'p odamlar chiqishdi va Minoga to'planishdi. Ansorlar etmish erkak, bir ayol edi. Rasululloh ularning oldiga keldilar, u kishi bilan birga amakilari Abbos ibn Abdulmuttalib ham bor edi. Ular Nabiya salom berishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) alik olib: "Muso Bani Isroildan o'n ikki kishi naqib qilib olganidek, men ham sizlardan tanlab olaman", dedilar. Ular bay'at qilishdi va: "Ey Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam), Rabbingiz va o'zingiz uchun shart qo'ying", deyishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Rabbim uchun shart shuki, sizlar Unga ibodat qilasizlar, Unga biror narsani sherik qilmaysizlar, o'zim uchun esa, o'zlaringizni va oilalaringizni himoya qiladigan narsadan meni ham himoya qilishingizni shart qilaman", dedilar. Ular: "Agar zimmamizdagi narsani bajarsak, bizga nima bo'ladi?", deyishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Jannat", dedilar. Ular: "Savdo foydali bo'ldi", deyishdi.

Iblis (Alloh uni la'natlasin) Minoda qichqirdi va: "Ey Quraysh jamoasi, Muhammad sizlarning zararlaringga Yasrib ahli bilan qasam ichyapti", dedi. Shunda ular Muhammadni (sollallohu alayhi vasallam) izlab kelishdi, ammo u kishini topa olishmadi. Naqiblar Madinaga qaytganlarida, Rasululloh ular bilan birga Mus'ab ibn Umayrni ularga

Qur'onni va dinni o'rgatish uchun yubordilar. Makka ahli Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) yordamchi-ansor topganlarini ko'rib, unga zotni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'lishdi. So'ng Alloh taolo u kishiga Madinaga hijrat qilishni buyurdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Abu Bakrning uyiga keldilar. Abu Bakr (roziyallohu anhu) turib, u kishining boshini o'pdilar va: "Ey Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam), sizga nima bo'ldi?" deb so'radilar. Rasululloh: "Quraysh meni o'ldirmoqchi", dedilar. Abu Bakr (roziyallohu anhu) aytdilar: "Qonim qoningiz, jonim joningiz". Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Menga hijratga izn berildi", dedilar. Abu Bakr: "Ikkita tuyam bor, men ularni hijratga chiqish uchun bog'lagan edim, bittasini oling", dedilar. Rasululloh: "Faqat pulga olaman", deb sotib oldilar. Kech kirganida, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Abu Bakr bilan chiqib, Savr tog'i tomonga yurdilar va g'orga etdilar. Abu Bakr (roziyallohu anhu) Abdulloh ibn Fuhayraga Savr tog'ida qo'yini boqishni aytdilar. Shu kecha Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) to'shagida qoldilar. Quraysh ahli kelib, uyga kirishdi va u erda Nabiyni emas, Ali ibn Abu Tolibni ko'rishdi, u kishidan Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi vasallam) so'rashdi. U zot: "Bilmayman", dedilar. Ular Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) izlaridan chiqishdi, hatto Savr tog'iga kelishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Abu Bakr (roziyallohu anhu) bilan birga g'or ichida edilar. Ulardan Rasululloh to'sildilar. Natijada ular hamma joyga Rasulullohni (sollallohu alayhi vasallam) qidirib odam yubora boshlashdi. Ammo u zotni topishga qodir bo'la olishmadi va niyatlaridan qaytishdi. Abu Bakr o'g'li Abdulloh har kecha Makka ahlidan xabar olib kelardi. Abdulloh qo'ylarini ham haydab kelar, ularni sog'ib, xohlaganini so'yar edi. Nabiy g'orda uch kun turdilar. (Bundan ko'proq turdilar, deb aytilgan gap ham bor.) So'ng g'ordan chiqdilar va yo'l ko'rsatuvchi qilib, Abdulloh ibn Urayqit degan kishini oldilar. Shunday qilib, Madinaga rabi'ul-avval oyining ikkinchisida dushanba kuni etib keldilar.

### **156-bob**

#### **Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) g'azotlari haqida**

Faqih (rahmatullohi alayh) aytadilar: Xabarlarda kelishicha, Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) o'ttiz olti marta g'azot qilganlar. Shulardan o'n sakkiztasida o'zlari chiqqanlar va o'n sakkiztasida qo'shin yuborganlar. Ba'zi xabarlarda qirq va undan ham ko'p marta g'azot qilganlar, deb rivoyat qilinadi.

Rasulullohning birinchi g'azotlari bunday ro'y berdi: U zotga (sollallohu alayhi vasallam) Qurayshdan bir jamoa Makkadan chiqqan xabari etdi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) ham ashoblaridan bir jamoa bilan chiqdilar. Vaddon degan joyga etganlarida, Ubayda ibn Horisni muhojirlarning bir to'pi bilan yubordilar. Bas, ular Qurayshga yo'liqishdi, o'rtada otishma bo'ldi. To'qnashuv shu bilan nihoyasiga etdi. Bu voqea hijratdan o'n ikki oy keyin – safar oyida bo'lib o'tdi.

Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) g'azotlaridan yana biri Naxla g'azotidir. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) Abdulloh ibn Jahshni hijratdan o'n olti oy o'tib, o'n bir nafar muhojir bilan Amr ibn Hazramiy boshliq Quraysh jamoasiga yubordilar. Ular bug'doy, mayiz va gazlama olib ketishayotgan edi. Musulmonlar Naxla degan joyda Quraysh karvonining oldidan chiqib Amr ibn Hazramiyni o'ldirishdi, ikkitasini asirga olishdilar, qolganlari qochib ketdi. Abdulloh ibn Jahsh ularning molini olib, Madinaga keldilar. Bu voqea jumodul oxir oyining oxirida bo'lgan edi.

Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) g'azotlaridan yana biri Badr hijratning ikkinchi yili ramazon oyida ro'y berdi. Nabiyga (sollallohu alayhi vasallam) Quraysh karvoni Shomdan chiqqani, ularning ichida Sufyon ibn Harb va Quraysh savdogarlaridan qirqtasi borligi xabari etdi. (Bir rivoyatda etmishta savdogar bor edi, deb ham aytiladi.) Rasululloh muhojir va ansorlardan iborat uch yuz o'n uchta jangchi bilan chiqdilar. Bu xabar Makkaga etdi, natijada ulardan ming ikki yuz ellik kishi chiqdi. Karvonlarini topganlaridan so'ng uch yuztasi qaytib ketdi. To'qqiz yuz elliktasi qoldi. Ikki tomon to'qnashdi. Alloh mushriklarni mag'lub qildi va musulmonlarga nusrat – g'alaba berdi. Mushriklardan etmishtasi asir olindi. Dunyoda Badr voqeasidan buyukroq voqea bo'lmadi. Chunki iblis (Alloh uni la'natlasin) keldi, shaytonlar va kofir jinlarning hammasi hozir bo'ldi. Qurayshning jasur pahlavonlaridan to'qqiz yuz elliktasi qilich qayrab turdi. Mo'minlar esa, uch yuz o'n uch nafar edi, ularning yonida mo'min jinlardan to'qsontasi, farishtalardan mingtasi hozir bo'ldi. Hasan Basriy qachon Anfol surasini o'qisalar: "Qo'mondoni Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam), yaxshilari Asadulloh (Allohning yo'lbarisi), jihodi Allohga itoat, madadkori Allohning farishtalari va mukofoti Alloh rizosi bo'lgan qo'shinga jannat bo'lsin", derdilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) g'azavotlaridan yana biri saviq jangidir. Abu Sufyon Badr jangidan so'ng ashoblaridan bir jamoa bilan Madinaga qarab chiqdi va Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) sahobalarini o'ldirmaguncha qaytmaslikka qasam ichdi. U Madinaga yashirincha keldi va bir yahudiyning uyiga tushdi. So'ng chiqib ikkita ot oldi, ikkita uyni yoqdi va sahobalardan ikki kishini o'ldirdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) sahobalar bilan uning izidan tushdilar. Abu Sufyon Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) etib olishidan qo'rqdi va ozuqalarini yo'lga tashlab, ashobi bilan qochdi. Ular tashlab ketgan ozuqaning ko'pi bug'doy talqoni edi. Shu sababli bu jang Saviq – talqon deb nomlandi. Musulmonlar hech bir talofatsiz qaytishdi.

Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) g'azavotlaridan yana biri Bani Qaynuqo jangi. Bani Qaynuqo Madinaning chetidagi bir mavze'. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) uni qamal qildilar. Abdulloh ibn Ubay ibn Salul Madina ahlidan bir jamoa bilan birga ulardan ketishni so'radi, shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ularni tark qildilar.

G'azotlardan yana biri Uhud jangi. Quraysh Badrda mag'lub bo'lgach, katta qo'shin to'pladi va Madinaga chiqdi. Jang Uhud tog'i oldida bo'ldi. Mag'lubiyat kofirlar tomonida edi. Kamonchilar Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) buyruqlarini tark qilib, o'lja yig'ish bilan mashg'ul bo'ldilar. Shu vaqt falak gardishi musulmonlar ziyoniga aylandi. Ulardan etmishtasi shahid bo'ldi, ko'pi jarohat oldi, qolganlari mag'lub bo'ldi, so'ng Alloh taolo ulardan kofirlarni burdi. Bas, ular qaytib ketdilar. Bu haqda Alloh taoloning:

"Alloh o'z va'dasining ustidan chiqdi – sizlar uning izni bilan kofirlarni qira boshladingiz. To sustkashlik qilib, (Payg'ambarning) amru farmonlari borasida talashib-tortishgan va Alloh sizlar yaxshi ko'rgan narsani (g'alabani) ko'zingizga ko'rsatib qo'yganidan keyin Payg'ambarning amridan bosh tortgan paytingizgacha (ustunliklaringiz davom etdi). Orangizda dunyo istagan kishilar ham, oxirat istagan kishilar ham bor edi. So'ngra sizlarni imtihon qilish uchun ularning (ustidan g'alaba qilish o'rniga mag'lubiyat tomonga) burib yubordi" (Oli Imron surasi, 152-oyat), degan so'zi nozil bo'lgan.

G'azotlardan yana biri Kichkina Badr jangi. Abu Sufyon Uhuddan qaytayotganida: "Sizlar bilan Kichik Badrda uchrashamiz", dedi. Shu erda bozor bor edi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) etmish kishi bilan shu erga keldilar. Ammo kofirlardan biror kishi chiqmadi. Musulmonlar salomat holda qaytdilar. Bu haqda Alloh taoloning: "Alloh va rasuliga bo'yinsungan..." so'zidan

"Bas, u yurishdan biron noxushlik etmay, Allohning ne'mat va fazli bilan qaytdilar" (Oli Imron, 172–174-oyatlar), so'zigacha nozil bo'ldi.

G'azotlardan yana Batni Raji' jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Marsad ibn Marsadni yetti kishi yubordilar. Ular bilan Osim ibn Sobit ibn Abul Aflah ham bor edi. Ular Batni Raji' degan joyga tushishdi. Mushriklardan bir jamoa chiqdi va urush bo'ldi. Kofirlar Xubayb bilan bir kishini asir olishdi, ikkalasini Makkaga olib kelib, shu erda o'ldirishdi. Mo'minlardan bir kishi tirik qoldi. Uni o'lik deb o'ylab tashlab ketishgan edi.

G'azotlardan yana biri: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Muhammad ibn Maslamani bir jamoa bilan yubordilar. Mushriklar chiqib, ularni o'ldirishdi, Muhammad ibn Maslamani o'lgan gumon qilishib, tashlab ketishdi. So'ng u qutilib qoldi.

G'azotlardan yana biri Bi'ri Ma'una jangidir. Omir ibn Molik arabning mohir chavondoziyidan "Nayza o'ynatuvchi", degan laqabi ham bor. U Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam): "Menga Qur'onni ta'lim beradigan, dinni o'rgatadigan kishilarni yuboring. Ular mening himoyamda bo'ladi", deb maktub yozdi. U zot (sollallohu alayhi vasallam) Munzir ibn Amr So'idiyni muhojir va ansorlardan iborat o'n to'rt kishi bilan yubordilar. Bir kecha yurgach, ularga Omir ibn Molik o'ldi degan xabar etdi. So'ng Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) xat yuborishdi. Nabiy ularga yordam uchun to'rt kishini yubordilar. Keyin hammalari Bi'ri Ma'una degan joyga kelishdi. Ularga qarshi Omir Tufayl, Ra'l, Zakvon, Bani Lihyon va Asiya kabi arab qabilalari bilan chiqdi. Musulmonlarning hammasi Bi'ri Ma'unada o'ldirildilar, faqat Amr ibn Umayya Zamiriy, Sa'd ibn Abu Vaqqos va yana bir kishi qavmdan orqada qolib, omon qolishdi va ularning o'lganlarini bilganlaridan so'ng, Madinaga qaytib ketishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bu qabilalarni qirq kun duoibad qildilar. Qotil Ka'b ibn Ashrafga Muhammad ibn Salamani uch kishi bilan yubordilar va ular uni o'ldirishdi.

Bani Naziyr jangi. Amr ibn Umayya Zamiriy Bi'ri Ma'unadan qaytayotib Madinaga yaqinlashganida, Bani Kilob qabilasidan bo'lgan ikki kishi chiqdi. Ularni Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) kiyim bilan siylagan edilar. Amr u ikkalasini o'ldirdi, chunki ularning musulmon bo'lganini bilmagan edi. Shunda Bani Kilobdagilar kelib, ularning xunini talab qilishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Abu Bakr, Umar va Alilar (roziyallohu anhum) bilan kilobiylarning xunini to'lashga yordam so'rab Bani Naziyrga bordilar. O'rtada o'zaro yordam berishga axd bor edi. Ammo Bani Naziyr Nabiyni (sollallohu alayhi vasallam) o'ldirishni qasd qildi, Jabroil buning xabarini etkazdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ularning orqa tomonidan chiqib, Madinaga keldilar. Askar to'pladilar va ularni qamal qildilar. Ularning xurmolarni kesib, binolarini buzdilar. So'ng ularni mollarini tashlab chiqib ketish sharti bilan tark qildilar. Har bir kishi o'zi ko'taradigan miqdordagi narsasini tuyaga yukladi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ularni Shomga surgun qildilar. Bu haqda Alloh taoloning: "U ahli kitoblardan (yahudiylardan) kofir bo'lgan kimsalarni birinchi to'plashdayoq haydab chiqargan zotdir"

(Hashr surasi, 2-oyat) degan so'zi nozil bo'lgan.

Bani Mustalyq jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) askarlari bilan chiqdilar, o'zlari bilan birga Oishani (roziyallohu anho) oldilar. Ifk ahli (tuhmatchilar) Oisha (roziyallohu anho) haqlarida gapirgan narsani gapirdilar, hatto Alloh taoloning:

"Shak-shubhasiz bo'htonni (vujudga) keltirgan kimsalar o'zlaringizdan bo'lgan bir to'dadir" (Nur surasi, 11-oyat), degan so'zdan

"pokiza erlar pokiza ayollar uchundir" (26-oyat), so'zigacha nozil bo'ldi. Bu o'n yetti oyat Oisha (roziyallohu anho) va uning otasi Abu Bakr Siddiqning pokligi haqida edi.

Yana Zuqurd jangi. Madinaning chekkasidan bir to'p arab tuyalarni o'g'irladi. Natijada Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ularga chiqdilar va ulardan tuyalarni qaytarib oldilar.

Yana Hudaybiya g'azoti. Abu Qatoda Ansoriy sahobalardan bir jamoa bilan umraga keldilar. Ular avval Asfonga, so'ng Hudaybiyaga tushdilar. Hudaybiya quduq nomi bo'lib, uning atrofidagi erlar shu nom bilan atalar edi. Bu erda musulmlar bilan mushriklar o'rtasida tosh otish bo'lib o'tgan.

Yana Xandaq jangi. Makka ahli arablarni to'plab, Madinaga o'n uch minglik lashkar bilan keldi, ular turli ahzob – firqalardan iborat edi. Ular Madinani o'rab olishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) mushriklarni to'sish uchun xandak qazishni buyurdilar. Mushriklar xandaqning nariyog'ida o'n besh kun yoki bundan ham ko'proq turishdi. Alloh ularga sovuq shamolni yubordi, ular mag'lub bo'lishdi. Bu haqda Alloh taoloning:

"Ey mo'minlar, sizlarga qo'shinlar kelgan paytda Biz ularning ustiga shamol va sizlar ko'rmagan qo'shinlarni (ya'ni, farishtalarni) yuborganimizni – Allohning sizlarga bergan ne'matini eslanglar!" (Ahzob surasi, 9-oyat) so'zidan to

"Alloh mo'minlarga jang to'g'risida kifoya qildi" (Ahzob surasi, 25-oyat) so'zigacha nozil bo'lgan.

G'azotlardan yana biri Bani Qurayza jangi. Madina yaqinidagi yahudiylar bilan Nabi (sollallohu alayhi vasallam) o'rtasida kelishuv bor edi. Ahzob kelganda ular ahdni buzishdilar. Alloh ahzobni mag'lub qilgach, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ularning ustiga keldilar va qamal qildilar, hatto ular Sa'd ibn Muozni hakam qilishdi. U zot ularning jangchilarini o'ldirishga hukm qildilar. Ular to'rt yuz ellik kishi edi. (Ko'proq edi, deb ham aytiladi). Ular ichida Huyay ibn Axtab ibn Usayd ham bor edi. Bu haqda Alloh taoloning:

"U ahli kitobdan bo'lgan kimsalarni qal'alaridan tushirdi va dillariga qo'rqinch soldi. (Endi) sizlar (ulardan) bir guruhini o'ldirursizlar, bir guruhini asir olursizlar" (Ahzob

surasi, 26-oyat) degan so'zi nozil bo'ldi.

Yana Zotur riqo' jangi. Shu g'azotda xavf namozi o'qildi. Yo'lning og'irligidan sahobalar oyoqlariga latta o'rar, yamoq-lattalar tushib ketar edi. Shuning uchun bu jang Yamoqlilar jangi deb nomlandi.

Yana Haybar jangi. Bu g'azot xijratning oltinchi yilida bo'ldi. Nabiy qal'ani fath qildilar va uni egalladilar.

Yana Mu'ta jangi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) muhojir va ansorlardan iborat qo'shin yubordilar. Ularga Zayd ibn Horisani amir qildilar. Agar u shahid bo'lsa, Ja'far Tayyyor, u ham shahid bo'lsa, Abdulloh ibn Ravoha, undan keyin boshqasi amir bo'lsin deb tayinladilar.

Yana Anmor jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ashoblari bilan chiqdilar, lekin jang bo'lmadi.

Yana Makka fathi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) muhojir va ansorlardan iborat o'n ming qo'shin bilan hijratning sakkizinchi yilida Makkani fath etdilar. Makka Islomga to'la taslim bo'ldi.

Yana Bani Xuzayma jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Xolad ibn Validni Makkaga kirganidan so'ng, Bani Xuzaymaga yubordilar. U zot ularni asir oldilar. Ular musulmonlikni da'vo qilishar edi, lekin Xolad (r.a.) ularni tasdiqlamadilar. So'ng Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ulardan olingan narsalarni qaytarib berishni va ularning diyasini to'lashni buyurdilar.

Yana Hunayn jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Makkadan nari Havozanga chiqdilar. U zot bilan birga o'n ikki ming kishi bor edi. Musulmonlar sonlari ko'pligidan mag'rurlanib ketishdi. Alloh ularni mag'lubiyat bilan jazoladi, so'ng ularga yordam berdi va nusrat yubordi. So'ng mushriklar ustidan zafar qozonishdi. Bu kun Avtos deb nomlandi. Bu haqda Alloh taoloning ( \$ ) degan so'zi nozil bo'lgan.

Yana Toif jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Hunayn jangidan so'ng Toifga qarab yurdilar va ularni qirq kun qamal qilib, fath etdilar.

Yana Davmatul Jundal jangi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) Abdurrahmon ibn Avfni u erga yetti yuz kishi bilan yubordilar. Ular sulh tuzib, salomat qolishdi. Avf Davlatul Jundalda yashab qoldilar va Asbag' ibn Amr Kalbiyning qizi Otirga uylandilar. Abu Salama ibn Abdurrahmon shu onadan dunyoga kelgandir.

Katta g'azotlardan biri Tabuk jangi. Musulmonlar bu jangda zafar quchishdi va ko'p o'lja olishdi.

Yana Abdurrahmon ibn Avfning (r.a.) Davmatul Jundalga borishlaridan oldin, Xolid ibn Valid sakkiz yuz kishi bilan ularga yuborilgan va ko'p o'lja olgan edilar.

G'azavotlardan yana biri Najd tomondagi jangdir. Boshqa biz zikr qilmagan janglar haqida batafsil bilishni istagan kishi, "Al-mug'oziy" asarini o'qisin.

## **157-bob** **Makruh narsalar haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: So'zlashish besh o'rinda makruhdur: tobut orqasidan ketayotib; Qur'on o'qiyotib; xutba va zikr majlisida; hojatxonada; jimo vaqtida. Beshta o'rinda qarash makruh sanaladi: namozda o'ng va chapga; odamlarning uyi ichiga; hammom va boshqa joyda insonlarning avratlariga; dunyo ishlarida o'zidan ustun kishiga rag'bat bilan qarash va din ishida o'zidan past kishiga qarash (ergashish). Besh narsaga quloq solish makruh: lag'v – behuda gapga, g'ino – kuy-qo'shiqqa; aytib yig'laguvchiga; botil va ortiqcha gapga; shivirlab gaplashayotgan ikki kishining gapiga; odamlarning uyiga. Besh o'rinda kulish makruh sanaladi: janoza oldida; qabr oldida; musibatza kishi oldida; Qur'on qiroati vaqtida va Allohni zikr qilayotgan paytda.

Bekordan-bekorga kulish jinnilik turidan, deydilar.

Odamlar burun va tishni oltindan qilishda ixtilofdadir. Abu Hanifa (rahmatullohi alayh) kumushdan qilishda ziyon yo'q, oltindan qilish joiz emas deganlar. Muhammad ibn Hasan (roziyallohu anhu) ziyoni yo'q, deydilar. Biz shu so'zni olamiz.

Xabarda kelishicha Urfaja ibn As'ad johiliyatda Kilob kunida burnidan jarohatlandi va kumushdan burun qilib oldi, so'ng u sasib ketdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) unga oltindan burun qilib olishni buyurdilar.

Besh kunda ro'za tutish makruh sanaladi: Ramazon hayiti kuni; Qurbon hayiti kuni va undan keyingi uch kun.

Besh vaqtda namoz o'qish makruh sanaladi: Asr namozidan so'ng shom namozini o'qiguncha; tong otgandan so'ng bomdodning ikki rak'at sunnatidan boshqasi; bomdod namozidan keyin quyosh chiqquncha; quyosh tik kelganda; jum'a xutbasi vaqtida.

Uch vaqtda farz namozi makruh sanaladi: quyosh chiqayotganda; tik kelganda; quyosh botayotgan vaqtda o'sha kunning asr namozidan boshqa. Vallohu a'lam.

## **158-bob** **Duolar haqida**

Faqih (rahimahulloh) aytadilar: Obid kishi har vaqt Alloh duo qilishi hojatlarini so'rashi mustahabdir. Mana shu bandalik alomatidir. Bandalarning Alloh taologa eng seviklisi – Undan hojatlarini so'raydigan kishi. Alloh taologa bandalarning eng yomoni – Undan behojat bo'lgani. Bandalarning odamlarga eng yaxshisi ulardan behojat bo'lgani, ulardan biror narsani so'ramagani. Bandalarning odamlarga eng yomoni ulardan so'raydigani.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh taologa duodan ulug'roq biror narsa yo'q", deganlar. Yana: "Duo – ibodat", dedilar. So'ng Alloh taoloning ( ) degan so'zidan ( ? ) degan so'zigacha o'qidilar.

Abu Hurayra (roziyallohu anhu): "Banda doim yaxshilikdadir, modomiki shoshilmasa",



dedilar. U zotdan: "Banda qanday qilib shoshiladi?", deb so'rashdi. U: "Men duo qildim, ammo ijobat qilinmadi, deb shoshiladi", dedilar.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Banda duo qilsa, albatta, Alloh unga so'ragan narsasini beradi yoki so'raganidan kattaroq bir baloni undan qaytaradi yoki so'raganidan yaxshiroq narsani qiyomatga saqlab qo'yadi", dedilar.

A'mash Ibrohimning shunday deganlarini rivoyat qiladilar: "Agar birontangiz tushida yomon narsani ko'rsa, chap tomoniga uch marta tuflasin, Allohning farishtalari va rasuli panoh tilagan narsa bilan tushimda ko'rgan narsalarning yomonligidan menga dunyo va oxiratda zarar berishidan panoh tilayman, deb aytsin, chunki bu unga Alloh taoloning izni bilan zarar keltiradi".

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) "Agar birontangiz yomon tush ko'rsa, chap tomoniga uch marta tuflasin, uning yomonligidan Allohdan panoh tilasin, shunda unga zarar bermaydi", dedilar".

Abdulloh ibn Mas'ud (roziyallohu anhu): "U uylansang, xotingga buyur, ikki rak'at namoz o'qisin, so'ng uning boshidan ushla va: "Ey Parvardigor, menga oilamda va oilamga menda baraka ber, meni ulardan va ularni mendan rizqlantir, bizni yaxshilikda jamlagan narsang bilan jamla va oramizni o'zing ajratgan yaxshi narsa bilan ajrat", deb ayt", dedilar.

Ibn Abbos (roziyallohu anhu): "Agar birontangiz ahliga, yaqinlashsa, "Ey Parvardigor, shaytonni mendan va meni rizqlantiradigan narsangdan uzoqlashtir", deb aytsin. Agar ularning orasida bola tug'lsa, shayton unga Alloh taoloning izni bilan zarar bermaydi", dedilar.

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Alloh bandalariga in'om etgan ne'mat oilada yoki molda yoki boladadir. Agar banda: "Ma shaallohu la-havla va la-quvvata illa-a billah", deb aytsa, undan o'limdan boshqa ofatni ko'taradi", dedilar, so'ng ( ) degan oyatni o'qidilar".

Mujohid aytadilar: "Agar senga biror xursandchilik etsa, ma shaallohu la-a havla va la-a quvvata illa-a billah, yaxshiliklarni faqat Alloh keltiradi, yomonliklarni faqat Alloh ketkazadi, deb ayt, so'ng xursandchilikni yuzingga chiqar".

Ibn Umar (roziyallohu anhumo): "Kimni bir zalolat adashtirib qo'ysa, ikki rak'at namoz o'qisin, tashahhuddan so'ng: "Ey Parvardigor, ey adashuvchilarni hadoyat qilguvchi va adashishdan qaytaruvchi, meni adashishimdan o'z izzating va sultonliging bilan meni adashtirishdan qaytar, chunki bu sening fazling va marhamatingdandir", deb aytsin", deydilar.

Sufyon Savriy ibn Abbosga (roziyallohu anhumo) nisbat berib aytadilarki: "Agar ayol tug'ishga qiynalsa, "Bissmillahil laziy la-a ilaha illallohul-halimul kariym, subhana robbil 'arshil 'aziyim. Alhamdu lillahi robbil 'alamin", deb yozsin", dedilar". Sufyon bu kalimalarni jomga yozib so'ng uni suv bilan chayib-ichishni aytganlar.

Ubbon Usmondan rivoyat qiladi: Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kimki tong

otirganida: "Bissmillahil lazziy la-a yazurru ma' asmihi shay un fil arzi va la-a fis-samai va huvas sami'ul 'aliym", deb uch marta ertalab aytsa, kechgacha, kechasi aytsa, tong otguncha unga balo etmaydi", dedilar.

Usmon ibn Abul Os: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) mening oldimga keldilar, menda o'ldirib qo'yadigan darajada qattiq og'riq bor edi. Shunda u zot: "O'ng qo'ling bilan yetti marta og'riq erini sila va: "A'uzu billahi va qudrotihi min sharri ma ajidu" (Alloh izzati va qudrati bilan o'zim topayotgan narsaning yomonligidan panoh so'rayman), deb ayt", dedilar".

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: "Islomga yangi kirgan bir kishi: "Kecha uxlay olmadim", dedi. Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) sababini so'radilar. U chayon chaqqanini aytdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): "Agar sen "A'uzu bikalimatillahit-tammati kulliha min sharri ma xuliq", deb aytganingda, inshaalloh, senga zarar bermas edi", dedilar".

Ba'zi sahobalar: "Kim aksirganda "Alhamdu lillahi robbil 'alamiyn 'ala kulli hal", desa, har qanday jag' tishi og'rig'idan omonlikda bo'ladi", deyishgan.

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Kim aksirgan odamdan oldin "Alhamdu lillahi robbil 'alamiyn", desa, tish, quloq va qorin og'rig'idan omonda bo'ladi", dedilar. Ya'ni, aksirgan odamdan oldin aksirmagan odam alhamdu lillah, deb aytsa.

Ibn Ma'sud (roziyallohu anhu): "Baqara surasidan o'n oyat – avvalidan to'rt oyat, oyat ul kursiy va undan keyingi ikki oyat, suraning oxiridagi uch oyatni ertalab o'qisa, kechgacha bu xonadonga shayton kirmaydi, agar kechening avvalida o'qisa, tong otguncha kira olmaydi. Agar jinniga o'qilsa, o'ziga kelib qoladi", dedilar.

Oldingilarning ba'zilari aytadi: "Kimga ne'matlar jamlansa, Allohga hamd aytishni ko'paytirsin, kimning g'ami ko'paysa, istig'for ko'paytirsin, agar kambag'allik unga qattiq yopishib olsa, "la-a havla va la-a quvvata illa billah"ni ko'p aytsin.

Ja'far ibn Muhammad (roziyallohu anhu): "To'rtta narsa bilan balolangan odamning to'rt narsadan g'aflatda qolganidan ajablandim: G'am-tashvish bilan balolanib, "la-a ilaha illa anta subhanaka inniy kuntu minazzolimiyn", deb aytmagan kishidan. Bir narsadan ko'rqib "hasbiyallohu va ni'mal vakiyl", deb aytmagan kishidan ajablandim, chunki Alloh taolo (? ) deb aytgan. Odamlardan qo'rqib, "ufavvizu amriy ilalloh", deb aytmagan kishidan ajablandim. Jannatni xohlab turib, "ma shaallohu la-a quvvata illa billah", deb aytmagan kishidan ajablandim.

Tavfiq Alloh dandir va Alloh har bir tanglikda kifoya qiladi. Allohdan to'g'rilik va haqiqatga hidoyat qilishini so'rayman. Sayyidimiz, xotamul anbiyo, rasullar imomi Muhammad Mustafoga, u zotning ahli va sahobalariga qiyomat kuniga qadar salovot va salomlar bo'lsin!